O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

Z. M. BOBUR NOMLI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
BOSHLANG’ICH TA’LIM FAKULTETI

Pedagogika kafedrasi

UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTIDAN
(Laboratoriya va seminar mashg’ulotlarini olib borish bo’yicha)

METODIK QO’LLANMA

ANDIJON – 2014

Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan (laboratoriya va seminar mashgulotlarini olib borish bo'yicha) metodik qo'llanma.-Andijon, "Andijon" nashriyoti, 2014y.,285 bet.

Ushbu metodik qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2013 yil 26 dekabrdagi 507-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanidan tayyorlangan namunaviy o'quv dasturi, Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti kengashining 2013 yil 28 avgustdagi 1 – son majlisida tasdiqlangan mazkur fan uchun ishlab chiqilgan ishchi o'quv dasturi asosida hamda barcha ta'lim yo'nalishlari uchun tuzilgan o'quv rejasiga ko'ra pedagogika nazariyasi kursi bo'yicha laboratoriya, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat kurslari bo'yicha esa seminar mashg'ulotlari uchun ishlab chiqildi.

Mazkur metodik qo'llanma **"**Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanining "Pedagogika nazariyasi" kursidan laboratoriya, "Pedagogika tarixi" va "Pedagogik mahorat" kurslaridan esa seminar mashg'uoltlarini tashkil etish va o'tkazilishining amaliy-texnologik jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda nashg'ulotlarning tashkil etish mazmuni, o'ziga xosliklari va texnologiyasi yoritib berilgan. Bundan tashqari tayanch iboralar va ularning lug'aviy ma'nosi, ushbu fandan joriy (og'zaki) nazorat savollari, joriy (yozma) nazorat variantlari, talabalar bilimini reyting tizimi asosida joriy nazorat o'tkazish tartibi va baholash mezonlari, talabalarning fan bo'yicha bilimlari va o'zlashtirishlarini muntazam nazorat qilib borishni yo'lga qo'yish yuzasidan mualliflar tomonidan berilgan tavsiyalar, dars kuzatuvchisiga yo'riqnomalar ham qo'llanmada o'z aksini topgan.

Metodik qo'llanma pedagogika oily ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, mazkur qo'llanmadan pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi barcha mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar: Z.Azimova, Z.F.Azizova, M.Qurbonova, I.M. Sattarova.

Mas'ul muharrir: K.Turg'unboyev- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
Taqrizchilar: T.Hasanov - pedagogika fanlari doktori, proffesor;
A.Teshaboyev- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Metodik qo'llanma Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining 2014 yil _____yanvardagi_____ sonli yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir.

I.Karimov.

SO'ZBOSHI

Zamonaviy sharoitda mazkur fanni o'qitish o'qituvchi kadrlarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan ilg'or yutuqlar, umuminsoniy g'oyalar, milliy qadriyatlarga tayangan holda tayyorlash, ularda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarkib toptirish, tarbiyachi, o'qituvchi hamda yoshlar murabbiysi sifatida pedagogik jarayonlarni to'g'ri tashkil etish malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan.

Andijon davlat universiteti o'quv rejasiga ko'ra, pedagogika nazariyasi fanidan nazariy mashg'ulotlar (ma'ruza) bilan birga laboratoriya mashg'ulotlari, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat fanlaridan esa nazariy mashg'ulotlar (ma'ruza) bilan birga seminar mashg'ulotlarini o'tkazishni ham ko'zda tutilgan.

Har bir laboratoriya mashg'ulotlari o'quv jarayonining tuzilishiga mos holda talabadan bir nechta amaliy topshiriqlarni bajarishni talab etadi. Laboratoriya ishlanmalarida aks etgan topshiriqlarning ayrimlarini talaba uy vazifasi sifatida, qolganlarini individual va kichik guruhlarda ishlash orqali bajarishlari mumkin. Seminar ishlanmalarida esa aks etgan masalalarning ayrimlari guruhda muhokama etilsa, qolganlari mustaqil ishlash uchun uyga vazifa sifatida beriladi. Qo'llanmaning eng muhim jihati mashg'ulotlarning pedagogikaning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda tashkil etishga mo'ljallanganligidir.

Laboratoriya mashg'ulotlari talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga ularda dastlabki kasbiy malakalarni hosil qilish uchun imkoniyat yaratadi. Seminar mashg'ulotlari esa ma'ruzada berilgan ma'lumotlarni t'oldirish, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish uchun imkon beradi. Shu bilan bir qatorda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish talabalarning kelgusidagi pedagogik faoliyatlarini to'gri tashkil etish imkonini beradi.

"Pedagogika tarixi" talabalarni milliy pedagogik meros, turli tarixiy davrlarda shakllangan yosh avlod ta'limi va tarbiyasiga bo'lgan yondashuvlar mazmuni, jahon ta'limi tajribasi bilan tanishtirish asosida ularning umumpedagogik bilimlarini boyitadi. Talabalar milliy pedagogik meros namunalari bilan tanishish jarayonida ta'lim va tarbiya g'oyalarining shakllanishi muayyan davrda yuzaga kelgan ijtimoiy zaruriyat, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotiga bevosita bog'liq ekanligini anglab etadilar. Shu bilan birga ushbu fan talabalarda asrlar davomida shakllangan ta'limiy va tarbiyaviy qadriyatlarga nisbatan chuqur hurmatni qaror toptirish, an'anaviy va zamonaviy pedagogik ta'limotlarni qiyosiy o'rganish, yosh avlod tarbiyasida barcha davrlar uchun birdek amaliy qiymatga ega pedagogik g'oyalardan foydalanish ko'nikma-malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

"Pedagogik mahorat" fanidan talabalar ta'lim jarayonida ijodiy psixologik muhitni hosil qilish, o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratish orqali yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga doir zamonaviy pedagogik bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarning zarur hajmini, o'qituvchi shaxsda namoyon bo'lishi zarur bo'lgan umumiy kasbiy va shaxsiy fazilatlarni muvaffaqiyatli egallashlari lozim. Shuningdek, talabalar oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilar sifatida ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarini, uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlarining o'ziga xos jihatlarini anglay olishlari, shunga muvofiq kasbiy faoliyat yuksak mahorat bilan tashkil etish qobiliyati, madaniyatini o'zlashtirishlari lozim. Bakalavrlarning kasbiy tayyorgarligi, ularning

malakali, mahoratli o‘qituvchilar sifatida shakllanishlari nazariya va amaliyot birligi, umumiy va mutaxassislik fanlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, milliy va jahon pedagogikasining eng ilg‘or g‘oyalari uyg‘unligi, zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so‘nggi yangiliklariga tayangan holda ta’minlanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ushbu metodik qo’llanmani bugungi kun talabiga mos ravishda dars mashg’ulotlarini tashkil etish maqsadida yaratdik.

Mazkur qo’llanmada pedagogika nazariyasi kursi bo‘yicha 40 soat laboratoriya mashg‘ulotlari hamda pedagogika tarixi va pedagogik mahorat kurslari bo’yicha 42 soat seminar mashg’ulotlari ishlanmasi va uni o‘tkazishga doir metodik ko‘rsatmalarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash reyting (100 ballik) tizimi asosida amalga oshiriladi.

Ushbu metodik qo’llanmada fan o’qituvchilari mashg’ulotlarni olib borishlarida berilayotgan ma’lumotlardan ko’rgazmali qurol sifatida yoki taqdimot ko’rinishida foydalanishlari mumkin. Mavzular rejalarini yoritishda berilgan ma’lumotlar talabalar tomonidan uy vazifasini topshirishlari jarayonida aytib o’tilsa, bunday holatda o’qituvchi vaqtni tejash maqsadida ushbu rejaga to’xtalmay o’tkazib yuborishi mumkin. Biz mavzulardagi har bir rejani imkon qadar yoritishga harakat qildik. Albatta, ishimiz kamchiliklardan holi emasligi tabiiy, shu ma’noda bu boradagi taklif- mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanidan laboratoriya mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo’yicha taqsimlanishi.

№	Mavzular	Ajratil gan soat
	II KURS	**Lab-ya**
	III-semestr	
	Pedagogikaning umumiy asoslari	
1.	**O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim tizimi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli**.	
1.1	O’zbekistonda shakklangan ta’ lim tizimini isloh etish modeli.	2
2.	**Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.**	
2.1	Pedagoglik kasbi va uning vazifalari.	2
3.	**Pedagogika fan sifatida. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari.**	
3.1	Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.	2
4.	**Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.**	
4.1	O’quvchi shaxsi tarbiyaning ob’yekti va sub’yekti sifatida.	2
5.	**Yaxlit pedagogik jarayon.**	
5.1	Ta’lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.	2
	Ta’lim nazariyasi	
6.	**Didaktika-ta’lim nazariyasi sifatida. Ta’lim mazmuni.**	
6.1	Talim jarayonining umumiy mohiyati.	2
7.	**Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni.**	
7.1	Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyati bilan tanishish asosida o’rta-maxsus,kasb-hunar talimi mazmunini ifodalash.	2
8.	**Ta’lim metodlari va vositalari.**	
8.1	Talim jarayonida zamonaviy metod va vositalardan foydalanish.	2
9.	**Ta’lim shakllari. Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli.**	
9.1	O’qituvchining darsga tayyorgarligi. Dars tahlili, uning turlari va vazifalari.	2
10.	**Ta’limni tashxis etish.**	
10.1	O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash jarayonini tashkil etish.	2
	Jami	**20**
	IV-semestr	
	Tarbiya nazariyasi	
11.	**Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya tamoyillari.**	
11.1	Komil inson,malakali mutaxassisni tarbiyalash-bosh ijtimoiy maqsad.	2
12	**Tarbiya metodlari.**	
12.1	Tarbiya metodlarining tavsifi. Sinf rahbari(kurator)ning ma’ naviy-marifiy ishlar rejasini loyihalashtirish.	2
13.	**Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. O‘quvchilarni aqliy, iqtisodiy va ekologik tarbiyalash.**	
13.1	O’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.	2

14	**Fuqarolik tarbiyasi. Huquqiy tarbiya.**	
14.1	Ta’lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish.	2
15	**O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash. Oila tarbiyasi.**	
15.1	SHaxsda ma naviy-ahloqiy sifatlarni tarbiyalash.	2
15.2	Oilaga pedagogik yordam ko’rsatish.	2
16	**Mehnat tarbiyasi. O‘quvchi shaxsini rivojlanishida, jismoniy va estetik tarbiyaning o‘rni.**	
16.1	O’quvchilarni jismoniy tarbiyalash.	2
17.	**Ta’lim muassasasi menejmenti.**	
17.1	Ta’lim muassasalari faoliyatini innovatsion boshqarish loyihasini ishlab chiqish.	2
17.2	Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida metodik ishlar mazmuni yuzasidan axborot tayyorlash.	2
18	**Korreksion (maxsus) pedagogika.**	
18.1	Turli toifadagi ijtimoiy yordamga muhtoj o’quvchilar bilan ishlash.	2
	jami	**20**
	Fan boyicha umumiy soatlar soni	**40**

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fani bo’yicha bajariladigan laboratoriya ishlarini bajarish yuzasidan talabaga

E S L A T M A

Laboratoriya mashg’ulotining birinchisida talaba tomonidan butun mashg’ulotlar davomida bajariladigan amaliy ishlar, maqsad va vazifalari, ularning tartibi, mazmuni, mustaqil egallash zarur, bilim ko’nikma va malakalar xarakteri bilan tanishtiriladi.

So’ngra shu mashg’ulotda keyingi mashg’ulotlar davomida bajariladigan ishlar mavzulari va ularni qaysi talabalar amalga oshirishi belgilab chiqiladi. Har bir mashg’ulotga mustaqil tayyorlanish yuzasidan zarur uslubiy ko’rsatmalar, adabiyotlar va navbatdagi mashg’ulot uchun nazariy manbalar bilan qurollanib kelishi yuzasidan maslahatlar, amaliy yordam beriladi.

Bunday tartib, talaba uchun eng kami bir hafta davomida puxta va atroflicha tayyorlanib kelishga zarur bo’lsa, ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida dars o’tayotgan viloyatimizdagi o’quv yurtlarida ishlayotgan o’qituvchilar ish tajribalari bilan bevosita tanishish, maslahatlar olishga imkon beradi.

Har bir talabaning o’ziga taqsimlangan mashg’ulot yuzasidan konspekt-stsenariya tuzishida nazorat savollari, tayanch iboralarini aniqlash, test topshiriqlari tayyorlash, nazorat me'zonlarini ishlash va ulardan foydalanish (nazorat savollari, nazorat topshiriqlari, ma'lum o’lchamlar, o’xshash javoblar orqali nazorat va h.k.)ga e'tibor beriladi.

Ishning bajarilish tartibi

Mashg’ulotning boshida o’qituvchi talabalarni bajariladigan ish mavzusi, maqsadi, ushbu materialni o’rganish uchun zarur adabiyotlar, ishlanmalar bilan tanishtiradi.

Berilayotgan nazariy ma’lumotlar talabalarga tarqatma material ko’rinishida yoki taqdimot (prezentatsiya) qilib berilishi mumkin.

Agarda mashg’ulot davomida biron-bir yo nazariy, yo uslubiy, yo o’quv kamchiliklar sodir bo’lsa, pedagog kerakli ko’rsatmalarni beradi, tuzatishlar kiritadi va shu tariqa mashg’ulot davom ettiriladi.

Ish bajarilib bo’lgach, pedagog har bir talaba faoliyatiga erkin fikr bildirish yo’li bilan baho beriladi va reyting jurnaliga kerakli baholarni qo’yadi.

Bajarilgan ishga hisobot yozish va uni himoya qilish

Har bir talaba navbatdagi mashg’ulotni bajarishga kirishishdan avval oldingi darsda bajarilgan laboratoriya ishi yuzasidan o’z hisobotlarini ko’rsatishlari zarur. Hisobotni yozishda har bir laboratoriya mashg’ulotiga ishlanmaning oxirida berilgan ko’rsatmaga amal qilinadi, hisobot yuzasidan himoyaga alohida vaqt belgilab qo’yiladi. Hisobotning belgilangan tartibda, butun semestr davomida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bajarilgan ishlar yuzasidan o’z vaqtida hisobotni yozib, uni muvaffaqiyatli himoya qilgan har bir talaba eng yuqori ball bilan baholanadi va umumiy baholashda hisobga olinadi.

1-LABORATORIYA ISHI.

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim tizimi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli. O’zbekistonda shakllangan ta’ lim tizimini isloh etish modeli (2-soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning asosiy tarkibiy qismlari.
2. Uzluksiz ta’lim tizimi mohiyatini yorituvchi jadvalni shakllantirish.Uzluksiz ta’lim turlari.
3. Sxema asosida maktabdan tashqari ta’limni amalga oshiruvchi muassasalar tizimini yaratish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuda doir testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari.

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1.O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning me’yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etishini o‘rganish va tahlil etish.
2.Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatib berish.
3.O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va turlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4.Kichik guruhlarda ishlash: «O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining afzalligi va o‘ziga xosligi shundaki...» mavzusida asoslangan esse yozish hamda taqdimot qilish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ta’lim tizimi va turlarining o‘ziga xosliklari haqida aniq fikr yurita olish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1.O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning me’yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etishi masalasining bayoni yuzasidan talabalarga zarur ko‘rsatmalar berish.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligi yoritilgan chizmani taqdim etish va talabalarni chizmaga izoh berishga yo‘naltirish.
3.Talabalarga O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tazimi va turlariga doir amaliy topshiriqlarni taqdim

etish va ularni bajarishga doir tushuntirish berish.
4. Talabalarning kichik guruhlardagi ishini tashkil etish va boshqarish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi asosiy me’yoriy hujjatlari - «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini tushuntirib beradilar.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlarining vazifalarini bayon etishadi hamda ularning bir-biri bilan bog‘liqligini izohlaydilar.
3. «Ta’lim tizim» va «ta’lim turlari» tushunchalarining alohida mazmunga egaligini farqlashadi; O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va turlari haqida aniq ma’lumotga ega bo‘ladilar.
4. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining afzalligi va o‘ziga xosliklarini qiyoslaydilar va umumiy xulosaga keladilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

“Ta’lim to’g’risida”giQonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to’g`risidagi qonunlarning bajarilishi. Kamchiliklar va muammolar.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning yaratilishida mazkur jihatlar to’la o’rganildi. Milliy dastur asosini O’zbekistonning taraqqiyotini ta’minlay oladigan, uni jahonning ilg’or mamlakatlari darajasiga ko’tarilishiga hissa qo’shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifatlarga ega bo’lgan kadrlarni tayyorlab voyaga yetkazish jarayonini tashkil etadi.

Xo’sh, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qanday hujjat? Uning mazmunida qanday g’oyalar ifoda etilgan?

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g`risida»gi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g`ri ola bilish mahoratiga ega bo’lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo’naltirilgandir.

«Kadrlar tayyorlash milliv dasturi»ning maqsadi — ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to’la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Prezident I.A.Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida: “O’zbekistonda qabul qilingan ta’lim sohasini isloh etish va malakali kadrlar tayyorlash dasturini amalga oshirish bo’yicha o’tgan davrda bajarilgan ishlarni bugun qandaydir o’lchov va raqamlar bilan baholash juda qiyin, desam, o’ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo’shilasiz”,-deya e’tirof etgan. Darhaqiqat, mustaqillikka erishganimizdan buyon turli sohalarda, xususan ta’ilm sohasida juda ko’p yutuqlarga erishdik.

Ta’lim to’g’risida”gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish bosqichlari.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda muayyan vazifalarning hal etilishi nazarda tutiladi.

Ushbu vazifalar quyidagilardan iboratdir:

Birinchi bosqich (1997—2001 -yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001 —2005-yillar) — Milliy dasturni to’liq ro’yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to’ldirish ta`minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichida ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlash *uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish vazifalarining ham hal etilishiga alohida urg`u beriladi.*

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Bu bosqichda, shuningdek:

- ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;
- o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta`minlanishi;
- milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qarorto'tirish va rivojlantirish;
- ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog`iga ulanadigan komputer axborot tarmog`i bilan to'liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy yechimi ta`minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» tarkibiy tuzilmasi quyidagicha aks etadi *(1-chizma):*



Chizma. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning mohiyati va tarkibiy tuzilmasi.
"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish bosqichlari.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqariladi.

1-bosqich. (1997-2001 yillar) Tizim faoliyatiga baho berishning reyting va monitoring asoslarini yaratish. Mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijodiy salohiyatini saqlagan holda tizimni isloh qilish uchun huquqiy, ilmiy, uslubiy, moliyaviy, moddiy sharoit yaratish.	**2-bosqich. (2001-2005 yillar) Mehnat bozorini hisobga olgan holda tizimga aniqlik kiritish, ta'lim oluvchilar qobiliyatlarini hisobga olib, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish.** **Ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan to'ldirish va ular faoliyatida raqobat muhitini yaratish.**

Pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashni zamon talabi darajasiga olib chiqish: ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasini belgilovchi davlat standartlarini yaratish; ta'lim jarayoni uchun uslubiy, didaktik va axborot tahminotining yangi avlodini yaratish va joriy etish.	**Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash Ta'limga xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirish.**
Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini va kadrlar bilan tahminlanishini takomillashtirish; tizimni mablag` bilan tahminlashni yanada takomillashtirishning raqobatga asoslangan muhitini yaratish.	**3-bosqich: (2005 va undan keyingi yillar) To'plangan tajribani umumlashtirish asosida mamlakat istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish; ta'lim muassasalarining resurslarini; kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash; yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan to'liq tahminlash. Ta'limni axborotlash, uni jahon axborot tarmog`i (Internet)ga ulash.**

4. Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Shaxs miliy dasturning bosh sub'yekti.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari. Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi:



Chizma. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog`liqlik.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh obhekti va subyekti	**Davlat va jamiyat. Ta'lim olishni yuridik jihatdan kafolatlash**	**Uluksiz ta'lim. Uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimining asosiy poydevori**

Ta’lim tizimining istehmolchisi va amalga oshiruvchisi	**Davlat va jamiyat ta’lim tizimining ochiq bo’lishini va o’zgarishlarga moslashuvini tahminlaydi Ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini tartibga solish, boshqarish va nazorat**	
Ta’lim olish, kasbga tayyorgarlik ko’rish kafolatlanganligi	**Rejalashtirishni amalga oshirish va tashkil etish**	**Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tahminlovchisi**
Davlat ta’lim standarti talablarini bajarish	**Moddiy va mahnaviy jihatdan tahminlash**	**Iqtisodiy va ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarni qondirish**
O’z bilimi va tayyorgarlik darajasiga bog`liq faoliyat ko’rsatish.	**Tayyorlangan kadrlari qabul qilish va ish bilan tahminlashni kafolatlash. Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratish**	**Shaxs mahnaviy, axloqiy kamoloti va istehdodini rivojlantirish**
Ta’lim standartlari darajasida sifatli ta’lim olish, ta’lim olish turini tanlash, malaka oshirish huquqidan foydalanish.		

Fan	**Ishlab chiqarish.**
Mutaxassislikning fundamental asoslarini berish.	**Kadrlarga bo’lgan ehtiyojlarni aniqlash.**
Mutaxassislikning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish. Mutaxassisliklarning ilmiy-amaliy va metodik asoslarini yaratish.	**Kasbiy malaka-mahorat turlari darajasida talabni belgilash. Kadrlarni istehmol qiluvchi asosiy buyurtmachi.**
Ilg`or pedagogik va psixologik asosga tavsiflar berish.	**Kadrlar tayyorlashni moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan tahminlash ishtirokchisi.**

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir: Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning istepmolchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Ta’lim xizmatlarlning istepmolchisi sifatida shaxsga davlat ta’limini olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o’tish kafolatlanadi. Ta’lim olish jarayonida shaxs davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Davlat va jamivat ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o’zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma`naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o’rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o’z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro’yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim.

Respublika ta’lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o’zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish maspuliyatini o’z zimmasiga

oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston respublikasidagi ta'lim turlari



MASHG'ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalardan mashg'ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so'raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra

berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. **Quyidagi chizmaga e'tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi.**



2-topshiriq. «O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlari» mavzusiga oid.

Quyida keltirilgan jumlalar bilan tanishing. Ularni mos ravishda jadvalning kerakli ustunga yozib qo'ying.

1. Beshta bo'lim, o'ttiz to'rt moddadan iborat.
2. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish masalasi.
3. Shaxs.
4. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozrini rivojlantirish.
5. Fan.
6. Ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi.
7. Bilim olish huquqi.
8. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish.
9. Ishlab chiqarish.
10. Halqaro hamkorlik.
11. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi.
12. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun	Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi	Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari

2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlariga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Quyida keltirilgan jumlalarni davom ettiring.

1. O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganidan qatiy nazar...
2. Davlat ta'lim standartlari...
3. Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:...
4. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:...
5. O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:...
6. Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar...
7. Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash....
8. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan

bolalarni o‘qitish va ularni boqish...
9. Davlat ta’lim muassasalarini moliyalash...
10. Nodavlat ta’lim muassasalariga qabul...
11. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:...
12. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingai rivojlantirish yo‘li bilan...

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

1.... aniq mutaxassislik bo‘yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.
2. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim... turda amalga oshiriladi.
3.... bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi.
4.Davlat ta’lim standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha... uchun majburiydir.
5.... yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlaydi.
6. ... o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltarilgan bilim olishlarini ta’minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus o‘quv yurtidir.
7. ... o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minlaydigan uch yillik o‘rta kasb-hunar o‘quv yurtidir.
8. ... umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan.
9.... bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.
10. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi yagona va...
11. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi ... tomonidan belgilanadi.
12. Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni ... asosida olishga haqlidirlar.

3-topshiriq. «O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining afzalligi va o‘ziga xosligi shundaki...» mavzusida asoslangan esse yozing.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o‘z nuqtai nazaringizni bayon eting.
2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.
3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

3. Pedagogik vaziyatni tahlil qiling:

«Kimyo fani o’qituvchisi mening sevimli o’qituvchim edi. U o’zining fanini juda yaxshi bilar va har bir darsda qandaydir yangilikni yetkazishga harakat qilardi. U bizga gapirib berayotgani uning bilimining kichik bir bo’lakchasi ekanligi sezilib turardi. Ilgari kimyo faniga qiziqmagan ko’pgina o’quvchilar ham bu fanga qiziqib qolishdi va kimyo to’garagiga qatnay boshlashdi. U har bir o’quvchiga e`tibor bilan qarardi. Uning sevimli o’quvchilari borligi, ularga qo’yilayotgan talabning kattaligidan sezilib turardi. VIII sinfda biz u bilan fan yuzasidan bahslashish darajasiga yetdik. Har qanday holatda ham u g’olib chiqardi. Agar o’quvchilar u bilan teng bahslasha olsalar yoki g’olib chiqsalar o’qitiuvchimiz juda xursand bo’lardilar».

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. O’quvchining sevimli o’qituvchisi haqidagi hikoyasini tahlil qiling. O’qituvchi muvaffaqiyatining sababi nimada deb bilasiz?
2. Kimyo o’qitish davomida u qanday usullardan foydalangan?

4. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi).

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifni va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (232 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi asosiy me’yoriy hujjatlari - «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari bilan tanishish hamda tahlil etish («Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobining 20-60 betlari).

2. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlari (Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining 3-bo‘lim, 3.1; 3.2; 3.3; 3.4; 3.5 bandlari)**ning vazifalarini ajratib o‘rganish.**

3.O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va turlari («Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 9-10-11-12-13-14-15-16-17-18-19 moddalari)**ni o‘rganish va konspekt qilish.**

4. Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mashg’ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti”, “Nilufar guli”, “Bumerang, Klaster”, “Charxpalak”, “Qarorlar shajarasi”, “Venn diagrammasi”, “Keys stadi”, “Qanday”, “Nima uchun”.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

2-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.
Pedagoglik kasbi va uning vazifalari (2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Pedagoglik kasbining mohiyati. Sharq mutafakkirlari va G‘arb pedagoglari tomonidan pedagoglik kasbi ijtimoiy ahamiyatining baholanishi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov o‘qituvchining ijtimoiy jamiyatdagi o‘rni haqida.
3. O‘qituvchining burch va majburiyatlari, kasbiy sifatlari, pedagog odobi, o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblari bilan muloqoti.
4. Pedagogga xos ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zida ask ettiruvchi “Zamonaviy pedagog portreti”ni yaratish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuda doir testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Pedagoglik kasbining mohiyati, Sharq mutafakkirlari va G‘arb pedagoglari tomonidan pedagoglik kasbi ijtimoiy ahamiyatining baholanishini o‘rganish va tahlil etish.
2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov o‘qituvchining ijtimoiy jamiyatdagi o‘rnini yoritib bering.
3. O‘qituvchining burch va majburiyatlari, kasbiy sifatlari, pedagog odobi, o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblari bilan muloqotiga doir bilimlarni o‘rganish va tahlil etish.
4. Pedagogga xos ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zida ask ettiruvchi “Zamonaviy pedagog portreti”ni yaratish va shu asosida esse yozish hamda taqdimot qilish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi: O’qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyati borasidagi tushunchalarini tahlil qilish va baholash.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. Pedagoglik kasbi bilan bog‘liq tushunchalarni va demokratik jamiyatda pedagog rollarining namoyon bo‘lishini ajratib ko‘rsatish.
2. Sharq va G‘arb pedagoglarining pedagoglik kasbiga doir qarashlarini talabalarga taqdim etish va ularni tahlil etishga yo‘naltirish.
3. Pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o‘zlashtirishga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etish va ularni bajarishga doir tushuntirish berish.
4. Talabalarni esse yozishga doir zaruriy ko‘rsatmalar bilan qurollantirish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o’quv-bilish faoliyati):

1. Pedagoglik kasbining paydo bo‘lishini o‘rganishadi hamda pedagoglik kasbi bilan bog‘liq tushunchalar (kasb, mutaxassislik, pedagogik mutaxassislik, pedagog, pedagogik malaka) va demokratik jamiyatda pedagog rollari(fasilitator, tyutor, ingilator)ning namoyon bo‘lishini bilib olishadi,
2. Sharq va G‘arb pedagoglarining pedagoglik kasbiga doir qarashlarini o‘rganadilar.
3. Pedagogning shaxsiy (e’tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik tuyg‘usi) va kasbiy (vijdonlilik, adolatparvarlik, mas’uliyat hissi, fidokorlik, pedagogik layoqat) sifatlarni o‘zlashtiradilar.
4. O‘z ideallarida pedagog timsolini yaratishadi va pedagoglik kasbiga barqaror qiziqish yuzaga keladi.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g‘oyalarini amaliyotga tadbiq etish Respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi zarur?

O‘qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta’lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o‘qituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘la olishi kerak (so‘z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o‘qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifa, burch va mas’uliyatlarini ifodalaydi):

O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o‘zlashtirib olishga erishishlari lozim.

O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to‘g‘riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so‘zlaridan holi bo‘lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so‘zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o‘zga millatlarga xos so‘zlarni noo‘rin qo‘llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so‘kishda qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rni bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy so‘zlardan foydalanish) so‘zlardan holi bo‘lishi, o‘qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli va samarali foydalana olish).

O‘qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o‘zlashtirishga erishishi.

O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi lozim.

O‘qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq,

vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O‘quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to‘la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so‘zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o‘quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o‘qituvchining so‘zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylik, do‘stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida malakali (mahoratli) o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mahoratli o‘qituvchilarni aniqlash maqsadida turli ko‘rik, tanlovlar tashkil etilmoqda. Xususan, «Yil o‘qituvchisi» Respublika ko‘rik-tanlovi ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarga pedagogik mahoratlarini individual ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo‘lsa, «Yil maktabi» Respublika ko‘rik-tanlovi o‘qituvchilarga jamoa asosida ta’lim muassasasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko‘rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda.

Shuningdek, respublika miqyosida pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo‘lga kirita olgan o‘qituvchilar ta’lim sohasida nufuzli sanaluvchi davlat mukofoti – O‘zbekiston Respublikasi Xalq o‘qituvchisi ko‘krak nishoniga sazovor bo‘lmoqdalar.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish joizki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O‘zbekiston respublikasida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohalar mazmunini o‘zida aks ettirgan muhim yuridik hujjat bo‘lib, istiqbol uchun yo‘llanmadir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da alohida ta’kidlangan milliy model O‘zbekiston Respublikasining milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg‘or fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr (mutaxassis) – komil inson va yetuk mutaxassis qiyofasini o‘zida to‘laqonli aks ettiruvchi namunadir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g‘oyalarining amaliyotga tadbiq etilishi O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayoti uchun muhim sanalgan bir qator holatlarning qaror topishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g‘oyalarini amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi kadrlar muhim rol o‘ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o‘qituvchilarning o‘rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma’naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo‘la olishi maqsadga muvofiqdir.

MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg’uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og’zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma’lumotlarni o’rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So’ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

<u>Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.</u>

1-topshiriq. Quyida keltirnlgan qatra(o‘ylar)lar bilan tanishing va ularni juftliklarda muhokama qiling.

Dehqon va muallim (O‘tkir Hoshimov)

Dehqon nopob urug‘ sepsa, achchiq «hosili»ni bir o‘zi «o‘rib oladi». O‘sha yili.

O‘qituvchi bolaning qalbiga nobop urug‘ sepsa, achchiq «hosili»ni butun jamiyat o‘rib oladi. Yigirma yildan keyin...

Muallim moddiy boylik yaratmaydi, deydiganlar jamiyatni ichidan portlatuvchi bombadir!

Ustoz (O‘tkir Hoshimov)

Ustoz otangdek ulug‘, deganlari bejiz emas. Ota hayot beradi. Ustoz esa yashashga o‘rgatadi. Tug‘ilishdan ko‘ra yashash qiyinroq....

Charxpalak (O‘tkir Hoshimov)

Maktabimiz biqinidan ariq oqardi. Arikda charxpalak bor edi. Katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko‘rardim... Yog‘och gardishi ko‘hna, temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko‘kimtir suv o‘tlari yopishgan... Birov yolg‘ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek... Charxpalak nolali chiyqillab aylanadi. Kiftida suv ko‘tarib yuqoriga olib chiqadi... Tepaga chiqib olgan suvi ortga qaytmaydi... Charxpalak ham bunga ranjimaydi. Yangidan-yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi... Nolali g‘iyqillaydi...

Oradan ko‘p yillar o‘tib, o‘sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo‘ldi. Nega shunday bo‘lganini uzoq o‘yladim...

So‘ng... Bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qumsar ekanman.

Suv - suv emas, men ekanman! Charxpalak - charxpalak emas, o‘qituvchilarim ekan!

Meni - bir tomchi suvni katga hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan ustozlarim - charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?.. Bilmadim.

...Ko‘hna charxpalak hamon tushlarimga kiradi...

2-topshiriq. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining pedagoglik kasbiga doir qarashlarini o‘rgannshga doir BLITS-o‘yin

O‘yinni o‘tkazish tartibi:

1) Talabalarga jadvalning chap tomonida berilgan tushunchalar bilan tanishib chiqish taklif etiladi;
2) Dastlab individual ravishda tushunchalarga mos javobni o‘ng tomondagi fikrlar orasidan tanlab, tartiblangan raqamini «indiv. javob» ustuniga (masalan, «1» raqamli tushunchaga «10» raqamdagi javob) yozish so‘raladi;
3) So‘ngra xuddi shunday tartibdagi ish kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Ya’ni, «guruh javobi» ustuni to‘ldiriladi. Kichik guruh a’zolarida mazkur ustunga yozish uchun yagona javob bo‘lishi lozim;
4) O‘qqituvchi to‘g‘ri javoblarni o‘qiydi. Talabalar o‘zlariga berilgan qog‘ozning «kalit» ustuniga javoblarni yozib chiqishadi.
5) Talabalar mustaqil ravishda kalitga asoslanib, «individual xato» va «guruh xatosi» ustunlarini to‘ldiradi. Har bir talabaning va kichik guruh natijalari tahlil etiladi.

Fikrlar	Guruh javobi	Guruh xatosi	Kalit	Indiv xato.	Indiv javob.	Pedagog-olimlar
Ustoz shogirdiga zug‘um qilishga, ko‘p hollarda yon berishga intilmasligi kerak						Alisher Navoiy
Ilm beruvchining ovozi tinglovchi-larning hamma-siga eshitilarli, me’yorida bo‘lishi kerak						Abu Nasr Forobiy
Mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.						Imom Al-Buxoriy
Yaxshi o‘qituvchi o‘quvchilarga tayyorini ber-aydi,tushun-irshpga o‘rgatadi						Abu Ali ibn Sino
Bolalar bilan						Adolf

muomalada bosiq, jidsiy bo‘lish lozim						**Disterverg**

3. Pedagogik vaziyatni tahlil qiling:

Yosh o’qituvchini IX V sinfga sinf rahbari etib tayinladilar. Bu ancha murakkab bo’lgan va yaqinda tashkil topgan sinf edi. Sinf jamoa bo’lib uyushmagan, o’quvchilar tarqoq edi. Sinf rahbari ularni sinf va maktab ishlarini bajarishga chorlash bilan uyushtirishga harakt qildi. Bunga kuzgi ekskursiya ham yordam berdi. Bu o’qituvchiga har bir bolaning qiziqishi va imkoniyatini bilishga sharoit yaratdi. Sinfda tashkil etilgan xar bir tadbir o’zaro sog’lom munosabatlarni o’rnatishga, yuqori sinf o’quvchilarining jamoadan talablarini qondirishga qaratilgan edi. Sinf o’quvchilaridan biri o’z inshosida shunday yozadi: «Men sinfga faqat o’qish uchun bormayman. Bu yerda mening doimo yordamga tayyor bo’lgan do’stlarim bor. Ilgari mening faqat ko’chada do’stlarim bor edi. Ular bilan juda ma`nisiz xayot kechirgan ekanman. Meni unday hayotdan sinfim olib chiqdi. Men go’zallikni qadrlashga, odamlarni sevishga, ularning mehriga ishonishga, o’z hatti-harakatim uchun javob berishga o’rgandim. Men sinfimga biror -bir ziyon etkazishdan xavotirlanaman».

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. Yosh o’qituvchi faoliyatini tahlil qiling. Ancha tarbiyasi murakkab bo’lgan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb uylaysiz?

4. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi**).**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifbi va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (232 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. **Pedagoglik kasbining paydo bo‘lishi hamda lug‘at** (Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. -T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008) **yordamida pedagoglik kasbi bilan bog‘liq tushunchalar** (kasb, mutaxassislik, pedagogik mutaxassislik, pedagog, pedagogik malaka) **va demokratik jamiyatda pedagog rollari (fasilitator. tyutor. Ingilator)ning namoyon bo‘lishini o‘rganish.**
2. **Pedagogika tarixiga doir o‘quv adabiyotlari** (K.Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T.: «O‘qituvchi», 1996) bilan tanishish orqali Sharq va G‘arb pedagoglarining pedagoglik kasbiga doir qarashlarini o‘rganish va tahlil etish.
3. **«Zamonaviy pedagog shaxsi modeli» bilan tanishish hamda har bir sifat va xususiyatga izoh yozish.**
4. **«Mening idealimdagi pedagog» mavzusida o‘n minutlik esse yozish.**

Esse - bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo‘lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

O‘n minutlik esseni yozish qoidalari:

1.Taklif etilgan mavzuga doir so‘zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo‘lishi mumkin.

2. «Pedagog deganda ko‘z oldimga ... keladi», «Mening fikrimga ko‘ra pedagog ... bo‘lishi kerak», «Zamonaviy pedagog ... kabi sifatlarga ega bo‘lishi kerak» kabi jumlalardan foydalaning.

3. O‘zingiz havas qilgan, siz uchun ideal bo‘lgan ustozlaringizdan biri misolida orzuingizdagi pedagog timsolini gavdalantiring.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mashg'ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

5. Mavzuga oid ko'rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko'rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko'rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog'liqlikda chizma, jadval, rasmni qo'lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko'rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o'yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

3-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Pedagogika fan sifatida. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari (2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning mohiyati.
2. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik, aniq maqsad kabi hususiyatlarga ega bo'lgan jarayon.
3. Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarni samarali bo'lishi shartlari.
4. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg'ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aniqlash..
2. Nazariy ma'lumotlar to'plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuda doir testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o'tish.
6. Talabalarni mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).
4. Metodik ta'minotlar: plakatli ko'rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma'lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg'ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyati natijalari.

Laboratoriya mashg'ulotining tuzilishi:

1. Pedagogika fanining paydo bo'lishi hamda pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini o'rganish.
2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini o'rganish va tahlil etish.

3.Pedagogikaning ilmiy-tadiqot metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. Ochiq va yopiq javobli anketa tuzish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning pedagogika fanining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, pedagogika fanining metodologik asoslariga doir bilimlarini mustahkamlash hamda ularda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanishga doir ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (profeseor-o‘qituvchi faoliyati):

1. «Pedagogika» tushunchasining kelib chiqishi, pedagogika fanining ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalari haqida konkret bilim va tasavvurlarni shakllantirish.
2. Talabalar tomonidan pedagogikaning asosiy kategoriyalari va ularning mohiyatini o‘zlashtirilishiga erishish.
3. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlarini o‘zlashtirishga doir amaliy topshiriqlarni taqdim etish va ularni bajarishga doir tushuntirish berish.
4. Talabalarni ochiq va yopiq javobli anketalar tuzishga doir ko‘rsatmalar bilan qurollantirish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. «Pedagogika» tushunchasining kelib chiqish tarixini o‘rganishadi hamda pedagogika fanining ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini bilib oladilar.
2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari (ta’lim, tarbiya, ma’lumot, shakllanish, rivojlanish)ni o‘rganadilar.
3. Pedagogikaning nazariy (analiz, sintez, klassifikatsiyalash, strukturalash, modellashtirish, ta’lim muassasasi hujjatlarini o‘rganish) va empirik (anketa, pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik eksperiment)dan foydalanish ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtiradilar.
4. Ochiq va yopiq javobli anketalar tuzish orqali dastlabki tadqiqotchilik ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Pedagogika “paydogogos-grekcha” “bola” va “etaklash” ma’nosini bildiradi. Insonni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat hamda ta’lim-tarbiyaning mazmuni, shakli va usullari haqidagi fan. U yosh avlodni va kattalarni tarbiyalash haqida bahs qiladi. U ta’lim-tarbiyaning umumiy qonunlarini ishlab chiqib, hayotga tadbiq qilish masalasini o‘rganadigan fan deb ta’riflash mumkin. Kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi bilan odamlarda mehnat qurollarini ishlata bilish qobiliyati, mehnat malakalari, nutq va tafakkur o‘sib, kamol topib boradi.

Pedagogika avval tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadigan falsafa fani tarkibidan ajralib chiqib fan sifatida taniladi.

Pedagogika fanining predmeti, o‘qitishning ta’lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo‘lganligi uchun uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Pedagogika boshqa rivojlangan fanlar qatori o’zining alohida predmetiga, nazariy prinsiplariga ega va alohida tadqiqot metodlarini biluvga tortilgan obpektiv voqelikning o’ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini xisobga olgan holda qo’llaydi.

Dastlab pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati, ularning mantiqi, metodologik tavsifi bilan bog`liq quyidagi masalalar aniqlashtirilmog`i lozim:

- pedagogikaning nazariy tadqiqotlari samarasini oshirish;
- pedagogik tajribani o’rganish va natijalaridan foydalanish;
- pedagogik tajriba-sinov, uning mohiyatini, metodikasini oydinlashtirish;
- fan yutuqlarini ta’lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish muammolari;
- tarbiyaga yaxlitlikda yondashish, bunda mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati;
- pedagogika fanini milliy va umuminsoniy tajribalar asosida rivojlantirishning metodologik jihatlari va b.

Pedagog nazariyotchilar zamonaviy ilmiy taraqqiyot "dumi"ga osilib qolmasligi, aksincha, uning oldingi safida bo’lishi lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ana shuni taqozo etya`pti.

Demak, mavjud "bilimlar" bilan yashash, zamonaviy talab va ehtiyojlarga befarq qarash mumkin emas.

Bunday sharoitda tabiiyki, "tayanch" nuqta amaliyot bo'lishi lozim, ya`ni zamonaviy o'zbek ta'limi holati — haqiqiy haqiqat mezoni hisoblanadi. Amaliyot ta`siri ostida nazariya ilmiy kashfiyotlarning asosiy omiliga aylanadi. Faqat keng va har tomonlama tashkil etilgan amaliyotgina faoliyatning kamchiligini va yetilmaganligini hamda ayni vaqtda pedagogik voqelikni bilishga hizmat qiladi.

Bu sohadagi vaziyat umumiy ijtimoiy hayotdagi barcha muammodar qatori murakkab va bir xilda emas. Milliy dasturni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarni inkor etish insofdan bo'lmaydi: moliyaviy, ma`naviy, tashkiliy, mafkuraviy va boshqalar. Biroq asosiy eptibor quyidagiga qaratilishi zarur**:** «mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilishning tarixiy ahamiyati — bu ta'limning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks etgan — "inson, uning hayoti, erkinligi, sha`ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi» (23-modda) — prinsipga amal qilgan xolda insoniylikka yo'naltirilganidir. Insoniy ustuvorlik ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsipi sifatida O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g`risida"gi qonunida ham o'z ifodasini to'liq to'gan: "Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi" (3-modda).

Xo'sh, pedagogika fani uchun bu nimani anglatadi?

Prezident Islom Karimov iborasi bilan aytganda, "bitiruvchi"ni tayyorlashdan "erkin shaxs "ni shakllantirish (rivojlantirish)ga o'tish, buning uchun zaruriy tashkiliy, metodologik, metodik shart-sharoitlarni yaratishni uqtirishni ta`kidlash joiz. Erkin fikrga ega inson, ma`lumotli shaxs nafaqat ijtimoiy tizim ichida harakatlanadi, balki uni o'zgartirishda ham faol bo'ladi. U olam va odam munosabatlarini umuminsoniy qadriyatlar kontekstida qabul qiladi.

Qator o'qituvchilarimiz pedagogik g`oyalar targ`ibotchisiga aylanishdi, endi an'anaviy o'qitish tizimi o'z o'rnini yangi pedagogik tizimga bo'shatib berya`ti. Pedagogik amaliyotning turli tomonlarini qamrab olayotgan kuchli innovatsion impuls harakati davom etmoqda: ta'lim mazmunini yiriklashtirish, natijalarini oldindan belgilash, o'qitishni psixologiyalashtirish, kompyuterlashtirish, interfaol o'qitish va tarbiya metodlari, ta'limni boshqarishga qaratilgan yondashuvlar vujudga keldi.

Pedagogika sohasidagi tadqiqot ishlari ko'lami uzluksiz kengayib borya`ti, uning alohida to-monlarini yoritishga harakat qilamiz:

1. Pedagogika predmeti va uning chegarasi.
2. Pedagogika metodologiyasi.
3. Pedagogikaning ilmiy tili.
4. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi.
5. Tadqiqotchining metodologik madaniyati.

Bu yo'nalishlarga quyida qisqacha izoh beriladi.

Tadqiqotning bu yo'nalishi ba`zi e'tirozlarni paydo qilishi mumkin. Chunki aksariyat ko'pchilik pedagogika predmeti va uning chegarasi allaqachon aniqlangan, deb o'ylashadi: u — tarbiya haqidagi fandir.

Pedagogika ta'lim haqidagi yagona fan sifatida ham e'tirof etiladi, bu fan vakillari u yoki bu ta'limiy faoliyat bilan shug`ullanadilar (V.V.Kraevskiy). Shunday ekan, pedagogikani ta'lim va tarbiya haqidagi fan sifatida talqin etish to'g`ri bo'ladi. Bu o'z navbatida shaxsni maqsadga mos holda shakllantirishning ikki qanotini anglatadi. Shu sababdan birmuncha aniq ta`rif quyidagicha bo'lishi mumkin**:** pedagogika – bu shaxsni maqsadli shakllantirish haqidagi fandir**.**

Pedagogika fani predmetini aniqlash, uning boshqa fanlar bilan aloqasi va o'zaro ta`sir doirasini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi lozim. Bugun erkin shaxsni maqsadli shakllantirish pedagogikaning bosh maqsadi sifatida chuqur tahlilga tortilishi, metodologik jihatdan baholanishi lozim.

Pedagogik paradigma ilmiy faoliyat modeli sifatida bir tomondan ta'limda fanlararo tadqiqotlarning nufuzi oshayotganligini, pedagogika fanining integrativ funktsiyasi kuchayayotganligini ko'rsatsa, boshqa tomondan ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini o'z predmeti

sifatida qabul qilgan yagona fan sifatida pedagogikaning nazariy mavqeini oshirish va maqomini aniqlashtirish vazifasini ilgari suradi.

An'anaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq.

Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

An'anviy pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;
5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
6) tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o'tish;
7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Matematik-statistika metodi.
10. Pedagogik tajriba metodi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalardan mashg'ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so'raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma’lumotlarni o’rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So’ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Pedagogika fanini o‘rganish nima uchun zarur?» mavzusida erkin yozish topshirig‘i.

Topshiriq: «Pedagogika fanini o‘rganish nima uchun zarur?» mavzusida besh daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O‘ylagan fikrlaringazni hech qanday to‘xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko‘rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.
2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tuganganligi ma’lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.
3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo‘lsa bildirishlarini so‘raydi.

2.Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini o‘zlashtirishga doir muqobilini tanlab olish testi.

1.Tarbiyalanuvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon.

2. Muayyan aniq maqsad hamda ijti-moiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqa-rashini tarkib toptirish jarayoni.

3.Ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

4. Hayotiy faoliyat jarayoni va maxsus tarbiyaviy xatti-harakatlar ta’sirida inson rivojlanishining muhim shakli.

5.Tarbiyalanuvchining psixikasi va jis-moniy taraqqiyotida bosqichma-bosqich va qonuniy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi

A)ma’lumot V)ta’lim S) rivojlanish D) ma’lumot S) shakllanish

3. Pedagogik vaziyatni tahlil qiling:

O’qituvchining o’quvchilarga aytgan bir necha murojaati bilan tanishing:

a) -Juda ham qiziqarli savol, lekin men sizlarga birdan javob bera olmayman. Chunki, unga javob berish uchun bir necha kitoblarni ko’rib chiqishga to’g’ri keladi...

- Balki, sizlar ham entsiklopediyaga bir qarab qo’yarsizlar, ertaga esa bilganlarimiz haqida bir-birimizga gapirib beramiz.

- Bolalar, yaqinda Mahliyo menga g’alati bir savol berdi. Men esa unga darhol javob qaytara olmadim. Men anchagina kitoblarni qarab chiqdim, bir mutaxassisdan so’rasdim va juda ajoyib ma’lumotga ega bo’ldim. Sizlarning bir minut vaqtlaringizni olib, shu savol yuzasidan Mahliyo bilan gaplashsam maylimi? Mening nimalarni bilib olganimni eshitish sizlar uchun ham ham qiziqarlidir…

b) - Bolalar, bugun men hammangizni xursand qilmoqchiman: buni qarangki, hammangiz xayrihohlik ko’rsatayotgan o’rtog’ingiz kattagina imkoniyatga ega ekan. Qaranglar, u masalani qanday ajoyib qilib yechdi! Kelinglar, uni hammamiz bir bo’lib tabriklaylik va undan yanada kattaroq muvaffaqiyatlar kutayotganligimizni bildirib qo’yaylik.

c)- Bugun men sizlarga uy vazifasi bermayman. Ammo kim istasa, mayli o’ziga –o’zi vazifa bera qolsin va qanday bajarganligini ertangi darsda bizlarga ko’rsatsin.

Vaziyatni tahlil qiling. Ushbu muammo bo’yicha o’z fikrlaringizni bildiring.

4. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o’tilgach, uni o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi)**.**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg'ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifni va o'z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI.

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI.

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1.Pedagogika fanining paydo bo‘lishi hamda pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini o‘rganish va konspekt qilish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 28-31; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.26-28; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008. - S.39-50).

2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini o‘rganish, tahlil etish va jadval ko‘rinishida daftarga qayd etish (Pedagogika // M.X.Toxataxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogaka nazariyasi. — T.: «Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. — B.29-31; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008.-S.51-61).

3.Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.

1-topshiriq. Quyidagi keltirilgan fragmentlar bilan tanishing. Ularda qaysi pedagogik ilmiy-tadqiqot metodi haqida fikr yuritilayotganligini aniqlang.

1-lavha. Mazkur ilmiy-tadqiqot metodi bevosita va bilvosita olib borilib, ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud muammoni aniqlashga xizmat qiladi.

2-lavha**.** O‘quv mashg‘ulotlarining jadvali, o‘quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o‘quvchilarning shaxsiy varaqalari, Pedagogik Kengash yig‘ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, tarbiyaviy ishlar rejasi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar mazkur metod uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

3-lavha**.** Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etish maqsadida qo‘shimcha ravishda tashkil etiladi va savol-javob tarzida amalga oshiriladi.

4-lavha**.** Maqsadiga ko‘ra asoslovchi va ta'kidlovchi bosqichlarda amalga oshirilib, uzoq va qisqa muddatga tashkil etiladigan hamda qatiy rejim asosida pedagogik kuzatuv olib boriladi. Ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga doir yangi metod, usul, vosita va texnologiyalar sinovdan o‘tkaziladi.

5-lavha. Sotsiologik tavsifga ega tadqiqotlarda qo‘llanilib, oshkora muhokamaga asoslanadi. Savollar va javoblar oldindan tayyorlanadi.

6-lavha**.** Biror ob'ekt haqida yangi ma'lumotlarni olish maqsadida uning tarkibiy qismlari abstrakt holatga ko‘chirish asosida o‘rganiladi va yaxlit andozasi yaratiladi.

2-topshiriq. Quyida keltirilgan misollar bilan tanshiing va ularning qaysi ilmiy-tadqiqot metodiga tegishli ekanligini aniqlang.

1-misol**.** Siz mazkur ta'lim muassasasini tanlaganingizdan xursandmisiz? 1) ha, xursandman; 2) juda xursand emasman; 3) yo‘q. 4) javob berishga qiynalaman.

2-misol**.** 2.1. O‘rganilayotgan fanlarni o‘zlashtirishga sizning ta'limning avvalgi bosqichidagi tayyorligingiz yetarlimi? 2.2. Sizning-cha, oliy ta'limda o‘qishning maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejidan farqi nimada?

3-misol**.** 3.1. Innovatsiya deganda nimani tushunasiz?

3.2. Innovatsiya va yangilik tushunchalari o‘rtasida tafovut mavjudmi? O‘z fikringizni asoslang.

4-misol**.** 4.1. Kerakli so‘zni topib qo‘ying. O‘zbekiston — ... davlat.

4.2. Savolga javob bering. Amir Temur qanday davlat tuzgan?

4.3. Gapni davom etgaring. 1999 yil Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. Uning tavallud sanasi munosabati bilan ...

4. «Pedagoglik kasbini tanlashdan maqsad»ni aniqlashga doir ochiq va yopiq javobli anketa tuzish.

4. Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mashg’ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o’yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

4-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.
O’quvchi shaxsi tarbiyaning ob’yekti va sub’yekti sifatida
(2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Shaxs haqida tushuncha. Shaxsning rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar.
2. Shaxsning rivojlanishida faoliyatning o‘rni.
3. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.
4. Yosh davrlari va ularning o‘ziga xosliklarini aks ettiruvchi jadval, sxema yoki klaster yaratish.
5. Kichik guruhlarga birikkan holda “Shaxs va uning kamoloti” mavzusida sxema chizish, javdal yoki klaster tuzish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalarn va o‘quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg’ulotining tuzilishi:

1.«Odam», «inson», «shaxs» tushunchalarini qiyosiy o‘rganish hamda shaxs tushunchasining

mohiyatini o‘zlashtirish.
2.Shaxsning «o‘sishi», «rivojlanishi» va «shakllanishi» masalalarini fanlararo bog‘liqlikda tahlil etish.
3.Shaxsni shakllantirishga doir yondashuvlarni tahlil etish va o‘ziga xosliklarini aniqlash.
4.Shaxsni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil etish.
5.Shaxsni shakllantirishning yosh davrlariga tavsif berish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning shaxsning shakllanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuviga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda yosh davrlarining o‘ziga xosliklarini farqlay olish ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. Talabalarni «Odam», «inson», «shaxs» tushunchalari mazmunini farqlay olishga o‘rgatish.
2.Shaxsning o‘sishi va rivojlanishining o‘ziga xosliklarini aniqlashtirish.
3.Shaxsni shakllantirishga doir yondashuvlarning mazmun-mohiyatini tushunib olinishiga erishish.
4.Shaxsni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni qiyosiy tavsiflashga o‘rgatish.
5.Shaxsni shakllantirishning yosh davrlariga tavsif berish. O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):
1.«Odam», «inson», «shaxs» tushunchalarini farqlay olishga o‘rganadilar.
2. «O‘sish» va «rivojlanish» tushunchalarining shaxs rivojlanishning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari sifatida xizmat qilishini anglaydilar.
3. Shaxsni shakllantirishga doir yondashuvlar (biolog‘ik, ijtimoiy, bioijtimoiy, zamonaviy)ning mazmun-mohiyatini o‘zlashtiradilar.
4. Irsiyat, muhit, ta’lim-tarbiya, shaxsiy faollikning shaxsni shakllantirishga ta’sirini qiyoslaydilar, xulosalar chiqarishadi.
5. Shaxsni shakllantirishning yosh davlariga tavsif berishadi.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

1. Inson rivojlanish jarayoni**.**

Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo’lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo’lgan jamiyatning a`zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo’lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o’zini yaxlit inson sifatida his etishi, o’z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog`i kerak.

«Individ» nima? Bola ma`lum yoshga qadar «individ» sanaladi. Individ (lotincha «individium» so’zidan olingan bo’lib, «bo’linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma`nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli tefleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o’ziga xos xususiyatlari bo’lib, uning namoyon bo’lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o’rganish, uningiashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo’lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o’quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo’lgan qiziqish hamda iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma`naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo’lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon efish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo’nalishi bo’yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga avian ishi uchun ijtimoiv muhit sharoitlari va tarbiva kerak bo’ladi. Ana shular ta`sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o’zi nima?

Rivoilanish shaxsning fiziologik va intellektual o’sishida namoyon bo’ladigan miqdor va sifat o’zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o’tish, yangilanish, yangining

paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbayi qarama-qarshiliklarning o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson iitimoiv maviudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va iitimoiv qonuniyatlar birgalikda ta`sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta`sir etadi.

Shaxsning fazilatlarini to'g`ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g`ri hal etish uchun uning xulqiga ta`sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta`sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

2. Shaklanish va rivojlanish. Rivojlanish shartlari va omillari. Irsiyat va rivojlanish. Muhitni rivojlanishga tasiri.

Shaxsni shakllantirish – uning o'sishi, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlarga ega bo'lish jarayonida. "Shakllantirish" tushunchasi "tarbiyalash" tushinchasiga nisbatan kengroq bo'lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq jarayonlar (o'qitish, tarbiyalash, ta'lim berish)ni ham, maqsadga nomuvofiq jarayonlar (shaxs va jamoaning o'z ichki tabiati, atrofdagi kishilar, narsalar, tabiat hadisalari va hokazolarning ta'siri)ni ham o'z ichiga oladi. "Shakllantirish" va "tarbiyalash" tushunchalari jiddiy chegaralansa, insonni tabiat hadisalari tarbiyalaydi, deb bo'lmaydi. Insonni faqat kishilar tarbiyalaydi, tabiat hodisalari shaxsni shakllantirishi mumkin, ammo uni tarbiyalay olmaydi.

Fanda biologik yo'nalish, deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy- biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug`ma imkonivatlar. Taqdir, tole' har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

Muhit deganda, odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta`sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta`siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya`ni,

Birinchidan, tarbiya ta`sirida muhit bera olmagan bilim, ma`lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog`liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug`ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta`sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta`sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta`sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Rivojlanish va tarbiya.

Tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog`liqligi to'g`risidagi muammo qator tadqiqotchilar, jumladan A.I.Leontev., L.V.Zankov, CH.S.Kostyuk va boshqalar izlanishlarining asosiy mavzusi hisoblanadi.

Biologik jihatdan rivojlanish nerv faoliyati bilan insonni o'rab turgan borliqning o'zaro ta`siri natijasidir. Miya va butun nerv sistemasi bizni o'rab turgan muhitning uzluksiz ta`sirida rivojlanib boradi.

Lekin ularning rivojlanishida tarbiya to'laligicha hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Psixik rivojlanish nerv sistemasining rnvojlanishi bilan mustahkam bog`liq. Ayniqsa, katta miya yarim sharlari tarbiya jarayonida rivojlanadi va hatto rivoji tezlashadi.

I.P.Pavlovning fikricha: "Inson va hayvonning xatti-harakati faqat nerv sistemasining tug`ma xususiyatlari bilangina chegaralanmaydi, balki organizmning ayrim yashash davrida unga ko'rsatilgan va doimo ko'rsatib turiladigan ta`sir bilan ham belgilanadi, ya`ni keng ma`noda aytganda, inson va hayvonning xatti-harakati doimiy tarbiyaga va o'rgatishga bog`liq" (II.T. 269-bet).

Tarbiya bilan rivojlanish o'rtasidagi bog`liqlik, ayniqsa, ta'lim jarayonida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ayniqsa, bu o'rinda rus tadqiqotchisi L.S.Vigotskiy ta'limoti e'tiborga loyiqdir. Uning konsepsiyasiga ko'ra, bolaning aqliy rivojlanishida ikkita bosqich katta o'rinni egallaydi.

Birinchidan, bola ma`lum topshiriqlarni mustaqil bajaradi. Buni bola psixik funksiyalarining rivojlanish bosqichi deb yoki muhim rivojlanish bosqichi, deb aytish ham mumkin. Bola taqlid orqali kattalar rahbarligida ko'proq narsani tushunib bajarishga kirishadi. Bu endi aqliy rivojlanishning ikkinchi bosqichidir. Ikkinchi va birinchi bosqich o'rtasidagi farq bolaning yaqin rivojlanish zonasini belgilab beradi.

Bola bugun kattalar yordamida qilgan narsalarini ertaga o'zi mustaqil bajaradi. Bu esa bolaning keyingi kunini, uning dinamik rivojlanish holatini aniqlab olish imkonini beradi.

3.Rivojlanishning yosh va o'ziga hos xususiyatlari. Yosh davrlarga bo'lib o'rganish.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta`siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g`ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi hum, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida lurlicha bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust flki yurltlshi, hovliqma yoki vazminligi, serga` yoki kamga`ligi, serg`ayrat yoki g`ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chnla Ulilnydigan, yig`inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta`siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual — o'ziga xos xususiyatini bilish uchun **temperament**ning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish. metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma`nosini anglatib, xulqning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qominlvatliul hum mavjud Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvt in tenglashtirib bo'lamaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamolot quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri - chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.
2. Bog`chagacha bo'lgan yosh davri — 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo'lgan yosh davri — 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar)—7 yoshdan 11,12 yoshgacha.
5. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) — 14—15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) — 16—18 yosh.



MASHG'ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalardan mashg'ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so'raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. O'ylang/ fikr yuriting/ muhokama qiling.

Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega qarg'a o'rtacha 200-300 yil yashaydi. Lekin uning bolaligi uzog'i bilan besh-olti oy davom etadi. Inson o'rtacha 60-70 yil umr ko'radi. Biroq u 20-25 yoshlarida mustaqil hayot boshlaydi. Mazkur holatni qanday izohlash mumkin?

2. Tugallanmagan gaplar metodikasi.

Quyida keltirilgan jumlalarni o'qing va jumlaga mos keladigan bir so'z bilan ifodalanadigan javobni tanhglang.

1) o'zi istamagan holda birovga yomonlik qilib qo'ysa ham, mazkur ishidan afsuslanadi, vijdon azobida qiynaladi -...

2) individlar ichida bir tur -...

3) jamiyatda o'z o'rniga ega, ijtimoiy axamiyatga ega maqsad yo'lida bir yoki bir nechta kishini o'z orqasidan ergashtira oladi -...

3. «Tushunchalar ierarxiyasi» metodikasi.

Quyida keltirilgan atamalar ierarxiyasiga e'tibor qarating va ularning joylashish tartibiga o'z munosabatingizni bildiring. Har bir atamaga izoh bering.

1)o'sish;
2) rivojlanish;
3) shakllanish;
4)tarbiya;
5) o'z-o'zini tarbiyalash;
6) o'z-o'zini takomillashtirish.

4. Shaxsning rivojlanishiga doir yondashuvlar.

Quyidagi fikrlar bilan tanishing, ularda shaxs rivoji masalasi qaysi nuqtai nazardan o'rganilayotganligini tushuntiring.

1) Inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun hatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga, tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi;

2) Inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi;

3) Insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi — qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi;

4) Shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

5. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflashga doir topshiriq.

«Shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar» chizmasini tugallang.



6. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

7. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan otiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o’tilgach, uni o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi)**.**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsif va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (233 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. «Odam», «inson», «shaxs» tushunchalarini qiyosiy o‘rganish hamda shaxs tushunchasining mohiyatini o‘zlashtirish(Falsafa:qomusiy lug‘at. - T.: «Sharh», 2004; Karimov I.Noosfera:geosiyosat va mafkura. - T.:«Fan», 2007).

2. Shaxsning «o‘sishi», «rivojlanishi» va «shakllanishi» masalalarini fanlararo bog‘liqlikda tahlil etish. (Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. — T., 2004; Sodiqov Q., Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiena. - T.: «Yangi asr avlodi», 2009; Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008)

3. Shaxsni shakllantirishga doir yondashuvlarni tahlil etish va o‘ziga xosliklarini aniqlash (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. — B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « Fan va texno1ogiya » nashriyoti, 2008. - B.29-31; Davlet-shin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. — T., 2004; Podlasiy I.P. Pedagogika. -M: «Visshee obrazovanie», 2008.).

4. Shaxsni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.29-31; Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. — T., 2004; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: Visshee obrazovanie, 2008).

5. «Shaxsni shakllantirishning yosh davrlari» mavzusidagi toifalash jadvalini to‘ldirish.

Maktabgacha ta’lim yosh davri	Kichik maktab yoshi	O‘rta maktab yoshi (o‘smirlar)	Katta maktab yosh davri (o‘spirinlar)

6. Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

QO’LLANILADIGAN TA”LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o’yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

5-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Yaxlit pedagogik jarayon.
Ta’lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari (2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Ta’lim jarayoni haqida tushuncha. Ta’lim jarayoni yagona tizim sifatida.
2. Ta’lim funksiyalari. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining bosqichlari.
3. “Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonini tashkil etish shartlari” mavzusida tavsiyanoma tayyorlash.
4. Ta’lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagog`ik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash..
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natnjalari

Labaratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Ta’lim jarayoni yaxlit tizim sifatida o‘rganish va tahlil etish.

2.«Qonun», «qonuniyat», «tamoyil», «qoida» tushunchalarining ta’rifini bilib olishadi.
3. Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatlarini o‘zlashtiradilar.
4.Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarining ta’lim qonuniyatlari bilan aloqadorligi haqida xulosalar chiqaradilar.

Labaratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning ta’lim jarayoni, uning qonuniyatlari va tamoyillariga doir nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda ularda ta’lim qonuniyatlari va tamoyillaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarni tarkib topdirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati:)

1.Talabalarni ta’lim jarayoni yaxlit hodisa sifatida tushunishga yo‘naltirish.
2. «Qonun», «qonuniyat», «tamoyil» va «qoida» tushunchalarning mazmun-mohiyatini o‘zlashtirilishiga erishish.
3 Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatlarini ajrata olishga o‘rgatish.
4. Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarining ta’lim qonuniyatlari bilan aloqadorligini ko‘rsatib berish.

O‘quv faoliyati natijalarini (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. Ta’lim jarayoni yaxlit hodisa sifatida maqsad, natija, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati, mazmun, shakl, metod va vosita kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligidan iborat ekanligini anglatadi.
2. «Qonun», «qonuniyat», «tamoyil» va «qoida» tushunchalarni ta’rifini bilib olishadi.
3. Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatlarini o‘zlashtiradilar.
4. Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarining ta’lim qonuniyatlari bilan aloqadorligi haqida xulosalar chiqaradilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

1. Pedagogik jarayon tizim sifatida.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o’zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko’rsatuvchi barcha ko’rinishdagi maktabgacha tarbiya, o’rta umumiy ta’lim maktablari, o’rta maxsus o’quv yurtlari, oliy o’quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o’zaro uzviylikdagi tizimi pedagogik tizim deyiladi.

Ta’lim jarayoni yaxlit tizim sifatida quyidagicha namoyon bo’ladi:



Chizma:Ta’lim jarayoni tuzilishining andozasi (modeli.)

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o’zaro bog`langan ko’plab elementlar (tarkibiy qismlar) o’rtasidagi mustahkam birlik va o’zaro yaxlitlikdir. Demak, ta’lim yaxlit tizim sifatida ko’plab o’zaro bog`liq quyidagi elementlarni o’z ichiga oladi: ta’lim maqsadi, o’quv axborotlari, o’qituvchi va o’quvchilarning ta’limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta’lim jarayonini boshqarish usullari.

Ushbu tizim sharoitida ta’lim va tarbiya maqsadlarini amalga oshiruvchi jarayon pedagogik jarayon deyiladi.

Pedagogik jarayonning rivojlanish dinamikasi uning ichki harakati, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteriga, o'zaro tahsir kuchiga bog`liq.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning o'ziga xosligi: tarbiya obhekti bir vaqtning o'zida tarbiya subhekti ham hisoblanadi. O'zaro faollikka asoslangan pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi hamkorlik pedagogik o'zaro tahsir tushunchasini to'laroq aks ettiradi.

Subhekt bilan ob'yekt o'rtasida turli-tuman aloqalar mavjud: ..

1. Axborot xarakterida (o'zaro axborotlar almashinib turish).
2. Tashkiliy faoliyat aloqalari (o'zaro birgalikdagi faoliyat).
3. Kommunikativ aloqalar (muomala, munosabat).
4. Boshqaruv va o'z-o'zini boshqaruv aloqalari.

Pedagogik jarayonning asosiy elementlari: maqsad, vazifa, vosita va natija. **Vosita** keng mahnoda mazmun, shakl va usullarni o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar: qo'yilgan talablar bilan tarbiyalanuvchi imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlardir. Xuddi shu qarama-qarshilik rivojlanish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

2. Yaxlit pedagogik jarayon haqida tushincha. Pedagogik jarayon qonuniyatlari.

Ta'lim-tarbiya tizimida barcha maqsad va vazifalarni, shuningdek, uning tarkibiy qismlarini kompleks hal etishga yo'naltirilgan jarayon yaxlit pedagogik jarayon sifatida qabul qilingan.

Yaxlit pedagogik jarayonning tashqi qonuniyatlari:

1. Pedagogik jarayonning maqsadi nafaqat ta'lim va tarbiya vazifalarini qamrab oladi, balki pedagogni ham, o'quvchi shaxsini ham har tomonlama barkamol qilib rivojlantirishni o'z ichiga oladi.
2. Yaxlit pedagogik jarayon, uning maqsad-vazifalari, mazmuni, shakl va metodlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi va u jamiyatning mafkurasi va siyosatiga bog`liq.
3. Pedagogik jarayonning maqsad va vazifalari nafaqat shaxs ehtiyojiga, balki uning imkoniyatlariga ham bog`liq bo'lib, bu uning tashqi belgilaridir.

Jarayonning ichki qonuniyatlari:

1. Ta'lim-tarbiya va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog`liqlik.
2. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash o'rtasidagi bog'liqlik.
3. Shaxs faoliyati bilan uning munosabati o'rtasidagi bog`liqlik.
4. Shaxs va jamoa o'rtasidagi bog`liqlik.
5. Shaxsning imkoniyatlari bilan pedagogik ta'sir o'rtasidagi bog`liqlik.
6. Vazifa, mazmun, shakl va metodlar o'rtasidagi bog`liqlik.

3.*Yaxlit pedagogik jarayon bosqichlari* .

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi**.** O'quvchilar o'quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o'rganib olish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning egallash bosqichlarini bilishi zarur: idrok etish. o'quv materialini anglab vetish. mustahkamlash. amaliy faoliyatida bilimlarini qo'llash.

Bilimlarni egallab olish bosqichlari sxematik ko'rinishi quyidagichadir:



4.Ta'lim va tarbiya obpyekti va sub'yekti.

Subyekt bilan obyekt o'rtasida turli-tuman aloqalar mavjud:

O’qituvchi va o’quvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyatlari. O’qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta’lim muassasasi (umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari)da, tashkil etiluvchi ta’lim jarayonida o’quvchining faoliyati o’qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O’qituvchi faoliyatining vazifasi o’quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo’naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Ta’lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

1) rejalashtirish;
2) tashkil etish;
3) boshqarish (rag`batlantirish);
4) nazorat;
5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

5.Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish

Lotincha “Intensio” tushunchasi - kuchaytirish, tezlatish degan mahnoni anglatadi.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish - vaqtning har bir bo’lagi uchun ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish demakdir.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish shartlari:

1. Pedagogik jarayoning maqsadga yo’naltirilganligini kuchaytirish, o’quv-tarbiya tadbirlarida ilgari surilayotgan vazifalarning jiddiyligini oshirish bilan birga ularning shu sinfga, o’quvchilarga, jamoaga qulayligini ham hisobga olish kerak.
2. O’quvchilarning o’qish, ijtimoiy, mehnat va boshqa faoliyati asoslarini chuqurlashtirish.
3. Eng zarur axborotlarni saqlagan holda mazkur sinf o’quvchisiga yetkaziladigan axborot hajmini oshirish.
4. O’quv, ijtimoiy mehnat va boshqa faoliyatlar tezligini oshirish.
5. O’quvchilarning mustaqil bilish va ijtimoiy foydali faoliyatlarini aktivlashtiruvchi kompleks shakl va metodlarni joriy etish.
6. Axborot va ta’lim texnologiyalarini keng qo’llash.
7. O’quvchilarning mustaqil bilishini yo’lga qo’yish orqali o’z-o’zini tahlil qilish, o’z-o’ziga tahsir ko’rsatish, majburiyat olish, baho bera olish, o’z-o’ziga hisob berishdan iborat usullardan unumli foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga kuchli yordam beradi.

6. Yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish.

Yaxlit pedagogik jarayonni o’timallashtirish (lotincha o’timus - eng mahqul) - eng qulay, eng mahqul degan mahnoni bildirib, keng mahnoda olib qaralganda, ushbu sharoit uchun har qanday vazifalarni hal etishning eng qulay, eng mahqul, to’g`ri variantlarini tanlash demakdir.

Ma’lum mezonlar nuqtai nazaridan qaralganda, yaxlit pedagogik jarayonni o’timallashtirish ushbu sharoit uchun ta’lim-tarbiyaning eng maqbul vazifa, mazmun, shakl va metodlarini ilmiy asoslangan holda tanlash va amalga oshirish deganidir.

Optimallashtirishda boshlang`ich holatdan qaror qabul qilingungacha bo’lgan jarayon quyidagi bosqichlarga bo’linadi:

1. Qo’yilgan vazifalarni hal etishning bir nechta variantlarini qarab chiqish.
2. Ushbu sharoit uchun tanlab olingan variantning asosliligini, zarurligini anglab yetish.
3. Ushbu vazifalarni hal etish uchun tavsiya etilgan usullarning samaradorligini qiyosiy tahlil etish orqali anglash.
4. Taqdim etilgan variantlarni eng maqbul ikkita variantgacha qisqartirish.
5. Ikkalasini vaqt va samara nuqtai nazaridan taqqoslash.
6. Eng ma’qul variantni o’timallashtirish mezoni nuqtai nazardan tanlash.

Lekin eng maqbul variantni tanlash o’qituvchidan fikrlashning muammoli-tadqiqot usulidan foydalanishni taqozo etadi.

Ta’lim jarayonini o’timallashtirishda uning mezoni faoliyatni to’g`ri baholashga yordam beradi.

O’quvchi u yoki bu materialni o’zining maksimal darajadagi imkoniyati doirasida o’zlashtiradi (natijaga real erishish mumkin bo’lgan imkoniyat). Bu esa, o’z o’rnida, o’qitishni optimallashtirish uchun o’quvchilarning real o’quv imkoniyatlarini o’rganishni talab etadi.

Real o’quv imkoniyatlari ichki (sog`liq, bilim darajasi, fikrlash qobiliyati, o’qishga munosabat, mashuliyat hissi) va tashqi (oila, tengdoshlar, jamiyat tahsiri) sharoitlarning o’zaro uzviyligida namoyon bo’ladi.

O’qituvchi bolaning bugungi real o’quv imkoniyatlarini bilishigina emas, shuningdek, yaqin rivojlanish zonasini, Ya’ni yaqin rivojlanish imkoniyatlarini anglab yetishi ham zarur bo’ladi.

Shunday qilib, optimallashtirishning birinchi mezoniga ko’ra, o’quvchi shunday o’zlashtirish darajasiga erishishi kerakki, ushbu daraja uning yaqin rivojlanish zonasidagi imkoniyatlariga to’g`ri kelsin.

Optimallashtirishning ikkinchi mezoni shuki, o’quvchi va o’qituvchi dars va uy mashg`ulotlariga ajratilgan vaqtga qat’iy amal qilsinlar.

Pedagogik jarayonning asosiy elementlari: maqsad, vazifa, vosita va natija. Vosita keng mahnoda mazmun, shakl va usullarni o’z ichiga oladi. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar: qo’yilgan talablar bilan tarbiyalanuvchi imkoniyatlari

MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg’uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og’zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma’lumotlarni o’rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So’ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. Ta’lim jarayoni «formula»si.

Izoh: odatda formula deganda ko‘z oldimizga matematik-fizik hodisalar gavdalanadi. Biroq ta’lim jarayoni ham o‘ziga xos formulalarda ifodalanish xususiyatiga ega. Quyidagi formulaga e’tibor qarating va uni izohlang. Sizningcha, unda qanday ma’no ifoda etilgan?

$DJ=M+A_{bf}+A_b$

DJ –

M –

A_{bf} –

A_b –

2. Keys topshirig‘i: «Ta’lim jarayoni yaxlit hodisa sifatida»

Quyida keltirilgan chizmaga e’tibor qarating. Unda grafik ifoda etilgan, biroq unda aks etishi lozim bo‘lgan jumlalar chizma ostada berilgan. Mazkur jumlalarni shunday ketma-ketlikda joylashtiring-ki, natijada ta’lim jarayoni tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi aniq namoyon bo‘lsin.



Chizmada aks ettirilishi lozim bo‘lgan jumlalar:

1. Maqsad. 2. Natija. 3. O‘qituvchi faoliyati. 4. O‘quvchi faoliyati. 5. Mazmun. 6. Shakl. 7. Metod. 8. Vosita

3. Ijodiy test topshirig‘i.

1. Gapni tugallang.

1. Barqaror, takrorlanuvchi, invariantli tavsifga ega narsa-hodisa va jarayonlarning ichki mavjud aloqalari ...

2. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying. Didaktikada ... deganda ta’limiy hodisalarning namoyon bo‘lishi va rivojdanishi bilan shartlanadigan ichki mavjud aloqalar tushuniladi.

3. Gapni davom ettiring.

Qonuniyat-bu...

4. Gapni tugallang.

Ta’lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob’ektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik ...

5. Gapni davom ettiring.

Tamoyil deganda ...

6. Nuqtalar o‘rniga kerakpi jumlani topib qo‘ying.

... o‘quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang‘ich qoidalardir

7. Gapni tugallang.

Ta’lim tamoyillarini amalga oshirish texnologiyasi ...

4. Ta’lim qonuniyatlarini o‘zlashtirishga doir topshiriqlar:

1-topshiriq. Ta’limning umumiy qonuniyatlariga doir topshiriqlar

1.1.Quyidagilar orasidan ta’lim maqsadini belgilovchi qonuniyatlarni aniqlang.

1) jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi;
2) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati;
3) o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi;
4) jamiyatning talablari va imkoniyatlari;
5) o‘quvchilarntng yoshi, ta’lim olish imkoniyatlari;
6) pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari.

1.2. Quyidagi qonuniyatlarni ta’lim jarayonining qaysi tarkibiy qismiga tegishli deb hisoblaysiz?

1) avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar;
2) o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi;
3) o‘quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish;
4) o‘quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta’lim vaqti.

1.3. Ta’lim metodlari samaradorligi quyidagi qaysi qonuniyatlarni hisobga olish bilan bog‘liq?

1) ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korreksiyaga;
2) ta’limning ichki rag‘batlariga;
3) ta’lim maqsadiga;
4) o‘quvchilarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlariga;
5) ta’lim muassasasining moddiy-texnik ta’minotiga.

1.4.Quyidagi qonuniyatlaridan qaysilari ta’lim sifatini ta’minlashga xizmat qiladi?

1) o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi;
2) ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi;
3) ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari;
4) avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar.

1.5. Ta’lim mazmunini belgilashda qaysi qonununiyatlarga amal qilish lozim?

1) ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari;
2) o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi;
3) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati;
4) o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlari;
5) ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korreksiya;
6) ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi.

5. Ta’limning xususiy qonuniyatlariga doir topshiriqlar:

Quyidagi fikrlar bilan tanishing va ularni ta’limning qaysi xususiy (tashkiliy, sotsiologik, psixologik, kibernetik, gnoseologik) qonuniyatiga tegishli ekanligini aniqlang:

I. Ta’lim natijalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘nikmalariga; ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyati hajmiga; bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo‘llanilishiga; o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi o‘zaro aloqador bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilish hajmiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq.

II. Ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o‘ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog‘liq.

III. Ta’lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to‘g‘ri olib borilishiga; ta’lim sifati o‘quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog‘liq.

IV. Individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo‘ladigan individlarning rivojlanishiga; ta’lim samaradorligi «intellektual muhit»ning mavjud holatiga, o‘zaro bir-biriga o‘rgatishning jadalligiga; o‘qituvchi va o‘quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog‘liq.

V.Ta’lim natijasi o‘quvchining o‘quv mehnatiga, o‘zining o‘quv majburiyatlariga munosabatiga; o‘quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o‘quvchilarning aqliy faolligini oshirish o‘quv mashg‘uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg‘ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog‘liq.

6.Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini aniqlashga doir chalkashtirnlgan mantiqiy zanjirlar.

Quyida keltirilgan ta’limning tamoyillari bilan tanishing. Ularni maqsadiga ko‘ra ikki tur (mazmunli va tashkiliy-metodik)ga ajrating.

1. Insonparvarlik.
2. Tabiat bilan uyg‘unlik. Ko‘rgazmalilik.
3. Onglilik, faollik, ijodiylik.
4. Madaniyat bilan uyg‘unlik.
5. Tushunarlilik.
6. Ilmiylik.
7. Ta’limning amaliyot bilan uyg‘unligi.
8. Izchillik, tizimlilik, ketma-ketlik.
9. Tarbiyalovchi ta’lim.
10. O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
11. Oqilona talabchanlik bilan ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilish.

Ta’lim mazmunining tamoyillari	Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari

7. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

8. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi).

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifbi va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (234 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. Ta’lim jarayonini yaxlit hodisa sifatida o‘rganish va uning tuzilishini aniqlashtirish

(Pedagogika // MX.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010- B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi.- T.:« Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.29-31; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008).

2. **Pedagogikaga oid lug‘atlardan** (Hasanboev J., To‘raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. - T.:« Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2009; Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar. - M.: Nauchnoe izdatelstvo «Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya», 2007; Morozova O.P. Pedagogicheskiy slovar-spravochnik.-Barnaul: 2000) **foydalangan holda «qonun», «qonuniyat», «tamoyil» va «qoida» tushunchalariga izoh yozish.**
3. **Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatlarini o‘rganish hamda har biriga alohida-alohida izoh berish** (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.:«Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. -B.29-31; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M.: «Visshee obrazovanie», 2008.).
4. **Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini o‘rganish va tahlil etish** (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.:«Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.29-31; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008).
5. **Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.**

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mashg’ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o’yin,Skarabey, Keys stadi, Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

6-7-LABORATORIYA ISHLARI.

MAVZU: Didaktika-ta’lim nazariyasi sifatida. Ta’lim mazmuni (4soat).

I. Talim jarayonining umumiy mohiyati (2 soat).

II. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyati bilan tanishish asosida o’rta-maxsus,kasb-hunar ta’limi mazmunini ifodalash (2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Ta’lim mazmuni va uni belgilovchi ustivor g‘oyalar.
2. Ta’lim mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari.
3. Ta’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar.
4. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmunini yorituvchi sxema yaratish.
5. 9-sinf bitiruvchisini akademik litsey va kasb-hunar kollejiga yo‘naltiruvchi tavsifnoma tayyorlash.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. «Talim mazmuni» tushunchasini va ta’lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni o‘rganish hamda tahlil etish.
2. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g‘oyalar mazmun-mohiyatini yoritish.
3. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlarni o‘rganishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. Darslik va uning vazifalari, unga qo‘yiladigan talablar hamda o‘quv qo‘llanmalarining turlarini

aniqlashtirish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning ta’lim mazmuni, ta’lim mazmunini belgalab zamonaviy g‘oyalarga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda ta’lim mazmunini belgilab beruvchi me’yoriy hujjatlar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. «Ta’lim mazmuni» tushunchasini va ta’lim mazmunini belgalashga doir yondashuvlar mohiyatini anglab olinishiga erishish.
2. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g‘oyalarning o‘ziga xosliklarini ajrata olishga o‘rgatish.
3. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarning ta’lim mazmunini yoritishdagi ahamiyatini aniqlashtirish.

O‘quv faoliyati natijtari (talabalarning o‘kuv-bilish faoliyati):

1. «Ta’lim mazmuni» tushunchasini va ta’lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlar mohiltini tushunib olishadi.
2. Ta’lim mazmuninya belgalab beruvchi zamonaviy g‘oyalarni o‘zlashtiradilar.
3. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjatlarni o‘rganadilar hamda ular bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.
4. Darslik va o‘quv qo‘llanmalarning ta’lim mazmunini yoritishdagi ahamiyati haqida aniq xulosalarga kelishadi.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Ta’lim mazmunini belgilash.

Ta’lim mazmuni o’qitish jarayonining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi.

Bu ma`lum ilmiy bilimlar, ko’nikma va malakalar tizimi hisoblanib, uni o’zlashtirish o’quvchilar aqliy, jismoniy qobiliyatlarining har tomonlama rivojlanishini, ularda dunyoqarash, axloq va xulqiy odatlarni shakllanishini hamda ijtimoiy mehnatga tayyorgarlikni ta`minlaydi.

Ta’lim mazmunida butun insoniyat to’plagan ijtimoiy tajribalarning barcha elementlari qamrab olingan. Shaxsni kelajakka tayyorlashga xizmat qiladigan ta’limning mazmuni o’z maqsadi va xarakteri jihatidan quyidagicha turlarda yoki ko’rinishda amalga oshiriladi: maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim.

Maktabda o’rganiladigan barcha o’quv materiallari nuqtai nazaridan ta’lim mazmunini konstruktsiyalash va tatbiq etishda ijtimoiy adolatni ta’minlash.

Ilmiy asoslangan ta’lim mazmunini qanday aniqlash mumkin? Ta’lim mazmuniga nima ta`sir ko’rsatadi? U nimaga bog`liq bo’ladi?

Ta’lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat bo’ladi:

- fan, texnika, madaniyatning jamiyatda rivojlanganligi darajasi;
- ta’limning maqsad va vazifalari;
- o’quvchilarning yoshi xususiyatlari;
- o’quvchi shaxsining ehtiyojlari.

Umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim mazmuni o’quvchilarda atrof- muhit haqida umumiy tasavvurlarni hosil qilishi, ularni o’zlarining amaliy faoliyatlari uchun zarur bo’lgan bilimlarni izlash va bu bilimlarni hayotiy muammolami hal etishda qo’llashga o’rgatishi kerak. Ta’lim mazmuni o’quv rejalari, o’quv dasturlarida, darsliklarda aks ettiriladi.

1991-yilda O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirishga kirishildi. Bunday sharoitlarda ta’lim, yangi demokratik davlat barpo etish, madaniy va ma`naviy tiklanish, demokratik jamiyat va bozor munosabatlari shakllanishi, milliy fan va texnikaning rivojlanishini dunyo standartlari talablari darajasiga ko’tarishning asosi bo’lib qolishi kerak.

1997-yilda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasida O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g`risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta’lim

tizimini rivojlantirishda yangi bosqich bo'ldi. Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib ta'lim dasturlarining yangi avlodi ishlab chiqildi.

Ta'lim mazmunining rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamonaviy tendensiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o'rnatilishi) hisoblanadi. Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

1) turli ta`lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta`minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;

2) O'zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta'lim amaliyotida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini rivojlanishi tendensiyalarining hisobga olinishi.

Davlat ta'lim standarti:

1) ta'lim olish shaklidan qat`iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) o'quv fani bo'yicha yakuniy ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g`risida»gi Qonuni bilan bir qatorda ta'lim standarti asosiy me`yoriy hujjat hisoblanadi. «Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me`yor», «namuna», «andoza», «model» ma`nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta`lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta`minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. O'quvchi davlat tomonidan belgilangan ta'lim standarti bilan cheklanishi mumkin, yoki bilimlarni yanada chuqurroq egallab olish maqsadida mustaqil shug`ullanish imkoniyatiga ega. Uning uchun qiyin bo'lgan yoki qiziqarli bo'lmagan fanni o'rganishda o'quvchiga standartga kiritilgan normativ minimum bilan cheklanish imkoniyati beriladi.

Davlat ta'lim standartlari tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagilardan iboratdir:

1. Ta'limning yangi yoki aniqlashtirilgan maqsadlari, fanning o'rganish obyektlari va asosiy mazmunli yo'nalishlari ko'zda tutiladigan o'quv fanining umumiy ta`rifi.
2. O'quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlash.
3. Ta'limning majburiy natijalarini ifodalash, ya`ni o'quvchilarning o'quv tayyorgarliklari zarur bo'lgan minimal darajasiga talablar.
4. Bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining «o'lchamidir», ya`ni, tekshirish ishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o'quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

O'quv dasturi — muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me`yoriy hujjat.

O'quv dasturlari namunaviy. ishchi va mualliflik bo'lishi mumkin.

O'quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta`limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi. O'rta maktab, akademik litsey va kasb- hunar kolleji o`quv fanlarini ilmiy bilimning umumiy tuzilishiga mos ravishda shakllantirish kerak deb hisoblovchi nuqtayi nazar eng keng tarqalgan va tan olingan hisoblanadi.

O'quv rejasi — me`yoriy hujjat hisoblanib (ta'lim muassasasi sertifikati) quyidagilarni belgilaydi:

- o'quv yili, chorak (semestr)lar va ta`tillarning davomiyligi;
- ushbu ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlari tartibi;
- o'qish yillari bo'yicha fanlarni taqsimlash;
- har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi;

- har bir fanni o’rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;,
- praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.

O’quv rejasida, yana shuningdek, aniq bir o’quv muassasasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, o’quvchilarning erkin tanlovi bo’yicha fakultativ va majburiy mashg`ulotlar aks ettiriladi.

4. Darslik va o’quv qo’llanmalari.

Ta’lim mazmuni va o’quv dasturlari o’quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o’quv qo’llanmalari kiradi.

Ta’lim mazmuni o’quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli xil o’quv qo’llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, spravochniklar, matematika, fizika, kimyo bo’yicha masalalar to’plamlari, georafiya, biologiya bo’yicha atlaslar, til bo’yicha mashqlar to’plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O’quv qo`lanmalari darslikning ba`zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo`ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

5. Davlat me`yoriy hujjatlari.

Ta’lim mazmunini belgilovchi me`yoriy hujjatlar. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta’lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko’rsatiladi:

1) umumiy nazariy bosqich;
2) o’quv bosqichi;
3) o’quv materialini o’zlashtirish bosqichi, ya`ni, ta’lim mazmunining o’quv rejasi, o’quv dasturi va darsliklar kabi me`yoriy hujjatlarda o’z ifodasini topishi.

Umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni.

Davlat ta’lim standart, o’quv rejalari mazmunida namoyon bo’ladi. O’quv rejalari quyidagilardan iborat: tavanch O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzluksiz ta’limning tarkibiy bo’lib, uning vazifasi va ish mazmuni o’quvchilarga muayyan yo’nalishda mutaxassislik yoki kasb-hunar ma’lumotini berish va ularda bu boradagi amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. O’quvchilar to’qqiz yillik umumiy-majburiy ta’limni tugatganlaridan so’ng yana uch yil o’rta maxsus yoki kasb-hunar ta’limini ixtiyoriy tarzda o’zlashtiradilar. O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida olib boriladi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo’yicha ishlash huquqini beradigan, shuningdek, ixtisoslik faoliyati yoki ta’limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo’luvchi o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini beradi.

Akademik litsey o’quvchilarning aqliy qobiliyatlarini jadal o’stirish, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va muayyan mutaxassislikka yo’naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydi. Akademik litsey o’rta maxsus uch yillik o’quv yurti hisoblanadi. Ushbu o’quv yurtida o’quvchilar o’zlari tanlagan yo’nalish bo’yicha bilimlarni oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur, mukammal o’zlashtirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o’quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kolleji o’quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasb-hunar yo’nalishi bo’yicha bir yoki bir necha ixtisoslik ma’lumotini olishni ta’minlovchi hamda uch yil davomida tashkil etiluvchi kasb-hunar ta’limini yo’lga qo’yadigan o’quv yurtidir.

Kollejlarda kadrlar tayyorlash jarayoni ikki yoqlama tizim asosida amalga oshiriladi. O’quvchilarga beriladigan ishlab chiqarish ta’limi o’quv muassasasining ustaxonalarida va ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliyot bilan uzviy bog’liq holda olib boriladi.

Namunaviy va maktab o’quv rejasi.

Umumiy o’rta hamda o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) uchun tavanch o’quv rejasi davlat ta’lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy me`yoriy hujjat bo’lib, u na`munaviy va amaliy o’quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Tayanch o’quv rejasi davlat ta’lim standart tarkibiy qismi sifatida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning

konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Nima uchun o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq doirasini belgilab olish lozim?» mavzusida aqliy hujumni o'tkazishga doir ko'rsatmalar.

1. O'qituvchi savolni muhokama qilish uchun o'rtaga tashlaydi va o'ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.
2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketlikda yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo'lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.
3. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri javoblar ajratib olinadi.

2. Ta'lim mazmukini belgilab beruvchi zamonaviy g'oyalarni o'zlashtirishga doir muqobilini tanlab olish test.

1.Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining ustuvor o'rin tutishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini hurmat qilish, birinchi navbatda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o'z yo'llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko'zda tutadi	**A.Standartlashtirish**
2.O'quv dasturidagi soatlarga qo'shimchalar kiritish, chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan tarzda o'qitish.	**V. Amaliylashtirish**
3. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar va mavzularni qo'shib o'qitish, fanlar sonini kamaytirish va ixchamlashtirish.	**S.Insonparvarlashtirish**
4. Egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasini aniq belgilash.	**D. Tabaqalashtirish**
5. Nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirgan holda ularni amaliyotda faol qo'llay olishga tayyorlash	**J.Individuallashtirish**
6. O'quvchilarning alohida o'ziga xos-liklarini hisobga olgan holda o'qitish mazmunini belgilash.	**Ye. Integratsiyalash**

2. Talim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me'yoriy hujjatlarni o'rganishga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. O'rta-maxsus, kasb-hunar talimi muassasalarining tarmoq standartini quyidagi chizma asosida tahlil eting.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari TSlarining tuzilishi	Mazmuni
1. Qo'llanilish sohasi. 2. Me'yoriy hujjatlar. 3. Standartning maqsad va vazifalari 4. Ta'riflar 5. Kasbiy tavsifnoma 6. Kasb-hunar tayyorgarligining majburiy minimumi	

2-topshiriq. Quyidagi sxema asosida o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari o'quv rejasini tahlil eting.

1. O'quv jarayoni jadvali bo'yicha:

O'quv jarayonining tuzilishi	Haftalar soni

Nazariy va amaliy ta’lim	
Malakaviy amaliyotlar	
Bitiruv malakaviy ishi	
Joriy va davlat attestatsiyalari	
Ta’tillar	
Jami:	

2. *O‘quv rejasini o‘rganishga doir*:

№	O‘quv fanlari, integrallashgan kurslar va bloklarning nomlari	Umumiy o‘kuv yuklama	Jami	Nazariy	Laboratoriya	Amaliy	Seminar	Kurs ishi	Mustaqil ta’lim

3-topshiriq. Quyidagi chizma asosida biror bir fanning o‘quv dasturini tahlil eting.

Tushuntirish xati (tuzilishi va mazmuni)	Asosiy qism (tuzilishi va mazmuni)	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati (tuzilishi va mazmuni)

3.Pedagogik vaziyatlarni tahlil qiling:

Bir gazeta redaktsiyasiga VII sinf o’quvcnisining onasidan xat keldi:

“Hurmatli redaktsiya! Mening o’g’lim to’g’ri yo’l tutgan-tutmaganligini tushunib olishimda menga yordam bersangizlar. U VII sinfda o’qiydi. Yaqinda u maktabdan kelib geografiya darsida sodir bo’lgan bir hodisa haqida gapirib berdi. O ’qituvchi bir qizchani doskaga chiqaribdi va Yevropa daryolarining nomini doskaga yozishni undan so’rabdi. Qizcha alang-jalang qilib har tomonga va nomlarni kartadan ko’chirib yozibdi. O’qituvchi buni sezmabdi va :

-Juda yaxshi! Senga besh qo’yaman!- debdi.

Shunda mening o’g’lim qo’lini ko’tarib joyidan turibdi va qizcha nomlarning hammasini kartadan ko’chirib yozganligini aytibdi.

O’qituvchi qizchadan:

-Shu to’g’rimi?- deb so’rabdi.

U hech narsa demasdan boshini ham qilganicha jim turaveribdi. O’qituvchui uni aldashganlarini tushunibdi va beshning o’rniga ikki qo’yibdi.

O’g’limning bu gaplarini tinglab turdim, lekin uning bu ishda haq yoki nohaq ekanligi haqida nimagadir hech narsa demadim. Lekin har vaqt o’ylayman: u boshqacha yo’l tita olarmidi va boshqacha yo’l tutishi kerakmidi? Buni anglab olishda menga yordam bersangizlar”.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. Ana shu xatga asosli javob yozish sizga topshirilsa, nima deb javob bergan bo’lar edingiz?
2. O’qituvchinig o’rnida siz qanday ish tutgan bo’lar edingiz?
3. Shunga o’xshash voqeadan xabardor bo’lgan sinf rahbari o’rnida-chi? Javoblarning xarakteri o’quvchi yoshiga bo’g’liq-mi? Masalan, onaning savoliga (III sinf va VII sinf) o’quvchisi ko’rsatadigan reaktsiya bir hil bo’lishi mumkin-mi?

4. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan

tahlil qilinadi).

HULOSA VA MULOHAZALAR:

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg'ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifbi va o'z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

(Mashg'ulotga xulosa yasashdan oldin, o'qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to'la ochilmagan masalalarga o'qituvchi tomonidan yana bir bor to'xtalib o'tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

NAZORAT SAVOLLARI (235 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. «Ta'lim mazmuni» tushunchasini va ta'lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni o'rganish hamda tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyata», 2010. - B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. — B.29-31; Podlasy I.P. Pedagogika. — M: Visshee obrazovanie, 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. -M.: «Visshee obrazovanie», 2008).

2. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g'oyalar mazmun-mohiyatini yoritish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umu-miy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. -B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.29-31; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M.: «Visshee obrazovanie», 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. -M.: «Visshee obrazovanie», 2008).

3. DTS, o'quv rejasi, o'quv dasturi haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'rganish va konspekt qilish (O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (7-modda); Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « Fan va texno1ogiya » nashriyoti, 2008. -B.29-31; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M.: «Visshee obrazovanie», 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. - M.: «Visshee obrazovanie», 2008).

4. Darslik va uning vazifalari, unga qo'yiladigan talablar hamda o'quv qo'llanmalarining turlarini o'rganish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 31-32; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. -B.29-31; Podlasny I.P. Pedagogika. - M.: «Visshee obrazovanie», 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. - M.: «Visshee obrazovanie», 2008).

5. «Darslik va o'quv qo'llanmalarning bilim manbai sifatidagi ahamiyati shundaki...» mavzusida asoslangan esse yozish.

Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:

1) mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazaringizni bayon eting;
2) nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting;
3) mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

6. **9-sinf bitiruvchisini akademik litsey va kasb-hunar kollejiga yo'naltiruvchi tavsifnoma tayyorlash.**

7. Mavzuga oid ko'rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko'rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko'rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog'liqlikda chizma, jadval, rasmni qo'lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;
2) ko'rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mashg'ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA"LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o'yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x653, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

8-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Ta’lim metodlari va vositalari.
Ta’lim jarayonida zamonaviy metod va vositalardan foydalanish (2-soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Ta’lim metodlari va usullari haqida tushuncha. Ta’lim metodlarni tasniflashga turlicha yondashuvlar.
2. Sharq mutafakkirlari ta’lim metodlari haqida.
3. “Slayd” texnologiyasi asosida ta’lim metodlarining mohiyatini tavsiflash. Axborot vositalaridan foydalanishning afzalliklarini shaxsiy mulohazalar yordamida asoslash.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘kuv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. «Metod», «ta’lim metodi», «usul», «qoida» tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirish.
2. Ta’lim metodlarini tasniflashga doir zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish.
3. Ta’lim metodlarini o‘zlashtirishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. Ta’lim vositalarini o‘zlashtirish va ulardan foydalanishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.

Laboratoriya mashg‘ulotning maqsadi:

Talabalarning ta’lim metodlari va vositalariga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ulardan foydalanishga doir ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. «Metod», «ta’lim metodi», «usul», «qoida» tushunchalarining mohiyatini anglab olinishiga erishish.
2. Ta’lim metodlarini tasniflashga doir zamonaviy yondashuvlarni o‘ziga xosliklarini ajrata olishga o‘rgatish.
3. Ta’lim metodlarini o‘quv jarayoniga qo‘llash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Talabalarni ta’lim vositalaridan foydalanish va ularni yaratishga o‘rgatish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1.Metod», «ta’lim metodi», «usul», «qoida» tushuncha-larining mohiyatini tushunib olishadi.
2.Ta’lim metodlarini tasniflashga doir zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtiradilar.
3.Ta’lim metodlarini o‘quv jarayoniga qo‘llash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishadi.
4. Ta’lim vositalaridan foydalanish va ularni yaratishga o‘rganadilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Metod - grekcha metohodos - biron-bir narsani bilish yo’li degani. Metod, umuman olganda, ma’lum maqsadga erishish uchun yo’naltirilgan faoliyat usullari yig`indisidir.

O’qitish metodlari muammosi didaktikadagi eng asosiy, dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu masalaning to’g`ri hal etilishi orqali o’qitishning barcha sohalari samaradorligi tahmin etiladi. Yosh, endi ish boshlayotgan o’qituvchi o’quvchilarni bilmaslikdan bilishga tomon yetaklash borasida katta qiyinchiliklarga uchraydi. Qanday yo’l, usul yoki vosita bolalarning chuqur, mustaqil, keng qamrovli bilim olishini ta’minlaydi, ijodiy fikrlash sari yetaklay oladi, mustaqil bilish faoliyatini yo’lga qo’ya oladi? Bu masalani o’qitish metodlari hal etadi.

Ayni vaqtda, pedagogik manbalarda «ta’lim metodi» tushunchasiga berilgan ta`riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo’lish mumkin. Mazkur o’rinda ularning ayrimlarini keltiramiz:

№	Ta'lim metodlari
1.	Ta'lim metodi –zamonaviy darajada o'quv – tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir (V.I.Zagvyazinskiy)
2.	Ta'lim metodlari — o'quv jarayonining murakkab tarkibiy unsuri (komponenti) bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining barcha yo'nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o'rtasida ko'p sonli aloqa va bog'lanishlarni yuzaga keltiradi (G.I.Shukina)
3.	Ta'lim metodlari deganda o'qituvchining o`rgatuvchanligi va o'quvchilarning o'quv materialini egallashga yo'naltirilgan turli didaktik masalalar yechimini topishga oid o'quv—bilish faoliyatlarini tashkil etish usullari tushuniladi (I.F.Xarlamov)
4.	Ta'lim metodi — belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi algoritm lashtirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir (P.I.Podlasiy)

Shuningdek, ta’lim metodlarining o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari ekanligi to’g`risidagi fikrlar ham mavjud.

Ta’lim metodi tuzilmasi chizmada quyidagicha namoyon bo’ladi (M.N.Skatkin qarashlariga ko’ra):



Chizma. Ta`lim metodi tuzilmasi.

Chizmadan anglanib turibdiki, ta’lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib: faoliyatli tarkib: ta’lim vositalari.

Ta’lim metodlari ta’lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta’lim mazmunini o’zlashtirish yo’llari ifoda etiladi, o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomondan, ta’lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo’lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o’qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta’lim metodlari doimo u yoki bu o’qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o’zaro shartlanganligini ta`kidlash joiz.

O’qitish metodlari xarakteriga ko’ra ikki tomonlama ko’rinishga ega. U:

A)axborot va boshqaruv;

B)o’qish, o’rganish, o’rgatish, nazorat va o’z-o’zini nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Har bir metod qator elementlardan iborat bo’lib, ular usullar deb ataladi va u ushbu metodning foydali ish koeffitsientini, uning samaradorligini oshiradi.

Masalan, mashq metodida o’quvchi bajargan ishlarni tahlil etish, xatolarni ko’rsatish va h. k. Bu o’rinda mashq - bu metod; tahlil etish, xatolarni ko’rsatish usullardir.

Demak, metod qator samarali usullar yig`indisi o’laroq, bir qator didaktik vazifalarni bajaradi: yangi material bilan tanishtiradi, bilim va ko’nikmalarni egallash, ularni mustahamlash, amaliyotda qo’llash o’eratsiyalarini bajarishda qo’llaniladi.

O’qitish metodi hamma vaqt ikki muhim vazifani: boshqaruvchilik va ijrochilik vazifalarini bajaradi.

O’qitish metodlarining ta’sirchanligini oshirish uchun bir qator vositalar tizimi xizmat qiladi.

Vosita deganda, o’quv jarayonini jihozlashga, uni takomillashtirishga, ta’sirchanligini oshirishga yordam beradigan barcha narsa, hodisalar, ta’sir jarayonlari va boshqalar tushuniladi.

Masalan, kitoblar: (darslik, qo’llanmalar, programmalashtirilgan o’quv qo’llanmalari, daftarlar va h. k.); ko’rgazmali qurollar; maxsus jihozlangan kabinet, laboratoriya xonalarni; texnik vositalar; o’qituvchi obrazi va b. q. Bular kompleks holda u yoki bu metod samaradorligini oshirishga yordam beradi.

2. O’qitish metodlari tasnifi(klassifikatsiyasi)ga qo’yilgan asosiy talablar.

Har bir metod ma`lum ta’limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo’lishi mumkin. Universal ta’lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta’lim metodlaridan yoki ularning majmuisidan foydalanish mumkin.

Ta’lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- didaktik maqsad asosida;
- ta’lim mazmuni asosida;
- o’quvchilarning o’quv ko’nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;

Ta’lim metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko’p bo’lsada, bu borada yagona to’xtamga kelinmagan. Ushbu o’rinda, ta’lim amaliyotida qo’llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to’xtalib o’tamiz.

Ta’lim metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo’yicha tizimlashtiriladi.

Ta’limning mazkur bosqichida hal etilishi mumkin bo’lgan didaktik vazifalarga ko’ra guruhlash mumkin:

M.A.Danilov va B.P.Yesipovlarning qarashlariga ko’ra

1. **Bilimlarni egallash metodlari.**
2. **Ko’nikma va malakalarni shakllantirish metodlari.**
3. **Bilimlarni qo’llash metodlari.**
4. **Nazorat (bilim, ko’nikma va malakalarni mustahkamlash va tekshirish) metodlari**

4. Ta’lim mazmunini o’zlashtirishda o’quvchilar bilish faoliyatining xarakteri bilan bog`liq o’qitish metodlari:

I.Ya.Lerner va M.N.Skatkinlarning qarashlariga ko'ra
1. Izohli — tasvirli. 2. Reproduktiv. 3. Evristik yoki qisman – izlanuvchan muammoli bayon 4. Tadqiqotchilik

Didaktikada ta’lim metodlarining binar (ikki)li va ko’pbinarli omil asosida tizimlashtirishga bo’lgan urinishlarni ham kuzatish mumkin. Chunonchi, M.I.Maxmutov tomonidan ta’lim metodlari va o’qish metodlari ajratiladi:

M.I.Maxmutovning binarli ta’lim

Ta’lim metodlari	O’qish metodlari
1. Axboratli – ma’lumotlar. 2. Tushuntiruvchi. 3. Yo’riqli – amaliy. 4. Tushuntirish – undovchi. 5. Undovchi.	1. Bajaruvchi. 2. Reproduktiv (nomahsul). 3. Produktiv (mahsuldor) – amaliy. 4. Qisman izlanuvchi. 5. Izlanuvchi.

1. Axborotli-ma'lumotli va bajaruvchi.
2. Tushuntiruvchi va reproduktiv (nomahsul).
3. Yo'riqli-amaliy va produktiv (mahsuldor)-amaliy.
4. Tushuntiruvchi-undovchi va qisman izlanuvchi.
5. Undovchi va izlanuvchi.

Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:



O’qituvchi faoliyatida tez-tez qo’llaniladigan usullar:



MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg’uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og’zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma’lumotlarni o’rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So’ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar

1. «Talim metodlari» mavzusida chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi.

1. Suhbat. 2. Tushuntirish. 3. Ma’ruza. 4. Mashq. 5. Illyust-ratsiya. 6. Demonstratsiya. 7. Didaktik o‘yin. 8. Kitob bilan ishlash. 9. Videometod. 10. Hikoya. 11. Amaliy. 12. Laboratoriya.

Topshiriqni bajarishga doir ko‘rsatma:

1) chalkashtirilgan holda berilgan ta’lim metodlari bilan tanishing;

2) metodlarni jadvalda ko‘rsatilganidek, mos ustunga yozib chiqing.

Og‘zaki	Ko‘rgazmali	Amaliy

2. «Metod», «ta’lim metodi», «usul», «qoida» tushunchalarining mohiyatini o‘zlashtirishga doir to‘ldirilmagan jadvallar.

Topshiriq: Quyidagi to‘ldirilmagan jadvallar bilan tanishing va ularni tugallang.

1) An’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari tasnifi

An’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari tasnifi				
Og‘zaki	Ko‘rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod

2)O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi

Ta’lim metodining nomlanishi	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchn faoliyati

3)Ta’limning binar metodlari

O‘rgatish metodlari	**O‘rganish metodlari**

4)Interfaol metodlar		
O‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari	**Yangi materialni anglash metodlari**	**O‘rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar**

`

3. Ta’lim metodlarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Mutaxassislik fani bilan bog’liqlikda quyidagi metodlarni har birini qo‘llashga doir bittadan misol yozing.

1) suhbat; 2) o‘quv munozarasi; 3) mashq; 4) kitob bilan ishlash.

2-topshiriq. Kichik guruhlarga bo‘lining va og’zaki, ko‘rgazmali, amaliy metodlardan birini tanlab olib, biror mavzu misolida metodni amaliyotda qo‘llab ko‘rsating.

4. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan mukoma qilinad)i**.**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsif va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (237 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1.«Metod», «ta’lim metodi», «usul», «qoida» tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rganish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 114-117; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008. -B.223; Podlasiy, I.P. Pedagogika. - M.: «Visshee obrazovanie», 2008. - S.287-290; Pedagogika / pod.red. P.ILidkasistogo. - M.; «Visshee

obrazovanie», 2008. - S.189-191).

2.Ta'lim metodlarini tasniflashga doir zamonaviy yondashuvlarni o'rganish va tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 117-128; Podlasiy, I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008. - S.290-295; Pedagogika / pod.red. P.ILidkasistogo. -M.: «Visshee obrazovanie», 2008. - S.191-207.).

3. Ta'limning og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlarini o'rganish va konspekt qilish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 128-132; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. — T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008. - B.224-231; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008. - S.297-312).

4. Mavzuga oid ko'rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko'rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko'rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog'liqlikda chizma, jadval, rasmni qo'lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko'rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mashg'ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o'yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

9-LABORATORIYA ISHI.

MAVZU: Ta'lim shakllari. Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.

Oqituvchining darsga tayyorgarligi. Dars tahlili, uning turlari va vazifalari (2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. O'qituvchining darsga tayyorgarligi va uning bosqichlari.
2. Loyihalashtirish (rejalashtirish)ga qo'yiladigan talablar.
3. Darsga kirish va uni tahlil etish zaruriyati.
4. Dars tahlilining asosiy tarkibiy qismlari.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg'ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma'lumotlar to'plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o'tish.
6. Talabalarni mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).
4. Metodik ta'minotlar: plakatli ko'rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma'lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg'ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg'ulotining tuzilishi:

1. Dars va unga qo'yiladigan umumiy, didaktik, psixologik hamda metodyk talablarni aniqlashtirish.
2. Darsning turlari va tuzilishini o'zlashtirish.
3. An'anaviy va noan'anaviy dars turlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. Bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash va uni taqdimot qilish.

Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi:

Talabalarning dars va uning o'ziga xosliklariga doir nazariy nazariy bilimlarini mustahkamlash. hamda ularda darsni tashkil etish va o'tkazishga doir ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o'qituvchi faoliyati):

1. Dars va unga qo'yiladigan talablarning o'zlashtirilishiga erishish.
2. Darsning turlarini farqlay olish va ularning tuzilishidagi o'ziga xosliklarni ajrata olishga o'rgatish.
3. An'anaviy va noan'anaviy dars turlarini tashkil etishga doir ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish.
4. Talabalarni darsni loyihalash va rejalashtirishga o'rgatish.

O'quv faoliyati natijalari (talabalarning o'quv-bilish faoliyati):

1. Dars va unga qo'yiladigan talablarni bilib olishadi.
2. Darsning turlari (aralash, yangi bilimlarni bayon qilish, o'rganilganlarini mustahkamlash va takrorlash, o'quvchilarning BKMlarini nazorat qilish)ni farqlaydilar hamda ularning tuzilishini o'rganadilar.
3. An'anaviy va noan'anaviy dars turlarini tashkil etishga doir ko'nikma va malakalariga ega bo'lishadi.
4. Darsni loyihalash va rejalashtirishni o'zlashtiradilar.

NAZARIY MA'LUMOTLAR:

O'qitishning sinf-dars shakli**.**

Dars ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta`minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga rag`batlantiruvchi ta`sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog`liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

- aralash darslar;
- yangi ma`lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'yicha yoki umumlashtirishlarni anglab yetish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar;
- bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;

- malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'rganish darsi;
- o'z tuzilishi bo'yicha oddiy bo'lgan, ya`ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta sinflarda qo'llash uchun mos keladi).

Boshlang`ich sinflarda o'quvchilar yoshlarini hisobga olib o'quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o'rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to'g`ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu yerda ko'pincha ishlar boshqa turlarini o'z ichiga oladi: materialni og`zaki yetkazish, qiziqarli hikoyani o'qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan) yoki murakkab tuzilishli deb ataladi.

Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol-iavob, yangi materialni o'rganish, o'zlashtirishini dastlabki tekshirish mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o'rganilganlarni suhbat ko'rinishida takrorlash, o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

Darsga qo'yiladigan talablar**.**

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablarda o'zining aniq ifodasini topadi.

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg`or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta`minlash;
- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog`liqliklarni o'rnatish;
- ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tish.

Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog`liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi**.** Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta`minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta`minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko'zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish).

Shu bilan birga o'qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o'z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg`ulotning algoritmlari, samaradorligi bog`liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta`minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalardan mashg'ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so'raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Sevimli o‘qituvchimning darsi qiziqarli bo‘lishining sababi shundaki...» mavzusida asoslangan esse.

Topshiriqning bajarilish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o‘z nuqtai nazaringizni bayon eting.
2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.
3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

2. Dars va unga qo‘yiladigan talablarning o‘zlashtirilishiga doir ijodiy test topshirig‘i.

1.. Kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli.

2. Gapni davom ettiring.

Dars ta’limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi quyidagi o‘ziga xos belgalarga ega:...

3. Gapni tugallang.

Darsga qo‘yiladigan didaktik (yoki ta’lim)iy talablarga har bir darsnig ta’lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko‘rinishlaridan mos ravishda foydalanish ...

4. Kerakli so‘zni topib qo‘ying.

O‘quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo‘lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo‘yish, faqat o‘quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e’tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish kabilarning darsga qo‘yiladigan ... talablarni o‘zida aks ettiradi.

5. Gapni davom ettiring.

Darsga qo‘yiladigan rivojlantiruvchi talablarga o‘quvchilarda o‘quv-o‘rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o‘quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o‘rganish, xisobga olish, «rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish», «o‘zib ketish» darajasidagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish....

3. «Chalkashlikni aniqlang» didaktik o‘yini.

O‘yinni o‘tkazish tartibi:

1.O‘qituvchi doskaga yoki proektor orqali dars turlaridan birining tuzilishini yozadi. Darsning tuzilish o‘rnini almashtirish yoki boshqa dars turiga xos belgini yozish orqali chalkashlikkka yo‘l qo‘yadi.

2.Talabalar dars turi bilan tanishadilar va uning tuzi-lishida yo‘l qo‘yilgan xatolikni topadilar.

1) aralash dars:

a) tashkiliy qism;
b) o‘rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash;
v) o‘quvchilarni baholash;
g) yangi mavzuni bayon qilish;
d) uy vazifasi.

2) yangi bilimlarni bayon qilish darsi:

a) yangi mavzuni bayon qilish;
b) o‘rganilganlarini mustahkamlash;
v) o‘quvchilarni baholash;
g) uy vazifasi.

3*) o‘rganganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi:*

a) tashkiliy qism;
b) o‘quvchilarni baholash;
v) uy vazifasi.

4) o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsi:

a) tashkiliy qism;

b) o‘rganilganlarini takrorlash;

v) o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash;

g) uy vazifasi.

4. Kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan an’anaviy va nostandart dars turlarini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash asosida aralash darsni ko‘rsatib berish.

1-guruh: darsning tashkiliy qismi va o‘tilgan mavzuni takrorlashni ko‘rsatib beradi;

2-guruh: yangi o‘quv materialini bayon qilish tartibini tushuntirib beradi;

3-guruh: o‘rganilganini mustahkamlash, o‘quvchilarni baholash va uy vazifasi berishni amalga oshiradi.

Mazkur topshiriqni bajarishda o‘qituvchi zig-zag metodiga asoslanadi. Ya’ni, har bir kichik guruh o‘ziga berilgan topshiriqni bajarib bo‘lgach, bir-birlari bilan o‘zaro almashinuv asosida o‘tkaziladigan dars haqida yaxlit tasavvur hosil qilinadi. Talabalarda o‘tkaziladigan dars haqida yaxlit tasavvur hosil bo‘lgach, kichik guruhlar navbati bilan o‘zlariga berilgan vazifalarning taqdimotini o‘tkazishadi.

Topshiriqni bajarish oldidan guruh bilan kelishilgan holda, mutaxassislik bilan bog‘liq biror mavzuni tanlab olish maqsadga muvofiq.

2-topshiriq. Kichik guruhlarda nostandart darslardan lavha ko‘rsatish.

1-guruh uchun: konferensiya darsini o‘tkazilishini ko‘rsatib berish.

2-guruh uchun: musobaqa turidagi darsni tashkil etish.

3-guruh uchun: o‘yin tipidagi dasrni namoyish etish.

5. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

6. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan muhokama qilinadi**).**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifbi va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (238 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. Dars va unga qo‘yiladigan umumiy, didaktik, psixologak hamda metodik talablarni o‘rganish hamda tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. — B. 152-154; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.234-238; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008. - S.333-337).

2. Darsning turlari va tuzilishini o‘zlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 152-154; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.234-238; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008. - S.333-337).

3. Noan’anaviy dars turlari bilan tanishish va ularning an’anaviy darsdan farqli jihatlarini aniqlash (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. -T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. -B. 152-154; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. — T.: « Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.234-238; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008. - S.333-337).

4. Bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlash. Bir soatlik dars ishlanmasini tayyorlashda

quyidagi chizmaga asoslaning:

Mavzu	
Maqsad: **a) ta'limiy** **b)tarbiyaviy** **v)rivojlantiruvchi**	*
Vazifalar	
O'quv jarayonining Mazmuni	
O'quv jarayonini amalga oshirish Texnologiyasi	**Metod:** **Shakl:** **Vosita:** **Usul:** **Nazorat:** **Baholash:**
Kutiladigan Natijalar	**O'qituvchi:** **O'quvchi:**

4. Topshiriq. Darsda o'rganilgan yangi material ustida kuzatish o'tkazing.

Kuzatish uchun savollar:

1) Darsda yangi materialni urganish nimadan boshlandi? Yangi materialga o'tish paytini aniq ajratishning imkoniyati bormidi? Yangi materialni o'rganish qanday tuzilgan edi?

2) Yangi temani urganish davrida o'qituvchi tomonidan qanday ta'lim vositalari ishlatilgan? Ular material xarakteri bilan qanchalik muvaffaqiyatli bog'langan? Ular o'quvchilar bilish faoliyatining qaysi tipini (reproduktiv, ijodiy) tashkil qilishga yordam beradi?

3) O'qituvchi qanaqa ta'lim metodidan foydalangan? Ular darsning maqsadi, o'quvchilarning yosh xususiyati, materialning xarakteriga qanchalik javob berardi?

4) O'qituvchiga barcha o'quvchilar aktiv faoliyatini qamrab olishning imkoni bo'ldimi? Ko'rilgan qaysi savollar bo'yicha bolalar faolligi ko'proq edi?

5) O'qituvchi uzi tanlagan ta'lim metodini qanday egallagan? U qaysi usuldan ko'proq foydalanadi? Nima sababdan shunday bo'lib qolgan?

6) Darsdan so'ng o'quvchilarning birontasi bilan darrov suhbatlashing, u yangi materialni tushunib olgan-olmaganligini, uni qanchalik. chuqur idrok qila olganligini aniqlang.

7) Ana shu darsda yangi materialni urganishda uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida siz nimalarni o'zgartirgan bo'lardingiz?

O'zingizning o'quv rejangizning variantini va qisqacha dalillarni bering. O'z o'rtog'ingiz ishtirokida bayon etilganlarni qayta takrorlang (qayta mashq qiling). Ularning fikrlarini so'rang.

5. Mavzuga oid ko'rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko'rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko'rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog'liqlikda chizma, jadval, rasmni qo'lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko'rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mashg'ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o'yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

10-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Ta’limni tashxis etish.
O’quvchilarning bilim, konikma va malakalarini nazorat qilish va baholash jarayonini tashkil etish (2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. O‘quvchilar bilimini tashhis etish. Ta’lim natijalarini nazorat qilish.
2. O‘quv faoliyatini nazorat qilish shakllari, metod va vositalari.
3. O‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari.
4. “Kichik esse” texnologiyasi yordamida ta’lim olganlikni tashxis qilish layoqatlariga egalliklarini aniqlash.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Ta’lim olganlikni tashxis etishning tarkibiy qismla-rini o‘zlashtirish.
2. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish.
3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlarini o‘rganish.
4. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishga doir muammoli vaziyatlarni hal etish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarni ta’lim olganlikni tashxis etishga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularni o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini to‘g‘ri baholashga o‘rgatish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati)

1. Ta’lim olganlikni tashxis etishning tarkibiy qismlarini o‘zlashtirilishiga erishish.
2. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalarini farqlay olishga o‘rgatish.
3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashga o‘rgatish.
4. Talabalarda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish ko‘nikma va

malakalarini tarkib toptirish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyatini bilib oladilar.
2. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalarini o‘zlashtiradilar.
3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlarini o‘rganadilar.
4. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish ko‘nikma va malakalarini egallaydilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Diagnostika (tashxis)— bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Ta’lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta’lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta’lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning *maqsadi* o’quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog`liq holda, o’z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Yuqoridagilardan ma`lum bo’ladiki, tashxis ta’lim oluvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini anpanaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma`no kasb etadi. Ta’limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo’llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta’lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi.Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma`lumotlar to’plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o’z ichiga oladi.

O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo’lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg`in munozaralar davom etmoqda. Avval bo’lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko’rsatishi lozimligi: ta’lim oluvchi o’zlashtirishning qat’iy belgilovchisi sifat ko’rsatkichi bo’lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta’lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko’rsatkichi bo’lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda.

Tashxislash tizimida baho rag`batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo’ladi. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo’llanishi mumkin bo’lgan tashxislash natijalari shaxsning o’z darajasini belgilashga ko’maklashadi, bu esa raqobatli ta’lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta’lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o’tmishda ko’plab o’quvchilar uchun majburiy ta’limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting — insonning jamiyatdagi mavqei ko’rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.



Chizma. Tashxislashning asosiy tarkibiy qismlari

O’quvchilarning o’quv faoliyatini nazorat qilish metodlari quyidagilar: *og`zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.*

O’zlashtirishni diagnostika qilish.

O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholash mezonlari. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo’lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini baholash
mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o’quvchilarning o’zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, baholash mezonlarini ishlab chiqishda o’quvchilarning og`zaki javob berishlari, ko’nikma va malakalariga alohida-alohida yondashiladi. Masalan, ximiya darsidan baholash mezonlariga o’quvchilarning og`zaki javoblari, amaliy to’shiriqlarni bajara olishlari va amalda mavjud bilimlarini namoyish eta olishlari inobatga olinadi. Buni «4» baho misolida aniqlashtiramiz.

Og`zaki javob berishda «4» baho qo’yiladi, agar:

a) o’rganilayotgan mavzu yuzasidan to’g`ri javoblar bersa;

b) material mantiqiy ketma-ketlikda aniq bayon etilsa;

d) o’qituvchi talabi bilan tuzatilgan ikki-uchta unchalik ahamiyatga ega bo’lmagan xatolarga yoki ba`zi to’liq bo’lmagan javoblarga yo’l qo’ysa.

Yozma topshiriqni bajarishda «4» baho qo’yiladi, agar:

a) masalani yechishda va izohlashda muhim xato bo’lmasa;

b) to’shiriqni bajarish va izohlashda muhim ahamiyatga ega bo’lmagan bir-ikki xatoga yo’l qo’yilsa yoki bitta izohning mohiyati ochib berilmagan bo’lsa.

Amaliy bilimlarni namoyish etishda «4» baho qo’yiladi, agar:

a) ishni to’liq, muhim xatolarsiz bajarsa, natija chiqara olsa;

b) ishni bajarishda, tajribani tugallashda ikki-uch muhim bo’lmagan xatolarga yo’l qo’ysa.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5»baho qo’yiladi, agar:

a) o’quvchi dasturdagi materialni to’liq o’zlashtirib olgan bo’lsa;

b) o’rganilgan mavzu bo’yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa;

e) egallangan bilimlarni amalda erkin qo’llay olsa;

g) o’rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo’l qo’ymasdan, ma`lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4»baho qo’yiladi, agar:

a) o’quvchi o’rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa;

b) o’qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa;

e) egallangan bilimlarni amaliyotda qo’llay olsa;

g) og`zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo’l qo’ymasdan, o’qituvchining qo’shimcha savollari bilan xatolarini to’g`rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo’lmagan xatoga yo’l qo’ysa.

«3»baho qo’yiladi, agar:

a) o’quvchi o’rganilgan mavzuni o’zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o’qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa;

b) savollarning mantiqiy tuzilishini o’zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa;

e) yozma ishda xatolari bor bo’lsa.

«2» baho qo’yiladi, agar:

a) o’quvchi o’rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o’zlashtirmagan;

b) yozma ishda qo’pol xatolarga yo’l qo’ysa.

MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg’uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og’zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «O'qituvchimiz bizni qanday baholar edi?» mavzusida erkin yozish topshirig'i.

Topshiriq:

«O'qituvchimiz bizni qanday baholar edi?» mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni daftarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.

2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tugaganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

2. «O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari» mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi.

1) og'zaki;	2) test;	3) uy vazifasi;
4) ommaviy;	5) o'z-o'zini nazorat qilish;	6) yozma;
7) individual;	8) amaliy:	9) joriy;
10) aralash;	11)oraliq;	12)guruhli;
13)yakuniy		

Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:

1) chalkashtirilgan holda berilgan ta'lim metodlari bilan tanishing;

2) metodlarni jadvalda ko'rsatilganidek, mos ustunga yozib chiqing.

Nazorat turlari	Nazorat shakllari	Nazorat metodlari

3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baqolashga doir amaliy topshiriqlar.

Quyidagi masalalar bilan tanishing va ularning yechimini toping.

1-masala. Talaba «Pedagogikaning asosiy kategoriyalari» haqida gapirayapti. Asosiy kategoriyalarni sanadi, lekin ularni to'liq aytib bera olmayapti. O'qituvchining yordamchi savollariga ehtiyoj sezdi. O'qituvchining savollari yordamida xatolarni to'g'rilay oldi. Unga nechchi baho qo'yish mumkin?

2-masala. Talabadan o'z yozma ishida metod va usul tushunchalarining mohiyatini ochib berish so'raldi. Talaba o'z yozma ishida metod va usul tushunchalariga to'g'ri ta'rif bergan. Quyidagicha misol keltirgan: «ma'ruza - bu metod. Mavzuni aniqlash rejasini tuzish, ularni bayon etish, umumlashtirib xulosalash esa usullari bo'la oladi». Talabaning yozma ishini baholang.

3-masala. Talaba og'zaki metodlarni sanab bera oldi. Lekin ularning mohiyatini ochib bera olmadi. Biroq har biriga misol keltira oldi. Unga qanday baho qo'ysa bo'ladi?

4-masala. Talaba pedagogika fanidan seminarni to'liq va to'g'ri yozib kelgan. Lekin o'qituvchi savol. berganida daftardan javobni o'qib berayapti. Unga «4» ball qo'ysa bo'ladimi?

5-masala. Mutaxassislik fanidan biror mavzuni tanlab oling hamda mazkur mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

5. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishga doir muammoli vaziyatlar.

Quyidagi muammoli vaziyatlar bilan tanishing va ularning yechimini toping.

1-muammoli vaziyat. Siz ishlaydigan kollejdagi bir nechta o'quvchiga o'zingiz o'tayotgan fandan 1-semestr bo'yicha baho qo'ymadingiz. Biroq o'quv yili yakunida jurnalda mazkur o'quvchilarga baho qo'yilganining guvohi bo'ldingiz. Siz o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga uchrashdingiz. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ularga bahoni guruh rahbari qo'yib yuborganini aytdi. Mazkur vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

2-muammoli vaziyat. Geografiya darsiga har doim tayyor bo‘lib keladigan Sunnatni o‘qituvchi doskaga chaqirdi. Biroq u tayyor emasligini aytdi. O‘qituvchi unga ikki baho qo‘ydi. Sunnat indamasdan joyiga o‘tirdi. Sunnatning uch kun oldin buvisi vafot etgan edi, shuning uchun u darsga tayyorlana olmagan edi. Siz sababini bilgan va bilmagan holatda tutishingiz mumkin bo‘lgan vaziyatni sharhlang.

3-muammoli vaziyat. Sergeli tumanidagi 268-maktabning biologiya fani o‘qituvchisi «Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari» bo‘lganligi uchun darslarni ham vaqtida o‘ta olmas edi. Darslarni o‘tgan vaqtida ham o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini nazorat qilib bormasdi. O‘quv yilning birinchi choragi tugab, o‘quvchilar ta’tilga chiqishganida o‘qituvchi ularning choraklik baholarini qo‘yib qo‘ygandi. II chorak boshlangach o‘quvchilar sinf rahbarlaridan biologiya fanidan qo‘yilgan baholarni eshitib hayratlanib qolishdi. Chunki baholar o‘quvchilar tomonidan olinmagan edi.

1. O‘qituvchi to‘g‘ri ish qilgan deb o‘ylaysizmi?
2. O‘qituvchi ta’lim olganlikni tashxislashning qaysi tamoyillarini buzgan?
3. O‘qituvchining o‘quvchilarni o‘quv faoliyatini bunday nazorat qilishi ularning bilim olishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadimi?

6. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

7. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi).

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifni va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (240 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

***Qo’simcha izoh sifatida:** Mashg’ulotning yakunida talabalarga butun semestr davomida to’plagan ballari e’lon qilinadi. Ushbu mashg’ulot shu semestr uchun yakuniy mashg’ulot bo’lganligi sababli, asosan, joriy nazorat uchun yetarli ball to’play olmagan yoki to’plagan ballarini ko’tarmoqchi bo’lgan talabalarga ko’proq vaqt ajratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Semestr yakunida o’qituvchi talabalarni quyidagi mezon asosida baholaydi:

A’lo- 11-13ball

Yaxshi-9,3-10,9ball

Qoniqarli-7,1-9,1ball.

Qoniqarsiz-0-7ball.

(O’qituvchi bir mashgulotning o’zida guruhdagi barcha talabalarni baholashga imkoniyati bo’lmasligi mumkin. Bunday holatda JN o’tkazilganda talaba dars mashg’ulotlari davomida kamida 3-4 marta baholangan bo’lishi kerak. Shunda, talabaning JN (og’zaki yoki yozma) topshiriqlarini bajarish holatiga qarab umumiy baho chiqariladi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyatini o‘rganish va uning tarkibiy qismlarini aniqlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 159-161; Podlasiy I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn 1. - M.: «VLADOS», 1998).

2.O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish shakl, metod va vositalarini o‘rganish va tizimlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 159-161; Podlasiy I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn 1. - M.: «VLADOS», 1998).

3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlarini o‘rganish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 159-161; Podlasiy I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn 1. - M.: «VLA-DOS», 1998).

4. Topshiriq. Darsda o'quvchilar bilimini tekshirish yuzasidan kuzatish o'tkazish.

Kuzatish uchun savollar:

1) Bilimni tekshirib ko'rish darsda qanday o'rinni egallaydi? O'quvchilar bilimini tekshirib ko'rishga o'qituvchi qancha vaqt sarflaydi? Qancha o'quvchidan so'radi? Qanday baholar qo'yildi?

2) O'qituvchi o'quvchilar bilimini tekshirishga qaysi shakllarni (frontal so'rash, individual so'rash, o'quvchilarning mustaqil ishi, sharhli mashqlar, perfokarta va hokazolarni) ishlatadi?

3) O'qituvchi savollarining shakllarini qayd qiling. Ular bilish faoliyatining qanday turini keltirib chiqaradi? Hamma savollarga to'laqonli aniq javob berilmadi?

4) Bilimni tekshirish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi orasida qanaqangi o'zaro uslub mavjud? Bilimga q'yiadigan baho qanday amalga oshiriladi? O'qituvchi qanday baholash mulohazasini (ijobiy, salbiy, neytral) hammadan ko'proq ishlatadi? O'qituvchining baholash mulohazalaridan misollar keltiring. Savol-javob paytida bular o'quvchilarning faolligini oshirishga qanday ko'mak beradi?

5)Savol-javob va boshqa tekshirish metodlarini mukammallashtirishga hamda maktabning o'quv jarayonida qo'yiladigan yangi talablar nuqtai nazaridan turib bilimni baholashga qanday takliflarni kiritish mumkin?

5. Mavzuga oid ko'rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko'rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko'rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog'liqlikda chizma, jadval, rasmni qo'lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko'rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mashg'ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o'yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

IV-SEMESTR

11-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya tamoyillari.

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Tarbiya haqida tushuncha. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari.
2. Sharq mutafakkirlari barkamol shaxs tarbiyasi haqida.
3. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov komil insonni tarbiyalashning ijtimoiy ahamiyati to‘g‘risida. Ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari.
4. Xorijiy mamlakatlar tarbiya konsepsiyasining asosiy g‘oyalari.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Kichik dars o’tish.
5. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish.
2. Yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar va ularning mohiyatini o‘zlashtirish.
3. Prezident Islom Karimov asarlarida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish masalasining aks etishini o‘rganish va tahlil etish.
4. Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvni tatbiq etishning afzalliklari va ahamiyatini baholash.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning tarbiya jarayonining mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda tarbiya jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalarining o‘zlashtirilishiga erishish.
2. Yuksak manaviy-axloqiy fazilatlar va ularning mohiyatini ochib berish.
3. Prezident Islom Karimovning har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga doir fikrlari - milliy tarbiyaning metodologik asosi ekanligini asoslash.
4. Talabalarni tarbiya jarayonini loyihalash va rejalashtirishga o‘rgatish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalarini o‘zlashtiradilar.
2. Yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar va ularning mohiyatini bilib oladilar.
3. Prezident Islom Karimov asarlaridagi har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga doir fikrlarni o‘zlashtiradilar.
4. Tarbiya jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkonini beradi.

Yuksak madaniyatli mutaxassisni ma’naviy - axloqiy tarbiyalash milliy tarbiyaning bosh maqsadi. Bu maqsad jamiyatning alohida bir olingan ehtiyojlarni aks ettirishini, uning mohiyatini, ideal talablarini, o‘ziga xosligi va fazilatlarini, hayotga munosabatini, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik rivojlanishini nazariy asoslaydi va umumlashtiradi.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki axloq va munosabatlarni aks ettirishidir.

Milliy pedagogika o‘qituvchi, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta’sir ko‘rsatishi emas, balki tarbiyachilarning anik bir maqsadga karatilgan o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi ekanligini ta’kidlaydi. Zero, tarbiya mukammal shaxsni quvvatini, kobiliyatlarini, mafkuraviy, ma’naviy-madaniy sifatlarini, ongi va axloqini shakllantirishni nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, xarakter xislatlari, g’oyaviy - axloqiy, irodaviy, estetik, sifatlari shallanadi, olamga, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy, aqliy, kuchlar mustahkamlanadi, harakat sifatlari va ko‘nikmalari rivojlanadi. Har tomonlama garmonik rivojlangan barkamol inson tarbiyasi uchun imkon yaratiladi.

Tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy ta’siri ular faoliyati, munosabatlarini, shaxsning turli qirralarini muntazam va reja asosida maqsadga muvofiq tashkil qilishni nazarda tutadi. Tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy roli bir xil emas.

Tarbiya prinsiplari - bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishi, mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablarni ifodalaydigan dastlabki qoidalardir.

Ular:

1.Tarbiyaning turmush, ijtimoiy hayot bilan boglab olib borish prinsipi.
2.Mehnat yordamida, ijtimoiy foydali faoliyat jarayonida tarbiyalash prinsipi.
Z.Shaxsni jamoada, jamoa uchun va jamoa yordamida tarbiyalash prinsipi.
4.Tarbiyada o‘quvchi hulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy xususiyatlariga bardosh berish prinsipi.
5.Tarbiyada o‘quvchi shaxsini hurmat qilish va talabchanlik prinsipi.
6.O‘quvchilarni tarbiyalashda ularning yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish prinsipi.
7.Tarbiyaviy ta’sirlarni muntazam olib borish va ketma - ketligi prinysipi.

Mustaqil Respublikamizda xalq ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlarda asosiy maqsad ham barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir. «Barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog’lom qilib o’stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko’rish, dunyoda hech kimdan kam bo’lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi», deb ta'kidlagan edilar Prezidentimiz I.A.Karimov «Barkamol avlod yili» Davlat dasturida.

Ta'lim sohasida «Ta'lim to’g’risida»gi Qonun qabul qilinganligi, 1996-1997 yildan boshlab birinchi sinflarda o’qishning lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda olib borilgani, ular uchun yangi alifboda dastur, qo’llanma, darsliklarning yaratilganligi - bu ta'lim sohasida qo’yilgan dastlabki odimlar edi.

O’tgan davrda yangi turdagi ta'lim muassasalari tashkil etildi. Oliy o’quv yurtlari qoshida litseylar ochildi. qobiliyatli o’quvchilar chet ellarda ta'lim ola boshladi. O’qituvchilar xorijiy davlatlarda bo’lib, ilg’or tajribalarni o’rganib kela boshladilar.

Viloyatlarda yangi - yangi biznes maktablari, kichik va o’rta kasb hunar kurslari ochila boshladi va bozor iqtisodi sharoitida fermer, soliq va bojxona xodimlari, audit v.b. yangi mutaxassisliklar kiritildi.

Oliy maktab sohasida test usuli joriy etildi. Viloyatlardagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi, chet el mutaxassislari respublikamiz o’quv muassasalariga jalb etildi.

Respublikamizda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi, Bank va Moliya akademiyasi tashkil etildi.

«Mahalla», «Kamolot», «Sog’lom avlod uchun», «Nuroniy», «Ulug’bek», «Umid» jamg’armalari xam ta'lim sohasini rivojlantirishga hissalarini qo’shmoqdalar.



MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg’uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og’zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma’lumotlarni o’rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So’ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Tarbiya jarayonida hamma vaqt ko‘zlangan maqsadga erishish mumkinmi?» mavzusida aqliy hujumni o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar:

1. O‘qituvchi savolni muhokama qilish uchun o‘rtaga tashlaydi va o‘ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.
2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketliqsa yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo‘lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.
3. Hamma o‘z fikrini bildirib bo‘lgach, o‘qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda

muhokama qiladi va to‘g‘ri javoblar ajratib olinadi.

2. Insert metodi asosida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni belgilash.

Topshiriqni bajarishga doir ko‘rsatma.

Quyida berilgan ma’naviy-axloqiy fazilatlar bilan tanishing. Insert belgilari asosida ular orasidai yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni belgilab oling:

«+»- yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatga tegishli ekanlikni; «-» — tegashli emaslikni; «?» - aniq tasavvurga ega emaslikni ifoda etadi.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlar majmui.

1. Insonparvarlik.	2. Oliyjanoblik.	3. Saxiylik.
4. Rostgo‘ylik.	5. Mas’uliyatlilik.	6. Tartiblilik.
7. Ozodalik.	8. Halimlik.	9. Mehnatsevarlik.
10. Mehribonlik.	11. Hamdardlik.	12. Ochiqko‘ngillilik.
13. Mehmondo‘stlik.	14. Halollik.	15. Mag‘rurlik.
16. Do‘stlik.	17. Sabrlilik.	18. Qanoatlilik.
19. Xushchaqchaqlik.	20. Xushmuomalilik.	21. Orastalik.
22. Iboli bo‘lish.	23. Kamtarlik.	24. Kamsuqumlilik.
25. Adolatparvarlik;	26. Iqrorlik.	27. Tolerantlik.
28. Oqillik.	29.Odillik.	

3. «Tugallanmagan gaplar metodikasi» asosida Prezident Islom Karimov asarlaridagi har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga doir fikrlarni o‘zlashtirish

Topshiriq. Prezident Islom Karimov asarlaridan keltirilgan quyidagi fikrlarni tugallang:

1. Tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini**...** (Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T.: «O‘zbekiston», 1996. - B.34.)

2. Inson uni Inson darajasiga ko‘taradigan asoslarning asosini o‘z^aqli bilan tom ma’noda qamray olmaydi. Inson o‘zini xalqning bir zarrasi, deb sezgandagina ... (Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. 1-jild. - T.: «O‘zbekiston», 1996. -B.81.)

3. Ma’naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ikki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan ... (Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. - T.: «Ma’naviyat», 2008. - B. 19-20).

4. Vijdoni uyg‘oq odam yon-atrofida bo‘layotgan voqealarga ... (Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma’naviyat», 2008. - B.27-28).

5. Har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki ... (Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma’naviyat», 2008.-B.ZO.)

6. Tarbiya jarayonini loyihalash va rejalashtirishga doir keys topshirig’i

Quyidagi chizmalarga e’tibor qarating. Ularning ostida berilgan jumlalarni chizmada shunday joylashtiringki, natijada tarbiyaviy tadbirlarni texnologik yondashuv asosida tashkil etish modeli paydo bo‘lsin.

Chizma. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish texnologiyasi.



1) maqsad; 2) jarayonni loyihalash;
3) jarayonni amalga oshirish; 4) jarayonnni nazorat qilish va tahlil etish;

5) tarbiyachi; 6) natija.

Chizma. Tarbiya texnologiyasining funksional tuzilmasi.



1) maqsad; 2) loyihalashtirish bloki;
3) ijro bloki; 4) tarbiya jarayoni;
5) baholash - tahlil qilish bloki; 6) to‘siqlar;
7) tashqi shart-sharoitlar.

4. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Dars o’tilgach, uni o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi).

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifni va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (244 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalarini o‘rganish hamda tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2008; Podlasiy I.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. -M.: «Visshee obrazovanie», 2008).

2.Yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar va ularning mohiyatini o‘zlashtirish (Hasanboev J., Turopova M., Hasanboeva O. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. - T.: «G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti», 2002; Nishonova S. Ma’naviyat darslari. - T.: «O‘qituvchi», 1994; Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izoh-li lug‘ati // tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov. — T.: «G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi», 2010; Mavrulov A. Ma’naviyat barkamol inson tarbiyasi. - T.: «O’zbekiston», 2008).

3. Prezident Islom Karimov asarlarida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish masalasining aks etishini o‘rganish va konspekt qilish (Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. - T.: «O‘zbekiston», 1992; Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. 1-jild. - T.: «O‘zbekiston», 1996; Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T.: «O‘zbekiston», 1996; Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz.

8-jidd. - T.: «O‘zbekiston», 2000; Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. — T.: «Ma’naviyat», 2008).

4. Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvni tatbiq etishning o‘ziga xosliklarini o‘rganish (Ishmuxammedov R.J., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - T., 2010; Kukushin V.S. Teoriya i metodika vospitatelnoy rabotn. — Rostov-na Donu: Mart, 2002; Podlasiy T.P. Pedagogika. - M: «Visshee obrazovanie», 2008; Pedagogika / pod.red. P.I.Pidkasistogo. - M.: «Visshee obrazovanie», 2008).

5.Xorijiy mamlakatlar tarbiya konsepsiyasining asosiy g‘oyalari bilan tsanishish.

6. Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mashg’ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Baxs munozara, Amaliy o’yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

12-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Tarbiya metodlari.

Tarbiya metodlarining tavsifi. Sinf rahbari(kurator)ning ma naviy-marifiy ishlar rejasini loyihalashtirish
(2 soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. O’qitish metodlari to’g’risida umumiy tushuncha.
2. O’qitish metodlari klassifikatsiyasiga qo’yilgan asosiy talablar.
3. Sinf rahbari (murabbiy)ning vazifalari va shaxsiy sifatlari.
4. Sinf rahbari (murabbiy)ning faoliyati. Sinf rahbari (murabbiy)ning ish rejasi.
5. Sinf rahbari (murabbiy)ning shaxs va jamoani o‘rganish hamda tarbiyalash ishlarini rejalashtirish.
6. Sinf rahbari (murabbiy)ning tarbiyaviy ishlar daftari.
7. Sinf rahbari (murabbiy) sifatida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash loyihasini tuzish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagog`ik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash..
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).
4. Metodik ta'minotlar: plakatli ko'rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma'lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg'ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg'ulotining tuzilishi:

1. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalarini farqlash hamda tarbiya metodlari tasnifini o'zlashtirish.
2. Shaxs ongini shaklantirish metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
3. Shaxsning xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
1. Jamoa va uning o'ziga xosliklarini aniqlashtirish.
2. O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini o'zlashtirish.
3. Guruh rahbarining tarbiyaviy funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarini o'rganish.
4. Guruh rahbarining haftalik va yillik ish rejalari bilan tanishish va biror yo'nalish bo'yicha mustaqil ish reja tuzish.

***Laboratoriya mashg'ulotining maqsadi*:**

1.Talabalarning tarbiyaning umumiy metodlariga doir nazariy nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda tarbiyaviy jarayonda tarbiya metodlaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

2. Talabalarning o'quvchilar jamoasi va unga rahbarlik qilishga doir nazariy nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda o'quvchilar jamoasini tashkil etish va boshqarish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o'qituvchi faoliyati):

1. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalarini farqlay olishga o'rgatish hamda tarbiya metodlari tasnifining o'zlashtirilishiga erishish.
2. Shaxs ongini shakllantirish metodlarini amaliyotda qo'llay olish tajribasini hosil qilish.
3. Shaxsning hulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish.
4. Shaxsning hulq-atvorini motivatsiyalash va rag'batlantarish metodlarini to'g'ri qo'llash mahoratini tarkib toptirish.
5. Jamoa va uning o'ziga xos belgilarini ajratib ko'rsatish.
6. O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini aniqlashtirish.
7. 3.Talabalar tomonidan guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarining o'zlashtirilishiga erishish.
8. Guruh rahbarining ish rejasini tuzish va uni amalga oshirish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

O'quv faoliyati natijalari (talabalarning o'quv-bilish faoliyati):

1. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalarini farqlaydilar hamda tarbiya metodlari tasnifini o'zlashtiradilar.
2. Shaxs ongini shakllantirish metodlarini amaliyotda qo'llash tajribasiga ega bo'lishadi.
3. Shaxsning hulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini egallaydilar.
4. Shaxsning hulq-atvorini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlarini to'g'ri qo'llashga o'rganadilar.
5. Jamoa va uning o'ziga xos belgalarini bilib oladilar.
6. O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini o'zlashtiradilar.

7. Guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarini o‘rganadilar.
8. Guruh rahbarining ish rejasini tuzish va uni amalga oshirish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Tarbiya metodlari va ularning guruhlanishi.

Mamlakatimizdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy - ma’rifiy islohotlar, shuningdek, yurtboshimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, «O‘z kuchi salohiyatiga ishonadigan, boqimandlikni or, deb biladigan eng rivojlangan mamlakatlarning ilg’or kishilari bilan teppa-teng muomala qila oladigan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratib biladigan, bu murakkab, beshavqat hayotning past - baland, tangu - tor ko‘chalaridan Olloh bergan aql -zakovati bilan to‘gri yo‘lni adashmay topa olishga qodir bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qilmoqda» zero, fikri teran, e’tiqodi sog’lom mutaxassislar hech qachon milliy ma’naviyatimizni ta’kirlamaydi, mafkuramizga zid harakatlarga, soxta oqimlarga qo‘shilmaydi. Bunday shaxslarni tarbiyalashda tarbiya metodlari, tarbiya nazariyasi bobi muhim ahamiyatga molikdir.

Tarbiya metodlari bu o’qituvchi - tarbiyachi va jamoa tomonidan goyaviy -axloqiy e’tiqodlar, siyosiy bilimlar, xis–tuyg’u va odatlar, did, fahm -farosat, iymonni tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullaridir. Shuningdek, tarbiya metodlari tarbiyalanuvchining o‘z shaxsini takomillashtirishga, harakat qilishni ham nazarda tutadi. Shuning uchun tarbiya metodlarini pedagogika fanida tarbiyachi va tarbiyalanuvchining tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o‘zaro boglangan faoliyati usuli sifatida ko‘rib chiqish tavsiya etiladi. Tarbiya metodini ba’zi ilmiy pedagogik adabiyotlarda tarbiya usullari deb ishlatish tavsiya qilingan. «Metod» so‘zi grekcha «metodos» so‘zidan olingan bo‘lib yo‘l, usul ma’nosini anglatadi.

Tarbiya metodlari turli elat va davlatlarda turli - tumanligi bilan farq qiladi. Ovrupada tarbiya metodlarining bir tizimi qabul kilingan bo‘lsa, Markaziy Osiyoda boshka tizimi amalda qo‘llaniladi. Ovrupa mamlakatlari uchun «Ochiq tarbiya» ko‘proq qo‘l keladi. Ya’ni bola nima xohlasa, shuni kilishi, xoh, o‘zidan kattani, xoh, ota - onasini xohlagan joyda tankid qilishi mumkin.

Osiyo mamlakatlarida, xususan O‘zbekistonda ko‘proq paternamistik, ya’ni kattalarni hurmat qilish, ularga ko‘proq quloq solish, rahbariyatlarning fikrini va vazifasini so‘zsiz bajarish, nogironlarga yordam ko‘rsatish, odatlantirish usullari qo‘llaniladi. Endi mavjud ilmiy pedagogik adabiyotlar va tajribaga asoslanib tarbiya metodlarini xarakterlaymiz.

Tarbiya metodlarini tavsiflash (klassifikatsiyalash).

O‘zbek - xalq pedagogikasida ham metodlar guruhlangan. Bu metodlar axloq, odob va tarbiyaning barcha tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari, vositallridan foydalanilgan. Bu usul va vositalar nihoyatda xilma - xil bo‘lib, ko‘p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki, bu usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Xalq tomonidan yaratilgan va xalq tarbiyashunosligidan keng o‘rin olgan **usullar**ni quyidagicha guruhlash mumkin.

] .Tushuntirish (o‘rgatish odatlantirish, mashq qildirish)

2.Namuna (maslahat berish, uzr so‘rash, yaxshiliklar to‘g’risida so‘zlash, o‘rnak bo‘lish).

Nasihat, berish, o‘git (undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak - istak bildirish, ma’qullash, raxmat aytish, duo qilish va h.k.lar)

Qoralash va jazo berish (ta’qiqlash, ta’na, gina, tanbeh berish, qo‘rqitish, nafratlanish, ont, qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazo).

Mavjud usullar umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin umumiy bir narsa tushuntiriladi, so‘ngra talab qilinadi. Agar bola biror bir narsani tushunmasa, tarbiyachi namuna vositasini o‘taydi. Nasihat qilinadi, o‘git orqali bolaning idrokiga yetkaziladi.



Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy usullari va tarbiyaviy ta'sirlar aniq bir vositalar yordamida amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar (choyxona, to'y- marosim) sayllar, turli nishonlashlar, musobaqalar, turli marosimlar kabi o'ziga xos tarbiya usullar qo'llanilgan. Hozirgi zamon pedagogikasida qayd qilib o'tilgan usullarni faoliyatga qo'llash ishlarini osonlashtirish maqsadida ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lib tavsiflash qabul qilingan.



Chizma. Rag'batlantirish turlari

Maktablarda qo'llash mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:



Jamoa o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:



Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o‘ynashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta’minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa, deb hisoblab bo‘lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o‘z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo‘lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o‘zaro birlik, uzviylik, aloqadorlik yuzaga keladi.

Jamoa va uning shaxsni shakllanishidagi o’rni va roli muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shaxs va jamoa o’rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi borasida quyidagi andozaning yaratilishini ta'minlaydi:



Chizma. Shaxs va jamoa o`rtasidagi munosabatlarning rivojlanish andozasi.



Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo‘lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.

2. Jamoa o‘zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi.

3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko‘ra to‘rt bosqichdan iborat bo‘ladi.

4. Jamoani shakllantirish o‘ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo‘yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

5. Jamoaning mustahkam bo‘lishi, uning a’zolari o‘rtasida o‘zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an’analari muhim ahamiyat kasb etadi.

O’quvchilarni bir xil saviyada, bir xil eshda , bilimi jihatdan ham teng bo’lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog **sinf rahbari** deb ataladi.

Sinf rahbari maktab ma'muriyati bilan birgalikda va mahalla jamoasi, ota(onalar bilan hamklorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi.

Sinf rahbarining ish rejasini maktab direktori va direktor ўrinbosari tuzadi va nazorat qilib boradi.

Sinf rahbari har doim o’quvchilaridan xabardor bo’lib turishi kerak. Masalan, bir o’quvchining o’zlashtirishi yomon bo’lsa, uni yaxshilash uchun o’qituvchi birinchi o’rinda ota-onasi bilan uchrashib, surishtirishi kerak. Nimaga yaxshi o’qimayapti, nima uchun darslarni o’z vaqtida qilmaydi, shular haqida ota-onasi bilan suhbat olib borishi kerak.

Ota-onalar bilan o’qituvchining o’rtasida bog’lab turuvchi aloqa daftarchasini tutishi va uni doim qoldirmasdan yuritib turishi darkor.

O’qituvchining ko’p qirrali va murakkab faoliyati zaminida esh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar etadi. Bularni amalga oshirish esa o’qituvchining xilma(xil faoliyatiga bo’lib (bolalarni o’qitish, maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil eta bilish, o’tkazish, ota(onalar o’rtasida pedagogik targ’ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bularning hammasi o’qituvchilardan chuqur bilimlarga ega bo’lishni, o’z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi :

1. O’ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg’iz emas, shu sinfda dars berayotgan turli fan o’qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o’quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O’quvchilarni darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2.O’quvchilarning bilimga bo’lgan qiziqish va qobiliyatini o’stirish har bir o’quvchining individual(psixik xususiyatlairni hisobga olgan holda kasbga yo’naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o’quvchinitng sog’ligini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o’quvchilarning yuqori darsda o’zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o’quvchining kundalik o’zlashtirishiga voqif bo’lib turadi. Orqada qolayotganlarga o’z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Sinfdagi o’quvchilarning o’z-o’zini boshqarish ishlarini yo’naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, maktab miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o’z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5.Sinf o’quvchilarining ota-onalari, o’quv kuni uzaytirilgan guruhlarining tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o’rnatadi.

6.Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o’qituvchilari o’rtasida o’quvchilarga nisbatan yagona talablar o’rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o’rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o’z sinfidagi turli hujjatlarini, sinf jurnali, o’quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lmuotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Zamonaviy tarbiya mazmuni va ularda ilgari surilgan g’oyalar yaxlit tarzda quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi:



Tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:



MASHG'ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalardan mashg'ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so'raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Bizga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ota-onalarimiz va o'qituvchilarimiz qanday yo'llardan foydalanishgan?» mavzusida erkin yozish topshirig'i.

Topshiriq: «Bizga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ota-onalarimiz va o'qituvchilarimiz qanday yo'llardan foydalanishgan?» mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni daftarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:

1.Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.

2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tugaganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan tala-balardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

2. Shaxs ongini shakllantirishga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Quyida keltirilgan tushunchalardan qaysilari shaxs ongini shakllantirish metodlarini o'zida ifoda etadi?

1) pedagog obro'si; 2) etik suhbat; 3) hikoya;

4) ma’ruza; 5) ij-timoiy fikr; 6) jazolash;
7) musobaqa; 8) ochiqlik; 9) izohlash;
10) tushuntirish; 11) o‘git; 12) nasihat;
13) topshiriq; 14) ko‘rsatma berish; 15) namuna;
16) adolatlilik; 17) notatsiya; 18) nazorat;
19) munozara; 20) nutq so‘zlash.

2-topshiriq. Quyida ko‘rsatilgan talablardan qaysilari etik suhbat, izohlash vao‘git uchun tegishli ekanligini aniqlang.

1) tarbiyalanuvchi tajribasiga muvofiq bo‘lishi; 2) illyustratsiya;
3) tarbiyachining mahorati; 4) tarbiyachi obro‘si;
5) tanglov-chilarning hayratlanishi; 6) nasihat qilish;
7) o‘z vaqtida amalga oshirish.

3-topshiriq. Quyidagi jadvalni to‘ldiring. Etik suhbat va munozarauchun tegishli bo‘lgan talablarni belgilang.

Talablar	Etik suhbat	Munozara
1. Rejaning mavjud bo‘lishi.		
2. Mavzuning nomi.		
3. Muammoning mavjud bo‘lishi.		
4. Ssenariyning mavjud bo‘lishi.		
5. O‘quvchilarning rivojlanish darajasiga muvofiqligi		
6. Emotsional tajribaga muvofiqligi.		
7. Barcha nuqtai nazarlarni taqqoslash.		
8. O‘quvchilarning o‘zlari vaziyatlarning yaratilishi.....tomonidan		
9. Fikrlar hujumi.		
10. Xulosalarning aniqligi.		
11. Aloqida tayyorgarlik ko‘rish.		
12. Auditoriyaning bilimini qisobga olish.		
13. Pedagogning mahorati.		
14. Ishonchli boshqaruv.		
15. Ishonarlilik.		

4-topshiriq. Kichik guruhlarga bo‘ling va shaxs ongini shakllantirshi metodidan birini qo’llash tartibini ko‘rsatib bering.

1-guruh uchun: tushuntirish metodi;
2-guruh uchun: namuna ko‘rsatish metodi;
3-guruh uchun: hikoya metodi.

3. Shaxsning xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlariga doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi metodlar orasidan shaxsning xulq-atvori va faolshtini tashkil qilish metodlarini ajratib ko‘rsating.

1) ma’ruza; 2) suhbat; 3) mashq; 4) munozara;
5) pedagogik talab; 6) o‘rgatish; 7) rag‘batlash; 8) nasihat;
9) izohlash; 10) namuna; 11) topshiriq; 12) ijtimoiy fikr;
13) munozara; 14) tarbiyalovchi vaziyat; 15) hikoya; 16) musobaqa;
17) jazolash.

2-topshiriq. Kasb-hunar kollejlarida talabaning qaysi shakllarini qo‘llashni tavsiya etish mumkin? Ularni qo‘llanish xususiyatiga ko‘ra «+», «-» ishoralaridan foydalaning.

Talab	Buyruq	Mas-lahat	Ishora berish	Qo‘r-qi-tish	O‘yin	Ishonch	Ilti-mos	Etirof etish	Muho-kama qilish
Bevosita									
Bilvosita									

3-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zni topib qo‘yshg.

O‘rgatish - bu jadal bajariladigan ...

O‘rgatishdan foydalanishda ... aniq tasavvurlar hosil qilish kerak.

O‘rgatish metodini qo‘llashdan avval ... qanday bajarishni ko‘rsatish zarur.

O‘rgatish doimiy ... talab etadi.

O‘rgatishni ... shaklida tashkil etish yaxshi samara beradi.

Nuqtalar o‘rnini to‘ldirishda quyidagi so‘zlardan foydalanish mumkin:

1) o‘yin; 2) harakatlar; 3) nazorat;

4) mashq; 5) tarbiya maqsadi.

4-topshiriq. Chizmani to‘ldiring.

Tarbiyalovchi vaziyatni muvafaqqiyatli qo‘llashda quyidagilarni talab etadi:

1.....

2.....

3.....

4.....

5-topshiriq. Quyidagi muammoli vaziyatlar bilan tanishing va ularni hal eting.

1-muammoli vaziyat. O‘qituvchining hikoyasidan: «O‘g‘lim qorong‘ulikdan va balandlikdan qurqadi. Men imkon boricha uni ana shu qo‘rquvni yenga oladigan sharoitga ko‘yaman: gohida ob-havo qandayligini bilib kelish uchun hovliga, gohida esdan chiqqan narsani olib kelish uchun qorong‘u xonaga yuboraman. O‘yin paytlari ayrim vaqtda chuqurlikka sakraymanda: daraxtning hov anavi navdasini olib ber. Uni emas, narigi yuqoridagisini deyman...»

O‘qituvchi tarbiya jaravnida qaysi metoddan foydalanmoqda? Mazkur yo‘l orqali natijaga erishish mumkinmi?

2-muammoli vaziyat. Dars boshlanishidan avval o‘qituvchi yerda g‘ijimlangan qog‘oz parchasi yotganini ko‘rib, bir o‘quvchidan qog‘ozni olib, axlat qutisiga tashlashni so‘radi. O‘quvchi o‘rnidan turmasdan, qog‘ozni u tashlamaganligi sababli uni olmasligini ma’lum qildi.

O‘qituvchi mazkur vaziyatda qanday yo‘l tutishi kerak? Qaysi tarbiya metodini qo‘llash orqali vaziyatni ijobiy hal etish hamda guruhni hayratlantirish mumkin ?

4. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlariga doir amaliy topshiriqlar

1-*topshiriq. Qaysi guruhda ragbatlantirish metodlari to‘gri tasnif etilgan?*

1. Hikoya, tushuntirish, hikoya, namuna
2. Rag‘batlash, jazolash, musobaqa, sub’ekti-pragmatik.
3. Mashq, rag‘batlash, o‘rgatish, talab, toppshriq berish.
4. Suhbat, ogoxdantirish, tarbiyalovchi vaziyat, nazorat.

2-topshiriq. Quyida keltirilganlardan ragbatlantirish metodlariga izoh yozing.

Koyish — Tahsinlash —

Tergash – Maqtash —

Zavqlantirish- Uyaltirish –

Taqdirlash – Ta’qiqlash —

3-*topshiriq. Quyidagi vaziyatlar bilan tanishing va ularni hal eting*.

1-vaziyat.

Sinf rahbari o‘quvchilarning darslarga yaxshi tayyorgarlik ko‘rib kelishi va yuqori o‘zlashtirishga erishish maqsadida o‘quvchilarga hafta davomida kim ko‘p «a’lo» va «yaxshi» baho olsa, bayroqcha o‘sha o‘quvchiga taqdim etilishi hamda bir hafta davomida uni o‘zi bilan birga olib yurishi mumkinligini aytdi.

O‘qituvchi qaysi tarbiya metodini qo‘llamoqda? Mazkur metodni qo‘llash orqali erishiladigan ijobiy va salbiy natijalarni tahlil etang.

2-vaziyat. Sinf o‘quvchilaridan biri doim ertalab darsga kechikib keladi. Bunga odatlanib qolish yomon ekanligi qanchalik tushuntirilmasin, u bu odatini tashlamadi.

O‘qituvchi qanday yo‘l tutish orqali o‘quvchini bunday salbiy odatni tashlashiga erishish mumkin? Qaysi tarbiya metodlarini qo‘llash orqali bunga erishish mumkin?

5. «Har qanday guruh jamoa bo‘la oladimi?» mavzusida munozarani o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar.

1. O‘qituvchi munozara uchun savolni muhokama qilish uchun o‘rtaga tashlaydi va o‘ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.
2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo‘lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.
3. Hamma o‘z fikrini bildirib bo‘lgach, o‘qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to‘g‘ri javoblar ajratab olinadi.

6. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini aniqlashtirishga doir toifalash jadvali.

O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari	O‘quvchilar ja-moasini shakl-lantirish darajalari mazmuni	O‘quvchilar jamoasini shakllantirish bosqnchlari	O‘quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlari mazmuni

7. Guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllariga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlar bilan tanishing va ularni mazmunan guruh rahbarining qaysi funksiyasini ifoda etishini aniqlang.

1) hududiy, mikromuhit, ta’lim muassasasi, o‘quvchilarning o‘zlarini rivojlantirish bilan bog‘liq ulardagi ijobiy tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash;

2) o‘quvchilar tarbiyasidagi mavjud holat va doimiy o‘zgarishlarni aniqlab borish, tarbiyalanuvchi shaxsi hamda individual rivojlanishini tadqiq va tahlil etish, samarali natijalarga erishilmayotganligining sabablarini izlash;

3) o‘quvchilar bilan birgalikda tarbiyaviy faoliyatga doir maqsadlarni aniqlashtirish, guruh rahbarining burchi o‘quvchilarning yoshi va guruh jamoasining shakllanganlik darajasini hisobga olish;

4) o‘z-o‘zining va guruh jamoasi faoliyatini oqilona tashkil etishga yordam berish, pedagogik faoliyatning ketma-ketligini belgilash, pedagogik jarayonning ketma-ketligi, izchilligi, tizimliligini ta’minlash;

5) tarbiyalanuvchilarning jismoniy, aqliy va ma’naviy-axloqiy jihatdan to‘g‘ry rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlash.

2-topshiriq. Quyida keltirilgan muammoli pedagogik masalalar bilan tanishing va ularning yechimini toping.

1-masala.

Guruhni bir necha yil davomida saylangan qat'iy faollar boshqarib, boshqa a'zolar ularga bo‘ysunib kelishdi. Keyinchalik esa, ular bu holatga qarshi chiqa boshlashdi. Yangi guruh rahbari avvalgi o‘qituvchining xatosini to‘g‘rilash maqsadida qatiy chora ko‘rdi. Guruhda qat'iy saylov o‘tkazilib, avvalgi faollar o‘rniga o‘quvchilar orasidan yangi faollar saylandi. Lekin oradan bir oz vaqg o‘tib, saylov o‘zini oqlamaganligini ko‘rsatdi. Yangi saylangan faollarning bir qismi o‘z vazifalarini baja-rishdan bosh tortishsa, ikkinchi qismi kuch bilan tartib o‘rnatishga harakat qilishdi. Guruhda yangi norasmiy guruhdar tashkil topib, befarq, mas'uliyatsiz o‘quvchilar soni ikki barobar ortdi.

Sinf rahbari qanday xatoga yo‘l qo‘ydi? Mazkur vaziyatda qanday yo‘l tutish kerak edi? Qanday yo‘l bihan faolning jamoani jipslashtirishiga erishish mumkin?

2-masala.

Guruh rahbari sotsiometriya metodini qo‘llash orqali guruxdagi kamsuqum Aziza guruh sardori Dildoradan ko‘ra katta obro‘ga ega ekanligini aniqladi.

1.O‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra Dildora guruh sardori sifatida noto‘g‘ri saylangan, uni Aziza bilan almashtirish kerak, degan xulosaga kelish mumkinmi?

2.Guruh rahbari mazkur vaziyatda qanday yo‘l tutishi kerak?

3-masala.

Yosh o‘qituvchini IX sinfga rahbar etib tayinlashdi. Bu sinf ancha murakkab bo‘lgan va yaqinda qayta tuzilgan edi. Ana shu sababli sinf jamoa bo‘lib uyushmagan, o‘quvchilar tarqoq edi. Sinf rahbari ularni sinf va maktab ishlarini bajarishga chorlash bilan uyushtirishga harakat qildi. Bunga kuzgi ekskursiya ham yordam berdi. Bu o‘qituvchiga har bir bolaning qiziqishi va imkoniyatini bilishga sharoit yaratdi. Sinfda o‘tkazilgan har bir tadbir o‘zaro sog‘lom munosabatni o‘rnatishga, yuqori sinf o‘quvchilarining jamoadan talablarini qondirishga qaratilgan edi. Sinf o‘quvchilaridan biri o‘z inshosida shunday yozadi: «Men sinfga faqat o‘qish uchun bormayman. Bu yerda mening diomo yordamga tayyor do‘stlarim bor. Ilgari mening faqat ko‘chada do‘stlarim bor edi. Ular bilan juda mazmunsiz hayot kechirgan ekanman. Meni unday hayotdan sinfim olib chiqdi. Men go‘zallikni qadrlashga, odamlarni sevishga, ularning mehrini qozonishga, o‘z xatti-harakatlarim uchun javob berishga o‘rgandim, Men sinfimga biror zarar yetkazishdan xavotirlanaman».

1.Yosh sinf rahbari faoliyatini tahlt eting.

2.Ancha jiddiy e'tiborni talab etadigan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb hisoblaysiz?

3-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlarni o‘qing va ularni ikki guruh —rahbarining huquqlari va majburiyatlari tarzida turkumlang.

1. Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va psixik rivojlanishi haqida ma'lumotlar olish.
2. Murakkab muammolarni hal etishda o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish.
3. Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat qilish.
4. O‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishini nazorat qilish.
5. O‘quvchilarning shaxsiy salohiyatining rivojlanishi uchun sinfda maqbul ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.
6. Mazkur guruhda dars beradigan o‘qituvchilar ishini muvofiqlashtirish.
7. Maktab jamoasidan zarur pedagogik yordam olish.
8. Ota-onalar bilan aloqa o‘rnatish va ularga tarbiyaviy ishda yordam berish.
9. Bolalar bilan individual ishlash tartibini aniqlashtirish.
10. «Kichik pedkengash», pedagogik konsilium, mavzuli va boshqa tadbirlar o‘tkazish orqali guruh o‘quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Guruh rahbarining huquqlari	Guruh, rahbarining majburiyatlari

7. Kichik dars o'tish.

(Dars talaba tomonidan o'tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o'tilgach, o'qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qiinadi)**.**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg'ulotga xulosa yasashdan oldin, o'qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to'la ochilmagan masalalarga o'qituvchi tomonidan yana bir bor to'xtalib o'tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg'ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifni va o'z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (246 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalarini hamda tarbiya metodlari tasnifini o'zlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 199-200; Ibragamov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « » nashriyoti, 2008. - B.105; Quronov M. Milliy tarbiya. - T.: «Fan», 2007; Podlasiy T.GShedagogika. Kn.2.-M:«VLADOS»,2003.-S.94-105).

2. Shaxs ongini shaklantirish metodlarini o'rganish va konspekt qilish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 201-203; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.:« Fan va texno1ogiya » nashriyoti, 2008. - B.107-108; Podlasiy T.P. Pedagogika. Kn.2. - M: «VLADOS», 2003. - S. 105-114).

3. Shaxsning xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlarini o'rganish va konspekt qilish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy taxriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 204-205; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.109-110; Podlasiy T.P. Pedagogika. Kn.2. - M: «VLADOS», 2003. -S. 116-124).

4. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlarini o'rganish va konspekt qilish (Pedagogika // MX.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. — T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010 - B. 205-207; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. -B.110-113; Podlasiy T.P. Pedagogika. Kn.2. - M.: «VLADOS», 2003.-S.125-134).

5. Jamoa va uning o'ziga xosliklarini o'rganish hamda tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. -T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 187-190; Ibragi-mov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « Fan va texno1ogiya» nashriyoti, 2008. - B.116-117; Podlasiy I.P. Pedagogika. Kn.2. - M: «VLADOS», 2003. - S.63-66; Lixachev B.T. Pedagogika. -M.: «VLADOS», 2003. - S.191-196).

6. O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini o'zlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. -B. 190-198; Podlasiy I.P. Pedagogika. Kn.2. - M.: «VLADOS», 2003. - S.67-72; Lixachev B.T. Pedagogika. - M.: «VLADOS», 2003. -S. 196-205).

7. Guruh rahbarining tarbiyaviy funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllarini o'rganish (Podlasiy T.P. Pedagogika. Kn.2. - M.: «VLADOS», 2003. - S.83-87; Lixachev B.T. Pedagogika. - M.: «VLADOS», 2003. - S.225-230; G'oziev 3. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. - T., 1997. - B.20-49).

8. Guruh rahbarining haftalik va yillik ish rejalari bilan tanishish hamda taxminiy ish reja tuzish (G'oziev 3. Sinf rahbari ishini tashkil etash va rejalashtirish. - T., 1997. - B.20-49. Mirxaitova S. Amaliy pedagogika. - Qo'qon, 2008. - B.37-38).

9. Guruh rahbarining haftalik va yillik ish rejalarini tuzishda quyidagi chizmaga asoslaning.

Haftalik ish reja namunasi

Kunlar yokisana	Rejalashti-rilgan ishlar mazmuni	Izoh	Kunlar yoki sana	Rejalashtirilgan ishlar mazmuni	Izoh
Dushanba (sana)			Payshanba (sana)		
Seshanba (sana)			Juma (sana)		
Chorshanba (sana)			Shanba (sana)		

Yillik ish reja namunasi

T/r №	Ish yo‘nalishlari va mazmuni	Muddati	Mas’ullar	O‘tkazilish joyi	Izoh

Tarbiyaviy ishlar rejasida yoritiladigan ishlar mazmuni quyidagi yo‘nalishlar asosida bo‘lishi mumkin:

I. Prezident I.A.Karimovning nutq va asarlarini o‘rganish.
II. Milliy mafkura tarbiyasi.
III. G‘oyaviy-siyosiy tarbiya masala-lari.
IV. Ma’naviy-axloqiy tarbiya.
V. Huquqiy tarbiya.
VI. Iqtisodiy va ekologik tarbiya.
VII. Jismoniy va estetik tarbiya.
VIII. Giyohvandlik va ORGGSga qarshi kurash.
IX. Milliy bayramlar va tarixiy sanalarni nishonlash.
X. Oila va mahalla hamkorligi.

10. Topshiriq. Sinf jamoasining rivojlanish darajasini o’rganish.

1. Quyidagi savollar bo’yicha o’qituvchi bilan suhbat o’tkazing:

1) Sinf bilan qancha uzoq vaqtdan buyon ishlaysizmi? Uin yaxshi bilasizmi?

2) Bolalar bir-birlariga nisbatan qanday munosabatda bo’lishadi? Hamma bolalar ham sinfdagi ishlar bilan qiziqadimi? Turli xil jamoa faoliyatlariga ular qanday munosabatda bo’lishadi? Buni misollar bilan ko’rsating

3) Sinf faollari qanday? Faollarga kimlar kiradi? U qanday tashkil qilingan? Faol a’zolarining obro’lari qay darajada? Boshqa bolalar bilan ularning munosabati qanday?

4) Siz o’qituvchi sifatida faollar bilan tez-tez uchrashib turasizmi yoki har zamondami? Ular bilan qanday ishlarni bajarasiz? Faollardan kim sizga hammadan yaxshiroq yordam beradi? Kim sizni ko’proq xavotirga soladi? Nima sababdan?

)5) Sinf jamoasi umummaktab jamoasi bilav qanday bog’langan? Umummaktab jamoasi tarkibiiga kim kirgan? Sizning sinfingiz qanday ijtimoiy ishlarga ishtirok etgan?Qanchalik muvaffaqiyat bilan?

6) Tarbiyaviy ish bo’yicha bu yil qanday masalalarni hal etmoqchisiz? Ularning muvaffaqiyatli yechimi uchun nimalarni rejalashtirdingiz?

7) Sizning sinf bilan o’zaro aloqangizning xarakteri qanday? O’zaro munosabatda sizni nima qanoatlantirmaydi?

8) Sinf jamoasining ishini tashkil etishga o’quvchilarning ota-onalarini qanday jalb qilasiz?

9) Bu yil umumiy, jamoaviy xarakterdagi sinfdan tashqari qanday tadbirlar o'tkazildi? Yana nimalarni o'tkazish rejalashtirilyapti?

10. Mavzuga oid ko'rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko'rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko'rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog'liqlikda chizma, jadval, rasmni qo'lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko'rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mashg'ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Baxs munozara, Amaliy o'yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

13-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. O'quvchilarni aqliy, iqtisodiy va ekologik tarbiyalash (4soat).

I. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish (2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1.Ilmiy dunyoqarash haqida tushuncha. Sharq mutafakkirlari shaxs dunyoqarashini shakllantirish to'g'risida.

2.Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish metod va vositalari.

3.O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning aqliy kamoloti, tafakkuri va ilmiy dunyoqarashga qo'yilgan talablar.

4.O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga oid tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg'ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma'lumotlar to'plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o'tish.
6. Talabalarni mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).
4. Metodik ta'minotlar: plakatli ko'rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma'lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

I. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Iqgisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo‘llarini aniqlashtirish.
2. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo‘llarini o‘zlashtirish.
3. «Iqgisodiy barqarorlik - jamiyat rivojining asosi» mavzusida tarbiyaviy soat ishlanmasini tayyorlash.
4. «Ekologiya haftaligi» rejasini tuzish va uni o‘tkazishga doir axboriy-metodik ta’minotni yaratish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning iqtisodiy va ekologik tarbiyaga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda iqtisodiy va ekologik tarbiyani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. Iqgisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo‘llarining o‘zlashtirilishiga erishish.
2. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo‘llarini o‘zlashtirilishiga erishish.
3. Iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Talabalarda ekopedagogik mahoratni tarkib toptirish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. Iqgisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo‘llarini bilib oladilar.
2. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo‘llarini o‘zlashtiradilar.
3. Iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish ko‘nikma va malakalarini egallaydilar.
4. Ekopedagogik mahoratga doir ko‘nikmalarni egallaydilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi.

Ilmiy qarash *(yunoncha «idea»- g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi)* - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya bo‘lib, u shaxs tomonidan

mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o‘zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ixtirochilik ko‘nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma’lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Ekologik tarbiya o’quvchilar dunyoқarashini shakllantirishning tarkibiy qismi. «Ekologiya» tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan qo’llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy қismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha «oikos» -turar joy, makon, «logos» -fan) o’quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko’nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O‘zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni «O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi»da o‘z ifodasini topgan.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muxim tarkibiy qismi bo’lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

1. O’quvchilarning ta’lim jarayonida ўzlashtirgan ekologik bilimlarini yanada oshirish.
2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to’g’risidagi tasavvurini boyitish.
3. O’quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to’g’risidagi e’tiqodni shakllantirish.
4. O’quvchilarda ekologik faoliyat ko’nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

Iqtisodiy tarbiya - o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, oila xo‘jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o‘quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo‘jaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va o‘rta biznes, ijara, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, byujdetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar) borasida chuqur bilimlar berish va ularni takomillashtirish;
- o‘quvchilarda iqtisodiy ong va tafakkur, xususan, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;
- ularda muayyan kasbiy yoki ishlab chiqarish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;
- o‘quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;
- ular tomonidan tor doirada bo‘lsada tadbirkorlik faoliyatining yo‘lga qo‘yilishiga erishish.

Iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali tashkil etish uning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasida Prezidenti I.A.Karimov asarlarida respublika iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, omillari hamda tamoyillari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan

Iqtisodiy tarbiyani uzluksiz amalga oshirishda ta’lim muassasalarida dars va darsdan tashqari sharoitlar, shuningdek, oilada amalga oshirilayotgan harakatlar muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy mazmundagi suhbatlar, uchrashuvlar, ekskursiyalar, to‘garaklar ko‘rinishidagi amaliy tadbirkorlik faoliyati (u yoki bu hunar yo‘nalishidagi ijodiy ishlar)ni tashkil etish o‘quvchilarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga yordam beradi.

MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg’uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og’zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma’lumotlarni o’rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So’ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarinv hamda uni amalga oshirish yo‘llarini o‘zlashtirishga doir ijodiy test topshirig‘i.

1. Gapni tugallang.

«Ekologiya» tushunchasi ilk bor nemis biologi ...

2. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib ko‘ying. O‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon ... ataladi.

3. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... o‘quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan ta’limiy jarayondir.

4. Gapni tugallang.

Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ...

5. Gapni davom ettiring. Ekologik faoliyat...

6. Gapni tugallang.

Ekologik madaniyat o‘quvchining ijtimoiy talablarga muvo-fiqtabiat va atrof-muhit muhofazasini ...

7. Gapni davom ettiring.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur ...

8. Gapni davom ettiring.

Ekskursiya, ekologik kechalar, ekologiya haftaligi, shoirlar va olimlar bilan uchrashuvlar, sahna ko‘rinishlari ...

9. Gapni tugallang.

Bashorat qilish, ikki yoqlama obrazlar, o‘xshatish, o‘yin kabilar...

10. Gapni davom ettiring.

Hadislar, rivoyat va hikoyatlar, pandu nasihatlar, maqol va matallar, topishmoqlar, rebus, videoroliklar ...

2. Pedagogik vaziyatni tahlil qiling:

2- Vaziyat.

Anvar matematikadan birinchi marta uch baho oldi. U kundalikni o’qituvchi qo’lidan olib, rostdan ham uch olganiga ishondi. Joyiga borib o’tirdi.

U bu muvaffaqqiyatdan juda xursand edi. Endi boshqa fanlardan ham ikkisini to’g’rilashni, «tarbiyasi og’ir» degan nomdan qutilishni, onasini xursand qilishni o’ylardi. U shirin xayollar bilan darsning yarmi o’tib ketganini sezmay qoldi. U kundalikdagi bahosiga qarab to’ymasdi. Shu payt o’qituvchi :

Nima uchun kundalik o’ynab o’tiribsan? Qani mening savolimni takrorlachi!, deb qoldi. Anvar savolni takrorlay olmadi.

Kundaligingni menga ber!, -dedi o’qituvchi.

Anvar kundalikni stol tagiga yashirdi. Bu olovga moy sepgandek bo’ldi.

Anvar e`tiroz bildirmoqchi bo’ldi, lekin o’qituvchi bola katta orzular bilan eslayotgan uch bahoni ikkiga o’zgartirib qo’ydi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. O’qituvchi xatoga yo’l qo’yganini tushundimi?
2. Bu holda qanday yo’l tutish kerak edi?
3. O’qituvchi qo’llashi mumkin bo’lgan holatlar variantlarini bering.

3. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

4 . Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o'tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o'tilgach, o'qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi).

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg'ulotga xulosa yasashdan oldin, o'qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to'la ochilmagan masalalarga o'qituvchi tomonidan yana bir bor to'xtalib o'tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg'ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsif va o'z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (246 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. **Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo'llarini o'rganish** (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 215-217; Kamolova N.Q. O'quvchi-yoshlarni iqti-sodiy tarbiyalashning milliy-ma'naviy asoslari. — T.: O'zPFITI, 2004; Xo'jaev N., Hasanboev J. Iqtisodiy pedagogika. — T.: «Turkiston», 2002).
2. **Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo'llarini o'rganish** (Pedagogika // MX.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 217-218; Ismoilov A., Ahmadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya / O'rta maktablar va bilim yurt. uchun ko'llanma. - T.: «O'qituvchi», 1997; Nig'matov A. Ekologiya nima? Ekologiya alif-bosi. Atrof-muhit haqida ilk saboq: 6-to'plam. - T.: 2002; Turdiqulov E.O. Mutafakkirlar ekologik tarbiya haqida. -T.: O'zPFITI, 2003).
3. **«Iqtisodiy barqarorlik - jamiyat rivojining asosi» mavzusida tarbiyaviy soat ishlanmasini tayyorlash.**

Tarbiyaviy soat ishlanmasini tayyorlashda quyidagi namunaga asoslaning.

Sana:
Mavzu:
Maqsad:
Mashg'ulotning jihozi:
Mashg'ulotning borishi:

№	Bosqichlari	Asosiy masala va mavzularning mazmuni	Mas'ul shaxs
	1	2	3
1	Kirish (10 daqiqa)	1 ... 2 ... 3...	Guruh rahbari
2	Asosiy qism (40 daqiqa)	4... 5...	Boshlovchi
3	Badiiy qism (20 daqiqa)	6... 7... 8...	O'quvchi A Boshlovchi
4	Yakuniyqism (10 daqiqa)	9... 10...	O'quvchi B O'quvchiS Guruh rahbari

4. «Ekologiya xaftaliklari» rejasi va uni o'tkazishga doir metodik ishlanmalarni tayyorlash.

«Ekologiya haftaliklari» rejasini tuzishda quyydagi namu-naga asoslaning. Qavs ichida ko'rsatilganlarga mos mavzularning nomlarini kiriting.

I. Kuz fasli

1 . (Ekotadbir).
2. (Ekomarafon).
3. (Videofilm, videoroliklar namoyishi).
4. (Ekskursiya).
5. («Mehrjon» bayrami)

P. (Qish fasli)

1. (Ekologik mavzuda seminar)
2. (Ekoviktorina)
3. (Videofilm, videoroliklar namoyishi)
4. (Ekologik harakat faollari bilan uchrashuv)
5. (Tabiat muzeyiga sayohat)

III. (Bahor fasli)

1. (Ekotadbir).
2. (Tabiat qo‘yniga sayohat).
3. («Navro‘z» bayramini o‘tkazish).
4. («Gullar va qushlar» bayrami).

4. Topshiriq.O’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish xususida kuzatish o’tkazish.

Tabiatshunoslik darsida ishtirok eting, quyidagi savollar yuzasidan material yig’ing va sistemaga soling:

2. Dunyoqarashni shakllantirish mavzusiga doir darsga qanday imkoniyatlar kiritilgan?
1) O’qituvchi bu imkoniyatlardan qanday foydalandi?
2) Kuzatilgan darsning ayrim qismlarini takomillashtirishga doir takliflarni aniq ifodalang.
3) Darsda qanday metodlar va usullar ishlatildi? Ular ilmiy dunyodarashni shakllantirish masalasini yechishga qanchalik javob bera oladi?
4) O’qituvchining faoliyatiga o’quvchilar qanday munosabat bildirishdi?
5) Siz o’qituvchi bilan bolalarning darsdagi o’zara munosabatlari xarakteriga qanday baho berasiz?
6) O’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun dars paytidagi psixologik muhit qanday ahamiyatga ega?
7) Darsda o’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish masalalari hal qilindi, deb aytish mumkinmi? Qaysi ko’rsatkichlar bo’yicha?

5. Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;
2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mashg’ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA”LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o’yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

14-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: Ilmiy dunyoqarashni

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifasi va mazmuni.
2. O‘quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda davlat ramzlaridan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik fuqarolik tarbiyasining asosi.
3. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi.
4. Shaxsda huquqiy madaniyatni shakllantirish.
5. O‘quvchilarni vatanparvarlik va baynalmilallik ruhida tarbiyalashga oid ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari.

***Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi*:**

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalarini aniqlashtirish.
2. Vatanparvarlik va baynalmilalik tarbiyasining ijtimoiy ahamiyatini asoslash.
3. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish.
4. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning fuqarolik tarbiyasiga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda fuqarolik tarbiyasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. Fuqarolik tarbiyasi maqsad va vazifalarining o‘zlashtirilishiga erishish.
2. Talabalar ongida vatanparvarlik va baynalmilalik ijtimoiy qadriyat ekanligani tarkib toptirish.
3. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarining o‘zlashtirilishiga erishish.

4. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishga doir amaliy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish.

***O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati*):**

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalarini o‘zlashtiradilar.
2. Vatanparvarlik va baynalmilallikka nisbatan qadriyatli munosabat shakllanadi.
3. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini o‘rganadilar.
4. Fuqarolik tarbiyani tashkil etishga doir ko‘nikma va malakalarni egallaydilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar huquqiy davlat va jamiyatni qurishdir. Bu jamiyatni bunyod etish jarayonida yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasini tashkil etish vazifalarini yanada murakkablashtiradi. Zero, demokratik, huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasi, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligi va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlariga bog‘liq.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunida aks etgan g‘oyalar, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me’yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi. Yurtboshimiz «…o‘g‘il-qizlarimizni el-yurtimizga munosib farzand, ertaga vatanimizning haqiqiy fuqarosi bo‘ladigan insonlar etib tarbiyalash, avvalo, oila bag‘rida, oilaning sog‘lom iqlimi, ota-onaning bir-biriga mehri va hurmati sharoitida chuqur ildiz otishini, o‘ylaymanki, xammamiz yaxshi anglaymiz», deb ta’kidlaydilar o‘z asarlarida.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo‘lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob’ekti fuqaro sanaladi.

Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxsdir.

Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo‘lgan axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioya etishga o‘rgatib borish.
2. O‘quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to‘g‘risida ma’lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalar hosil qilish.
3. O‘quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha’ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.
4. O‘quvchilarda xalq o‘tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, ulardan g‘ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.
5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o‘z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.
6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e’zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e’tiborini jalb etish.
7. Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko‘zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash; O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish. Yuqorida qayd etilgan burchlarni bajarish O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.

2.Fuqaro. Fuqarolik va uning mohiyati. Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish: jamiyat va shaxs (fuqaro) manfaatlariga to‘la mos keladi. Shu sababli Respublika mustaqilligi sharoitida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Fuqarolik tarbiyasini keng ko‘lamli (kompleks) tarzda

tashkil etish – bugungi kun da’vati va talabi bo‘lib qolmoqda. Ushbu talabni ijobiy ravishda hal etish oila - ta’lim muassasalari - jamoatchilik - davlat - jamiyat o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxs. O‘z fuqarolariga ega bo‘lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo‘lmay, muayyan mexanizmga ega sub’ekt sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o‘rni qonun yo‘li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’lum bir davlatga qarashliligi holati fuqarolik deyiladi. O‘zbekiston fuqarosi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalar, belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko‘rsatilib o‘tilgan burchlarni bajaradi.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma’ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollarga javoblar olish kutilgan natijani qo‘lga kiritishga imkon beradi.

Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda diagnostik (tashhis qo‘yish), statistik va qiyosiy tahlil tahlilni olib borish lozim.

Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g‘oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e’tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish – fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi.

Jamiyat tomonidan qonunchilik yo‘li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko‘rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma’qullanadi yoki qoralanadi.

MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg’uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og’zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma’lumotlarni o’rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So’ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Fuqarolik insonga nima uchun kerak?» mavzusidagi munozarani o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar.

1. O‘qituvchi savolni muhokama qilish uchun o‘rtaga tashlaydi va o‘ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.
2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketlikda yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo‘lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.
3. Hamma o‘z fikrini bildirib bo‘lgach, o‘qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to‘g‘ri javoblar ajratib olinadi.

2. «Vatanparvarlik va baynalmilallik» mavzusidagi o‘quv loyihasini tashkil etish va o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar:

1.Talabalar ikki guruhga bo‘linadilar hamda ularga «vatanparvarlik» va «baynalmilallik» mavzusiga doir loyiha tayyorlash vazifasi topshiriladi;
2. Guruhlarda ishlash uchun vatman qog‘ozi, marker va skoch kabi jihozlar taqsim etiladi.
3. Guruhlarda ishlash tartibini o‘qituvchi boshqarib borishi va talabalarning har birining ishtirokini ta’minlashi zarur.
4. Talabalar ularga berilgan mavzu bo‘yicha loyihani tayyorlab bo‘lganlaridan so‘ng, uning taqdimotini amalga oshirishadi.

5. Loyiha taqdimoti jarayonida kichik guruh a’zolarining barchasi ishtirok etishlari lozim.

3. Huquqiy tarbnyaning maqsad va vazifalariga doir ijodiy test topshirig‘i

1. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... o‘quvchilarga huquqiy me’yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to‘g‘risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo‘lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim,

2. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgi-lanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e’tiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

3. Gapni tugallang.

Huquqiy me’yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qatiy va og‘ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifa-tida e’tirof etish, xuquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy xatti—harakatlar majmui...

4. Gapni davom ettiring.

Huquqiy munosabat huquq normalari ...

5. Gapni davom ettiring.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:...

6. Nuqtalar o‘rnsha kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... - shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o‘zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichi.

4. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi)**.**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifni va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (250 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI(275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1.Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalarini o‘rganish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 221-224; Lixachev B.T. Pedagogika. -M:, 2003. -S.334-340; Shamaribxodjaeva G. Kasb-hunar kolleji talabalarida fuqarolik madaniyatini tarbiyalash // Pedagogik ta’lim j. — T.:2006. 3-son, B.87.

2.Vatanparvarlik va baynalmilalik tarbiyasining ijtimoiy ahamiyatini yoritib berish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. -B. 229-232; Lixachev B.T. Pedagogika. - M: YuRAYT, 2003. - S.340-341; Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. - T.: «O‘zbekiston», 1996.; Aminov B., Rasulov T. Vatan - yurakdagi javohirdir. - T.: «O‘qituvchi», 2001).

3. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini o‘rganish va tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 233-236; Lixachev B.T. Pedagogika. - M: YURAYT, 2003. - S.343-349; Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2 tomlik. 1-t. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.).

4.Fuqarolik tarbiyasiga doir tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tayyorlash.

Tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tayyorlashga doir ko‘rsatmalar:

1) tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tyyorlashda quyidagi mavzulardan birini tanlang: «Til - millat ko‘zgusi» (bayram tadbiri); «Konstitutsiya — baxtimiz qomusi» (anjuman); «Fuqarolik: jahon tajribasi g‘oyalri» (anjuman); «Vatan yagonadir - Vatan bittadir» (bayram tadbiri); «Yoshlar va mamlakat taraqqiyoti» (davra suhbati); «Qalbimizda mangu yashaysiz» (ekskursiya); «Ajdodlrdan avlodlarga» (davra suhbati); «Yurt tinchligi - bebaho ne’mat» (bahs-munozara); «Mustaqillik va demokratiya: oliy qadriyat» (bahs-munozara); «Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni» (uchrashuv); «Sen qonunni bilasanmi?» (ko‘rik-tanlov); «Konstitutsiya bilimdoni» (ko‘rik-tanlov); «Huquqshunos bo‘lish oson emas» (uchrashuv);

2) tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tuzilishi quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi lozim:

1) mavzuning nomi; 2) tadbirning maqsad va vazifalari;

3) tadbirni o‘tkazish joyi; 4) tadbir uchun kerakli jihozlar;

5) tadbir ishtirokchilari va ularga qo‘yiladigan talablar;

6) tadbirni o‘tkazish bosqichlari (kirish, asosiy va yakuniy qism);

7) tarbiyaviy tadbir ishlanmasi bosma holatda bo‘lishi va mazmuni tushunarli bo‘lishi lozim.

4. Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mashg’ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA”LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o’yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

15-LABORATORIYA ISHI.
MAVZU: O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash. Oila tarbiyasi(4-soat).

I. SHaxsda ma’naviy-ahloqiy sifatlarni tarbiyalash (2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiya haqida tushuncha. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari.
2. Sharq mutafakkirlari shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlari to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida mamlakatni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlarining yoritilishi.
4. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga oid ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash..
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga oid testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.

6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

I. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari.

Laboratoriya mashgulotining tuzilishi:

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyatshsh aniqlashtirish.
2.Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalarini o‘rganish va tahlil etish.
3.Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. «Yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi: muammo va yechimlar» mavzusida insho yozish.

***Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi*:**

Talabalarning ma’-naviy-axloqiy tarbiyaga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptarish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiya maqsad va vazifalarining o‘zlashtirilishiga erishish.
2. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalarining ahamiyatini asoslash.
3. Talabalarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Talabalarda zamonaviy sharoitda ma’naviy-axloqiy tar-biyaning ijtimoiy zaruriyat ekanligiga doir qadriyatli yondashuvni qaror toptirish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini o‘zlashtiradilar.
2.Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalaridan foydalanishni o‘rganadilar.
3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.
4. Zamonaviy sharoitda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy zaruriyat ekanligiga doir qadriyatli yondashuv qaror topadi.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyati, asosiy tushunchalari. Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo‘lgan ma’naviyatga bog‘liq. Shu bois, *mustaqillikning* dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma’naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

Insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

Vatanparvarlik.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma’naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Har qanday mafkura kabi O‘zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri ham jamiyatda ma’naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi.

Jamiyat ma’naviyati uch muhim soha yo‘nalishida amaliy faoliyatni tashkil etish asosida shakllantiriladi:



Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui hisoblanadi.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Ma'rifat shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Mafkura (arabcha «mafkura» - naqtai nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksaklish, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar tizimi.

Har uchala sohaning uzviy birligi asosida jamiyat ma'naviyati yuksaladi.

Ma'naviyat sohasida ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat».

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

«Axloq» (lotincha – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq - ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar bu jamiyatda ma’lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o‘quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etishdir.

Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o‘zgalar va o‘zining hayoti ma’nosini anglagan holda o‘tkazish kerakligi haqida ko‘plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Bundan tashqari ta’lim muassasasida o‘quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Zero, ta’lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo‘lib, uning asosiy mohiyati o‘quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo‘lishni, ta’lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta’limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi shaxsida mas’uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vtanparvarlik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik, ms’uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda.

Tekinxo‘rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, fahsh, johillik kabi salbiy illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasinigina emas, balki o‘zini ham yemirib boradi. Inson ham ma’naviy, ham jisman haloq bo‘ladi. Shu bois insonning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo‘nalishlaridan ustun qo‘yilishi zarur. Binobarin, ma’naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Agar tarbiyaning boshqa yo‘nalishlarida muayyan tarbiya (masalan, jismoniy, huquqiy va boshqalar) u yoki bu tarbiyaviy tadbirlar tizimiga asoslansa, ma’naviy-axloqiy tarbiyada esa har bir tarbiyalanuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, tarbiyaviy vaziyatni inobatga olgan holda, yaxlit tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi va unga mos metod hamda usullar tanlanadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o‘z xulqiga nisbatan his-tuyg‘ularni uyg‘otishga rag‘bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko‘ra ma’naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag‘bat bilan hosil bo‘ladigan faoliyat eng asosiy bo‘lib hisoblanadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma’lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to‘xtalib o‘tadi. Allomaning nuqati nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e’tiqod), nazofat (poklik va tozalik), g‘ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs me’yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g‘urur), muhabbat, avf (kechirimli bo‘lish). Bu xislatlar ma’naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va

sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o‘z atrofdagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o‘quvchining o‘zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.

MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg’uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og’zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma’lumotlarni o’rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So’ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligiga erishnsh nima uchun zarur?» mavzusida erkin yozish topshirig‘i.

Topshiriq: «Moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligiga erishish nima uchun zarur?» mavzusida besh daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O‘ylagan fikrlaringizni hech qanday to‘xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko‘rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.
2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tugaganligi ma’lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.
3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt nafar talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo‘lsa bildirishlarini so‘raydi.

2. O‘ylang / juftliklarda fikr almashing.

Quyida keltirilgan Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir qarashlari bilan tanishing va ularni muhokama qiling:

1. Inson yaxshi tarbiya ko‘rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo‘lsa, u ko‘p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo‘rin bo‘lib ko‘ringan narsalar zaruriy bo‘lib chiqadi (Abu Nasr Forobiy).
2. Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun xar bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim (Abu Rayhon Beruniy).
3. Ma’lumki, inson hech qachon tug‘ilganda yaxshi yoki yomon bo‘lib tug‘ilmaydi... Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabixlikka mayl, qobiliyat bo‘ladi: 1. Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik fahm-farosatlilik zehnlilik-dan iborat. 2. Xulqiy fazilat - intiluvchi quvvatga kirib iffat, injoat, sahiylik va adolatlilikni o‘z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir (Abu Nasr Forobiy).
4. Yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo‘ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo‘lishida hukumat ahllarinyng ta’siri ham zo‘r bo‘ladi (Abu Ali ibn Sino).
5. Kishi ikki narsa bilan xayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo‘lsa, ikkinchisi yaxshi so‘z (Yusuf Xos Xojib).
6. Ey farzand, yaxshilik qil va qilg‘on yaxshilikdan hargiz pushaymon bo‘lmagil. Bir kishiga bir yaxshilik qilsang, ko‘rgilki, yaxshilik qilg‘on vaqtda u kishiga naqadar rohat yetadi, sening ko‘nglingga ham undan ziyodroq shodlik va yozish xuramlik yetishur. Demak, bu jahonda yaxshilik va yomonlik mukofoti, albatta, yetgusidur. Yaxshilikning yaxshilik bilan qaytishi ayni haqiqatdir (Kaykovus).
7. Insonda ikki narsa bo‘lsa unga muruvvat yo‘li yopiladi: biri bexuda so‘zlarni ko‘p gapirsa, ikkinchisi, uning so‘zlari yolg‘on bo‘lsa (Ahmad Yugnakiy).
8. Ulug‘likka yetsang, unutma o‘zing
Agar atlas kiysang, unutma bo‘zing (Ahmad Yugnakiy).
9. Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug‘laydi (Amir Temur).

3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. «Kerakli so‘zlarni topib qo‘ying» treningni o‘tkazing.

Treningning maqsadi: talabalarda guruxdoshlariga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish.

Treningning borishi:

I. O‘qituvchi talabalarga bir varaq qog‘oz olib, doskaga yozilgan quyidagi gaplardagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni topib yozishni so‘raydi.

1. Men ko‘proq insonlardagi ... qadrlayman.
2. Men o‘z tengdoshlarimni ... uchun hurmat qilaman.
3. Men o‘z tengdoshlarimni ... uchun hurmat qilmayman.
4. Men o‘zimda ko‘proq ... fazilatlarni aks ettirishni xohlayman.
5. Mening hayotdagi eng asosiy maqsadim - bu ...
6. Men istalgan qarorni chiqarishda ... asoslanaman;

II. Talabalar individual tarzda gaplardagi kerakli so‘zlarni yozib bo‘lishgandan so‘ng, dastlab juftliklarda va so‘ngra guruhlarda o‘z fikrlarini bir-birlari bilan o‘rtoqlashdilar.

III. Guruhlarda muhokama qilish uchun ajratilgan vaqt tugagach, o‘qituvchi doskaga kuyida ko‘rsatilganidek, «Toifalash jadvali»ni chizadi va uni guruhlarda to‘ldirishni so‘raydi.

Biz qadr-laymiz.....	Biz hurmat qilamiz...	Biz hurmat qilmaymiz....	Biz eri-shishni istagan fazilatlar....	Bizning maqsadi-miz...	Biz tayanadigan asoslar...

IV. Har bir guruh o‘z toifalash jadvallarini to‘ldirib bo‘lishgach, alohida-alohida taqsimot qiladilar.

2-topshiriq. Muammoli savollar.

Quyida keltirilgan muammoli savollar bilan tanishing va ularni hal eting.

1. Uchinchi sinf o‘quvchilari shuhratparastlik va manmanlik tushunchalarining mazmuni bir xil yoki boshqacha ekanligi to‘g‘risida bahslashib qoldilar. Nima uchun bolalar bu masalani tushunib olishlari qiyin? Ularga qanday qilib yordam berish mumkin?
2. «Uning vijdoni toza emas», «Bu — vijdonsiz kishi», «Bu ishni qilishga mening vijdonim yo‘l qo‘ymaydi» degan gaplarni siz qanday tushunasiz? Vijdonning kishini axloqiy tarbiyasiga qandaydir aloqasi bormi? Bu qanday aloqa?
3. Televidenie orqali namoyish etilayotgan chet el serial-larining yoshlar tarbiyasiga qanday ijobiy va salbiy ta’siri bor deb o‘ylaysiz? Ularni tomosha qilish va unga munosabat bildi-rishda ota-onalar qanday yo‘l tutishlari lozim, deb hisoblaysiz?
4. Siz insonlarda qadrlaydigan, ulug‘laydigan axloqiy fazi-latlar qaysilar va siz «axloqsizlik» deb qaraydigan sifatlar nimalar?

4. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars otish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi)**.**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifbi va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (252 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI(275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyatini o‘rganish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. - B. 252-257; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: «Fan va texnologiya » nashriyoti, 2008. - B. 153-155; Podlasiy T.P. Pedagogika. Kn.2. - M: «VLADOS», 2003. - S.163-165).

2. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalarini o‘rganish va

tahlil etish. (Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. -T.: «Fan», 1995; Sher Abdulla. Axloqshunoslik. - T.: «O'AJBNT» markazi, 2003; Hasanboev J., Turopova M., Hasanboeva O. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. - T.: «G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti», 2002; Hoshimov K., Nishonova S, Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. -T.: «O'qituvchi», 1996).

3. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish shakl, metod va vositalarini o'zlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. — B. 257-258; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: « Fan va texnologiya » nashriyoti, 2008. - B. 155-156; Podlasiy T.P. Pedagogika. Kn.2. -M: «VLADOS», 2003. -S. 166-167.).

4. «Yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi: muammo va yechimlar» mavzusida insho yozish.

Inshoni yozishga doir ko'rsatmalar:

1) dastlab inshoning murakkab rejasini tuzing. U kirish, asosi qism (uchtaparagraf), xulosa kabi qimlardan iboratbo'lishi lozim;
2) inshoda fikrlaringizni asoslash uchun sitatalar kelti-ring;
3) har bir masala yuzasidan mustaqil xulosalar chiqaring;
4) inshoning hajmi uch sahifadan oshmasligi lozim.

4. Mavzuga oid ko'rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko'rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko'rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog'liqlikda chizma, jadval, rasmni qo'lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;
2) ko'rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mashg'ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o'yin ,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

16-LABORATORIYA ISHI.

MAVZU: O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Oila tarbiyasi.

II. Oilaga pedagogik yordam ko'rsatish (2 soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Oila haqida tushuncha. Sharq mutafakkirlari oila tarbiyasi haqida.
2. Oila tarbiyasining mohiyati. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari.
3. Oila muammolari. Shaxs kamolotiga oila a'zolarining ta'sirini yoritish.
4. Oila tarbiyasini tashkil etishda davlat, ta'lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy va metodik yordam mazmunini ochib berish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg'ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aniqlash.

2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga doir testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Oila, uning vazifalari vaturlarini aniqlashtirish.
2. Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish.
3. Ta’lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. «Mening oilam» mavzusida o‘quv portfoliosini tayyorlash. Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi: talabalarning oila tarbiyasiga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda ota-onalar bilan olib boriladigan ish shakllarini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarda mavzuga oid bilimlarini baholash, ularda oila tarbiyasini tashkil etish knikmasini sho’akllantirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. Oila, uning vazifalari va turlarini o‘zlashtirilishiga erishish.
2. Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflash.
3. Talabalarni oila bilan olib boriladigan ish shakllarini amaliyotga qo‘llashga o‘rgatish.
4. Talabalarda oila va oila tarbiyasiga nisbatan qadriyatli munosabatni qaror toptirish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. Oila, uning vazifalari va turlarini o‘zlashtiradilar.
2. Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdi.
3. Ota-onalar bilan olib boriladigan ish shakllarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.
4. Oila va oila tarbiyasiga nisbatan qadriyatli munosabat qaror topadi.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Oila haqida tushuncha. Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas’uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bu bog‘liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo‘lmasligi hamda o‘z navbatida oilaning ma’lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko‘rinadi. Oila hamda jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag‘rida mavjud bo‘lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o‘rni inkor etilib, uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyalashga harakat qilindi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida fuqarolarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining qaror topganligi, o‘tmish hadriyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o‘rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi. Bu borada

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etadi:

«Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O‘zbekistonning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilaning, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir».

Davlatning oilaga nisbatan g‘amxo‘rligi qabul qilinayotgan qonun va qarorlarda o‘z ifodasini topmoqda. Respublikada «Oila» ilmiy-amaliy Markazi tashkil etilganligi buning yorqin dalilidir.

Oila va islom**.** Ma’lumki, Islom dinining muqaddas manbalari – «Qur’oni Karim» va «Hadisi Sharif»da oila, oilaviy munosabatlarga oid qarashlar o‘z ifodasini topgan. «Qur’oni Karimda»: «Xotinlaringiz zirotgohingizdir» deyiladi. Buning ma’nosi oila qurishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – farzand ko‘rish, ularning komil insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash ekanligidir. Shuningdek, Islom ma’naviyatida oilani halol, pok saqlash, erkak va ayolning bir-biriga bo‘lgan sadoqati, maishiy buzuqlikning katta gunoh ekanligi takror-takror uqtiriladi. Chunonchi, «Agar bir shaharda loqal bir ayol bir marta buzug‘lik ko‘chasiga kirib, harom orttirsa, bu shahardan qirq yil fayzu barakat ko‘tarilib ketadi» deyilgan. Shunday ekan, ma’naviy jihatdan kamolotga yetishmay turib, iqtisodiy farovonlikni ta’minlash mumkin emas.

Oila qurish balog‘atga yetgan har bir yigit-qiz uchun hayotiy zaruriyat bo‘lib, ularning o‘zaro ahdu-paymoni asosidagi ijtimoiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Oilaning mustahkamligi oila a’zolarining totuvligi, er-xotinning oila yuritish ko‘nikma va malakalariga egalik darajasiga bog‘liq. Oilaning mustahkamligida ayolning alohida roli bor. Zero, oila tashvishlarining aksariyati uning zimmasida bo‘ladi.

Oila tarbiyasining mazmuni. Oila tarbiyasi, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas’ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o‘zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg‘usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko‘rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me’yorlarga og‘ishmay rioya etish, sog‘lom turmush tarzini yaratish, o‘z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so‘z va faoliyat birligini ta’minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko‘rsatadi.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to‘g‘ri yuritish ularni vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog‘lom, ma’naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo‘nalishlari – jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g‘oyaviy hamda jinsiy ta’lim berish, ularda faoliyat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Ovqatlanishning to‘g‘ri tashkil etilishi ham bolaning sog‘lom bo‘lib o‘sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo‘lni yuvish, ovqatdan keyin og‘izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho‘milish,

qo‘l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o‘zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a’zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g‘urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog‘lom muhit, oila a’zolarining psixologik jihatdan o‘zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondoshuvilaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo‘llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo‘yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko‘rsatilayotgan e’tiborning bir xil bo‘lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi.

Oilada mustaqil ravishda, ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajrilishiga erishish katta ahamiyatga ega.

Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibrati, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir.

Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo‘lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo‘lish, shuningdek, o‘zgalar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo‘lgan ne’matlarni asrab-avaylashga o‘rgatadi.

Oilaviy hayotning me’yorida bo‘lishi ko‘p jihatdan oila byudjetining holatiga ham bog‘liq. Shu bois oila a’zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag‘larni tejab-tergab, ulardan o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bois bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o‘rgatish, o‘zining shaxsiy hamda oila a’zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas’uliyatli yondashishga ko‘niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to‘nadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lar edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a’zolarining namunasi katta tarbiyaviy ta’sir kuchiga egadir (iqtisodiy tarbiya).

Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari. Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e’tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko‘rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas’ullik, e’tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi.

Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berib borish, o‘z navbatida huquqlaridan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.

Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini hosil qiluvchi o‘ziga xos maskan sanaladi. Bolalar «Vatan», «xalq» tushunchalarining mohiyatini dastlabana shu maskanda o‘zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o‘zi Vatanning bir bo‘lagidir. Oila sha’nini himoya qilish, uni saqlash to‘g‘risida qayg‘urishning Vatanning sha’ni,el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg‘ulari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo‘lishi lozim.

Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo‘lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta’lim muassasalari o‘rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g‘oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko‘rsatishdan iboratdir.

Farzand dastlabki ma’lumot va ijtimoiy me’yorlarga amal qilish borasidagi ko‘nikmalarga oilada ega bo‘ladi. Chunki oilaviy ijtimoiy munosabatlar, xususan, madaniy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy, mulkiy muosabatlar hamda mehnat faoliyatini tashkil etishda farzandlar o‘zlari sezmagan, mohiyatini tushunib yetmagan holda mazkur munosabatlar jarayonida ishtirok etadilar, demakki, ijtimoiy masalalar bilan to‘qnash keladilar, natijada bu tarzidagi muloqotlarning doimiy, qisqa muddatlarda takrorlanib turishi ular uchun ota-onalar, farzandlarning huquq, burch,

majburiyat va mas'uliyatlarini tushunib yetishga yordam beruvchi ijtimoiy ob'ektiv shart-sharoitlarni yaratadi.

2. Maktabning o'quv yili davomida ota-onalar bilan olib boradigan ishlari:

1. Sinf ota-onalar majlisi. Majlis o'quv yili davomida besh marta o'tkaziladi, ya'ni, o'quv yili boshlanishi oldidan, I, II, III va IV choraklar yakunida. Majlislarda o'quv yurti ichki-tartib qoidalari, umumjamoa ijtimoiy me'yorlariga rioya etish holatlari, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil etiladi, navbatdagi davr uchun belgilangan ishlarni rejalashtirish, ularni hal etish yo'llari, chora-tadbirlari belgilanadi. Maktabda ta'lim olayotgan, jamoa hayoti, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar faollik ko'rsatayotgan, o'qishda, mehnatda alohida o'rnak bo'layotgan o'quvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi.

O'quv yili yakunida bo'lib o'tgan umummaktab ota-onalar majlisida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan, turli fanlar bo'yicha uyushtirilgan tadbirlarda alohida ibrat ko'rsatgan, shuningdek, muayyan fanlar bo'yicha olimpiadalarda muvaffaqiyatli qatnashgan o'quvchilar va ularning ota-onalarini rahmatnomalar bilan taqdirlash maqsadga muvofiqdir.

Oila muammolari. Mustaqillik yillarida barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya va oila tarbiyasini tashkil etishda ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Mavjud sharoitda oilada bolalar tarbiyasini tashkil etishda muayyan qiyinchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

ota-onalarning pedagogik bilimlardan yetarli darajada xabardor emasliklari;

o'tish davri sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida maktab yoshi bolalarning muayyan qismining bozor bilan bog'lanib qolib, o'qishga bo'lgan qiziqishlarining susayganligi;

zamonaviy axborot vositalari, shu jumladan, kopyuterning ijtimoiy hayotga tobora chuqur kirib borayotganligi, natijada uning ijobiy ta'siri bilan birga bolalarda badiiy adabiyotlarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarining sezilarli pasayishi;

axborot vositalari sahifalarida jangari kayfiyatdagi tomoshalar sonining ortib borayotganligi va buning oqibatida bolalarda berahmlilik kayfiyatining paydo bo'layotganligi;

o'quvchilarning o'quv adabiyotlari bilan to'la qurollantirilmaganligi;

noto'liq oilalarning mavjudligi hamda ular sonining ortib borayotganligi va hokazolar.

Oilaning farzandlar o'quv faoliyatiga g'amxo'rlik qilishi tarbiyadagi bosh masalalardan biridir. Ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayonida bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari yo'lida mas'uliyatni chuqur his etishlari zarur.

Ota-onalarning bu borada quyidagilarga rioya etishlari maqsadga muvofiqdir:

bolalarning mashg'ulotlarga kechikishlari va uyga o'z vaqtida qaytmasliklariga yo'l qo'ymasliklari;

ularning dars tayyorlashlari uchun uyda qulay sharoitni yaratib berishlari;

bolalarda uy vazifalarini bajarishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni qaror toptirishlari;

bolalarga o'quv topshiriqlarini bajarish hayotiy zaruriyat ekanligini uqtirishlari, vazifalarni mustaqil, vijdonan bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga ko'maklashishlari;

bolalarning kun tartibiga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga e'tibor qaratishlari;

bo'sh vaqtdan unumli foydalanishlarini nazorat qilib borishlari.

Oilada bola tarbiyasiga ijodiy yondashish, bolalarda ijobiy sifatlarni shakllantirishga erishish ularning shaxs sifatida to'laqonli shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalardan mashg'ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so'raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Oila haqidagi afsonalar» o'yinini tashkil etish va o'tkazishga doir ko'rsatmalar.

Maqsad: talabalarning oilaviy hayotga oid keng tarqalgan lekin noo‘rin «afsonaviy» fikrlarga munosabatini aniqpash hamda ularda mustaqil fikrlar va qarashlarni shakllantirish.

Materiallar: «Qo‘shilmayman», «Qo‘shilaman», «Qisman Qo‘shilaman», «Bilmayman» kabi yozuvlar.

O‘yin davomiyligi: 5 minut.

O‘yinning borishi:

1. Xonaning turli tomonlariga «Qo‘shilmayman», «Qo‘shila-man», «Qisman qo‘shilaman», «Bilmayman» yozuvlari yopishtirib chiqiladi.

2. Talabalarga oilaviy hayotga oid hodisalarni aks ettiruvchi va omma orasida keng tarqalgan g‘ayritabiiy fikrlar — «afsona»larni o‘qib eshittiriladi. Talabalar bu fikrlarga qo‘shilish yoki qo‘shilmasliklarini devordagi yozuvlar yoniga borib turishi orqali namoyon etadilar. Shundan so‘ng, ular o‘z tanlovlarini asoslab, izohlab beradilar. O‘qituvchi har tomondagi talabalarning fikrlarini boshqa talabalarni bahsga jalb etgan holda muhokama qiladi va guruhiy munozara orqali talabalarni to‘g‘ri javob sari yetaklaydi.

3. Jinslar o‘rtasidagi tenglik, oilaviy hayotdagi poklik va insondagi ma’naviy yetuklik haqidagi tushunchalar majmuasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) oilada doimo erkak kishi xo‘jayin;

2) ayol kishi hech qaerda ishlamasdan uyda o‘tirishi kerak;

3) oilaga pul topib kelish faqat erkak kishining ishi;

4) xotin erining ruxsatisiz hech qaerga chiqa olmaydi.

O‘qituvchi o‘z ixtiyoriga ko‘ra bu ta’riflar yoniga boshqalarini o‘ylab topib qo‘shishi ham mumkin.

2. Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflashga doir ikki qismli kundaliklar topshirig‘i.

Quyida keltirilgan «Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xosliklari» mavzusidagi ikki qismli kundalikning chap tomondagi ustunida keltirilgan fikrlar bilan tanishing va o‘ng tomondagi ustunga ularning har biriga izoh yozing.

Shahar va qishloq oilalarshshng ijtimoiy hayot tarzidagi farq	
Ota-ona qanchalik yuqori ma’lumotga ega bo‘lsa, ularning bolalari ta’lim muassasasida shunchalik muvafaqqiyatli o‘qishadi.	
Bozor iqgisodiyoti sharoitida moddiy jihatdan turlicha ta’minlanganlik	
Oiladagilar sonini kamaytirshp, tug‘ilishning oldini olish	
Zamonaviy oilalar ajralshplar sonining ko‘zga ko‘rinarli ko‘payganligi	

Oilada ota-onalar psixologik jihatdan tayyor bo‘lishi mumkin. Lekin hammasi ham yetarlicha pedagogik bilim-larga ega emas.	
Ijtimoiy hayotning madaniy saviyasining pastligi	
Oilada ayollarga tushadigan «yuk»ning katgaligi	
Avlodlar orasidagi konfliktlarning kuchayib borayotganligi	

3. Ta’lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllariga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Quyida keltirilgan ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllari bilan tanishing. Ularni mazmuniga ko'ra ikki - jamoaviy va individual ish shakllariga ajrating.

1. Pedagogik lektoriyalar.
2. Oilaga tashrif buyurish.
3. Ilmiy-amaliy konferensiyalar.
4. Pedagogik topshiriq.
5. Ota-onalar majlisi.
6. Pedagogik konsultatsiya.
7. Ochiq eshiklar kuni.
8. Majburiy pedagogik ta'lim.

Jamoa ish shakllari	Individual ish shakllari

2-topshiriq. Mazmuniga ko'ra quyidagi fikrlar ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllaridan qaysi biriga tegishli ekanligini aniqlang.

1. Mazkur shakl ota-onalarning e'tiborini tarbiyaning zamonaviy muammolariga e'tibor qaratishlari maqsadida o'tkaziladi. Bu shakl ota-onalarni tarbiya nazariyasiga asoslangan tizimli bilimlar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.
2. Mazkur shakl sinflar bo'yicha o'tkaziladi. Albatta 1-mashg'ulotni ta'lim muassasasi boshqaruvchilari: direktor, ilmiy mudir, ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari o'tkazgani maqsadga muvofiq.
3. Mazkur ish shaklida tarbiya muammolari bo'yicha ota-onalar bilan bir yilda bir marotaba o'tkaziladi. Oila tarbiyasidagi ko'proq yetilib turgan muammo aniqlanadi.
4. Ushbu ish shaklida ta'lim muassasasiga ota-onalar taklif etilib, o'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlar taqsimoti o'tkaziladi. Odatda uni ta'til va vaqtida, chorakning boshlanishiga to'g'rilanadi.

4.Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o'tish.

(Dars talaba tomonidan o'tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars otilgach, o'qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi)**.**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg'ulotga xulosa yasashdan oldin, o'qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to'la ochilmagan masalalarga o'qituvchi tomonidan yana bir bor to'xtalib o'tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg'ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifbi va o'z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (252 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI(275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. Oila, uning vazifalari va turlarini o'rganish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. — B. 269-275; Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. -T.: «Fan va texnologiya » nashriyoti, 2008. - B. 124-129; Podlasiy T.P. Pedagogika. 1Sn,2. - M: «VLADOS», 2003.-S.199-2Yu).

2. Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tahlil etish. (Munavvarov A. Q. Oila pedagogikasi -T.: «O'qituvchi», 1994; Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi - T.: 1999; Musurmonova O. Oila ma'naviyati -milliy g'urur. — T.: «Ma'naviyat», 1999; Obvdaya pedagogika. / Pod. red. V.A. Slastenina. - M.: «Vlados», 2003. - 4.2. - S.225-226; Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi. - T.: 2006).

3. Ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllarini o'zlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010. -B. 275-278; Podlasiy, T.P. Pedagogika. Kn.2. - M: «VLADOS», 2003. - S.235-245; Obshaya pedagogika. / Pod. red. V.A. Slastenina. -M.: «Vlados», 2003. -4.2. -S.227-228).

4. «Mening oilam» mavzusida o‘quv portfoliosini tayyorlash.

O‘quv portfoliosini tayyorlashga doir ko‘rsatmalar:

O‘quv portfoliosi quyidagi uch bo‘limdan iborat holda ishlab chiqilishi kerak:

1. «Mening oilam qiyofasi», «Kollektor», «Yutuqlar».
2. «Mening oilaviy qiyofam» bo‘limida «Mening oilam anketasi», «Tanishing bu mening oilam», «Oilamizning qiziqishlari» lavhalari aks etgariladi.
3. «Kollektor» bo‘limida «Oilaviy fotosuratlar», «Oilamiz _ ijodidan» lavhalari keltiriladi.
4. «Yutuqlar» bo‘limida «Oilamiz mustahkamligi siri», «Oilamiz a’zolari tomonidan erishilgan yutuqlar» lavhalari o‘rin olishi mumkin.
5. Portfolio ikki hafta mobaynida yaratilishi lozim.
6. Portfolioni baholash quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:
   1) savodxonlik;
   2) estetiklik;
   3) maqsadga erishilganlik;
   4) mazmunning boyligi;
   5) ijodiy yondashuv.

5. Ota-onalar majlisiga tayyorgarlik ko’rish ishlari va uni o’tkazish haqida umumiy tasavvur hosil qiling.

Ota-onalar majlisida ishtirok eting. Majlisning borishini qayd qiling. O’qituvchi bilan bo’lgan Suhbatda quyidagi masalalarni aniqlang:

1. Bu majlis oldiga u qanday masalalarni qo’ydi?
2. O’quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ish rejasiga ular qanday mos keladi?
3. Majlisning oldiga qo’yilgan masalani u yecha oldi-mi?
4. Uning yana ham samarali bo’lishligi uchun nima qilish kerak edi?
5. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishga yana ham yaxshiroq tayyorgarlik ko’rish uchun u talabalarga qanday maslahatlar bera oladi?

Majlisni o’qituvchi rahbarligida tahlil qiling.

6. Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;

2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mashg’ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o’yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

17-LABORATORIYA ISHI.

MAVZU: Mehnat tarbiyasi. O‘quvchi shaxsini rivojlanishida, jismoniy va estetik tarbiyaning o‘rni.

O’quvchilarni jismoniy tarbiyalash (2 soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Jismoniy tarbiya haqida tushuncha. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
2. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga e’tibor.
3. Jismoniy madaniyat mazmuni. Jismoniy tarbiyani tashkil etish shakllari.
4. “Konseptual jadval” metodi yordamida estetik va jismoniy madaniyatning tarkibiy qismlarini yoritish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga doir testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniqlash-tirish.
2. Estetik tarbiya mazmunini yoritib berish.
3. Jismoniy va estetik tarbiya vositalariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. Muzeyga ekskursiya uyushtirishga doir ishlanma tayyorlash.

Laboratoriya mashg’ulotining maqsadi:

Talabalarning jismoniy va estetik tarbiyaga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda jismoniy va estetik tarbiyani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini o‘zlashtirilishiga eripshsh.
2. Estetik tarbiya tizimini aniqlashtirish.
3. Talabalarni jismoniy va estetik tarbiya vositalarini amalda qo‘llashga o‘rgatish.
4. Talabalarni ekskursiyani tashkil etish va o‘tkazishga yo‘naltirish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini o‘zlashtiradilar.

2. Estetik tarbiyaning mohiyati, maqsad va vazifalari, estetik tarbiya tamoyillariga doir bilimlarini mustahkamlaydilar.
3. Jismoniy va estetik tarbiya vositalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.
4. Ekskursiyani tashkil etish va o‘tkazish malakasini egallaydilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning tarkibiy qismi bo’lib, u kishining va kishilik jamiyatining eng zarur yashash shartidir. Mehnat barcha boyliklarning manbai bo’lishi bilan birga, u inson hayotining mazmuni hamdir.

Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o’z-o’ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro’zg’or texnikalarini ta'mirlash bilan shug’ullanadilar. Oila byudjeti va uni yuritish bilan bog’liq topshiriqlarni bajaradilar, oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.

So’nggi yillarda o’quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e'tibor bermoq’da. Yirik fermer xo’jaliklari, qo’shma korxonalarning jamoalari maktablarni otaliqqa olmoqda, ularning moddiy bazasini yaratish, o’quvchilarning bilim olishlari, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etishda yordam bermoqdalar.

Jismoniy tarbiya - kishi organizmining morfologik hamda funktsional jihatdan takomillashishiga, uning asosiy, hayotiy muhim harakat ko’nikmalari va ular bilan bog’liq bo’lgan bilimlarni hosil qilish va mukammallashtirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayondir.

Shunga ko’ra –o’quvchilar sogligini mustaxkamlash va jismoniy barkamolligi to’grisida gamho’rlik qilish;

harakat kilish organlarini rivojlantirish yordamida tarbiyalashni;

- inson ichki a'zolari, nerv va harakat, suyak - muskul tizimi, badanning uygunligi hamda ularning funktsional faoliyatini boshqarish;

- bo’lajak ishchi - mehnatkashlar, vatan himoyachilarining jismoniy va fiziologik sifatlarini kasb ahamiyati jihatidan shakllantirish, ish qobiliyatini oshirilishi;

- o’quvchi - yoshlarning iroda, chidamlik, qat'iyan intizom, do’stlik hissini kamol toptirishini;

O’quvchi - yoshlarning yosh va jinsiy xususiyatlarning normal rivojlanishi uchun shart - sharoitlar yaratishni asosiy maqsad qilib belgilaydi va amalga oshiradi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi – o’quvchilar tanasidagi barcha a'zolarni sog’lom o’stirsh borasida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek vatan mudofaasiga tayyorlashdir.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko’rsatib, ularning salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko’rishga yordam beradi.

Estetik tarbiya ancha keng ma'noga ega bo’lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go’zalliklarni ideal nazardan idrok etishga o’rgatadi. Estetika butun olamdagi go’zalliklarni hislar vositasida idrok etishdir. Az.Zamaxshariy: «Go’zal sifat va husnu-xulq siyratlari bezanmagan kishini hech qanday kiyimlar ko’rkam qila olmas, gunoh va xatolardan saqlangan kimsaning qalbi sira aybdan firoq bo’lmas», deb bildirgan fikri bag’oyat qimmatli. (Nozik iboralar. T., 1992, 74-bet).

Nafosat tarbiyasi - bu o’quvchilarning voqeilikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmushdagi go’zallikni idrok kilish hamda to’gri tushunishga o’rgatish, ularning badiiy didini o’stirish, ularda go’zallikka muhabbat uyg’otish va hayotga go’zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Nozik didli bo’lish, go’zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, xullas o’z xayotini go’zallik qonunlari asosida ko’ra olishi - komil insonning eng zaruriy fazilatidir.

Insonda go’zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof - muhit ta'sirida shakllanib boradi. Shunga ko’ra, insoniyatning badiiy rivojlanish qonunlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog’langan.

O’quvchi yoshlarga nafosat tarbiyasi berishning vazifalari:

tabiatdagi, jamiyatdagi, hayotdagi, mehnatdagi go’zallikni idrok qilish va o’z hayotini shu go’zallik qonuniyatlari asosida qurishga o’rgatish;

- o’quvchi- yoshlarda estetik ong, munosabat va estetik faoliyatni ro’yobga keltirish;

- voqeilikka, san'atga, hayotga go'zallik nuqtai -nazaridan munosabatni uyg'otish;
- o'quvchi- yoshlarda estetik ideal, estetik ehtiyoj va estetik qiziqishni rivojlantirish;
- o'quvchilarni ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy hayotga keng jalb qilish uchun ularni estetik didli tarbiyalash;
- badiiy adabiyotga havas uyg'otish yordamiga shaxsning badiiy dunyoqarashi, ongi va qobiliyatlarini takomillashtirish.

Go'zallik haqida fikrlashar ekanmiz, xalqimizda pokiza, saranjom-sarishta, pok tabiat kishilarga nisbatan tarbiyashunos alloma Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yohud axlok» asarida insonlarga, ayniqsa xotin - qizlarga yarashikli «nazofot» fazilatiga alohida urg'u berib, shunday degan «Nazofot» deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmokni aytilur» Poklik zehn va idrokni keng va o'tkir qilur. Xalk orasida e'tibor va shuhratga sabab bo'lur. Poklik ila har- xil kasalliklardan qutulib jonning qadrini bilgan bo'lurmiz. Pok bo'lmak salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadir.

MASHG'ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalardan mashg'ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so'raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Jismoniy va estetik tarbiya: uyg'unlik va aloqadorlik nimada?» mavzusida munozarani o'tkazishga doir ko'rsatmalar

1. O'qituchi munozara uchun savolni muhokama qilish uchun o'rtaga tashlaydi va o'ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.
2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo'lsa ham mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.
3. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozilganlarni talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri javoblar ajratib olinadi.

2. Jismoniy va estetik tarbiya vositalariga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Quyida keltirilgan tarbiya vositalari bshan tanshiing va ularni xususiyatiga ko'ra ikki guruhga - jismoniy va estetik tarbiya vositalariga ajrating.

1. Tabiat. 2. Ovqatlanish. 3. Uyqu. 4. Kun tartibi.
5. Kiyinish. 6. Suv vannasi. 7. Havo vannasi. 8. Quyoshda toblanish.
9. Musiqa. 10. Badiiy adabiyot. 11. Teatr. 12. Muzey.
13. Mashq. 14. Gimnastika. 15. O'yin. 16. Turizm.
17. Sport.

Jismoniy tarbiya vositalari	Estetik tarbiya vositalari

2-topshiriq. Quyidagi chizmaga asolanib, guruh o'quvchilarining taxminiy kun tartibini ishlab chiqing.

Vaqt	Ish mazmuni

3-topshiriq. Guruhlarga bo'lining va tabiat go'zalligi aks ettirilgan asarlar ro'yxatini tuzing hamda ulardan birida ifoda etgan peyzajni bayon etib bering.

3. Estetik tarbiya tizimi modelini ishlab chiqishga doir topshiriq.

Quyida keltirilgan chizma bilan tanishing va uni to'ldirish asosida «Estetik tarbiya tizimi» modelini

yarating.



4.Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o'tish.

(Dars talaba tomonidan o'tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o'tilgach, o'qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi**).**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg'ulotga xulosa yasashdan oldin, o'qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to'la ochilmagan masalalarga o'qituvchi tomonidan yana bir bor to'xtalib o'tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg'ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifni va o'z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (253 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI.

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. **Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini o'rganish** (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. — T.:«Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Podlasiy T.P. Pedagogika. Kn.2. - M: «VLADOS», 2003; Obvdaya pedagogika. / Pod. red. V.A. Slastenina. - M.: «Vlados», 2003. - Ch.2.).
2. **Estetik tarbiya tizimini o'rganish va tahlil etish.** (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Podlasiy T.P. Pedagogika. Kn.2. - M: «VLADOS», 2003; Obshaya pedagogika. / Pod. red. V.A. Slastenina. - M.: «Vlados», 2003. - 4.2; Lixachev B.T. Pedagogika. -M.: «VLADOS», 2003).
3. **Jismoniy va estetik tarbiya vositalarini o'zlashtirish** (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Podlassh T.P. Pedago-gika. Kn.2. - M: «VLADOS», 2003; Obvdaya pedagogika. / Pod. red. V.A. Slastenina. - M.: «Vlados», 2003. - 4.2; Lixachev B.T. Pedagogika. -M.: «VLADOS», 2003).
4. **Muzeyga ekskursiya uyushtirishga doir ishlanma tayyorlash**. Ekskursiya ishlanmasini

tayyorlashga doir ko‘rsatmalar:

1) Ekskursiya ishlanmasi o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan quyidagi aniq tarkibiy tuzshishga ega bo‘lishi lozim: tayyorlov bosqichi, ekskursiyaning borishi va ekskursiyadan keyin amalga oshiriladigan ish;
2) Tayyorlov bosqichlarida ekskursiya mavzusi, uning mazmun-mohiyati, o‘tkazilish muddati belgilab beriladi. Shuningdek, ekskursiya uyushtiriladigan ob’ektning joylashgan o‘rni va marshruti aniqlanadi. Ekskursiya davomida beriladigan namunaviy savollar tuziladi;
3) Eksqursiyani amalga oshirish jarayoni rejalashtirilishi lozim. turli xil savollardan foydalaniladi:
1) dalillar keltirishni talab etuvchi savollar (qanday nomlanadi, qanday qismlardan iborat, qanday xususiyatlar va o‘ziga xosliklarga ega);
2) fikrlashni faollashtiruvchi, qiyoslash, taqqoslash, farqini ajratish, umumlashtirishni talab etuvchi savollar (munosabat, aloqadorliklarni hosil qilish uchun);
3) anglash faolligini rag‘batlovchi, ijodiy fikrlash, xulosalar chiqarishga undovchi savollar;
4) ekskursiyadan so‘ng amalga oshiriladigan ish (albom tayyorlash).

5. Topshiriq.O’quvchilar jismoniy tarbiyasini takomillashtirish tadbirlari bilan tanishish.

1. Jismoniy tarbiya bo’yicha o’quv jarayonini takomillashtirishning asosiy yo’nalishlarini belgilang.
2. Fizkulturani o’quvchilarning kundalik hayotiga tatbiq etish haqidagi ko’rsatmani qanday tushunish kerak?
3. Umumiy ta’lim predmetlari buyicha o’quv mash’gulotlari o’tkazishga, mehnat ta’limiga qo’yiladigan ta' lablarni ifodalang.

Bolalar hayoti umumiy kun tartibida jismoniy tarbiyani kuchaytirish davidagi ba’zi bir tadbirlarni belgilang.

6**. Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.**

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;
2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mashg’ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o’yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

18-LABORATORIYA ISHI.

MAVZU: Ta’lim muassasasi menejmenti.

I. Ta’lim muassasalari faoliyatini innovatsion boshqarish loyihasini ishlab chiqish.

(2 soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1. Metodik kengash va uning maqsad, vazifalari.
2. Metodik kengash xujjatlari. Metodik birlashmalarning tashkil etilishi.

3. Metodik birlashmalarning vazifalari.
4. Metodik birlashma hujjatlari. Metodik birlashma ish rejasini tuzish.
5. Metodik birlashmani boshqarish bo‘yicha rolli o‘yinni tashkil etish.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga iod testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari.

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Pedagogik kengash, Metodika kengashi va metod birlashmalarining maqsad va vazifalarini aniqlashtirish.
2. Pedagogika kengashi, Metodika kengashi va metod birlashmalarining faoliyatshga tashkil etishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
3. Majlis bayonnomasini yozishga o‘rganish. Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi: talabalarning ta’lim muassasasida metodik ishlarni boshqarishga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda metodik ishlarni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Талабаларда таълим муассасасининг фаолиятини бошқаришга оид кўникмаларини шакллантириш.

Талабалар томонидан таълим муассасаси методик ишларини ташкил етишга оид кўникмаларини шакллантириш.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1. Pedagogik kengash, Metodika kengashi hamda metod birlashmalarning maqsad va vazifalarini o‘zlashtirilishiga erishish.
2. Talabalarni pedagogik kengashi, Metodik kengashi va metod birlashmalarning faoliyatini tashkil etishga o‘rgatish.
3. Majlis bayonnomalarini yozish malakasini tarkib toptirish.

O‘quv faoliyati natijalari(talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. Pedagogik kengash, Metodik kengashi hamda metod birlashmalarning maqsad va vazifalarini o‘zlashtiradilar.
2. Pedagogik kengashi, Metodik kengashi va metod birlashmalarning faoliyatini tashkil etish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.
3. Majlis bayonnomalarini yozish va rasmiylashtirish malakasini egallaydilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir.

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida so’z yuritilganda, O’zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so’z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to’xtalib o’tilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, ta'lim muassasasi menejmentining quyidagi vazifalari ko’rsatib berilgan:

uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o’zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo’li bilan boshqarib borilishi;

barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to’g’risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi

ta'limning normativ-huquqiy bazasi rivojlantiriladi;

moliya-xo’jalik faoliyatini olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o’quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi;

ta'lim muassasalari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o’tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko’ra ta'lim sohasida faoliyat ko’rsatish huquqi beriladi;

muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o’z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta'lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmetining bir qator o’ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o’tishadi.

Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

ta'lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so’zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o’lchovga ega;

ta'lim menejmenti – bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar katta rol o’ynaydi);

menejment mazmunida o’z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o’zaro dialektik birligi;

ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, endilikda ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o’tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi –ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o’qituvchilar, o’quvchilar hamda ota-onalarga ta'lim dasturlarini, turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O’zbekiston Respublikasining «Ta'lim to’g’risida»gi Qonunining (1997 yil) 3-moddasida, ya'ni ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarida aks etgan. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun respublikamizda ta'limni boshqarishning davlat organlari tuzilgan. O’zbekiston Respublikasining «Ta'lim to’g’risida»gi Qonunida, O’zbekistonda ta'lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko’rsatilgan.

Xalq ta'limi Vazirligi, Oliy va o’rta maxsus ta'lim Vazirligi O’zbekiston Respublikasida ta'limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi. Vazirliklar ўzini vakolatlik doirasida:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro’yobga chiqaradi;

- ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslub masalalarida ularga rahbarlik qiladi;

davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talablarning bajarilishini ta'minlaydi;

O'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etadi, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratadi va nashr etishni tashkil qiladi;

ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlaydi;

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi.

Xalq ta'limi Vazirligining mahalliy organlari quyidagilar sanaladi:

Xalq ta'limi vazirligining mahalliy organlariga xalq ta'limi viloyat boshqarmalari, shahar, tuman bo'limlari kiradi. Xalq ta'limi bo'limlari mahalliy hokimlik tasarrufiga kiradi va unga bo'ysunadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, xalq ta'limi viloyat boshqarmalari, shahar va tuman bo'limlari ikki tomonlama – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga va tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashiga, viloyat, shahar, tuman hokimliklariga bo'ysunadilar.

Ular maktab faoliyati yuzasidan davlat nazoratini olib boradi va uning rivojini ta'minlash uchun ko'maklashadi. Ularning vakolatiga maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlarini tayinlash ham kiradi.



kadrlarni tanlov va shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama qilish, axborotlarning barcha uchun ochiq va tushunarli joriy etish, ta'lim muassasasi jamoatchiligi oldida ma'muriyatning muntazam hisobot berishi, o'qituvchi va o'q'uvchilarga ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarini bildirishga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

Maktabni boshqarish ishiga maktab inspektsiyasi, ya'ni, vazirliklar va xalq ta'limi muassasasi boshqaruv nazariyasi va tarixida boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardir:



MASHG'ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalardan mashg'ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so'raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Men Pedagogik kengash haqida nimalarni bilaman?» mavzusidagi erkin yozish topshirig'i.

Topshiriq:«Men Pedagogik kengash haqida nimalarni bilaman?» mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni daftarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.

2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tugaganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

2. Pedagogik kengashi, Metodik kengashi va metod birlashmalarining faoliyatini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Pedagogik kengashi, Metodik kgngashi va metod birlaishalarining namunaviy yillik shirejasini tuzish.

Yillik ish rejalarni tuzishda quyidagi chizmaga asoslaning.

№	Bajarnladigan ishlar	Bajarilish muddati	Mas'ul

2-topshiriq. O'qituvchilarning malakasini oshirish va yosh o'qituvchilar bilan ishlash shakllariga doir quyidagi jadvayani to'ldiring.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish shakllari	Yosh o'qituvchilar bilan ishlash shakllari

3. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

4. Kichik dars o'tish.

(Dars talaba tomonidan o'tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o'tilgach, o'qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi**).**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg'ulotga xulosa yasashdan oldin, o'qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to'la ochilmagan masalalarga o'qituvchi tomonidan yana bir bor to'xtalib o'tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi). Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg'ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifni va o'z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (255 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. **Pedagogik kengash, Metodik kengashi va metod birlashmalarining maqsad va vazifalarini o'rganish** (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. -T.:«Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Vnutrishkolnoe upravlenie: Voprosi teorii i praktiki. / Pod redaktsiey T.I.Shamovoy. - M., 1991).
2. **Pedagogik kengashi Metodik kengash va metod birlashmalarining faoliyatini o'rganish va tahlil etish.** (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. -T.:«Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Vnutrishkolnoe upravlenie: Voprosi teorii i praktiki. / Pod redaksiey T.I.Shamovoy. - M., 1991).
3. **Namunaga muvofiq majlis bayonnomasini yozish**. Majlis bayonnomasini yozishga doir ko'rsatmalar:

1) ta'lim muassasasining Pedagogik kengashini o'tkazish uchun taxminiy to'rtta masalani tanlab oling. Birinchi masala «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining Farmon, Qaror va Farmoyish, Vazirlikdan kelgan hujjatlar ijrosi» va to'rtinchi masala «Turli masalalar» deb nomlanishi lozim;

2) majlis bayonnomasini quyidagi namuna asosida yozing:

_____Pedagogik kengashining__- sonli yig'ilishi
(ta'lim muassasasining nomi)
BAYoNNOMASI

(sana) (shahar)

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining Farmon, Qaror va Farmoyish, Vazirlikdan kelgan hujjatlar ijrosi.

2.....:....

3.....

4. Turli masalalar:

4.1.....

4.2.....

IIG'ILIShNING BORIShI:

1-masala.....

EShITILDI:

TINGLANDI:

2-masala.....

EShITILDI:

TINGLANDI:

3-masala.....

EShITILDI:

TINGLANDI:
4-masala.....
EShITILDI:
TINGLANDI:

QAROR QILINDI:

1.....
2.....
3.....
Kengash raisi: _____ _____
(imzo) **(ism-familiyasi)**
Kengash kotibi: _____ _____
(imzo) **(ism-familiyasi)**

4. Maktab ish hujjatlarini organish ustuda ish olib borish.

1) I-II; III-IV; V-VII; VIII-IX sinf oquvchilari uchun haftasiga necha soat moljallanadi?
2) Oquvchilar oquv yuklamasidagi bunday meyorlar nimaga asoslangan?
3) Oquvchilar bilimini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun mashgulotiarning qanday turlari moljallanyapti? Ularni qanday sinflarga kiritish mumkin? talimning foydali mehnat bilan boglanishi,
4) Oquvchilarning ijtimoiy-foydali va samarali mehnatini uyushtirish uchun sinflarda qanday vaqt ajratiladi?

Quyidagi savollarga ahamiyat bergan holda maktab oquv rejasining tuzilishi bilan tanishing: gumanitar va tabiiy-ilmiy tayyorgarlikdagi ozaro nisbat, oquvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, fanlararo bogliklikni amalgam oshirishning imkoniyatlari, talimning asosiy bosqichlari (kichik, orta, katta)dagi bogliqlik. Keltirilgan ayrim parametrlar boyicha mustaqillikkacha bolgan maktablarning oquv rejalarini taqqoslang.

5. Mavzuga oid ko‘rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko‘rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko‘rsatmalar:
1) mavzu mohiyati bilan bog‘liqlikda chizma, jadval, rasmni qo‘lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;
2) ko‘rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mashg’ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o’yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

19-LABORATORIYA ISHI.

MAVZU: Ta’lim muassasasi menejmenti.

II. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida metodik ishlar mazmuni yuzasidan axborot tayyorlash.

(2soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

2. “Menejment” tushunchasining mohiyati. Ta’lim muassasasini boshqarish.
3. Ta’lim muassasalarini boshqarish va unga rahbarlik qilishning asosiy xujjatlari.
4. Ta’lim muassasasini boshqarish tamoyillari.
5. Pedagogik kengash-ta’lim muassasasining boshqaruv organi.
6. Direktor va uning o‘rinboslarining vazifalari. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi faoliyatini boshqarish loyihasini tayyorlash.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma’lumotlar to’plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga iod testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o’tish.
6. Talabalarni mashg‘ulot bo‘yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg‘ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok).
4. Metodik ta’minotlar: plakatli ko’rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Ta’lim muassasasi menejmentining mohiyatini aniqlashtirish.
2. Ta’lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlarini o‘zlashtirish.
3. Ta’lim muassasasini boshqarishga doir me’yoriy hujjatlar bilan ishlashga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.
4. «Rahbarning kasbiy kompetentligining ahamiyati shundaki...» mavzusida asoslangan esse yozish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning ta’lim muassasasi menejmentiga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda ta’lim muassasasini boshqarish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1.Talabalarni «boshqaruv» va «ta’lim menejmenti» tushunchalarining farqlashga o‘rgatish.
2. Ta’lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlarini o‘zlashtirilishiga

erishish.

3. Ta’lim muassasasini boshqarishga doir me’yoriy hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish.
4. Talabalarda rahbarlikka qadriyatli munosabatni qaror toptirish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. «Boshqarish», «ta’lim menejmenti» tushunchalarining Mohiyatini hamda ta’lim menejmentining o‘ziga xosliklarini bilib oladilar.
2. Ta’lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlarini o‘zlashtiradilar.
3. Ta’lim muassasasini boshqarishga doir me’yoriy hujjatlar bilan ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.
4. Talabalar rahbarlikka nisbatan qadriyatli munosabat tarkib topadi.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Umumiy o‘rta hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) uchun tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy me’yoriy hujjat bo‘lib, u namunaviy va amaliy o‘quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standarti tarkibiy qismi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining namunaviy o‘quv rejalari tayanch o‘quv rejasi asosida tuziladi va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo‘ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o‘quv rejalari ishlab chiqiladi.

O‘quv rejasi – me’yoriy hujjat hisoblanib (ta’lim muassasasi sertifikati) quyidagilarni belgilaydi:

1. o‘quv yili, chorak (semestr)lar va ta’tillarning davomiyligi;
2. ushbu ta’lim muassasasida o‘rganiladigan o‘quv fanlari tartibi;
3. o‘qish yillari bo‘yicha fanlarni taqsimlash;
4. har bir fan bo‘yicha yaxlit ta’lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o‘rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
5. har bir fanni o‘rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
6. praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.

O‘quv rejasida, yana shuningdek**,** aniq bir o‘quv muassasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, o‘quvchilarning erkin tanlovi bo‘yicha fakultativ va majburiy mashg‘ulotlar aks ettiriladi.

O‘quv dasturi – muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me’yoriy hujjat.

Dasturda o‘quv materialining ta’limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo‘yicha taqsimlanishi tuzilishi asoslab berilgan. Dasturda ko‘rsatilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘quvchilar tomonidan to‘la o‘zlashtirilishi o‘qitish jarayoni muvaffaqiyatliligi va samaraliligi mezonlaridan biri hisoblanadi.

MASHG’ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalardan mashg’ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so’raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg’uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og’zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma’lumotlarni o’rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So’ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Himoya» ishbop o‘ynnini o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar

O‘yinning mavzusi: Boshqaruv uslublari.

O‘yinning mazmuni: ta’lim muassasani boshqarish uslublarining o‘ziga xosliklari.

Uyinning borishi. Ishbop o‘yinda quyidagi ishtirokchilar qatnashishdi: ishbop o‘yin tashkilotchisi (o‘qituvchi), munozara ishtirokchilari (direktor o‘rinbosarlari, o‘qituvchilar, munozara ishtirokchilari), hakamlar.

O‘yin tashkilotchisi:

1) o‘yinning borishini boshqaradi;
2) ishtirokchilar bilan o‘tkaziladigan o‘yinning maqsadi, borishi, mezonlari, kutiladigan natijalari bo‘yicha suhbat o‘tkazdi;
3) barcha ishtirokchilarning o‘zaro harakatini amalga oshirdi;
4) munozarani boshqardi;
5) yakunlarini chiqardi va o‘yinni baholashga hakamga yordam berdi.

Munozara ishtirokchshari:

1) taqdim etilgan mavzuni muhokama qilishda ishtirok etishadi;
2) boshqaruv uslublari yuzasidan o‘z mulohazalarini bayon etdi;
3) boshqaruvuslubiniqullashbo‘yichao‘zg‘oyasinitaklifetdi.

Hakam:

1) ishtirokchilarning xatti-harakatlarini yo‘naltirib turadi;
2) munozara vaziyatini hosil qilish uchun tashviqotga doir savollarni o‘rtaga tashlaydi;
3) munozara ishtirokchilarining chiqishlarini baholaydi. Rollar quyidagi tavsifga ega bo‘ldi:

Rahbar portreti.

Rahbar o‘zining boshqaruv uslubini himoya qiladi. O‘z nuqtai nazarida qoldi. Boshqaruv uslubiga doir mulohazalar kiritadi.

Optimist portreti.

U rahbarni qo‘llab-quvvatlaydi, uning fikrlarini to‘ldiradi. Rahbar boshqaruv uslubining afzalliklarini ta’kidlab.o‘tadi.

Konformist portreti.

U o‘zining mustahkam nuqtai nazariga ega emasligini namoyish etadi. Vaziyatga qarab, ba’zan rahbarni qo‘llab-quvvatlaydi, ba’zan qarshilik ko‘rsatadi.

Konservator portreti.

U rahbarning boshqaruv uslubining samarali emasligini ta’kidlaydi. Rahbar boshqaruv uslubining salbiy tomonlarini ajratib ko‘rsatadi.

Hakam portreti.

U rahbarning boshqaruv uslubiga doir ma’lumotlarni tahlil qildi va uning eng asosiy jihatlarini

ajratib ko‘rsatadi. Rahbarning boshqaruv uslubini o‘zgartirishga doir ko‘rsatmalar beradi.

2. Ta’lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlariga doir toifalash jadvalini to‘ldirish.

Boshqaruv funksiyalari	Boshqaruv tamoyillari	Boshqaruv funksiyalari	Boshqaruv metodlari

3. Ta’lim muassasasini boshqarishga doir me’yoriy hujjatlarni o‘rganish bo‘yicha amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari to‘grisidagi Nizom asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Bo‘limlarning nomlanishi	Bo‘lim mazmuni
Umumiy qoidalar	
O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’li-mining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish	
Akademik litsey va kasb-xunar kollejlariga o‘quvchilarni qabul qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni	
Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	
O’rta maxsus, kasb-hunar ta’li-mini mablag‘ bilan ta’minlash va moddiy-texnika ta’minoti	
Xalqaro hamkorlik	

2-topshiriq. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining Ustavi asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Bo‘limlarning nomlanishi	Bo‘lim mazmuni
Qisqacha ta’lim muassasasi haqidaga ma’lumotlar	
Ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari	
Ta’lim muassasasini boshqarish	
Uquv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish	
Uqituvchi. Huquq va burchlari	
Uquvchi. Huquq va burchlari	
Uquv-ishlab chiqarish ustalari, ma’muriy va yordamchi xodim-larning huquq va burchlari	
Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning huquq-lari, majburiyat va mas’uliyat-lari	

Ta’lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo‘jalik ta’minoti	

4.Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o’tish.

(Dars talaba tomonidan o’tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o’tilgach, o’qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi)**.**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg’ulotga xulosa yasashdan oldin, o’qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to’la ochilmagan masalalarga o’qituvchi tomonidan yana bir bor to’xtalib o’tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg’ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifbi va o’z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLAR (255 bet) .

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI(275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MASHG’ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1. Ta’lim muassasasi menejmenti mohiyatini aniqlashtirish.
(Pedagogika//M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. -T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Axlidinov R. Ta’lim menejmenti — taraqqiyot omili. // j. Xalq ta’limi. — T., 1996. -№6. - B. 18-22; Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. -T.: «Fan», 2006).

2. Ta’lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillari va metodlarini o‘rganish va tahlil etish. (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Salirov J. Zamonaviy boshqaruv uslublari: qay biri maqbul?. // j. Jamiyat va boshqaruv. - T., 2006. - №2 - B. 24-26; Sharifxo‘jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: 100 savol va javob. - T.: «Mehnat», 2000).

3. Ta’lim muassasani boshqarishga doir me’yoriy hujjatlarni o‘rganish va taxhlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; «Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari to‘g‘risida»gi Nizom (1998 yil); O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining Ustavi (1998 yil)).

4. «Rahbar kasbiy kompetentligining ahamiyati shundaki...» mavzusida asoslangan esse yozish.

Esse yozishga doir ko‘rsatmalar:

1) mazkur mavzu yuzasidan o‘z nuqtai nazaringizni bayon eting;
2) nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting;
3) mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

4. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining bir yillik ish rejasi, uni tuzish va bajarish tartibi bilan tanishing.

1.*Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining ish rejasini o’rganib chiqing. Quyidagi masalalarga e’tiboringizni qarating:*

1) O’tgan o’quv yilida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining olib borilgan ishlar rejada qanchalik aniq va to’g’ri tahlil qilingan? Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining yangi o’quv yilidagi ishini rejalashtirish uchun bu tahlil nima beradi?
2) Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining masalalari unda qanday ifodalangan? Sizning nuqtai nazaringizga ko’ra, anchagina muvaffaqiyatli ifodalangan masalalardan o’zingiz uchun ko’chirmalar oling.
3) Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining vazifalari maktab islohoti haqidagi hujjatlarda ifodalangan mazkur ta’lim muassasalarining tarbiyaviy ish rejasi talablariga qanchalik mos keladi? Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining ish rejasida ta’lim muassasalarining islohotiga mos keluvchi qanday yangi vazifalar mo’ljallanyapti? ;

4) Bu masalalar ish rejasida qanday ifodalangan? Rejaning turli bo'limlaridan tanlab oling.
5) Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining ish rejasini tuzish, uni bajarish va uning qanday bajarilayotganini nazorat qilish tartibi haqida o'qituvchi rahbarligida ta'lim muassasalasi direktori yoki unin o'rrinbosari bilan suhbatlashing.

5. Mavzuga oid ko'rgazmali vosita tayyorlab kelish.

Ko'rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko'rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog'liqlikda chizma, jadval, rasmni qo'lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;
2) ko'rgazmali vositani izohdashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mashg'ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o'yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

20-LABORATORIYA ISHI.

MAVZU: Korreksion (maxsus) pedagogika.

Turli toifadagi ijtimoiy yordamga muhtoj o'quvchilar bilan ishlash
(2-soat).

ISHNING AMALGA OSHIRISH REJASI, TARTIBI VA TUZILISHI:

REJA:

1.Rivojlanishidagi nuqsonlarni turkumlashtirish, uning sabab va oqibatlari. Nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish va korreksion yordam ko'rsatish tamoyillari. Psixologik-pedagogik tekshirish metodlari.
2.Turli toifadagi anomal o'quvchilar bilan ishlash.
3.Anomal o'quvchilar bilan ishlashga oid xarita, psixologik trening bayonnomasi va dasturini tayyorlash.

ISHNING BAJARILISH TARTIBI:

1. Mashg'ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aniqlash.
2. Nazariy ma'lumotlar to'plash.
3. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar bajarish.
4. Mavzuga doir testlar ishlab chiqish.
5. Kichik dars o'tish.
6. Talabalarni mashg'ulot bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Mashg'ulot topshiriqlari (uy vazifasi uchun) berish.

DIDAKTIK VOSITALAR:

1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko'rsatkich (ukazka).
2. Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
3. Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).
4. Metodik ta'minotlar: plakatli ko'rgazma, slaydlar, test savollari, tarqatma materiallar, mavzuga

oid adabiyotlar, berilgan nazariy ma’lumotlar.

ISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI:

Mashg‘ulotning tuzilishi, maqsadi, pedagogik vazifalari va o‘quv faoliyati natijalari.

Laboratoriya mashg‘ulotining tuzilishi:

1. Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish.
2. Rivojlanishdagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash.
3. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilash ishlash metodlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.

Laboratoriya mashg‘ulotining maqsadi:

Talabalarning korreksion pedagogikaga doir nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularda korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar (professor-o‘qituvchi faoliyati):

1.Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalarini o‘zlashtirilishiga erishish.
2. Talabalarni rivojlanishdagi nuqsonlarni tasnif etishga o‘rgatish.
3. Talabalarda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilash ishlash metodlaridan foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish.

O‘quv faoliyati natijalari (talabalarning o‘quv-bilish faoliyati):

1. Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalarini o‘zlashtiradilar.
2. Rivojlanishdagi nuqsonlarni tasnif etishga o‘rgatishadi.
3. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilash ishlash metodlaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

NAZARIY MA’LUMOTLAR:

Rivojlanishida nuqsonlar bo’lgan bolalar bilan olib boriladigan korrektsion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos – noto’g’ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Rivojlanishida kamchiliklar bo’lgan bolalar maxsus, korrektsion-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo’ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korrektsion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo’lgan sonli va sifatli ko’rsatkichlarini aniqlash muhimdir. Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko’ra turlicha bo’ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

Ona qorinidaligi miyasi shikastlangan bolalar.

Tug’ilishi paytida yoki tug’ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog’liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994 yilda aqli zaiflikning quyidagi to’rt darajasini e'tirof etgan: sezilmas (kam), o’rtacha, og’ir va chuqur darajalar.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog’liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yaslilarida tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korrektsion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog’chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo’lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ommaviy bolalar bog’chalaridagi maxsus guruhlarga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o’qitish maxsus bolalar bog’chasidagi kabi maxsus dastur bo’yicha olib boriladi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korrektsion) maktablarda o’qitiladilar, bu erda o’qitish davlat ta'lim standarti asosida maxsus dastur bo’yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o’rta ta'lim fanlari (ona tili, o’qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, fizkultura, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korrektsion fanlarni ham o’qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi muhim o’rin egallaydi. Mehnat ta'limi IV sinfdayoq professional xususiyatga ega bo’lib, bolalar o’zlari bajara oladigan kasbni o’zlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo’lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarini tarbiyalash, atrofdagilar va o’zlariga to’g’ri baho berishga o’rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi.

Goho aqliy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolaning ommaviy umumiy o’rta ta'lim maktabiga jaob etilish holati ko’zga tashlanadi. Bunday holatda bolaning taqdiri, uni o’qitish va tarbiyalash

mas'uliyatini ota-onalar o'qituvchi-defektologlar bilan kelishib olishlari zarur. Normal rivojlanuvchi bolalar bilan bir sinfda o'qiydigan aqli zaif bola alohida munosabatni talab etadi. Bola kuchi etganicha, darsning borishiga halaqit qilmay sinf faolitida ishtirok etishi kerak. Unga biror narsaning tushunarsiz bo'lishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu holat keyin o'quv materialini mutlaqo tushunmasligiga olib keladi. Aqli zaif bolani ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish ota-onalarining bevosita ishtiroklarini talab etadi,

PMPKning tarkibida quyidagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar: pedagog, psixolog, shifokor, psixiatr, nevropatolog, otolaringolog, ortoped, oftalmologlar, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog hamda logoped. PMPK ishlariga defektologik ta'lim va anomal bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega mutaxassis rahbarlik qiladi.

Psixologik-pedagogik tekshirishlar quyidagi metodlari yordamida tashkil etiladi:

Suhbat metodi. Suhbat bola bilan aloqa o'rnatish vositasi bo'lib, anomal bolaning shaxsi, emotsional-irodaviy sifatlari, xulqi, shuningdek, rivojlanishidagi chetlanishlarning sabablari haqidagi ma'lumotni to'plashga imkon beradi. Agarda bolaning nutqida, eshitish qobiliyatida nuqsonlari bo'lsa, yoki munosabatga qiyin kirishsa suhbatni tashkil qilish tavsiya etilmaydi. Bunday hollarda bolani qiziqtiradigan ko'rgazmali materialdan foydalanish mumkin.

Kuzatish metodi. Kuzatish bolaning konsultatsiyaga kelishidan avval boshlanadi va yaxlit tekshirishlarni ўtkazish jarayonida davom ettiriladi. Kuzatish ?ar doim ani? ma?sad asosida ўtkaziladi. Bolani ўyin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alo?ida a?amiyatga ega, ular bola bilan aloqa ўrnatishga imkon beradi. Ayrim hollarda o'yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o'tkaziladi.

Rasmlarini o'rganish metodi. Rasmlar bolani o'rganishda muhim differentsial-diagnostik vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg'otsa, bolaga erkin rasm chizishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Uning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashxis uchun qimmatli ma'lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga qiynaladilar, ular syujetlar yaratmay, alohida odatiy predmetlarni tasvirlashga harakat qiladilar.

Tajriba-psixologik tadqiqotlar metodlari. Ular maxsus o'rganilishi kerak bo'lgan psixik jarayonni qo'zg'atuvchi ma'lum vaziyatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holatlarning sabablari va mexanizmlarini ochib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Testlar metodi. Bu metod bolalarning psixodiagnostik maqsadlarda tekshirishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan moslashtirilgan test ommaviylashgandir. Undan foydalanish individual-psixologik tekshirishlarni o'tkazishda bola haqida zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

Korrektsion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Pedagogik lug'atda «korrektsiya» tushunchasi (yunoncha «correctiio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Ana shu lug'atda «korrektsion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'ligida imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korrektsion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:



Umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida logopedik punkt faoliyat yuritadi.
Logopedik punkt vazifalari quyidagilardan iborat:



MASHG'ULOTNING BORISHI:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalardan mashg'ulot topshiriqlari(uyga vazifa) so'raladi va ularning konspekt daftarlari tekshiriladi, mashg'uulot davomida esa talabalarning nazariy bilimlarini savollar (test, og'zaki, yozma),topshiriqlar yordamida tekshiriladi.)

Berilgan nazariy ma'lumotlarni o'rganing. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishing. So'ngra berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

1. «Korreksion pedagogikani o'rganishning ahamiyati shundaki...» mavzusida asoslangan esse yozish. Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazaringizni bayon eting.
2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.
3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

2. Jadvalni to'ldiring. Talabalarning rivojlanishdagi nuqsonlarni tasnif etishga doir toifalash jadvali:

M.A.Vlasova va M.S.Pevznerlar tasnifi	O.N.Usanova tasnifi	V.S.Raxmanova tasnifi

3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilash ishlash metodlariga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. Anomal bolalarning fikrlashini o'rganish maqsadida taxminiy so'rovnoma variantini ishlab chiqing.

2-topshiriq. Anomal bolalarning rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda ularga chizish taklif etiladigan rasmlar ro'yhatini ishlab chiqing.

4. Mavzuga oid 6 ta test tuzing.

5. Kichik dars o'tish.

(Dars talaba tomonidan o'tiladi va unga 15 daqiqa vaqt ajratiladi**.** Dars o'tilgach, o'qituvchi va talabalar tomonidan tahlil qilinadi**).**

HULOSA VA MULOHAZALAR:

(Mashg'ulotga xulosa yasashdan oldin, o'qituvchi va guruh bilan birgalikda darsning maqsadiga qay darajada erishilganligi tahlil etiladi. Talabalar tomonidan yoritilmay qolgan yoki to'la ochilmagan masalalarga o'qituvchi tomonidan yana bir bor to'xtalib o'tiladi, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob beriladi).

Bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozing, unda mashg'ulot davomida bajarilgan topshiriqlar yuzasidan atroflicha (har bir mashqqa alohida kengaytirilgan mazmunda) yoritilgan tavsifni va o'z hulosa va mulohazalaringizni aks ettiring.

NAZORAT SAVOLLARI (256 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI(275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

***Qo'simcha izoh sifatida:** Mashg'ulotning yakunida talabalarga butun semestr davomida to'plagan ballari e'lon qilinadi. Ushbu mashg'ulot shu semestr uchun yakuniy mashg'ulot bo'lganligi sababli, asosan, joriy nazorat uchun yetarli ball to'play olmagan yoki to'plagan ballarini ko'tarmoqchi bo'lgan talabalarga ko'proq vaqt ajratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Semestr yakunida o'qituvchi talabalarni quyidagi mezon asosida baholaydi:

A'lo- 11-13ball

Yaxshi-9,3-10,9ball

Qoniqarli-7,1-9,1ball.

Qoniqarsiz-0-7ball.

(O'qituvchi bir mashgulotning o'zida guruhdagi barcha talabalarni baholashga imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Bunday holatda JN o'tkazilganda talaba dars mashg'ulotlari davomida kamida 3-4 marta baholangan bo'lishi kerak. Shunda, talabaning JN (og'zaki yoki yozma) topshiriqlarini bajarish holatiga qarab umumiy baho chiqariladi.)

MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI (UY VAZIFASI UCHUN).

1.Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalarini o'zlashtirish (Pedagogika//M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. -T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Novotorseva N.V. Korreksionnaya pedagogika i spetsialnaya psixologiya. Slovar. — Moskva, Pedagogika, 1999; Ro'1a1oua R. M. Maxziz - T.: 2005).

2.Rivojlanishdagi nuqsonlar tasnifini o'rganish va tahlil etish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. -T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Novotorseva N.V. Korreksionnaya pedagogika i spetsialnaya psixologiya. Slovar. — Moskva, Pedagogika, 1999; Ro'1a1oua R. M. Maxsus redagogika - T.: 2005).

3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash tamoyillari va metodlarini o'zlashtirish (Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. - T.: «Faylasuflar Milliy jamiyati», 2010; Novotorseva N.V. Korreksionnaya pedagogika i spetsialnaya psixologiya. Slovar. - Moskva, Pedagogika, 1999; Po'1atova R. M. Maxsus pedagogika -T.: 2005).

4. Maxsus bolalar internatidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi ustida kuzatish olib borish.

1. Oqituvchi darsni qanday tashkil qildi? Bolalar darsga qanday munosabatda bo'ldilar?
2. Bolalarning bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabati qanday kechyapti? Ular o'zlarini qanday tutishmoqda?
3. Darsdagi berilgan ma'lumotlarni qay tarzda qabul qilishmoqda? Bu borada sog'lom bolalar bilan ular qaysi jihatlari bilan farq qilyapti?
4. Darsda o'qituvchi ularga qanday metodlarni qo'lladi va qanday natijaga erishdi?
5. Ta'lim muassasasidagi olib borolayotgan ta'lim-tarbiya ishlari qanday samara bermoqda? Bu ishga yana kimlar jalb qilinmoqda? Shular xususida muassasaning rahbari bilan suhbat o'tkazing.
6. Bolalarni maxsus internatga qabul qilishda ularning rivojlanishidagi nuqsonlarini qanday yo'llar bilan aniqlab olinadi? O'z taasssurotlaringizni qisqacha yozing.

5. Mavzuga oid ko'rgazmali vosita tayyorlab kelishil.

Ko'rgazmali vositani tayyorlashga doir zaruriy ko'rsatmalar:

1) mavzu mohiyati bilan bog'liqlikda chizma, jadval, rasmni qo'lda yoki kompyuter grafikasi yordamida tayyorlang;
2) ko'rgazmali vositani izohlashga doir tavsifnoma yozing.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mashg'ulot topshiriqlari (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Tanishuv, Bahs munozara, Amaliy o'yin,Skarabey, Keys stadi,Qadamma- qadam, 6x6x6, FSMU, Loyihalash.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A3, A4,A5,A6, Q5, Q8,Q12.

“UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI” FANIDAN SEMINAR MASHG’ULOTLARI

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanidan seminar mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo’yicha taqsimlanishi

№	Mavzular	Ajratil gan soat
		seminar
	II KURS	
	3-semestr	
	Pedagogika tarixi	
1.	**Pedagogika tarixi fan va o‘quv predmeti sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim -tarbiya va pedagogik fikrlar.**	
1.1	Eng qadimgi marifiy yodgorliklarda ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.	2
1.2	Hadis ilmining paydo bo‘lishi.	2
2.	**VII asrdan IX asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**	
2.1	Abu Nasr Forobiy ta’lim-tarbiya to‘g‘risida.	2
2.2	Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiya haqida.	2
3.	**I X asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**	
3.1	Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.	2
3.2	Kaykovusning ta’limiy-ahloqiy qarashlari.	2
4.	**XIV asrning ikkinchi yarmidan - XVII asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**	
4.1	Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi.	2
5.	**Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta’limiy-axloqiy qarashlari.**	
5.1	Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-ahloqiy qarashlari.	2
5.2	Alisher Navoiy komil insonni tarbiyalash to‘g‘risida.	2
6.	**XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**	
6.1	Jaloliddin Davoniyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.	2
	Jami	**20**
	IV-semestr	
1.	**Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi. Istiqlol yillarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti.**	
1.1	Prezident I.A.Karimov asarlarida ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo’nalishlari.	2
2.	**Jahon pedagogika fanining taraqqiyot tarixi.**	
2.1	Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimi.	2
2.2	K.D.Ushinskiyning pedagogik tizimi.	2
3.	**Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta’limi va pedagogika**	

	fani.	
3.1	Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta'limi va pedagogika fani.	2
3.2	Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimi (AQSH va Yaponiya misolida).	2
	Pedagogik mahorat	
1.	**Pedagogik mahorat va madaniyat. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari.**	
1.1	Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati.	2
2.	**O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyat.**	
2.1	Pedagogik odob va pedagogik nazokat.	2
3.	**Muloqot madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik muloqot.**	
3.1	Pedagogik muloqot va uni to'g'ri tashkil etish.	2
4.	**Pedagogik texnika.**	
4.1	Pedagogik texnika.	2
	Nutq tehnikasi.	2
5.	**O'qituvchi mahoratini takomillashrirish yo'li va shart –sharoilari.**	
5.1	Pedagogik faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashish va pedagogik tajriba to'plash.	
	Jami	**22**
	Fan bo'yicha umumiy soatlar soni	**42**

II KURS

III-SEMESTR

"PEDAGOGIKA TARIXI"


IBTIDOIY JAMIYATDA TARBIYA XALQ PEDAGOGIKASI YOZMA MANBA'LARDAGI PEDAGOGIK G'OYALAR (I-DAVR)
Maqollar, rivoyatlar ertaklar, dostonlar
"Avesto" da ta'lim-tarbiya ?oyalarini rivojlantirish
O'rxun –Enisey yodgorliklarida tarbiya haqidagi g'oyalar
"Qobusnoma" "Humoyunnoma" "Zafarnoma" turkumidagi kitoblar
Xalq turmush an'analari, etnik xususiyatlarida Ijtimoiy pedagogika
Qadimgi Xitoy yozma manba'larida tarbiya haqida g'oyasi.
Qadimgi Hind yozma manba'larida tarbiya haqida g'oyalar
Vladimir Monomaxning bolalar o'gitlari «Izrgil» (XIII asr)
QADIMGI RIM VA YUNONISTON DA PEDAGOGIKA (II-DAVR)
Qadimgi Rimda "elementar" grammatik va "ritorik" maktablar didaktik asoslari
Mark Kvintilan (42-118 y) «orator» tarbiyasi haqida
Sparta (Lakoniya) Afina (Attika) ta'lim tarbiya tizimi
Suhrotning (469-399) e.q.tarbiya haqida ta'limoti
Platon (427-347er. q) ning tarbiya haqidagi ta'limoti
Arastu (384-322 e.q) ning ta'lim-tarbiya haqida ta'limoti


DINIY MANBA'LARDA TA'LIM-TARBIYA TA'LIMOTINING RIVOJLANISHI (III-DAVR)
“Avesto” kitobi zardo’shtiylik ta'limotida komil inson g’ovasi
“Qur'oni karim” hadislarda barkamol inson
“Injil” da ta'lim-tarbiya ta'limoti
“Tavrotda” da ta'lim-tarbiya ta'limot
ILK RENNISEANS (UYG’ONISH) VII XIII ASRLARDA SHARQDA PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR. (IV- DAVR)
Mu?adislar Ismoil Buxoriy, At Termiziy, hadislarida ta'lim-tarbiya
Al Xorazmiy (783-850) ning didaktik ta'limoti.
Firdavsiy, Abdushukur Balxiy, Yu. X. Xojib, Axmad Yugnakiy ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari
A. Gijdivoniy, A. Yassaviy, B. Naqshband, N. Kubro
Abu nasr Farobiy (879-950) ning ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limoti
Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ning ta'lim-tarbiya xa?ida ta'limoti
TEMURIYLAR XIVXVII ASRLARDA TA'LIM TARBIYA TIZIMI
Temur saltanatining ta'lim-tarbiya tizimi
Ulug’bek madrasalarida ta'lim-tarbiya tizimi
Bobur va boburiylarning jahon tsvilizatsiyasida tutgan o’rni
Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limoti
Amir Temurning axloq va odobga oid ta'limoti
Alisher Navoiyning ma'rifatparvarlik faoliyati va pedagogik qarashlari
XVII –XIX ASRLARDA EVROPADA MAKTAB VA PEDAGOGIK TA'LIMOTNING MAMLAKATLAR TARAQQIYOTIDA TUTGAN O’RNI.
Chex pedagogi Ya. A. Komenskiyning mamlakat taraqqiyoti va pedagogikani rivojlanishiga qo’shgan hissasi
Frantsiya, Angliya, Germaniya, taraqqiyotida maktab va pedagogika
Z. M. Boburning ta'lim-tarbiya xaqidagi qarashlari
J. Lokk, J. J. Russo, D. D. Dedrolarni pedagogik ta'limoti
I. Pestalotstso, I. Robert, Ouet Disterveglarning pedagogik ta'limoti


XVIII-XIV asrda Rossiyani rivojlanishi pedagogik ta'limotning tutgan o’rni
К.Д. Ушинский Л.Н. Толстойларнинг мактабларида таълим тизими ва педагогика фани тараққиётида қўшган ҳиссаси
XVII asrda Ukraina va Belorussiya mustaqillikka erishishida qardoshlik maktablarining tutgan o’rni. Kiev akademiyasi
XX ASRDA PEDAGOGIKA FANI VII- DAVR
Munavvar qori, Fitrat, M. Behbudiy, A.Avloniylarning ma'rifatparvarlik faoliyati va ta'lim tarbiya haqida ta'limoti
XXasr boshlarida Turkistonda jadidchilik ?arakata va uni maktablar, milliy g’oya va pedagogika fanini rivojlanishidagi o’rni.
A.S. Makarenko, S.Shatskiy, P.Blonskiy, Yu.Babanskiy, V.Kupisevich, Ya. Korchak, Z.Freyd va boshqalarning pedagogik merosi.
Sobiq SSSR da pedagogik fani va uni kommunistik g’oya, shovinizmga moslashtirilishi
O’ZBEKISTON MUSTAQILLIGIDAN KEYIN PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANIShI VIII- DAVR
O’zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturining jahonshumul tarixiy mohiyati va pedagogika fanining tutgan o’rni
.
Pedagogikaning jahon faniga integratsiya va globallashuvi
Milliy g’oya pedagogika fanining rivojlanishi metodologik asosi va milliy g’oyani xalqimizning qalbiga singdirishdagi pedagogikaning ўrni


Qadimgi obidalar, bitiklar, qo'lyozmalar, arxeologik topilmalar
Jahon xalqlari madaniyati tarixi
Diniy kitoblar: "Avesto", "Quroni Karim", "Hadislar", Tasavvuf adabiyotlari
Pedagogika tarixini o'rganishning manbalari
Xalq pedagogikasi, og'zaki, ijodiy, ertak, doston, rivoyat, maqol, turmush an'analari
Mumtoz adabiyot asarlari, maktab madrasalar tarixi
Ta'lim tarbiyaning tarixiyligi printspi "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" I. A. Karimov tamoyillari
Ta'lim-tarbiyaning milliylik va umuminsoniylik prinsipi
Pedagogika tarixining o'rganishning qonuniyatlari va printsiplari
Pedagogika tarixining jamiyat tarixi, ijtimoiy fanlar tarixi bilan bog'liqligi qonuniyati
Pedagogika tarixini tasavvuf falsafasi va mumtoz adabiyot bilan bog;'liqligi qonuniyati
Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim-tarbiya faoliyatiga tayyorlash
O'quv dasturlari, darsliklar va qo'llanmalar yaratishda pedagogika tarixidan fovdalanish
Pedagogika tarixidan foydalanish yo'llari
Pedagogik tadqiqotlarning tarixiyligi
Madaniyat tarixini yaratishda pedagogik merosdan foydalanish

1-Mavzu: Pedagogika tarixi fan va o‘quv predmeti sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim -tarbiya va pedagogik fikrlar (4soat).

I. Eng qadimgi marifiy yodgorliklarda ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi (2soat).

REJA:

1. Eng qadimgi tarbiyaning kelib chiqishi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari. Qadimgi davlatlar: So‘g‘diyona, Baqtriya, Xorazm davlatlarida ta’lim-tarbiyaning paydo bolishi va rivojlanishi.
2. Xalq og’zaki ijodida ta’lim-tarbiya usullarining mazmuni va usullarining ifodalanishi.
3. “Avesto” ning yaratilish tarixi, mundarijasi. “Avesto”da ta’limiy-ahloqiy masalalarining ifodalanishi.
4. O‘rxun-Enasoy obidalarining ta’limiy-tarbiyaviy mohiyati. Maxmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’atit turk” asarida ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Quyidagi eng qadimgi tarbiyaning kelib chiqishi, ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari to’g’risidagi fikrlarni davom ettiring:

Tarbiya-ijtimoiy hodisa. U kishilik jamoyati paydo bo’lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzasidagi eng mukammal zot bo’lishi uchun avvalo, tarbiyalanishi zarur.

Ibtidoiy davrdagi tarbiya asosan oilada, jamoa va mehnat maskanlarida kishilar orttirgan tajribalarni bolalarga o’rgatishdan iborat bo’lgan. Bolalarga o’rgatiladigan kundalik mehnat malakalari ularni yashash uchun kurashishga tayyorlar, aql-idrokli, odobli bo’lib o’sishlariga xizmat qilardi. Ming yillar mobaynida moddiy ne’matlar yaratish uchun hamkorlikda qilingan mehnat kishilar o’rtasidagi ahloq-odob munosabatlarining me’yorini keltirib chiqardi.

2. Quyidagi sxemani izohlang:



3. Xalq og’zaki ijodi namunalaridan biri bolgan Alla bola tarbiyasiga qanday ta’sir etadi? Ona allasidan misol keltiring.

Allalarga onalar o’z his-tuygularii, orzu-armonlari, istak-niyatlarni, dard-hasratlarini ham qo’shib aytganlar. Alla tarbiyaviy, didaktik, an’anaviy ijod namunalaridan iborat bulgan. Alla

tinglagan bola onaga mehrini sut bilan o’ziga singdiradi. Alla inson ong qatlamlarida bir umr mungli, xazin nurli qo’shik bulib saqlanib qoladi. Alla eshitmagan bolada bu xususiyatlar bo’lmaydi. Alla nafaqat onaning bolaga mehri, balki bolaning onaga mehr-oqibatining ham manbaidir.

3.Quyidagi halq maqollarini o’rganing va izohlang:

1. Barvaqt qilingan harakat - hocilga berar barakat.
2. Vaqting ketdi-baxting ketdi.
3. Vaqt g‘animat, o‘tsa - nadomat.
4. Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam, odam mehnati bilan.
5. Yer xazina, mehnat kaliti.
6. Mehnatdan kelsa boylik, tarmush boiur chiroylik.
7. Yigit husni mehnatda.
8. Yoshlikda o'igangan hunar, o‘zingga o‘lja qolar.
9. Qunt bilan o'rgan hunar, hunardan rizqing unar.
10. Sendan harakat — mendan barakat.
11. Bilimli kishi o‘zar, bilimsiz kishi to‘zar.
12. Usta ko'rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar.

4. Ertaklar bola hayotida qanday o’rin tutadi? O’zbek xalq ertaklaridan misollar keltiring.

5. Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lgan «Alpomish» dostonidagi quyidagi obrazlarni to‘g‘ri sharhlab bera olasizmi?

	Obraz	Ijobiy Xususiyatlar	Salbiy xususiyatlari	Tarbiyaviy ahamiyati
1.	Hakimbek			
2.	Barchin			
3.	Boybo'ri			
4.	Boysari			
5.	Qorajon			
6.	Surxayl maston			
7.	Qaldirg‘och			
8.	Ultontoz			
9.	Oultoy			

6.“Avesto”dagi ma’naviy-ahloqiy va hayotiy-tarbiyaviy g’oyalarni o’rganing, ularni sharhlang:

1. Pindori Nek (Ezgu fikr): Tangrining yagonaligiga ishonmok, iymonda sobitlik, tavakkul, qanoat, xayrixohlik, sulhjo‘ylik, kechirimli bo‘la bilish, ishonch, shijoatli, rahmli va muruwatli bo‘lmoq, pok-tiynatlik, insof, xushhulqlik, beozorlik, ochiqyuz- lik, ehsonlilik, nafsni chegaralash, kasb va ilmni sevmoq, mas’uliyatlilik va xaqiqatparast bo‘lmoq.
2. Guftori Nek (Ezgu so‘z): Tangriga hamdu sano aytmoq, to‘g‘riso‘zlik, ahdida sobitlik, haqgo‘ylik, salom va ta’zimda bo‘lmoq, to‘g‘ri va rost guvohlik bermoq, shirinkalomlik, o‘ylab, sinab gapirmoq, rost qavllik.
3. Raftori Nek (Ezgu ish, faoliyat): Tangri va payg‘ambar bergan farz va sunnatlarga so‘zsiz itoat etmoq hamda ularni bajarmoq, yaxshi ishlash, omonatga xiyonat qilmaslik,

ojizlarni qollash, serg'ayrat bo'lmoq, ota-ona va ustod hukmiga farmonbar- dor bo‘lmoq, xalq uchun, Vatan uchun xizmat qilmoq, mehmon- do‘stlik, parxezkarlik, yomon ishlardan yuz o‘girmoq, mehribon- lik, insonparvarlik, jamiyat qonunlariga itoat etmoq, o‘tganlarni esda tutish, xaqiqattalab bo‘lmoq, bemorlar holidan xabar olib turmoq, muhtojlarga yordam berish, o‘z ishi va kasbiga mehr qo‘yish, adolatli bo‘lmoqdir.

«Avesto» - insoniyatning moddiy, ma'naviy, pedagogik boyligi sifatida juda katta ta'lim-tarbiyaviy qimmatga ega.

7. Zardushtiylik tadrijiysini o’rganing va eslab qoling:



8. Eng qadimgi davrlarda insonda ulug’langan xislatlarni sharhlang:



9. “Avesto” haqidagi ma’lumotlatga qo’shimchalar kiriting.

«Avesto»da tarbiya yo’nalishlari



ZARDUSHTIYLIK AXLOQINING ASOSIY UCHLIGI



10. Quyidagi Zardusht nasihatlari o’rganing va ularni sharhlang:

Zardusht nasihatlari.

1. Dono o‘z aqlu farosati bilan nodon qalbini yoritmog'i lozim.
2. Ey mardum! Shunday kishi gapiga quloq tutginki, u donishmand va rostlik tarafdori bo‘lsin.
3. Kim farosatli, oqil va to‘g‘ri bo‘lsa, parvardigori olam uning homiysidir.
4. Keksalar gapiga quloq soling va andisha bilan mulohaza yuritib, yaxshi bilan yomonni o‘zingiz ajratib oling.
5. Otashdek pok va duraxshon bo‘ling!
6. Pokxilqat kishigina Tangri inoyatiga erishadi.
7. Jahonga haqorat ko‘zi bilan qaraydigan kishilar poktiynat- likdan yiroqdirlar.
8. Poktiynat kishilar to‘g‘rilik va do‘stlik tarafdoridirlar.
9. Pok xulqli yurt hamisha yuksalish va taraqqiyotda bo‘ladi.
10. Kishilar yaxshi xulq bilan kamolot va mangulikka erishadilar.
11. Har bir kishi andisha, so‘z va ishda muqaddas aqlga suyanmog‘i lozim.
12. Aqli raso kishi baxtli va farovon yashaydi.
13. Biz hayvonlarning ko‘payishi, parvarishi, ularga oziq-ovqat tayyorlash, binolar qurish

payidan bo‘lmog‘imiz darkor. Hatto o‘zimizga oziq-ovqat, kiyim-kechak hozirlash uchun ham chorvador bo‘lmog‘imiz lozim.

14. Yaxshi ustozlar Tangriga yaqin odamlardir.
15. Nodonining ibodat paytida raqsga tushgisi keladi.
16. Odamlarga yaxshilik qilmoq - dunyodagi eng mo°tabar odatdir.
17. Tangri shomu sahar bandalariga yordam beradigan odamlarni yoqtiradi.
18. Rost so‘z sendan qoladigan eng qutlug‘ yodgorlikdir.
19. Adashganlami to‘g‘ri yo‘lga boshlagan odamni yaxshi odam deyish mumkin.
20. Qaerda ikki tan bir-birini qo‘llasa, o‘sha erda ish yurishadi.
21. Rost amaldan boshqa hech narsa bilan shug‘ullanma.
22. Hammaga yaxshilik tilaydigan odamlarga yaxshilik etsin.
23. Do'stlik rishtasini poklik bilan mahkam tuting.
24. Yer yuzining yaxshilari adog‘siz daryodirlar.
25. Poklik - inson tug‘ilganidan umrining oxirigacha qilinadigan eng yaxshi amaldir.
26. Kirn yolg‘on so‘zga og‘iz ochsa, baxt qushi undan qochadi.
27. Gapiruvchi nodon bo‘lsa xam, tinglovchi dono bo‘lmog‘i zarur.
28. Sukut - eng buyuk odob.
29. Vatanning tutuni ham shirin.
30. Qiz bolani ura ko‘rmang, xonadoningiz baxtsizlikka uchraydi.
31. Ovqatlanish paytida gapirmoq gunohi azimdir.

Muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olishga doir.

1. Axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, qum bilan ko‘mib tashlash, shu yo‘l bilan mikroblar o‘ldirilgan yoki kamaygan.

2.Otash, issiqlik va sovuqlik ta’siri bilan yo‘qotish, «Avesto"da otash poklovchi va ofatni ketkizuvchi vosita hisoblanadi. U bilan hatto kiyim-kechaklarni zararsizlantirish mumkin.

3.Kimyoviy yo‘l: kul, sirka, sharob, turli giyohlar (isfand — isiriq, mixak, sadaf, piyoz, aloe, sanda) tutatish yo'li bilan. Bularning ko‘pi hozir ham mikroblarni o‘ldiruvchidir.

4.Uy hayvonlarini boqish va ko‘paytirish sharoitlarini yaxshilash, parranda va boshqa hayvonlarga behuda ozor bermaslik, ularning bemahal o‘limiga sabab bo‘lmaslik uqtirilgan. Shu bilan birga kasal tarqatadigan hayvon va hashorotlarni yo‘qotishga da’vat etilgan.

5.«Avesto»da issikliq, sovuq havo, ochlik, bo‘kib ovqat eyish, ruhiy iztirob, buzilgan taom eyish, tozalikka rioya qilmaslik ko‘p kasalliklarning asosiy manbai deb topilgan.

6. Yuz-qo‘lni, sochni bir kunda bir necha marotaba yuvib yurishga da’vat qilish bilan ю

7.Soch va tirnoqlarni o‘z vaqtida tozalab olib turish, ularni odamlar nazari va qadami tushmaydigan, parranda, it va mushuk kovlab olmaydigan darajadagi chuqurlikka ko‘mib tashlashni qat’iy talab qilingan.

NAZORAT SAVOLLARI (241 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari togrisida yozing.
2. Qadimgi davlatlar: So‘g‘diyona, Baqtriya, Xorazm davlatlarida ta’lim-tarbiyaning paydo bolishi va rivojlanishi haqida yozing.
3. Xalq og’zaki ijodida ta’lim-tarbiya usullarining mazmuni va usullarining ifodalanishini yozing.
4. Xalq og‘zaki ijodidan namunalar keltiring va ularning har biriga izoh bering.
5. O‘rxun-Enasoy obidalarining ta’limiy-tarbiyaviy mohiyatini yoriting.
6. “Avesto” ning yaratilish tarixi, mundarijasini yoriting.

7. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarini mustaqil o’rganing va asardagi ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar xususida yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA”LIM TEXNOLOGIYALARI: *Aqliy hujum,Baxs munozara, Skarabey, Keys stadi, 6x6x6, FSMU.*

ADABIYOTLAR: *A 1, A 2, A7, Q1, Q2, Q5, Q8, Q11, Q12, Q14, Q15.*

2- Mavzu : Pedagogika tarixi fan va o‘quv predmeti sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim -tarbiya va pedagogik fikrlar.

II. Hadis ilmining paydo bo‘lishi

(2soat).

REJA:

1.Hadis ilmining paydo bo‘lishi va mashhur muhaddislarning hadis ilmining yaratishdagi xizmatlari.
2.Al-Buxoriy“Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) va “As-sahih” asarlari hamda ularning mazmuni.
3.Ta’lim-tarbiyaga oid hadislar.
4.Imom Iso at-Termiziy ning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Prezidentimiz I.Karimov xalqimiz diniy etiqodini yanada mustahkamlash yo’lida qanday ishlar olib bormoqda? Shular hususida fikr bildiring.

2. Quyidagi hadislarni o’rganing va sharhlang.

a) Ey Rasulullоh, “ Men yahshilikni kimga qilsam boladi?
Rasulullоh: “ Uch karra onangga, keyin otangga va yaqin bolgan qarindoshlaringga”.
b) Rasulullohdan “ Insonlarga berilgan fazilatlarning eng yaxshisi nima?”-deb soradilar.
Rasulullоh: “ Insonlarga berilgan fazilatlarning eng yaxshisi yaxshi ahloqdir”-dedilar.
c) Rasulullоh: “ Qiyomat kuni menga yaqin boluvchilar xalqqa (ahloqda) yoqimliroq bolganlardir”.
d) “Ogoh bolinglar! Gunohlarning eng , kattasi Olloh Taologa shirk keltirish, ota-onaga oq bolish va yolgon gapirmoq, tuhmat qilmoqdir”.
e) “Zino, mast qiladigan ichimliklarni ichish va ogrilik – otaketgan qabih ishlar bolib, oxiratda ham, bu dunyoning ozida ham jazosi belgilangandir”.

3. Mashhur muhaddislarning hadis ilmining yaratishdagi xizmatlari to’g’risidagi ma’lumotlarga izoh bering.

Hadislarda insonning kamolga etishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks etgan bo‘lib, bular mehr-oqibat ko‘rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-onaga va kattalarga, qarindoshlarga g‘amho‘rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruwat, vatanga muhabbat va kasb-hunarni ulug‘lash,halollik, poklik, o‘zaro do‘stlik, tinch-totuvlik va boshqalardan iboratdir.



NAZORAT SAVOLLARI (241 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI(275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo'yicha konspekt tuzing:

1. Islom dini tarixi va hadis ilmining paydo bo'lishi to'g'risida yozing.
2. Hadis ilmining paydo bo'lishi hamda Paygambarimiz Muhammad (s.a.v) qissasi haqida fikrlaringizni bildiring.
3. Al-Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" va "As-sahih" asarlarini mustaqil o'rganing va qisqacha yozing.
4. Imom at-Termiziyning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari to'g'risida yozing.
5. Hadislardan namunalar keltiring va ularning har biriga izoh bering.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI:*Aqliy hujum,Baxs munozara, Skarabey, Keys stadi, 6x6x6, FSMU.*

ADABIYOTLAR: *A 1, A 2, A7, Q1, Q2, Q5, Q8, Q11, Q12, Q14, Q15.*

3- Mavzu : VII asrdan IX asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar(4 soat).

I. Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiya to'g'risida (2 soat).

REJA:

1. Forobiyning ilmiy-falsafiy ta'limoti.
2. Forobiy fanlar tasnifi haqida. Forobiy aqliy tarbiya haqida.
3. Forobiy axloqiy, ijtimoiy, nafosat tarbiyasi haqida.
4. Forobiy ta'lim-tarbiya uslubi, shakl va usullari haqida.
5. Forobiyning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarini hozirgi davrdagi ahamiyati.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so'ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg'ulot davomida esa mavzu bo'yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1.Sharq uyg'onish davrida ilm-fan va talim-tarbiyaning rivoji to'g'risidagi ma'lumotlarga izoh bering.



Islom dinining yoyilishi, markazlashgan Arab xalifaligidagi ilm-fan taraqqiyoti tufayli ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar Mova- rounnahrda va Xurosonda IX asrda ma'naviy ko'tarilish, uyg'onish davrini bosh lab berdi.

Al-Ma'mun tomonidan tashkil etilgan «Baytul-hikma» («Do- nishmandlar uyi») — Akademiya barcha ilm sohiblari to'plangan markazga aylandi va Shapq hamda G'arb ilm-fanining taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning yuksalishiga ta'sir ko'rsatdi.

Butun Sharqdagi kabi Movarounnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida mashhur faylasuf va munajijimlar, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, ta'lim tarbiya bo'yicha ilmiy asarlar bilan nom qoldirgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdi.

2.Forobiy ta'lim-tarbiya berish usullari haqida va unug ilmiy merosi to'g'risidagi ma'lumotlarga izoh bering.

«Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak?», «Substansiya haqida», «Falsafa manbaalari», «Mantiqqa kirish», «Masalalar manbai» va b. Jami 160 dan ortiq.

Farobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolasida bilimlarni o'rganish tartibini birma-bir sanab o'tadi: bilish zarur bo'lgan ilm, bu - olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangan tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon jismlari haqidagi ilmlarni

o‘rganishi lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat - o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi.

Forobiy ta’lim-tarbiya berish usullarini ikkiga bo‘ladi:

Birinchi usul: Qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlan- tiruvchi so'zlar yordamida odat hosil

qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, kasbga intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi usul: Majbur etish yo£lidir. Bu usul gapga ko'nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular o‘z istaklaricha, so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emasdir.

Forobiy deydi: «Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli boisin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin».

3.Forobiyning ilmiy-pedagogik ta’limotining ahamiyati to’g’risidagi ma’lumotlarga izoh bering.

Forobiy ta’limotiga ko‘ra:

Forobiy ta’limoticha, insonning 5 sezgi a’zosi 5 turli vazifani bajarishga muvoflqlashgan bo‘lib, ular tashqi muhitdan olingai xabarlarni bir yagona markazga olib keladi va bu markazda barcha xabarlar — obrazlar umumlashadi.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilan bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan.

Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.

Ahloqiy fazilatlar - bilimdonlik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonilik, kamtarlik, ko‘pchilik manfaatlarini yuqori qo'yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intilish, adolatli bo'lish xislatlaridir.

Ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob mezonlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi.

4. Forobiyning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarini hozirgi davrdagi ahamiyati haqida o’z hulosangizni ayting.

NAZORAT SAVOLLARI (241 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. Forobiyning axloqiy, ijtimoiy, nafosat tarbiyasi haqida fikrlarini yozing.
2. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” nomli asarini mustaqil o’rganib chiqing va qisqacha konspekt tuzing.
3. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” nomli asarini mustaqil o’rganib chiqing va qisqacha

konspekt tuzing.

4. **FOrobiyning «Aql"ga bergan ta’rifini keltiring.**

Izoh* Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Bahs munozara, Skarabey, Keys stadi, 6x6x6, FSMU.

ADABIYOTLAR:*A 1, A 2, A7, Q1, Q2, Q5, Q8, Q11, Q12, Q14, Q15.*

4- Mavzu: VII asrdan IX asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.
II. Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiya haqida (2 soat).

REJA:

1.Ibn Sino asrlar qomusiy olimi. Ibn Sino fanlar tasnifi to‘g‘risida.
2.Ibn Sino aqliy va jismoniy tarbiya haqida. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida.
3.Abu Ali ibn Sino ta’limotida ta’lim va tarbiya usullari, shakl va metodlari.
4.Ibn Sino pedagogik qarashlarining hozirgi davrdagi axamiyati.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1.Ibn Sinoning haqidagi ma’lumotlariga izoh bering:

Ibn Sino yozgan dostonlar

Sog‘liqni saqlash - gigiena haqida urjuza

Yilning to‘rt fasli haqida urjuza

Anatomiya haqida uijuza

Gippokrat vasiyatlari haqida uijuza

Tibbiy nasihatlar haqida urjuza

Aloqa haqida urjuz

Ibn Sino fanlarni tsnif etadi:

Birinchi guruh — etika, iqtisod, siyosat.
Ikkinchi guruh — fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlar.



2.Ibn Sinonig bolalarga maktabda bilim berish haqidagi fikrlarini muhokama qiling:

Ibn Sino bolalarga maktabda bilim berish haqida gapirar ekan, ta'limda quyidagi jihatlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

— bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
— ta'limda soddadan murakkabga borish orqali bilim berish;
— mashg'ulotlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
— o'qitishda jamoa bo'lib o'rganishga e'tibor berish;
— bilim berishda bolalarning xohishi, qiziqishi va qobiliyatini xisobga olish;
-o'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish.

3.Ibn Sinoning ahloqiy hislatlar haqidagi ma'lumotlarni sharlang:

Axloq fani kishilarning o'ziga va boshqalarga nisbatan xatti- harakatiga doir me'yorlar va qoidalarni o'rganadi



Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy va ma'rifly masalalar haqida olg'a surgan ilg'or g'oyalari:

Yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, rohat va azob- uqubat, sahihlik va baxillik, kamtarlik va maqtanchoqlik, vafodorlik va bevafolik kabilardir.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra:



Olim do‘stlikni 3 turga bo‘ladi:

1. Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o‘z do‘stini xavf-xatarda yolg‘iz qoldirmaydigan do‘stlik.
2. Manfaatlari o'xshash va g‘oyaviy yaqin do‘stlik.
3. 0‘z shaxsiy manfaati va ehtiyoini qondirishga qaratilgan do‘stlik.

4. Ibn Sinoning dunyo tabobat ilmida qoldirgan ilmiy merosi to’g’risidagi ma’lumotlarga qo’shimcha kiriting.

Buyuk shifokor olim Abu Ali ibn Sino fan va madaniyat taraqqiyotiga qo‘shgan ulug‘ hissasi uchun Sharqda «Shayx ur- rais» («Olimlar boshlig‘i»), Yevropada Avsena «Olimlar podshosi» degan yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan.

Alloma yaratgan «Kitob ash-Shifo» 18 jilddan iborat bo‘lib, tibbiyot va falsafiy bilimlar qomusi hisoblanadi. U o‘z ichiga 4ta katta bo‘lim (mantiq, fizika, matematika, metafizika)ni oladi. Ibn Sinoning «Kitob ul-insof»i («Adolat kitobi») 21 jilddan iborat.

5. Ibn Sino haqida xalq orasidagi rivoyatlardan misol keltiring.

6. Ibn Sinoning ahloqiy hislatlar haqidagi ma’lumotlarni sharlang:

Ibn Sino hikmatlari

Aysh-ishrat va bekorchilikdan buzuqlik va kasalmandlik kelib chiqadi, aksincha, aqlning nimagadir intilishi sog‘liqni muttasil mustahkamlab boradigan bardamlikni yuzaga chiqaradi.

1. Do‘stimki dushmanimga do‘stlik qilar ekan, uni men do‘st hisoblamayman. Zaxarga qo‘shilgan shakardan ehtiyot bo‘l, oiaksa ilon ustiga qo‘ngan pashshadan o‘zingni tort.
2. Abu Ali Ibn Sino o‘zi davolayotgan kasallarga bunday der ekan:

- Biz uch tarafmiz: men (tabib), sen (bemor) va u (kasallik). Agar sen men tarafga o‘tib olsang, u yengiladi. Agar u tarafga o‘tib olsang, ikkovingni yengishim qiyin...

3. Go‘sht tanani mustahkamlaydigan taom bo‘lib, u boshqa ovqatlarga nisbatan qonni tezroq ko‘paytiradi.
4. Erta saharda anor, tushda piyozli ovqat esang, yotish oldidan asal nush etsang, qoning ko‘z yoshidek beg‘ubor bo‘ladi.
5. Har kishi anjir tanovul aylasa tun-kun mudom, Ko‘ksidan balg‘amni haydar, bartaraf qilg‘ay taom.
6. Sholg‘om urug‘ini tuyib, maydalab,asal bilan qo‘shib qilsang iste’mol.

Ichingni yumshatar, zaharni kesar,belingni baqquwat qiladi darhol.

7. Surma qo‘ysa har kishi ko‘ziga laylu nahor,

Ko‘zidan suv oqmagay va nuri bo‘lg‘ay beg'ubor.

8. Ketma-ket mast bo‘lish juda yomondirki, jigarni va mujozni huzadi, asabni kuchsiz qiladi.
9. Asab kasalliklarini, sakta kasalligini va to‘satdan o‘lishni keltiradi.
10. Qora yer qa’ridan to avji Zuhal, koinot mushkuli barin qildim hal.

Ko‘p mushkul tugunni angladim, yechdim, yechilmay qolgani birgina ajal.

Har kishi anjir tanovul aylasa tun-kun mudom,

ko‘ksidan balg‘amni haydar, bartaraf qilg‘ay taom.

7. Ibn Sino pedagogik qarashlarining hozirgi davrdagi axamiyati to’g’risidagi o’z hulosangizni ayting.

NAZORAT SAVOLLARI(241 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. Ibn Sinoni asrlar qomusiy olimi sifatida nimalar deya olasiz? Ibn Sino fanlar tasnifi to‘g‘risida ilgari surgan g’oyalarni keltiring.

2.Ta’lim va tarbiya usullari, shakl va metodlari to‘g‘risida qanday munosabat bildirgan? Shular xususida yozing.

3.Oilada bola tarbiyasi haqida Ibn Sinoning qanday dono o’gitlarini bilasiz? Misollar keltiring.

4.“Kitob ash- Shifo” kitobi mustaqil o’rganib chiqing va qisqacha konspekt tuzing.

5.“Tib qonunlari” kitobi mustaqil o’rganib chiqing va qisqacha konspekt tuzing.

6.Ibh Sinonig umumbashariy qadriyatlarini tavsiflang.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Bahs munozara, Skarabey, Keys stadi, 6x6x6, FSMU.

ADABIYOTLAR:*A 1, A 2, A7, Q1, Q2, Q5, Q8, Q11, Q12, Q14, Q15.*

5- Mavzu: IX asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar (4 soat).

I. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari (2 soat).

REJA:

1. “Qutadg‘u bilig” asarining yaratilishi. Asarning asosiy mazmuni. Undagi ilgari surilgan aqliy, axloqiy, tarbiya masalalari.
2. “Qutadg‘u bilig” asarining ilmiy, ta’limiy-axloqiy ahamiyati. Yusuf Xos Hojib yetuk inson tarbiyasi usullari haqida.
3. Axmad Yugnakiyning tarjimai holi. “Hibbat ul-haqoyiq” asarining yaratilishi va tuzilishi.
4. “Hibbat ul-haqoyiq” asarida komil insonga xos axloqiy xislatlarning ifodalanishi. Ahmad Yugnakiy va uning “Hibbat ul-haqoyiq” asarining pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o‘rni.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1.“Qutadg‘u bilig” asari va uning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi ma’lumotlarni sharhlang:

Yusuf Xos Hojib XI asrda - qoraxoniylar davrida yashab ijod elgan. Adib haqidagi ma’lumotlar uning hozircha topilgan yagona «sari «Qutadg‘u-bilig» («Saodatga yo‘llovchi bilim»)da mavjud.

Asarda keltirilishicha, Yusuf Xos Hojibning tug‘ilgan joyi Ko‘z urdu (hozirgi Bolasog'un) ekani, turli o‘lkalarga safar qilgani, umrining nihoyasida esa Qashqarga kelganligi aytiladi. Demak, Yusuf Xos Hojib 1019 milodiy yillarda Bolasog‘undatug‘ilgan.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» asarini 50 yoshlaridan yo/.a boshlagan. U 6500 bayt — 13000 misradai iborat.

Buyuk mutafakkir asarni yozib tugatgach, uni qoraxoniylar luikmdori Tavg‘achxonga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo‘lib, muallifga Xos Hojiblik (mukarram eshik og‘asi) lavozimini beradi. «Qutadg'u bilig» asari katta shuhrat qozonadi.

Yusuf Xos Hojib faylasuf va qomusiy olim sifatida o‘z asarida quyidagi sohalarga oid fikrlarni bayon etadi:



3. Jadvaldagi insonni kamolga yetishida to’sqinlik qiladigan yomon illatlar to’g’risidagi fikrlarga izoh bering

Mazkur illatlar ta’sirida davlat rivojiga putur yetadi, jamiyat ma’naviy qashshoqlikka uchraydi.

4.Yusuf Xos Hojibning pedagogik tarbiyaviy g’oyalarini o’rganing va sharhlang:

Yusuf Xos Hojibning pedagogik tarbiyaviy g‘oyalari

1. Xudo kimga o‘quv, aql-idrok, bilim bersa,U ko‘p ezguliklar qilishga qo‘l uzatadi.
2. Zakovat qaerda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lur.Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik oladi.
3. Zakovatli uqadi, bilimli biladi.Bilimli, zakovatli tilakka etadi.
4. So‘zingga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin,Tilingga ehtiyot bo‘l, tishing sinmasin.
5. Fe’l-atvorni soz tut, unutma o‘zing,Ko‘ngilni kichik tut, semirtma so‘zing.

6. 0‘quvli tirLkdir, o‘quvsiz - o‘lig,Kelu, ey o£quvsiz, o‘quv ol ulich.
7. Bilim bilan kishi judo hayvondin Buyukroq nima bor, qani ayt ondin!?
8. Ezgulik etgil sen - olam qul bo‘lur.Olam ezgulikka to‘la, mo‘l bo‘lur.
9. Agar ichsang, kayfni oshiradi may,Ko‘ngil sirin ochar u bitta qo‘ymay.
10. Bilimli may ichsa bilimsiz bo'iar,Bilimsiz-chi, ichsa yana past bo‘lar.
11. Xat chiroyli bo‘lsa ko‘ngil ochilar,0‘qish mayli ortar, dillar ovunar.
12. Bitib qo‘ymasaydi dono qalami,Qorong‘u qolardi moziy olami.
13. Mardning mardi shu bo‘lur doimo Olamni olsa ham kerilmas aslo.
14. Odamzot boyisa ortar havosi,Kamtarlik bilandir dil muddaosi.
15. Otim bo'lsin desang el aro ezgu,Yolg‘onga yandashma, buning yo‘li - shu.

“Qutadg‘u bilig” asarida talqin qilingan insoniy fazilatlar



5. Ahmad Yugnakiyning ma’naviy-axloqiy hikmatlarini o’rganing va sharhlang:

Ahmad Yugnakiyning ma’naviy-axloqiy hikmatlari

1. Har bir kishi chin inson, pok musulmon bo'lishi, haq yo‘lga kirishi, yomon, yaramas, achchiq, yolg‘on so‘zlardan saqlanishi uchun tilini tiyishi kerak.
2. Ilmli kishi kerakli so‘zni gapiradi, keraksiz so‘zni yashirib qo‘yadi. Ilmsiz nodon tushunmasdan og‘ziga kelgan gapni so‘zlay beradi, bunday nodonning tili o‘z boshini eydi.
3. Sahovatlilik (ahiylik) eng yaxshi insoniy fazilatdir.
4. Boylik orttirishga ortiqcha berilmasdan, emoq - ichmoqqa, kiyinishga etarli bo‘lgan boylikka qanoat qil.
5. Saxiylik insonga yetuklik, kamolot, ulug‘ martaba va go‘zallik baxsh etadi.
6. Sen odamlar orasida obro‘-e’tibor orttirishni, sevilishni istasang, saxiylik qil, saxiylik seni sevikli qiladi.
7. Orttirgan mol - dunyoni saxovat yo'liga sarf et!
8. Takabburlikni boshdan oshirib tashla, tavoze qilishni yashirin tut, tavoze qilish uchun tezlikda harakat qil.
9. Mehribonlik, shafqat, rahmdillilik Ollohga xos fazilat bo‘lib, barcha insonlarni ana shu xislat tark etmasin.
10. Sir saqlashni o‘rgan. Sening o‘zingda siring yashirinib turmasa, siringni oshkor etuvchi do‘stingdan saqlan.

NAZORAT SAVOLLARI (242 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1.“Qutadg‘u bilig” asarining yaratilishi haqida qisqacha yozing. “Qutadg‘u bilig” asarini mustaqil o’rganib chiqing va undagi ilgari surilgan aqliy, axloqiy, tarbiya masalalari xususida fikr bildiring.
2.Mazkur asarning qanday ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida izoh bering. Yetuk inson tarbiyasi usullari haqida Yusuf Xos Hojib qanday g’oyalarni ilgari surgan?Shular hususida yozing.
3.Axmad Yugnakiyning tarjimai holi to‘g‘risida yozing. “Hibbat ul-haqoyiq” asarining yaratilishi to‘g‘risida yozing.
4.Axmad Yugnakiyning tarjimai holi. “Hibbat ul-haqoyiq” asarining yaratilishi va tuzilishi haqida yozing.
5.“Hibbat ul-haqoyiq” asari va uning tarbiyaviy ahamiyati to’g’risida fikr bildiring
6.Mazkur asardagi komil insonga xos axloqiy xislatlar. Pedagogik fikr taraqqiyotida “Hibbat ul-haqoyiq” asarining tutgan o‘rnini yoriting.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI.

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Bahs munozara, Skarabey, Keys stadi, 6x6x6, FSMU.

ADABIYOTLAR: A 1, A 2, A7, Q1, Q2, Q5, Q8, Q11, Q12, Q14, Q15.

6- Mavzu: IX asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

II. Kaykovusning ta’limiy-ahloqiy qarashlari (2 soat).

REJA:

1. Kaykovusning “Qobusnoma” asarining yaratilishi.“Qobusnoma” asarining tuzilishi.
2. Asarda ilgari surilgan ta’lim-tarbiya va axloq masalalari.
3. “Qobusnoma” asarida barkamol inson tarbiyasida qo‘llaniladigan metod va usullarning ifodalanishi. Javonmardlik tarbiyasi.
4. “Qobusnoma” asarining ilk pandnoma sifatida yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

“Qobusnoma” asari va uning tarbiyaviy ahamiyati to’g’risidagi ma’lumotlarni o’rganib chiqing va sharhlang:

G‘arb va Sharq olimlari, pedagoglari diqqatinn o‘ziga jalb etgan «Qobusnoma» asarining muallifi Unsurul — Maoliy Kaykovus Kuspiy dengizining janubiy qirg‘og‘ida yashovchi Gilon qabila- siilandir. U 412 hijriy (1021—1022 milodiy) yilda feodal oilasida tug'ilgan.

«Qobusnoma» asari shoh Qobus ibn Vushmagar Kaykovus o'g'li Gilonshohga tarbiya beruvchi bir nasihatnoma yoki vasiyat- iioma yozib qoldirish istagi tufayli yaratiladi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida yoshlar tarbiyasi uchun zarur bo‘gan — juvonmardlik talablari ilgari suriladi. Bulardan eng muhimi yuksak axloqiy tarbiyadir.



U yoshlarda teran insoniy munosabatlarni shakllantirish, adolat, samimiylik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni orzu qiladi va asarning boshidai oxiri- gacha ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirishga intiladi.

1. Kaykovusning ilmiy-falsaviy va ma’naviy-axloqiy hikmatlarini o’rganing va sharhlang:

Kaykovusning ilmiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy hikmatlari:

1. Tan jon bilan, jon nafas bilan, nafas aql bilan tirikdir.
2. Odamning tani ko‘zga ko‘rinadigan va ko‘zga ko‘rinmaydigan moddalardan tuzilgan.
3. «.. Dunyoda odamning bilmagan va tanimagan hech narsasi yo'qdir».
4. Juvonmardlikning asosi uch narsadir: biri — aytgan so'zni bajarish, ikkinchisi — to‘g‘rilikka xilof qilmaslik, uchinchisi — xayrni ko‘zda tutish.
5. Ey farzand, yolg‘on va behuda so'zlamagilkim, behuda so‘z jinnilarning so‘zidir.
6. Barcha kishining kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esaj hikmatdandir.
7. «... aql ikki xildir: biri tug‘ma aqldirki, buni aziziy (tabiiyj aql) derlar, ikkinchisi kasbiy aql, buni muktasib (halol mehnat bilan topilgan aql) derlar. Kasbiy aqlga donish ham derlar. Muktasibni o‘rganib boMadi, ammo aziziy aql xudoning sovg‘a- j sidir, uni ta’lim bilan o‘rganib bo‘lmas».
8. Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish, badanni dangasalikdan qutqarish foydalidir. Chunki dangasalik, ishyoqmaslik j badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo‘ladi. Agar mehnat! qilib badanni o‘zingga bo‘ysundurmasang, sog‘lom va balandl martabali bo‘la olmaysan.
9. Agar kishi oliy mansab, baland martabali bo‘lsa-yu, hunari bo‘lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan mahrum bo‘Iadi. Ulug‘lik nasl-nasab bilan emas, aql va bilim bilandir. Ota-ona qo‘ygan otiga mag‘rur bo‘lma, chunki bu ot faqat tashqi ko‘rinishdan boshqa narsa emas, ammo hunar bilan bir nomga ega bo'lgil.
10. Sho‘r erga urug‘ sochma — hosil bermaydi, mehnating bekor ketadi, ya’ni yaxshilikni bilmagan kishiga yaxshilik qilish sho£r erga urug‘ sochish bilan baravardir.
11. Anushervon dedi: «0‘zini dono sanagan nodondan parhez qil».
12. Yana dedi: «Agar g‘amsiz bo‘lmoq tilasang, hasadlik bo‘lmagil».

3. Kaykovusning bilim olish borasida odamlarni turli toifalarga bo’lishi haqidagi fiklarini izohlang:

Kaykovus odamlarni to‘rt xilga bo‘ladi:



3.Quyidagi hikoyatlarni sharhlang:

Birinchi hikoyat qaddi yoydek bukilgan. Shunday eshitganmanki, yuz yoshga kirgan va bir qari kishi qo‘liga hassa ushlab borar edi. Bir yigit uni masxara qilib deydi: «Ey shayx, ushbu yoyn; qanchaga sotib olding, ayt men ham sotib olay». Shayx: «Agaj uzoq yashasang, sabr qilsang, bu yoyni senga tekinga beradilar», deb javob beribdi.

Ikkinchi hikoyat. Men shunday eshitganmanki, bir kish: kechasi sahar vaqtida qorong'ida uydan chiqib ketdi va hammomga bormoqchi bo‘ldi. 0‘z do‘stlaridan biriga: «Men bilan hamroh bo‘lib hammomga borgil!» — dedi. U dedi: «Sen bilan birga boramanu, ammo hammomga tushmayman, chunki mening bir zarur ishim bor».

U kishi hamrohi bilan hammom tomon qarab ketdi. Ikki yo‘l kelgan joyga borib, hammomga boruvchi do‘stiga bildir- masdan boshqa yo‘lga kirdi. Hamrohi o‘zi yolg‘iz hammomga ketaverdi va do‘stim bilan kelayotirman deb o‘ylab boraverdi. Ittifoqo bir o‘g‘ri u kishining izidai ketaverdi, u kishi buni do‘s^j tim deb fahmladi va uning qo‘ynida yuz tillasi bor edi. Hammomni eshigida tillani qo‘ynidan chiqarib kecha qorong‘isida tanimay haligi o‘g‘riga berdi va dedi; «Ey birodar, men hammomga kirib chiqquncha bu tilla senda tursin, hammomdan chiqqanimdan keyin menga topshirasan». 0‘g‘ri tillani olib, o‘sha joyda o‘tirdi. U kishi hammomdan chiqib, kiyimlarini kiyib ketaverdi. 0‘g‘ri uni orqasidan chaqirib dedi: «Ey juvonmard, kel mendan oltinlaringni ol. Bugun men sening omonatingni saqlab o‘z ishimdan qoldim». U kishi dedi: «Sen kimsan, bu oltin qanday oltin?»

0‘g‘ri dedi: «Men bir o‘g‘riman, bu oltin sening menga topshirgan oltiningdir».

5.“Qobusnoma” asarining ilk pandnoma sifatida yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati to’grisidagi o’z hulosangizni ayting.

NAZORAT SAVOLLARI (242 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. Kaykovusning “Qobusnoma” asarining yaratilishi haqida yozing. Kaykovusning “Qobusnoma” asarini mustaqil o’rganib chiqing ,undagi ta’lim-tarbiya va axloq masalalari to‘g‘risida yozing.
2. “Qobusnoma” asarida barkamol inson tarbiyasida qo‘llaniladigan metod va usullarning ifodalanishini yozing.
3. Kaykovus “Qobusnoma” asarida javonmardlik tarbiyasi haqida qanday fikrlar bildirilgan?Shular hususida yozing.
4. “Qobusnoma” asarining barkamol insonni tarbiyalashda tutgan o’rnini yoriting.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: Aqliy hujum,Bahs munozara, Skarabey, Keys stadi, 6x6x6, FSMU.

ADABIYOTLAR: *A 1, A 2, A7, Q1, Q2, Q5, Q8, Q11, Q12, Q14, Q15.*

7- Mavzu : XIV asrning ikkinchi yarmidan - XVII asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi
(2soat).

REJA:

1. XIV-XVI asrlarda fan, madaniyat, maorif taraqqiyoti. Amir Temur va uning yetuk inson tarbiyasiga oid qarashlari.
2. Ulug'bekning fan, madaniyat, ma'rifat taraqqiyotidagi xizmati.Uning ta'lim-tarbiya tizimi, metod va usullariga oid qarashlari.
3. Ulug'bek ilmiy merosining jahon fani taraqqiyotida tutgan o'rni.
4. Zahiriddin Muhammad Boburning ma'rifiy-axloqiy qarashlari. Temuriylar sulolasining ilm-ma'rifat taraqqiyotidagi o'rni.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so'ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg'ulot davomida esa mavzu bo'yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1.Amir Temur unvonlari va uning amal qilgan sifatlariga (a va b sxemalarga) sharh bering. a)



b)



3.Amir Temur o'gitlari va vasiyatlarini o'rganing va o'z fikr-mulohazangizni bildiring:

Buyuk saltanat sohibi Amir Temur «Kuch — adolatdadir» degan shiorga qat'iy amal qilib, davlatni boshqargan. Bu qudratli so'zlar Amir Temur tamg'asiga naqsh etilgan.



Amir Temur o'gitlari va vasiyatlari.

— 0'g'illarim, millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun Sizlarga qoldirayotgan vasiyat va «Tuzuklar»imni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting.
— Millatning dardlariga darmon bo'lmoq qutlug[1] vazifangiz. Zaiflarni ko'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik — dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin».
— Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim.

— Adovat emas, adolat yengadi, Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo'ladi.
— Boshsiz mamlakat jonsiz tanaga o'xshaydi, Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal.
— Har neki degan bo'lsam unga amal qildim.
— Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqrok bo'lishga intildim.
— Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorlarga ham, begunohra ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Hayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim.
— Menga yomonlik qilib boshim uzra shamshir ko'tarib ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim».

Do'stu dushman bilan murosayu madoro qildim.

4. Quyidagi sxemaga e'tibor bering va uni sharhlang:



5. Ulugbekning ilm-fanga qushgan hissasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqing va ularni sharhlang:

Ulug'bek 1424-yilda Samarqandda Obirahmat suvi yonida (i'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Abduali Birjandiy, Mansur Koshiy, Maryam Chalabiy va boshqa olimlar bilan birgalikda qurgan rasadxonasida sayyoralar sirini o'rgandi. Natijada Ulug'bek 1018 ta yulduzning holati va harakatini aniqladi, astronomiyaga iloir bir necha asarlar yozdi. Bu asarlarning asosiy mazmunini «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb ataluvchi astronomiya jadvali tashkil yetadi.

6.Ulug'bekning ijodiy faoliyati haqidagi ma'lumotni o'rganing va unga qo'shimcha kiriting:

Ulug'bekning eng katta xizmati shundaki, u bevosita ilmiy- pedagogik qarashlari bilan ham odamlami ilmli va ma'rifatli bo'lishga da'vat etdi. Ulug'bek o'zining falsafa tarixi, falakkiyot, matematika, geografiya, adabiyot fanlariga oid ko'p jildli asarlarida o'z davri uchun muhim bo'lgan ilg'or pedagogik fikrlarni ilgari surdi.

Ulug'bek yoshlarni aqliy va ma'rifiy tarbiyasi haqida gapirib, ulami dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etdi, ilmsizlikka qarshi kurashdi.

7. Quyidagi jadvalni o'rganib chiqing:

Ulugbekning matematika va falakkiyot ta'limotlari keng tarqalgan mamlakatlar.



8. Ulug'bekning pedagogik qarashlarini o'rganing:

1.Yosh avlodning erkin va har tomonlama kamol topish liuquqini himoya qiladi.

2.Yoshlar o'rgangan bilimlarini hayotga tatbiq etish yollarini bilishlari, kerakli kasb-hunarlami

o‘rganishlari lozim deb biladi.

3.Axloq tarbiyasi masalasiga e’tibor berib, insonlar orasidagi munosabat, do‘stlik, birodarlikka alohida e’tibor qaratishni ta’kidlaydi.

4.Mehnat tarbiyasi va insonlarni hayotda, o‘qishda chidamli bo'lishini mehnatsevarlik va matonat timsoli deb ko'rsatadi.

5.Bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo‘lib yetishuviga alohida e’tibor beradi.

Madrasalardagi o‘quv tizimini isloh qilib, madrasalarda o‘qish muddatini 15-20-yildan 8-yilgacha qisqartiradi.

9. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ilmiy merosi haqidagi ma’lumotlarni o’rganing va ularni sharhlang:

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati va ma’naviyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan olim bo‘lishi bilan birga keng dunyoqarash va mukammal aql - zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonni mashhur tarixnavis, adabiyotshunos, tarbiyashunos olimlari qatoridan ham joy oldi.

Bobur o‘zining ma’lum va mashhur asarlari bilan xalq orasiga ma’rifat yoyishga, ilm va jamoat ravnaqi yo‘lida xizmat qilishga Intildi. U tarix, adabiyot, ijtimoiy masalalar echimiga o‘z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma’naviy madaniyati tarixida immosib o‘rin egalladi.

«Boburiylar sulolasi» Hindistonda 300-yildan ortiq hukmronlik qildi.

Boburning «Mufassal» asari bo‘lganligi ma’lum, biroq bu iisar bizgacha yetib kelmagan.

Boburning ilmiy ma’naviy, tarixiy, adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda XIX-XX asrda Georg Kerr, N. IPminskiy,O.Senkovskiy, M. Sal’e, Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev, V. Zohidov, Ya. G‘ulomov, R. Nabiev, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning sa’y-harakatlari katta bo‘ldi.

Kim ko‘ribdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘,
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘.
Bu zamonni nafi qilsam, ayb qilma, ey rafiq,
Ko‘rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig[1].



10. Boburnig “Boburnoma” asaridagi ta’lim-tarbiya va axloq masalalari haqidagi ma’lumotga qo’shimcha kiriting.

«Boburnoma» tarixiy, adabiy, ilmiy, ta’limiy-ahloqiy meros sifatida dunyo olimlarini hozirgacha hayratda qoldirib kelmoqda.«Boburnoma» Markaziy Osiyo va Hindistonning siyosiy- iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy savdo munosabatlari, jug'rofiyasi, iqlimi, o‘simiik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalq-qabila va elatlari, ularning yashash sharoitlari urf-

odatlari, muhim tarixiy inshootlari, hindlar va musulmonlarning ibodatxonalari, to‘y va dafn marosimlari, yashash sharoitlari, xalqlarning madaniy hayotlari haqida nihoyatda nodir **ma’lumotlami o‘zida qamrab olgan buyuk shoh asardir.**

11.Temuriylar sulolasining ilm-ma’rifat taraqqiyotidagi o‘rni to’g’risidagi o’z hulosangizni ayting.

NAZORAT SAVOLLARI)243 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. XIV-XVI asrlarda fan, madaniyat, maorif taraqqiyoti. Amir Temur va uning yetuk inson tarbiyasiga oid qarashlari.
2. Amir Temur markazlashgan davlat barpo etgan shaxs sifatida va unin yetuk yetuk inson tarbiyasiga oid qarashlari.
3. Ulug‘bekning fan, madaniyat, ma’rifat taraqqiyotidagi xizmati. Uning ta’lim-tarbiya tizimi, metod va usullariga oid qarashlari.
4. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini mustaqil organib chiqing, undagi ta’lim-tarbiya va axloq masalalari to‘g‘risida yozing. Boburning ma’rifiy-axloqiy qarashlari.
5. Boburning ijodidan namunalar namunalar keltiring va ularning mazmuniga izoh bering.
6. Temuriylar sulolasining ilm-ma’rifat taraqqiyotidagi o‘rni.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI.

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI:

“Esse”,“Klaster”, “6x6x6”,“To’rtinchisi ortiqcha” ,“Keystadi”. “Nima uchun”, “Charxpalak”, “Bumerang” ,“Galereya”.

ADABIYOTLAR:*A 1, A 2, A7, Q1, Q2, Q5, Q8, Q11, Q12, Q14, Q15.*

8 -Mavzu: Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta’limiy-axloqiy qarashlari (4 soat).

I. Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-ahloqiy qarashlari (2 soat).

REJA:

1. Abdurahmon Jomiyning hayoti va faoliyati.
2. A.Jomiyning komil insonni tarbiyalashga oid qarashlari.
3. A.Jomiy ta’lim-tarbiya usullari haqida.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. A.Jomiy asarlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati.

(O’qituvchi guruhga ularni yozma ravishda tarqatadi yoki taqdimot qiladi)

Jomiy uchta lirik devoni, yettita dostondan iborat «Haft av- rang» (Yetti taxt), ta’lim-tarbiyaga oid «Bahoriston» asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo‘ldi. Uning barcha asarlari sonini tadqiqotchilar 46 ta deb aniqlaganlar (A.Qayumov).
Abdurahmon Jomiy «Bahoriston» asarida inson kamolotining barcha mezonlarini birma-bir bayon etadi. Shuningdek, alloma insonni shaxs sifatida tarbiyalashda moddiy omillar bilan bir qatorda ma’naviy omillarning roli ham beqiyos ekanligini ta’kidlaydi.

Umuman, Jomiy asarlarida etuk inson tarbiyasiga oid ma’naviy- axloqiy sifatlar har tomonlama asoslangan holda ifodalangan bo‘lib, ular bugungi jamiyatirnizning bosh muddaosi bo‘lmish komil inson tarbiyasini amalga oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi.



2. Abdurahmon Jomiyning hayoti va faoliyati haqida qisqacha so’zlang va quyidagi sxemalarni o’rganib chiqing:



3.Abdurahmon Jomiyning tarbiyaviy qarashlarini o’rganing va ularni sharhlang:

Abdurahmon Jomiyning tarbiyaviy qarashlari**:**

1. Har bir yosh ilm egallashda kitobni sevishi va uni o‘ziga hrminnat do‘st deb bilishi lozim.
2. Bilimni yoshlikdan egallash, johillikdan, nodonlikdan i liiqish yo‘lidir.
3. Bilim, hunarsiz kishi o‘tindan boshqaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o‘xshaydi.
4. Ilmga amal qilmaydigan mulla do‘stiga katta kitoblar ortilgan eshak misoli befoydadir.
5. Har bir yosh ota mansabi, shon-shuhratiga mag'rurlan- masdan, o‘z yo‘lini mustaqil tanlashi va ilm-hunar o‘rganishi shart.
6. Hunar o‘rganish har bir kishi uchun, u yoshmi, keksami, shohmi, oddiy fuqaromi barchaga barobardir.
7. Haqiqiy insonlarga xos bo‘lgan xislatlardan yaxshilik, saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik,

sabr-qanoat, do‘stlik, rost- go‘ylik, mehnatsevarlikni tarbiyalashga e’tibor qaratish zarur.

8. Saxovat biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab qilinsa, xatto talab etilgan narsa maqtov va minnatdorchilik bo‘lgan taqdirda ham, u saxovat emas.

9. Inson bir-biri bilan munosabatda bo‘lar ekan, uning boshqa- larga nisbatan do‘stona munosabati ham kamolot belgisidir. Haqiqiy do‘stlikning belgilari do‘stga sodiqlik, qiyin paytlarda undan qoch- maslik, hamdard, hammehr bo‘lish, do'stligi evaziga biror narsa talab etmaslikdir.

10. Qoldiray desang jahonda yaxshi nom,
Yaxshilik qil, yaxshilik qilgin mudom,
Yaxshilikni sen o‘zingga pesha qil,
Hech kishiga ranju ozor bermagil.

11. Agar rahbar nodon, johil bo‘lsa, el boshiga juda ko‘p nadomat, kulfat va zulm yog‘ilishi mumkin

5. A.Jomiyning ijodini tadqiq va tahlil etgan olimlar bilan tanishing:



6. A.Jomiy chuqur egallagan fanlar bilan tanishing:



7. A.Jomiy asarlarida qoralanib kelingan yomon illatlar bilan tanishing:



NAZORAT SAVOLLAR (243 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo'yicha konspekt tuzing:

1.Jomiyning hayoti va faoliyati haqida qidqacha yozing.
2.Jomiy komil insonni tarbiyasi to'g'risida qanday fikrlar bildirgan?
3.Jomiy ta'lim-tarbiya usullari haqida qanday g'oyalarni ilgsri surgan?
4.Uning ijodidan namunalar keltiring va ularning mazmuniga izoh bering
5.Alisher Navoiyning ilmiy-ma'rifiy faoliyati haqida qisqacha yozing.
6."Hayrat ul-abror" dostonini mustaqil o'rganib chiqing, undagi ta'lim-tarbiya masalalari to'g'risida yozing.
7."Mahbub ul-qulub" asarini mustaqil o'rganib chiqing ,undagi ta'lim-tarbiya va axloq masalalari to'g'risida yozing.
8.Jomiyning «Bahoriston» asatining asl mohiyati nimaga qaratilgan?
9.Jomiyning «Iskandar xiradnomasi» va Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asarlari orasidagi uyg'unlikni sharhlang.

Izoh* Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI.

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI:

"Esse","Klaster", "6x6x6","To'rtinchisi ortiqcha" ,"Keystadi","Nima uchun", "Charxpalak", "Bumerang" ,"Galereya".

ADABIYOTLAR:A 1, A 2, A7, Q1, Q2, Q5, Q8, Q11, Q12, Q14, Q15.

9- Mavzu: Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta'limiy-axloqiy qarashlari.

II. Alisher Navoiy komil insonni tarbiyalash to‘g‘risida (2 soat).

REJA:

1.Alisher Navoiyning ilmiy-ma'rifiy faoliyati.
2.“Hayrat ul-abror” dostonining tuzilishi va mazmuni. Dostonda Alisher Navoiy ilgari surgan ta'limiy-axloqiy qarashlar.
3.“Mahbub ul-qulub” asarining tuzilishi va mazmuni. “Mahbub ul-kulub”da inson kamolotiga xos xislatlarning yoritilishi.
4.Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy asarlarida ta'lim-tarbiya usullari va uslublari. Alisher Navoiy ma'rifiy qarashlarning ta'lim-tarbiyada tutgan o‘rni.
5.Alisher Navoiy maktab va madrasalar haqida. Alisher Navoiy o‘qituvchi-ustoz haqida.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so'ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg'ulot davomida esa mavzu bo'yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Alisher Navoiyning ilmiy-ma'rifiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga qo'shimcha kiriting.

Qomusiy bilimlar sohibi buyuk mutafakkir va ma'rifatparvar Alisher Navoiy (1441-1501) XV asrda - temuriylar davrida yashab ijod etgan allomadir.

Mashhur tarixchi Xondamir Navoiyning yoshlarga bilim herish va ularni tarbiyalash uchun katta imkoniyatlar tug‘dirganini shunday tasvirlaydi: «..Atoqli olimlar va hurmatga loyiq bo‘lgan siin'at ahllarining darajalarini ko‘tarishda qo'ldan kelgan qadar liarakat qilib, bunday ishlarga ahamiyat berdi. 0‘quvchilar faqat o'qish bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun ularga nafaqa tayin etib, madrasalar bino qildi»[1].

Alisher Navoiy yosh avlodning ilm-hunar egallashini va eng yaxshi insoniy fazilatlarga egakishilar bo‘lishini orzu qiladi. Uning ta'lim-tarbiya sohasidagi fikrlarida insonparvarlik g‘oyalari markaziy o'rinda turadi. Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak va qadrlidir. Buyuk mutafakkir bobomiz qariyb olti yuz yil narida turib bo‘lsa-da, nafaqat o‘z xalqining, balki bani bashariyatning ham ma'naviy olamini boyitishda bevosita ishtirok etib, ma'naviy-ruhiy madadkor bo‘lib turibdi. Kurrai zaminda uning asarlaridan bahramand bo'lmagan, ilg‘or g‘oyalari va ta'limotidan ruhiy quvvat olmayotgan, ijodiy foydalanmayotgan mamlakat, xalq va millat yo‘q, deb bemalol aytish mumkin. Alisher Navoiy asarlari jniniki odamzotga mehnat va halol-likdan, do‘stlik va hamkorlikdan, rostguylik, sofdillik va samimiylikdan hayotiy saboq bermoqda, ular xaromho‘rlik va adolatsizlikni, fitna-fujur o‘zaro nizo va qonli to'qnashuvlarni, vayrongarchiliklarga sabab boMadigan urushlarni csa keskin qoralamoqda. Ana shu ma'noda oiganda Alisher Navoiy ta'limoti faqat milliy ahamiyatga ega boiibgina qolmasdan, nmumbashariy qimmatga ham egadir. Navoiy umuminsoniyatga xos bo‘lgan daholardan biridir.

2.Alisher Navoiyning tarbiyaga katta o'rin bergan asarlariga ta'rif bering.



Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuch-qudratiga alohida e'tibor beradi. Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quwatiga, aqlu-zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ulikni yorituvchi chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi.

Tufuliyat o'tgach ki bo'ldi shabob,
Xirad nuri soldi dumog[1] ichra tob.
Kishining bu vaqt ikkidur holati.
Erur aqli yo nafsining quwati.
Agar aqliga quvvat o'ldi fuzun
Bulur yaxshi ishlar sori rahnamun.

«Xamsa»dan olingan mazkur parchada Navoiy bolaga yoshligidan tarbiya bermasa, yigitlik davrida yomon yo'lga tushib kctishi mumkinligini, juda yoshlikdan beiilgan tarbiya esa, insonni yaxshixulq va fazilatlar sari yetaklshini ta'kidlaydi.

3. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida qanday ta'lim-tabiyaga oid g'oyalar ilgari surilgan? Shular xususida fikr yuriting.

4. "Mahbub ul-qulub" asaridagi ayrim o'gitlarni o'rganing va ularni izohlang:

(«Mahbub ul-qulub»dan ayrim tanbehlar):

1. Oz gapirmoq — hikmatga sabab, oz emoq — sog'liqqa sabab. ()g'ziga kelganni demoq — nodonning ishi va oldiga kelganni yemoq hayvonning ishi.
2. Olim kishi bir johilni qarshisiga o'tkazib, uni mulzam qilishni Islasa, bu olimning o'zi uchun haqoratdir. Olim awalo, o'z ilmining darajasi va salmog'ini asrashi kerak, gavharni sinab ko'rish uchun losliga urmasligi kerak.
3. Sayyodning baliqqa qarmoq tashlashi — nafs muddaosi iK'liun; baliqning qarmoqqa ilinmog'i ham xuddi shu balo uchun.
4. Qanoat ehtiyojsizlik negizidir, izzat va sharaf tantanasidir. (Janoatli kambag'al — davlatmanddir; uning shohu gadoga ishi lushmaydi.
5. Chin so'z — mo''tabar; yaxshi so'z qisqa — muxtasar. Ko'p so'zlovchi — zeriktiruvchi; qayta-qayta gapiruvchi aqldan o/yian. Ayb izlovchi - aybli; kishi aybini gapiruvchi — o'ziga vomonlik sog'inuvchi.

6. Fosiq olim — o'ziga zolim donishmanddir; davlatmand baxil — o'z ziyonini ko'zlovchi nodondir. Bu ikki toifa — umrini bekorga o'tkazadi va go'rga xasratu armon olib ketadi.

7. Yel agar ko'kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz; tog' — agar tuproqqa botsa ham salobatlidir.

8. Bilmaganin so'rab o'rgangan — olim; orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

9. Oz-oz o'rganib — dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

10. Nafs balosiga uchragan odamning eyishdan boshka hunari yo'q; xudbin odam gap sotishdan bo'lakka yaramaydi. U biri harom ovqatdan rohatlanadi, bu biri esa doim o'zini maqtab orom oladi.

11. Odamning yaxshisi — yomon narsalardan saqlanuvchi, pok bo'lgay va xaq so'zni aytishda xech narsadan qo'rqmagay. 0'zi pok, ko£zi pokli inson desa bo'lur...

12. Yaxshi odamlardan yomonlar ham yomonlik kutmas; yaxshi odam yomonlardan ham yaxshilikni ayamas. Yaxshilik qila olmasang — yomonlik ham qilma.

«Mahbub ul-qulub»da talqin qilinadi:

«Karam — bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko‘tarmoq va uni o‘sha qiyinchilikdan qutqarmoqdir».

«Ehson degan sifatni abadiy saodat bil... Kishilik bog‘ining ko‘ngilga yoqar daraxti ehsondir».

«Saxiylik kishilik bog‘ining xosildor daraxtidir, balki u claraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'lkasining to'lqinli daryosi, balki u to'lqinli daryoning asl gavharidir».

«Saxiylik odamning badanidir, himmat uning joni: himmat- lilardan dunyoga yuz ming kushoyish bo‘lar, himmatsiz kishi er sonida emas, jonsiz badanni kishi tirik demas».

«Tiling bilan ko‘nglingni bir tut,
ko‘ngil va tili aytgan so‘ziga but.
So‘zni ko‘ngulda pishqormaguncha tilga keltirma».
«Oqil chin so‘zdan o‘zgani demas».
Kishi chinda so‘z desa zebo durur,
Necha muxtasar bo‘lsa avlo durur.

NAZORAT SAVOLLARI (243 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1.Alisher Navoiy ma’rifiy qarashlarning ta’lim-tarbiyada tutgan o‘rni (o‘qituvchi-ustoz, maktab va madrasalar haqida).
2.Uning ijodidan namunalar keltiring va ularning mazmuniga izoh bering.
3.Navoiy aforizmlaridan namuna keltiring?
4.Navoiy nazdida adab — bu insoniy olijanob xislatlarning asosidir. Shuni izohlang.
5.Alisher Navoiy axloqiy qarashlarida va fodorlik va chin do‘stlik iuson ziynati deb ta’kidlanadi. Sizning fikringiz?
6.Navoiy odamlarni Vatanni sevishga da’vat etadi: Vatan tuyg‘usi naqadar kuchli ekanligini — kabutar haqidagi xikoyasida ifodalaydi. «Xamsa»dan mazkur hikoyani topib o‘qing va tahlilini bering.
7.Mazkur baytni izohlang. Navoiy fikricha: Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab.
Lek sharaf keldi xayovu adab.

8. “Mahbub ul-qulub” asarining tuzilishi va mazmuni.
9. Alisher Navoiy maktab va madrasalar, o‘qituvchi-ustoz haqidagi fikrlarini yozing.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: “Esse”, “Klaster”,“6x6x6”, “To’rtinchisi ortiqcha” ,“Keystadi”. “Nima uchun”, “Charxpalak”, “Bumerang”,“Galereya”.

ADABIYOTLAR:*A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.*

10- Mavzu: XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. Jaloliddin Davoniyning ta'limiy-axloqiy qarashlari (2soat).

REJA:

1.Davoniyning ilm-fan taraqqiyotida tutgan o‘rni.
2. Davoniy axloqiy kamolotni tarbiyalash haqida.
3.Davoniyning shaxsni axloqiy shakllantirishga oid qarashlari.
4.Davoniy ta'lim va tarbiya uslubi haqida.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so'ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg'ulot davomida esa mavzu bo'yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Jaloliddin Davoniyning ilmiy merosi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganing va sharhlang.

Jamoliddin Davoniyning ilmiy merosi juda boy bo‘lib, o‘sha davr olimlari orasida yozgan risola va asarlari ko‘p fanlarni o‘rganish uchun qo'llanma vazifasini o'tagan.

Asarlari:

1. «Risolayi isboti vojib» (Zaruriyatning isboti haqidagi risola)
2. «Risolat ul — xuruf» (Harflar haqida risola)
3. «Risolayi fi tavjix ul — tanbix» (Majoz talqini haqida risola)
4. «Risola dar ilm ul — nafs» (Ruhshunoslik haqida risola)
5. «Tariqati tarbiyat ul — avlod» (Bolalarni tarbiyalash usuli)
6. «Arznoma» (Qo‘shinni boshqarish mezonlari) kabi asarlari ma'lum.

J.Davoniy asarlari Xuroson va Movarounnahrda ham tarqalib, bu yerda turli ilmiy yo‘nalishlarga, ma'naviy hayotga ta'sir ko‘rsatdi. Davoniyning eng katta yirik asari **«Axloqi Jaloliy»** asari bo‘lib bu asar 1470— 1478-yillar orasida yozilgan. Bu asar 1839- yilda olim V.F.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan.

Asar fors tilida yozilgan bo£lib, qo'lyozmasi dunyoning juda ko‘p kutubxonalarida mavjud.



2. Davoniy shug'ullahgan fanlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganing va sharhlang.

Tadqiqotchi olimlarning xabar berishicha Eron, Iroq, Hindis- ton, 0‘rta Osiyoning ko‘p shaharlarini kezib, olimlar bilan uchrashadi, ular bilan falsafaning turli muammolari bo'yicha bahs yuritadi.

Maryam Mirhodiyning (tehronlik tarixchi olim) aytishicha, Davoniy yuksak qobiliyat egasi bo'lgan, u o‘zi topgan butun boyligini ilm — fan ravnaqiga sarflagan.



NAZORAT SAVOLLARI (244 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. Davoniyning ilm-fan taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida qisqacha yozing.
2. Uning shaxsni axloqiy shakllantirishga oid fikrlari to‘g‘risida yozing.
3. Davoniy axloqiy kamolotni tarbiyalash haqida ilgari surgan g’oyalarni ayting.
4. Davoniy ta’lim va tarbiya uslubi haqida qanday fikrlar bildirgan?Shular xususida yozing.
5. Uning ijodidan namunalar keltiring va ularning mazmuniga izoh bering.
6. Davoniy axloqiy kamolotni tarbiyalash haqida yozing.
7. Davoniyning shaxsni axloqiy shakllantirishga oid qarashlarini ta’riflang.
8. Davoniy ta’lim va tarbiya uslubi haqida fikr bildiring.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI.

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

***Qo’simcha izoh sifatida:** Mashg’ulotning yakunida talabalarga butun semestr davomida to’plagan ballari e’lon qilinadi. Ushbu mashg’ulot shu semestr uchun yakuniy mashg’ulot bo’lganligi sababli, asosan, joriy nazorat uchun yetarli ball to’play olmagan yoki to’plagan ballarini ko’tarmoqchi bo’lgan talabalarga ko’proq vaqt ajratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Semestr yakunida o’qituvchi talabalarni quyidagi mezon asosida baholaydi:

A’lo- 11-13ball

Yaxshi-9,3-10,9ball

Qoniqarli-7,1-9,1ball.

Qoniqarsiz-0-7ball.

O’qituvchi bir mashgulotning o’zida guruhdagi barcha talabalarni baholashga imkoniyati bo’lmasligi mumkin. Bunday holatda JN o’tkazilganda talaba dars mashg’ulotlari davomida kamida 3-4 marta baholangan bo’lishi kerak. Shunda, talabaning JN (og’zaki yoki yozma) topshiriqlarini bajarish holatiga qarab umumiy baho chiqariladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI:“Esse”,“Klaster”, “6x6x6”,“To’rtinchisi ortiqcha”, “Keystadi”. “Nima uchun”, “Charxpalak”,“Bumerang”, “Galereya”.

ADABIYOTLAR: *A 1, A 2, A7, Q1, Q2, Q5, Q8, Q11, Q12, Q14, Q15.*

IV-SEMESTR.

1- Mavzu: Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi. Istiqlol yillarida pedagogik fikrlar taraqqiyoti

Prezident I.A.Karimov asarlarida ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo’nalishlari.

(2 soat).

REJA:

1. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta’limiy islohatlarning ahamiyati va barkamol avlod tarbiyasi haqida (“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari misolida).
2. Ta’lim tizimini yuksaltirish va modernizatsiya qilish jarayonida ekspert – mutaxassislar muloqoti (“Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barkaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Xalqaro konferensiya). 2012 yil 16-17 fevraldagi Xalqaro konferensiyaning yakuniy hujjati-rezolyutsiyasi.
3. Prezident I.A. Karimov asarlarida talim-tarbiya t’g’risidagi ilgari surilgan g’oyalar va talim tizimini isloh qilish masalalari. Ozbekiston Prezidenti I.A. Karimov tarixiy merosimizdan foydalanish to’g’risida.
4. I.A. Karimov manaviyat va marifatni yuksaltitrish haqida. I.A. Karimov ma’naviy ildizlarimizni o’rganish haqida.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1.O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ta’limiy islohotlarning ahamiyati va barkamol avlod tarbiyasi haqidagi fikrlari. “Barkamol avlod dasturi”dagi ta’lim sohasini rivojlantirish maqsadida qo’yilgan vazifalar tog’risidagi ma’lumotlarga qo’shimcha kiriting.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar — 0‘zbekiston milliy mafkurasi shakllanishi va rivojlanishidagi bir-biridan aslo kam bo‘lmagan ikki muhim manba, ikki tayanch nuqta, ikki o‘q ildiz- dir.

Prezident Islom Karimov ikkinchi chaqiriq 0‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida ham ma’naviyat sohasida amalga oshirish lozim bo‘lgan ishlar haqida shunday deydi: «Bu sohadagi eng asosiy vazifamiz — milliy qadriyatlarimizni, muqaddas dinimizning ma’naviy hayotimizdagi o‘rnini va hurma- tini tiklash kabi mustaqiilik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ulami yangi bosqichga ko‘tarish va ta’sirchanligini kuchaytirishdir»[2]. Kishi ma’naviyatining asosini bilim tashkil qiladi.

2.Mustaqillikkacha bo’lgan davrdagi talim tizimi bilan hozirgi davrdagi ta’lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

3.Prezident I.A.Karimov buyuk ajdodlarimizning nomlarini yanada yuksaltirish yo’lida qanday saiy-harakatlar qildi?

4.Prezident I.A. Karimovning 2012 yil 16-17 fevraldagi Xalqaro konferensiyada ekspert – mutaxassislar bilan bo’lgan muloqoti haqida nimalar deya olasiz?

5.Uning komil inson uchun bergan tarifi sharhlang.

(O’qituvchi guruhga ularni yozma ravishda tarqatadi yoki taqdimot qiladi).

[2] Xalq so‘zi gazetasi, 2000-yil, 23 yanvar. 17-son.

Prezidentimiz Islom Karimov «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz» nomli asarida ta’kidlaganidek, «Xalq — o‘zining ming yillik an’ana va tajribalari, so‘nmas ; xotirasi va buyuk tuyg‘ulari bilan yashab kelayotgan qudratli kuch.

Yolg‘onga, aldovga duch kelgan paytda uning asriy qadriyatlari, doimo uyg‘oq vijdoni tilga kiradi, nohaqlikka, qabihlikka qarshi kurashga da’vat etadi».

Komil inson g‘oyasi — ham milliy, ham umumbashariy j mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Komil inson qanday xislatlarga ega bo‘lishi lozim?





Barkamol avlodni voyaga yetkazish komil insonlarni voyaga yetkazish demakdir. Jamiyatimizning bugungi talabiga ko‘ra komil inson qanday talablarga javob berishi lozim?

Komillik yo‘li — bu ilmdir. Bir umrga tolibi ilm bo‘lishni tarannum etuvchi Bobur Mirzoning quyidagi ruboiysini tahlil qiling.

Kim yorga anga ilm tolibi ilm kerak,
0‘rgangali ilm tolibi ilm kerak.
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo‘q
Men borman ilm tolibi ilm kerak.

6. I.A. Karimovning ilm-ma’rifat to’g’risidagi qarashlariga sharh bering.

1. Ma’rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir.
2. Kelajakda 0‘zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma’naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim.
3. Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o‘rni, mavqei va shuhrati bevosita o‘z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog‘liqdir.
4. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat ma’rifatli insonning ikki qanotidir.
5. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib, biz ko‘zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etishga erisha olmaymiz.
6. Bilimga chanqoq, iste’dodli yoshlami topib, ulami Vatanga lidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir.
7. Kelajakdagi buyuk davlat eng birinchi navbatda bo‘lajak fuqarolaming madaniyati, ma’lumoti va ma’naviyati haqida g‘am- xo‘rlik qilmog‘i zarur.

Ta’lim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy siyosiy iqlim keskin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o‘zi belgilaydi.

7. Prezident I.A. Karimovning ta’lim-tarbiyaga iod fikrlariga izoh bering.

Prezidentimiz asos solgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» hamda boshqa asarlarida quyidagi ta’limiy va tarbiyaviy omillar o‘z aksini topgan:

— Yatan tuyg‘usini shakllantirish;
— Ona tiliga muhabbat;
— Milliy qadriyatlarga hurmat;
— Ayolni — onani ulug‘lash;
— Oilaning tarbiya borasidagi o'rni va ahamiyatini ko‘rsa.tish;
— Umuminsoniy qadriyatlar, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish;
— Dinning dunyoviylikka zid emasligini anglatish;
— Huquqiy madaniyat — sog‘lom dunyoqarashning muhim omili ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘paytirish.

NAZORAT SAVOLLARI (258 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1.Prezident I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarini mustaqil o’rganib chiqing va qisqacha yozing.

2.O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ta’limiy islohatlarning ahamiyati va barkamol avlod tarbiyasi haqidagi fikrlari to’g’risida qisqacha yozing.

3.Prezident I.A. Karimov asarlarida talim-tarbiya to’g’risida qanday goyalar ilgari surilgan va ta'lim sohasida qanday islohotlar olib borilmoqda? Misollar bilan tushuntiring.

4.Prezident I.A. Karimovning 2012 yil 16-17 fevraldagi Xalqaro konferensiyada ekspert – mutaxassislar bilan bo’lgan muloqoti haqida yozing.

5.Mustaqillikkacha bo’lgan davrdagi ta’lim tizimi bilan hozirgi davrdagi ta’lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

6.O’zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tarixiy merosimizdan foydalanish t’og’risida qanday fikrlar bildirgan? I.A. Karimov ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltitrish haqida qanday islohotlar olib bormoqda? Shular xususida yozing.

7.“Talim to’g’risida”gi Qonunning barcha moddalarini yodlang.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: *"Esse", "Klaster", "6x6x6","To'rtinchisi ortiqcha" ,"Keystadi". "Nima uchun", "Charxpalak", "Bumerang" ,"Galereya".*

ADABIYOTLAR: A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.

2-Mavzu: Jahon pedagogika fanining taraqqiyot tarixi (4soat).

I.Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimi (2soat).

REJA:

1.Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimining Pedagogika fani taraqqiyotidagi ahamiyati.

2.Ya.A.Komenskiyning ijodida tarbiyaning tabiatiga uyg'un bo'lish to'g'risidagi tamoyillar. Komenskiy bola yoshini davrlashtirish, maktab ta'limi tizimi, o'qitish mazmuni haqida.

3.Uning "Buyuk Didaktika" asarida ilgari surilgan didaktik tamoyillar. Komenskiy ta'limni tashkil etishning asosiy shakli, sinf-dars tizimi haqida. Uning ahloqiy qarashlari mohiyati.

4.Komenskiy didaktik ta'limotining hozirgi davr ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'rni.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so'ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg'ulot davomida esa mavzu bo'yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. **Ya.A.Komenskiyning ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishlari bilan tanishing.**
   Komenskiy vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan har tomonlama ilmiy tadqiqotlar olib bordi.



Ya.A.Komenskiy xalqqa bilim berish to'g'risida g'amho'rlik qilib, fanni xalqning qarashlari bilan birlashtirishga harakat qildi, shuningdek, qardoshlik maktablaridagi o'qitish mazmuni va usullarini takomillashtirdi.

1.Uning olamshumul shuhrat keltirgan asarlarini o'rganing.

«Buyuk didaktika» jahon pedagogikasining nodir asarlaridan biridir. Unda ta'lim nazariyasi va amaliyotiga doir fikrlar bilan birga maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalash usullari ham bayon etilgan. Barcha o'g'il-qizlarga ta'lim berish uchun maktabiar ochish, bolalarni o'z ona tilida o'qitish, tarbiyalash, xususiy usullarni takomillash- tirish. Shuningdek, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, shart-sharoitlari, imkoniyatlarini tahlil qilish. Komenskiy insonning rivojlanishida tarbiyaning o'rni benihoya katta ekanligiga ishonadi va tarbiya tufayligina «har qanday boladan haqiqiy insonni tarbiyalash mumkin», barcha bolalar agar

ularga pedagogik jihatdan to‘g‘ri yondashilsa, yuqori axloqli va ma’lumotli bo‘lib yetishishlari mumkin, deb ta’kidlaydi.



2.Ya.A.Komenskiyning pedagogik qoidalarini izohlang.

1. Bolalarda jismoniy va madaniy kuchlami ilk yoshlik davridan boshlab izchillikda rivojlantirishni, doimo ulaming takomillashishiga ko'maklashishni talab qiladi.

2. Tarbiya tabiatga uyg‘un bo‘lishi, tarbiyada barchani hamma narsaga o‘rgatish, tabiat ko'rsatmalariga asoslanish, bolaning shaxsiy «inson xususiyatlarini hisobga olish lozim.

3. "Umumiy tabiiy usul buyumlarning tabiati"dan kelib chiqadi va tabiatining o‘zi"ga asoslanadi, masalan, o‘qitishni predmet, narsa, buyum bilan umumiy tanishtirishdan, bolalarning uni yaxlit idrok qilishlardan boshlash, undan keyin uning ayrim tomonlarini o'rganishga o‘tish zarur.

Komenskiy fikricha, tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Bu uch xil tarbiya orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Aqliy tarbiya.
2. Ahloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning tug‘ilganidan to 24 yoshgacha amalga oshadi. Bu davr ichida bola to‘rt maktabni o‘qib tugatishi, har biri 6 yil o‘qishi kerak deb hisoblaydi.

Komenskiy ta’limning tabiatga uyg'unligi mezonidan kelib chiqib quyidagi yosh davrlarni belgilaydi. U kishining rivojlanishida to‘rt davrni ajratib ko‘satadi: go‘daklik, bolalik, o‘smirlik, yetuklik davrlari.

Mazkur prinsipning mohiyati quyidagi jadvalda to‘liq keltiriladi:

№	Davrlar va yoshlar	Har bir davrning mazmun va mohiyati	Bugungi kunda
1	Go'daklik davri (0-6 yoshgacha)	Ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini o‘sti-rish, qabul qilish, atrofdagi dunyo bilan tanishtirish kabilarga e’tibor beriladi. Ona esa bolada axloqiy tarbiyaning asoslarini, to‘g‘rilik, haqqoniylik, mehnatni sevish, quloq solishga o'rgatishi kerak. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko‘zda tutadi.	Oila va maktabgacha tarbiya muassasalari hamkorligida kichkin-toylarga ta’lim va taitoiya berishni amalga oshirish ko'zda tutiladi.
2	Bolalik davri (6-12 yoshgacha)	Boshlang'ich maktab yoki ona tili xalq maktabi. Bunda o‘quvchi (bola) esda saqlash, so‘zlash, yozish ko‘nikmasini egallashi, geometriya,	Maktab ta’Iimi va tar-biyasi orqali yozish, o‘qish, xotirada saqlash, o‘z ona tili asoslarini egallash, matematik tushunchalarni

		geografiya, tabiyot fanlarini o'rganishi lozim.	**o'rga- nish, tabiatga doir tushunchalarga ega bo'lish ko‘zda tutiladi.**
3	**0‘smirlik davri (12-18 yoshgacha)**	**«Lotin maktab»i yoki gimnaziya. Bu o‘quv yurtining vazifasi va bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o‘stirishdan iborat bo‘lib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, xudogo‘ylik o‘qitilishi kerak.**	**Bu umumiy o‘rta ta’lim (5-9-sinflari) va o'rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davriga to‘g‘ri keladi. Bunda bolalarning intellektual jadal rivoj- lanishi, ma’lum yo‘na- lish bo‘yicha bilimlami chuqurlashtirish, biror yoki bir necha zamonaviy kasbni egallashlari ko‘zda tutiladi.**
4	**Yetuklik davri (18-24 yoshgacha)**	**Universitet yoki akademiya. Bu o‘quv yurtlari o‘quv- chining irodasi, shaxsini bir butun o‘stirishi kerak.**	**Bitta soha doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy ma’lumot olish davri (bakalavriat va magistra- tura) raqobatbardosh, yuqori malakali kadr bo'lib etishish davri.**

Komenskiy bolalar o‘yinining ta’limiy ahamiyatini qayd qilar ekan, o‘yin vaqtida aql nima bilandir band bo'lishini va hatto ko‘pincha o‘tkirlashishini ta’kidlaydi.

Komenskiy ilk yoshlik davrlaridan boshlab bolalarni faoliyat ko‘rsatishga intilish, rostgo‘ylik, mardlik, tartiblilik, xushmuo- malalik, kattalarga hurmatda bo‘lish fazilatlarini tarbiyalashni maslahat beradi.

U bolalarda mehnatga muhabbat va mehnat qilish odatini tarbiyalashga ko‘p e’tibor beradi.

Uningcha, mehnat bolalaming kuchi etadigan va ulaming o‘yin faoliyati bilan puxta bog‘langan bo‘lishi kerak. Komenskiy oqilona nasihatni, xatti-harakatni, mashq qiidirishni, shuningdek, kattalar- ning ijobiy namuna bolishini axloqiy tarbiya vositalari, deb hisoblaydi.

U bolalarda mehnatga muhabbat va mehnat qilish odatini tarbiyalashga ko‘p e’tibor beradi.

Uningcha, mehnat bolalaming kuchi etadigan va ulaming o‘yin faoliyati bilan puxta bog‘langan bo‘lishi kerak. Komenskiy oqilona nasihatni, xatti-harakatni, mashq qiidirishni, shuningdek, kattalar- ning ijobiy namuna bolishini axloqiy tarbiya vositalari, deb hisoblaydi.

Ko‘rinib turibdiki, Komenskiy bu fikrlari bilan asosan mak- tabgacha tarbiya yoshidagi bolada tevarak-atrofdagi narsalar va tabiat hodisalarini kuzatish yo‘li orqali ular to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni hosil qilishni nazarda tutadi.

5. Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimining Pedagogika fani taraqqiyotidagi ahamiyati to’g’risidagi ma’lumotlarga qo’shimcha kiriting.



Mashhur donishmand, chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy pedagogikaning asoschisi sifatida bashariyat tarixida o'ziga xos o‘rin egallaydi. U o'zining ongli faoliyatinl xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalashdek buyuk ishga bag'ishladi. Uning xizmati shundaki pedagogika ilmi poydevorini quribgina qolmay, keyingi rivojlanish yo'llarini ham ko‘rsatib berdi.

NAZORAT SAVOLLARI.
TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).
(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).
MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):
Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimi Pedagogika fani taraqqiyotida qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Komenskiy bola yoshini davrlashtirish, maktab talimi tizimi, o’qitish mazmuni to’g’risida qoldirgan ilmiy merosi.
3. Uning “Buyuk Didaktika” asarida ilgari surilgan didaktik tamoyillar.
4. Komenskiy ta’limni tashkil etishning asosiy shakli, sinf-dars tizimi haqida qanday g’oyalarni ilgari surgan?
5. Komenskiy didaktik talimotining hozirgi davr talim-tarbiya tizimida tutgan o’rni.
6. “Buyuk Didaktika” ” asarini mustaqil organib chiqing va o’z mulohangizni bildiring.
7. K.D.Ushinskiyning hayoti va pedagogik faoliyati haqida qisqacha yozing.
8. K.D.Ushinskiy ahloqiy tarbiya va uning maqsad, vazifalari haqida qanday g’oyalarni ilgari surgan?
9. Mehnat tarbiyasi va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida qanday fikrlar bildirgan?
10. K.D.Ushinskiy didaktikasi pedagogika fanida qanday o’rin tutadi?
11. K.D.Ushinskiy dars hamda talim metodikasi to’g’risida qoldirgan ilmiy merosi.
12. Uning darslik va kitoblari hamda padagogika va maktab taraqqiyotida tutgan o’rni.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: "Esse", "Klaster", "6x6x6","To'rtinchisi ortiqcha" ,"Keystadi". "Nima uchun", "Charxpalak", "Bumerang" ,"Galereya".

ADABIYOTLAR:A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.

3- Mavzu: Jahon pedagogika fanining taraqqiyot tarixi.
II. K.D.Ushinskiyning pedagogik tizimi (2soat).

REJA:

1. K.D.Ushinskiyning hayoti va pedagogik faoliyati. Ushinskiy pedagogika fani va san'ati haqida.
2. K.D.Ushinskiy ahloqiy tarbiya va uning maqsad vazifalari, mehnat tarbiyasi va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida.
3. K.D.Ushinskiy didaktikasi. K.D.Ushinskiy dars hamda talim metodikasi to'g'risida.
4. Uning darslik va kitoblari hamda pedagogika va maktab taraqqiyotida tutgan o'rni.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so'ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg'ulot davomida esa mavzu bo'yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. K.D.Ushinskiyning hayoti va pedagogik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga qo'shimcha kiriting.

1. K.D.Ushinskiy 1840 yilda Moskva universitetining adliya (yuridik) fakul'tetiga o'qishga kirdi, talabalik yillarida mustaqil ravishda o'z bilimini oshirib, ma'rifat egasi bo'ldi.
2. K.D.Ushinskiy 1854— 1859-yillarda Gatchina yetimlar institutida rus tilidan katta o'qituvchi, keyin esa sinflar inspektori bo'lib ishladi.
3. 1859-yildan 1862-yilgacha Ushinskiy Smolniy aslzoda qizlar institutining sinflar inspektori bo'lib ishlagan.
4. 1862-yilda K.D.Ushinskiy daxriylikka va dvoryan qizlarni «mujiklar» tarbiyalashiga imkon yaratganligida ayblanib, institut- dan bo'shatiladi va darslik tuzish bahonasi bilan chet elga xizmat safariga yuboriladi. Bu safar aslida niqoblangan surgun edi.

Ushinskiy Germaniya va Shvesariyadagi xotin-qizlar o'quv yurtlarini, bolalar bog'chalari, yetimxonalar va maktablarni sinchiklab tanqidiy o'rganadi.

2. Ushinskiyning pedagogikani rivojlantirishda tutgan o'rni to'grisidagi ma'lumotlarni o'rganing.

K.D.Ushinskiy original rus pedagogikasi, jumladan, maktab- gacha tarbiya pedagogikasining asoschisidir; u jahon pedagogik g'oyalarining rivojlanishiga juda muhim hissa qo'shdi. Ushinskiy chet eldagi tarbiya, shu jumladan maktabgacha tarbiya va ta'lim nazariyasi hamda tajribasini chuqur tahlil qildi, shu sohadagi muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni ko'rsatdi va bu bilan boshqa xalqlardagi pedagogika taraqqiyotini yakunlab berdi.

Ushinskiyning ko'pgina fikrlari hozirgi vaqtda ham o'z mohiyatini yo'qotgan emas.

K.D.Ushinskiy 1857-yildan e'tiboran «Jurnal dlya vospita- niya» sahifalarida o'z maqolalari bilan hamkorlik qila boshladi.

K.D.Ushinskiy original rus pedagogikasi, jumladan, maktab- gacha tarbiya pedagogikasining asoschisidir; u jahon pedagogik g'oyalarining rivojlanishiga juda muhim hissa qo'shdi. Ushinskiy chet eldagi tarbiya, shu jumladan maktabgacha tarbiya va ta'lim nazariyasi

hamda tajribasini chuqur tahlil qildi, shu sohadagi muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni ko‘rsatdi va bu bilan boshqa xalqlardagi pedagogika taraqqiyotini yakunlab berdi.
Ushinskiyning ko‘pgina fikrlari hozirgi vaqtda ham o‘z mohiyatini yo‘qotgan emas.



2. Ushinskiyning dars va o‘qitish usullari haqidagi fikrlarini o’rganing.

Ushinskiy ta’lim-tarbiya ishida o‘qituvchilarning faolligiga va ta-shabbuskorligiga tayanish kerakligini uqtirar ekan, ta’lim bolalarga mukammal bilim bermog‘i va malakalar hosil qilishi uchun aniq-ravshan, shu bilan birga tartibli va izchil bo‘lmog‘i lozim deb ta’kidlaydi.
Ushinskiy bilim to‘g‘risidagi o‘z nazariyasiga hamohang bir suratda, bilim tizimini tashqi olam to‘g‘risidagi o‘zaro uzviy bog‘langan bir butun bilim deb tushunadi. Uningcha, tizim bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

Ushinskiy ta’lim jarayonidagi ko‘rgazmalik bola bevosita idrok etadigan aniq obrazlar asosida bo‘lishini ta’kidlaydi.

Ushinskiy ko‘rgazmalik tushunchasiga suratlar, kolleksiyalar, modellar, jadvallar va boshqa ko‘rgazma qurollami, biz ko‘rib turgan olamdagi buyumlar va hodisalarni, shuningdek, bolaning turmush tajribasini va badiiy asarlardan aniq obrazlar orqali idroklangan hayotiy voqealarni ham kiritgan.

Ushinskiy ko‘rgazmali ta’lim usulini mukammallashtirdi, suratlardan foydalanib, bolalarga hikoya qilib berish va bolalaming suratlarga qarab so'zlab berishlari usullarini asoslab, bu usulning bir qancha aniq qoidalarini yaratdi. Suhbat uchun foydalanilgan suratlarni sinf devoriga osig‘lik qoldirish lozimligini, bu suratlar o‘tilgan darslarning ko‘chirmasi bo‘lishini va bolalarning o‘qib o'rganib olishlarini, xotirlashga yordam berishini uqtirdi.
Ushinskiy o‘zining barcha nazariy va amaliy ishlarini bosh- lang‘ich maktabni keyingi umumiy ma’lumotning chinakam poydevori bo‘la oladigan qilib tashkil etilishiga qaratdi. Binobarin, Ushinskiy o‘z xizmatlari bilan Rossiyada boshlang‘ich ta’limga asos soldi.

Ushinskiy taklif etgan o‘quv rejasi quyidagilarni qamragan edi:



3. Uning pedagogik g’oyalari va talablarini o‘rganing.
1. Tarbiyaning xalqchilligi g‘oyasi.

2. Bolalarga ta’lim va tarbiya berishda ona tilining o‘mi.
3. Ta’lim va tarbiyaning psixologik asoslari.
4. Maktabgacha tarbiya nazariyasi asoslari.
5. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqida.
6. Bola faoliyatida mehnat va uning tarbiyaviy aharniyati haqida.
7. Oila tarbiyasi haqida.
8. Didaktik ta’limotining mohiyati.
9. Dars va o'qitish usullari haqida.

4. Ushinskiyning pedagogika nazariyasidagi g’oyalarini o’rganing.

1. Tarbiyaning xalqchilligi haqidagi fikr Ushinskiyning pedagogik nazariyasidagi eng asosiy g'oyadir.

2. Bola, deb hisoblaydi Ushinskiy, ilk yoshlik chog‘idayoq xalq madaniyati elementlarini o'zlashtira boshlaydi, bulami awalo ona tilini bilish yo‘li bilan o‘rganadi.

3. Ushinskiy fikricha, tarbiyaning eng muhim xususiyati shundaki, u barcha vositalar va usullar yordami bilan bolaga har jlhatdan ta’sir etishga, uning kamol topishiga, g‘oya va xislatlarining voyaga yetishiga, iroda va xulq-atvorining mustahkamlanishiga ta’sir etadi.



5. Quyidagi sxemani izohlang:

Uning didaktik talimoti



5. a)K.D.Ushinskiyning yozgan asarlariga sharh bering:



b)Ushinskiyning hayotiy tajribalaridan ayrim hulosalarini sharhlang:

1. **Hayotimning birdan-bir maqsadi** — o'z vatanimga mumkin qadar ko'prok foyda yetkazishdir; binobarin, men o'zimning butun qobiliyatimni shu maqsadga qaratishim kerak.
2. Bola o'z tevarak-atrofidagi kishilarning ma'naviy hayotiga faqat ona tili vositasida kirib boradi va aksincha, bolaning tevarak- atrofdagi olam faqat o'sha muhit - ona tili vositasida unda o'zining ma'naviy tomoni bilan aks etadi.
3. **Til** — fikrdan chetlashgan biron-bir narsa emas, balki, aksincha, unda asoslanayotgan va muttasil undan paydo bo'layot- gan uning organik maxsulidir.
4. Tarbiya kishida mehnat qilish odatini va mehnatga muhabbat hissini rivojlantirish kerak; u kishiga hayotda o'zi uchun ish topib olish imkonini berishi zarur.
5. Har qanday fanning o'qitilishi shubhasiz shunday yo'ldan borishi kerakki, bunda tarbiyalanuvchi hissasiga faqat uning yosh kuchi etadigan miqdordagi **mehnat** qolsin.
6. Kishining organizmi aqliy mehnatga oz-ozdan, ehtiyotlik bilan o'rganib borishi kerak, lekin shu tarzda ish ko'rib, undan uzoq davom etadigan aqliy mehnatni oson va organizmiga hech bir

zarar etkazmay bajarish odatini hosil qilish ham mumkin.

7. Bolaning xonasini chiroyli buyumlar bilan bezating, lekin bola uning chiroyligini tushuna oladigan bo'lsin.

Bolalar tarbiyachisi pedagogik iste'dodni egallagan, mehribon, muioyim, lekin shu bilan birga qat'iy xarakterli, o'zini butunlay shu yoshdagi bolalarga bag'ishlagan va bu ishga g'oyat darajada berilgan, bolalarni mashg'ul qilish uchun kerak bo'lgan hamma narsani o'rganib olgan shaxs bo'lishi kerak.

NAZORAT SAVOLLARI (259 bet0.

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo'yicha konspekt tuzing:

1. **Ushinskiy ta'limotida o'yinning maktabgacha bolalar hayotidagi o'rnini izohlang.**
2. **Ushinskiyning tarbiya san'ati haqidagi fikrlarini izohlang.**
3. **Ushinskiy ta'limning o'zgarmas qonuni deb nimani biladi?**
4. **Xalqchillik g'oyasi nima? U nimaga tayanadi?**
5. **Axloqiy tarbiyaning zaruriy sharti nima?**
6. **Oila tarbiyasining asosiy mohiyati va huquqi.**
7. **Ushinskiyning dars va o'qitish usullarini izohlang.**
8. **Ushinskining fizologiya va psixologiyaga bo'lish munosabatini tushuntiring.**

***Izoh** Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: "Esse", "Klaster", "6x6x6", "To'rtinchisi ortiqcha", "Keystadi", "Nima uchun", "Charxpalak", "Bumerang" ,"Galereya".

ADABIYOTLAR:A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.

4- Mavzu: Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta'limi va pedagogika fani (4 soat).

I. Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta'limi va pedagogika fani (2 soat).

REJA:

1. Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim muassasalari amaliyoti.
2. Pedagogika fanining jahon mamlakatlari ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni.
3. Frantsiyada ta'lim tizimi.
4. Germaniyada ta'lim tizimining rivojlanishi.
5. Rivojlan xorijiy davlatlar va mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'zaro hamkorlik masalalari.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Frantsiyada ta’lim tizimining tuzilishini o’rganing va ularni izohlang:

Boshlang’ich maktablarida ta'lim mazmuni.

Frantsiya boshlang’ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo’linadi.

Frantsiyada ta'lilshing asosiy maqsadi shaxsni xar tomonlama kamol topnshini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatta tayyorlash, bozor munosabatlfi sharoitida o’quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o’rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir.

Bu yerda:

1.Davlat maktablar;

2.Xususiy maktablar;

3.Oraliq maktablar mavjud.

O’qitiladigan predmetlar ichida frantsuz tili va adabiyoti, o’qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo’lib hisoblanadi. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. Urtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi esa 60 minut. O’quv yili 5 chorakka bo’linadi. Frantsuz maktablari boshlang’ich sinflarda o’qish ertalabki va tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti baza predmeti, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Frantsiya ta'limida bolalarning go’daklik chog’idanok maktabda o’qitish uchun tayyor holda olib kelish g’oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o’rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo’lib, ularga Frantsiyada 100% shu yoshdagi bolalar kamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darslar mavjud.

Frantsiya boshlang’ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo’lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang’ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o’qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O’quv mashg’ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda.

Boshlang’ich sinf uch bosqichda amalga oshiriladi:

1.Tayyorlov bosqichi;

2.Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);

3.Chuqurlashtirilgan bosqich.

O’quvchilar 11 yoshda boshlang’ich maktabni tugallab o’rta maktabga o’tadilar. O’rta ta'lim esa kollejlar va litseylarda amalga oshiriladi. O’rta ta'limikki bosqichda:

Birinchi bosqichda quyidagi predmetlar o’rgatiladi:

Frantsuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, Frantsiya geografiyasi, matematika , tibbiy fanlar.

Shunday qilib 6-5-sinflar umumiy o’rta ta'lim beradi: 4-3-sinflarda o’quvchilarga qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

Birinchi bosqich yakunlagach, o’quvchilar kasbiy yo’nalishlari bo’yicha guvohnoma oladilar.

Shundan keyin o’quvchilar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta'lim oladilar. O’qish 3 yil davom etib,

2-sinf kichik, 1-sinf o’rta va yakunlovchi sinflarga bo’linadi.

Frantsiyada oliy ta’lim.

O’quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so’ng bakalavr unvoni va diplom ish uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo’lganlargina oliy o’quv yurtlariga kirish huquqini qo’lga kiritadilar.

Frantsiyada talablar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga kirish uchungina imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko’riladi. Boshqa oliygohlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo’lgan yoshlar imtihonsiz qabul qilinaveradi.

Frantsiyada oliy ma'lumot va ixtisoslik beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati 2 yil bo'lib, sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Sirtqi ta'lim shahobchalari juda keng bo'lib, u 500 turdagi o'rta, oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi.

2. Germaniyada ta'lim tizimining tuzilishini o'rganing va ularni izohlang:

Avvalambor shuni ta'kidlash kerakki, Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar ichida kuchli oltilikka kirgan.

Germaniya maktabgacha tarbiya tizimi

Germaniya ta'lim tizimlarining bayoni quyidagicha: Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, hususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog'chalariga o'z farzandlarini tarbiyalanganliklari uchun ancha miqdorda pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog'chalar ham bor.

Germaniyada majburiy ta'lim.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli. Bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi joylarda 10 yil) maktabda to'la xaftalik o'qishni bitiradi, keyin hunar-texnika bilim yurtida to'la bo'lmagan haftalik o'qishda o'qiydi. Oqish davlat maktablarida tekin. Maktab o'quvchilariga o'quv qo'llanmasi, asosan darsliklar tekin ta'minlanadi. Hususiy maktablar ozroq. O'qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bu erda 5-6 sinf bosqichdagi yo'nalish maktablarda maxsus dastur asosida o'qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko'chadilar.

Bular: asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o'tadi. 9 yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo'lgan bolalar o'qiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori maktabi o'rtasida turadi. Qoidaga ko'ra bu yerda o'qish 6 yil davom etadi (5-10 sinfgacha) va to'la ma'lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o'rta maxsus o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi. Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Ular 5-13 sinflarni o'z ichiga oladi. 11-13 sinflar oliy o'quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi.

Gimnaziyani bitirganlik xaqidagi yetuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkonini beradi. Germaniya ta'limi tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan amalga oshiriladi.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chikib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

3. Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Frantsiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda 60-80-yillarda tabiiy ilmiy ta'lim dasturi tarkybiga fizika, ximiya, biologiya, bazi hollarda astranomiya, geologiya, mineralogiya,

fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, Frantsiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi.

Integratsiyalashtirilgan kurslar

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslari kiritish to'la amalga oshirildi. Frantsiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabakalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, Frantsuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf o'quvchilarini uch tabaqaga ajratib o'qitishni afzal ko'radilar. Bular quyidagilar :

1.Gomogenlar - matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan o'quvchilar.

2.Yarim gomogen-tabiiy turkumdagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar.

3.Gegeron - barcha predmetlarni xar xil saviyada ўzlashtiradigan ў?uvchilar va xokazo.

Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday o'quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u o'qituvchidan konsultatsiya oladi.

Germaniya oliy maktabi

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalari taklif etiladi. O'qishga xaq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat harajatlarini ko'tara olmasa o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal Qonunga ko'ra ular moliyaviy yordam oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarmi qarz tariqasida beriladi.

3. Germaniya va Frantsiya ta'limidagi yana qaysi jihatlarni bizning pedagogikamizga olib kirish mumkin deb o'ylaysiz? Qo'shimcha qiling.

Agarda:

Germaniya ta'limidagi:

a) tabaqalashtirib o'qitishga berilayotgan jiddiy e'tibor;

b) o'quvchilarning mehnat ta'limini mustahkamlash;

v) kasbga yo'naltirish.

Frantsiya ta'limidagi:

a) maktabgacha tarbiyadanoq o'quvni predmetlashtirib tashkil etish;

b) boshlang'ich ta'limni uch bosqichda puxta amalga oshirish;

v) o'quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgan katta e'tibor;

g) o'quv muassasalarining turli firmalar, kontsernlar, korxonalar mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlar bizning ta'limga ham ko'chsa, bizning pedagogikamiz olg'a qarab dadil qadam bosgan bo'lar edi.

NAZORAT SAVOLLARI (258 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo'yicha konspekt tuzing:

1. Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim muassasalari amaliyotini yoriting.
2. Chet el ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda qaysi tashkilotlar jalb qilingan?
3. Rivojlangan mamlakatlar ta'limining ustalari tomonidan Respublikamiz ta'limi tizimiga qanday baho berildi?
4. Frantsiya maktablarida amalga oshirilayotgan islohotlar keltirib chikargan muammolar haqida yozing.

5. Rivojlangan xorijiy davlatlar va mustaqil O’zbekiston Respublikasi ta'lim tizmidagi o’zaro uyg’unlik jarayonini izohlang.
6. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi «ta'limni tabaqalashtirish» usullarini izohlab bering.

*Izoh Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI:

“Esse”,“Klaster”,“6x6x6”,“To’rtinchisi ortiqcha” ,“Keystadi”. “Nima uchun”, “Charxpalak”, “Bumerang” ,“Galereya”.

ADABIYOTLAR: A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.

5- Mavzu: Hozirgi davrda jahon rivojlangan mamlakatlarida xalq ta’limi va pedagogika fani.
II. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim tizimi (AQSH va Yaponiya misolida) (2 soat).

REJA:

1. AQSh, Yaponiya va Angliyada ta’lim tizimining yetakchi an’analari, o‘ziga xos jihatlari vaustuvor tamoyillari. Janubiy Koreyada ta’lim tizimining istiqbolli rivojlanishi.
2. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta’lim tizimi tasnifi. AQSh da ta’lim tizimi va uning oziga hos xususiyatlari. Ta’limni “tabaqalashtirish” usullari.
3. Yaponiya ta’liminig shakklanishi va uning oziga xos xususiyatlari. Yaponiyada oqituvchi kadrlar tayyorlash masalasi.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. AQShda ta’lim tizimining tuzilishiga sharh bering.

Bugungi ta’lim tizimlarimizda, chet ellarda o‘quv tarbiya ishlarining yo‘lga qo‘yilishiga e’tibor va qiziqish tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Xalq ta’limi muassasalarida chet el ta’limini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Chet el ta’limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMTning 0‘zbekistondagi vakolatxonasi, elchixo- nalar AQShning Tinchlik kofUsi mutaxassislari, YuNESKO va YuNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko‘plab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta’limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. 0‘quv jarayonini tabaqalashtirib olib borish bo‘yicha AQShda juda ko‘p tadqiqotlar olib borilmoqda.

AQSh tizimidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta’lim tizimlarida qo‘llash yosh, mustaqil Respublikada o‘quv-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi

AQShda navbatdagi ta’lim bosqichi oliy ta’lim bo‘lib, u 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlar va boshqa oliy o‘quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.



AQShda majburiy ta'lim

16 yoshgacha qat'iy amal qilinadi. 9 sinfni bitirgan o'quvchilar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. 0'rta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi.

1. Kasb-hunar ta'limi
2. Biznes ta'limi
3. Savdo sanoat ta'limi

AQShda har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestasiyalar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'quvchilar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari hajmida test sinvlaridan o'tkaziladi. 0'g'il-qizlaming tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi.

Maktablar ta'til vaqtida ham ishlab turadi. To'garaklar, qayta tayyorlash ishlari olib boriladi. Maktablarda ta'lim televedeniyasi, elektron til laboratoriyasi, radioapparatura, komp'yuter va hokazolarni qo'llash yo'lga qo'yilgan.

0'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba intellektini mashq qildirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

Oliy ta'lim yo'nalishlari



XX asr arafasida AQShda yangi dastur e'lon qilindi.

Amerika« Ta'lim strategiyasi»

Mazkur dastur turli yo'nalishda boiib, quyidagi maqsadlar belgilangan:

2000-yilda barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda bo'lishi;

1. Aholining 90 % oliy ma'lumotli bo'lishi. 0'quvchi talabalaming ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya fanlari bo'yicha jahonga o'z iqtidorlarini namoyish eta olishlari;
2. Talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini o'zlash- tirishda jahonda eng oldingi o'rinlariga chiqishlari;
3. Har bir voyaga yetmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari;
4. Maktablarda, oliy ta'limda giyohvandlik va zo'ravon!ikka barham berish, o'qish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan.

Bu AQSh ta’lim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.



2.Yaponiyada **ta’lim tizimining tuzilishiga sharh bering:**

Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867— 1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o‘z oldiga ikki vazifani:

Birinchi — boyish;

Ikkinchi — g‘arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo‘ydi.

1872-yil «Ta’lim haqidagi qonun» qabul qilindi. Bunda Yapon ta’limi G‘arb ta’limi bilan uyg‘unlashtirildi. 1908-yilda Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893-yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej paydo bo‘ldi.

1946-yili qabul qilingan Konferensiya fuqarolarning ta’lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta’lim olishlari belgilab qo‘yilgan.

1.	**Bolalar bog'chalari —**	**Tayo’limning bu bosqichiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Ular shu xususiyatiga qarab 3, 2, 1 yillik ta’lim kurslariga jalb qilinadilar (maktabgacha tayyorlov).**

2.	**Majburiy ta’lim —**	**Ta’limning bu pog‘onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb qilinadi. Bunda 6 yillik boshlang‘ich, maktab va 3 yillik kichik o‘rta maktab kursi o'tiladi. 9 yillik bu ta'lim majburiy bo‘lib, bepul o‘qitiladi, tekin darsliklar beriladi**
3.	**Yuqori bosqich o‘rta maktabi —**	**Bu maktab ta’lim yo‘nalishining *10-11-12* sinflarini o‘z ichiga oladi. Yaponiyada bunday bosqich maktablarining kunduzgi, kechki va sirtqi bo‘lim- lari mavjud. Maktabda o‘qish ixtiyoriy bo'lib, sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar qabul qilinadi.**

Yapon maktablarida EHM va o‘quv texnik vositalari bilan to‘la ta’minlanganligiga qaramay mutaxassislarning flkricha, asosiy e’tibor o‘qituvchining nutq madaniyatiga va darsliklariga qaratilmog‘i kerak. Ulaming flkricha, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli muloqot o‘rnini hech qanday takomillashgan mashina ham bosa olmaydi.

Yaponiyada o‘qituvchi kadrlar tayyorlash

Yaponiyada o‘qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo‘yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo‘nalishi to‘g‘ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas.

0‘qituvchilar:



Maktab direktori bo‘lish uchun 1-darajali guvohnomaga ega bo‘lish shart.

Yapon o‘qituvchilarining jamiyatda tutgan obro‘-e’tibori katta, ularning maoshlari ham yuqori bo'lib, 74% o'qituvchilar jamoasi kasaba uyushmasiga a’zo. Bu ularga ta’lim mazmuni va uslubini muhokama qila olish imkoniyatini beradi. Yapon o‘qituvchilari 5 yilda malaka oshirish kurslarida o‘qiydi. Yapon maktablari dasturi 10 yilga mo‘ljalanib, har 10 yilda dasturlar o‘zgaradi. Dasturdagi yillik o'zgarishlar o'qituvchilarga anjumaniar o‘tkazish yo‘li bilan etkazib boriladi.

Dorilfununga katta o‘rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o‘quvchilar qabul qilinadi. 460 ta universitet bo‘lib, shundan 331 tasi xususiy, qolgan 129 tasi davlat tasarufidagi dargohlardir.

Yaponiyada **oliy ta’lim**

Yaponiyada «Universitet kishini bilim va kasbga yo‘naltiradi xolos, uni rivojlantirish va mukammallashtirish har bir bilim oluvchi talabaning o‘ziga bog'liq» deb hisoblaydilar.

Universitetdan haydab yuborish mumkin emas, 4 yillik o‘qishdagilar. masalan. 5-6-7 yilgacha cho‘ziladi, ya’ni o‘qish muddatini cho'zish mumkin.

Yapon universitetlarida asosan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

Oliy ma’lumotli mutaxassislar soni jihatdan Yaponiya jahonda 2-o‘rinda turadi. Ming kishiga 190 ta oliy ma’lumotli mutaxassis to‘g‘ri keladi. AQShda har ming kishiga 294 ta, Buyuk Britaniyada har ming kishiga 138 nafar, Fransiyada har ming kishiga 115 nafar mutaxassis to‘g‘ri kelishi olimlar tomonidan aniqlandi.

Ijtimoyi vazifani bajaruvchi maktab - o‘quv muassasalarini yaponlar — olg‘a siljishni ta’minlovchi dargoh deb qarashadi. Ular xalq tomonidan kuchli e’zozlanadi.



Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Yaponiyada ta’lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg‘unlikda shakllangan. Ibrat olsa, o‘rgansa arziydigan jihatlari ko‘p. Etiborli yana bir tomoni shundaki, Yaponiyada faqat milliy an’analar bilan chekla- nib qolmay, jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar AQSh, Fransiya, Germaniya, Angliya davlatlarining ilg‘or pedagogik ish tajribalari ijodiy o‘zlashtiriladi.

3. AQSh va **Yaponiya ta’limidagi yana qaysi jihatlarni bizning pedagogikamizga olib kirish mumkin deb o’ylaysiz? Qo’shimcha qiling.**

Chunonchi:

Agar biz AQSh pedagogikasidagi**:**

a)bolani o‘z kuchi-imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;
o‘quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash;
v) bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarini va g‘ururini erga urmaslik;
g) o‘quvchining ilk davridanoq kasb-korga yo‘naltirish;
d) Yatanga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash va h.k.

Yaponiya ta’limidagi:

a) bolani maktabga puxta tayyorlash;
b) kichkintoylar ta’lim va tarbiyasiga ota-onalar mas’uliyatini kuchaytirish;
v) o‘quvchilami nafosat, jismoniy kamolotiga berilayotgan e’tibor;
g) o’qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik;
d) yosh talant sohiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar va boshqa ibratli jihatlar bizning ta'limga ham ko’chsa, bizning pedagogikamiz olg’a qarab dadil qadam bosgan bo’lar edi.

NAZORAT SAVOLLARI (259 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. **Yaponiya ta’lim tizimining qaysi jihatlari sizni qiziqtiradi? Izohlang.**
2. **AQShning ta’lim tizimidagi yangiliklar nimalardan iborat?**
3. **0‘zbekiston ta’limi tizimidagi o'xshashliklarni izohlab bering.**
4. **Yaponiyada o‘qituvchi kadrlar tayyorlash malakasini sharhlang.**
5. **AQShda ta’lim tizimi qanday tuzilishga ega?**
6. **Jahonda eng yetakchi o‘rinda turgan (oliy ma’lumotli mutaxassislar soni jihatidan) davlatlarni sanab bering.**
7. **Texnika jihatdian rivojlangan Yaponiyada o‘qituvchi va o'quvchi munosabati qanday shakllantirilgan?Shular hususida yozing.**
8. Ta’limni “tabaqalashtirish” usullarini keltiring.
9. Janubiy Koreyada ta’lim tizimining istiqbolli rivojlanishi.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: “Esse”, “Klaster”, “6x6x6”, “To’rtinchisi ortiqcha” ,“Keystadi”. “Nima uchun”, “Charxpalak”, “Bumerang” ,“Galereya”.

ADABIYOTLAR:A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.

6- Mavzu: Pedagogik mahorat va madaniyat. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari.

Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o’qituvchi faoliyatida tutgan o’rni va ahamiyati (2 soat).

REJA:

1. Pedagogik faoliyat. Pedagogik faoliyat xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo‘yiladigan talablarning ifodalanishi.
3. Pedagogik mahorat” tushunchasining mohiyati. O‘qituvchi mahoratni shakllantirishga doir psixologik, pedagogik nazariyalar mazmuni va ahamiyati. Madaniyat va pedagogik madaniyat.
4. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning pedagogik mahoratga ega bo‘lishlariga qo‘yiladigan talablar.
5. Eng qadimgi davrlardan eramizning VII asrlarigacha bo‘lgan davrlarda bolalar ta’limi va tarbiyasini tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyat mazmuni. O‘qituvchilik faoliyatining alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatida shakllanishi.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Pedagogik mahoratning asosiy qismlarini o’rganing va har birini sharhlang:

Pedagogik mahorat- bu o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, talabalarda (o‘quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir.

Pedagogik mahoratning asosiy qismlari

- **Pedagogik insonparvarlik yo’nalishi**
- **Ixtisos mutahassislikka doir bilimlar**
- **Pedagogik qobiliyat**
- **Pedagogik texnika**

2. “Hozirgi davrda, biz mustaqil O'zbekistonda qurayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchi qanday bo'lishi kerak?” muammosiga munosabat bildiring.Quyidagi fikrlarga qo’shimcha qiling:

O’zbekiston Respublikasining ‘Ta'lim to’g’risida”gi Qonunda: “Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqiga ega”,-deb ta'kidlanadi.

mutaxassis	ishchi	inson
Pedagogika nazariyasini bilish; Pedagogik mahoratni egallash; Psixologiyani bilish; Ta'lim va tarbiya texnolgiyasini egallash; Mehnatni unumli tashkil sila olish; Ishini sevish; Bolalarga muhabbat; Insonga ishonish; Pedagogik sobiliyat; Chidamlilik; Optimizm; Bosislik; Topsirlik; Reaktsiyaning tez va anisligi; Bag`rikenglik; Bolalarni tushunish; Bolalar bilan ishlashga xohish; Nutsning anis va ishonarliligi; Talabchanlik; Nazokat; o`zini boshsaro olish; Adolatlilik; Tashkilotchilik ko`nikmasm; Mulosatchanlik; Tinglay olish.	Massad so`yish va unga erisha olish; Vastni tassimlay olish; Tizimli va rejali ravishda malaka oshirib borish; Mehnat unumdorligini oshirishga intilish; Ijodga sobiliyatlilik; Har tomonlama ma'lumot; Razumno`y optimizm; Mehnat silishga xohish; Ishga sadosat; Jamoada ishlash ko`nikmasi; Sahiylik; Intizomlilik; Javobgarlikni his silish; Faollik; Vaziyatga moslashuvchanlik; Ishni tassimlay olish; Javobgarlikni o`ziga ola bilish.	Yuksak axlosiy sifatlar; Ijtimoiy hayotda faollik; Faol hayotiy pozitsiya; Hamma ishda barchaga shaxsiy o`rnak bo`lish; Hukumat sonunl-ariga hurmat; Milliy iftixor; Vatanparvarlik; Vatan himoyasiga tayyorlik; Mustahkam sog`lik; Sog`lom hayot tarzi; Insonparvarlik; Ma'naviyat; Iymonlilik; Mulosatga xohish; Ochislik; Axloslilik; Uz faoliyatiga tansidiy yondashish

Pedagog kasbiy imkoniyatining tuzilishi

Kasbiy tayyorganlik	Pedagogning ijodkorligi	Pedagogning mutaxassisligi	Pedagogik madaniyat
Kasbga yo`naltirish	Pedagogik intellekt	Innovatsioln faoliyat	Fikrlashning pedagogik uslubi
Mutaxassis bo`lmos	Kasbiy moslik	Insonaparvarlik yo`nalishi	Pedagogik texnika
Kasbga yo`nalganlik	Faoliyatning individual shakli	Kasbiy o`sish	Muomala mahorati
Maktab hayotiga tayyorlik	Mehnatga ijodiy yondashuv	Kasbiy pozitsiya	Ijtimoiy faollik
Bolalarni sevishi	Ijodiy tashabbusni rivojlantirish	Kasbiy faollik	Metodik mahorat

3. Sharq mutafakkirlarining o'qituvchi-murabbiy haqidagi fikrlariga sharh bering:

Sharqning buyuk allomasi, qomusiy olim **Forobiy** muallimning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan.

«O'qituvchi, - deydi Forobiy, - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarni to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi», -deb ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino ning fikricha, «... O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rosggo'y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim».

Abu Ali ibn Sino mulohazasiga ko'ra tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko'rishi, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo'lishi shart. Agar bola ishni yaxshi bajarsa, uni o'z vaqtida rag'batlantirish, gohida maqtab qo'yish, aksincha bo'lganda esa, unga tanbeh berish kerak. Lekin, deydi Ibn Sino, tanbeh bolaning izzat-nafsiga tegadigan bo'lmasligi lozim, o'quvchiga murosasozlik qilish esa bolaning o'zboshimcha bo'lib qolishiga olib boradi, - deydi Ibn Sino.

Husayn Voiz Koshifiy– o'qituvchilarga bolalarni tarbiyalashda quyidagi usullarni qo'llashni ilgari surgan: nasihat, tanbeh berish, amru farmon, majburiyat qo'yish.

Nasriddin Tusiy o'zining «O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida» degan asarida shunday deydi: «O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi dozim... O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaharxandali, qo'pol va qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchi o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin.

Abdurahmon Jomiyning fikricha, muallim aqlli, adolatli, o'zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hsch vaqt boshqalarga bilim bera olmaydi, degan fikrni bildiradi.

Ustod, muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan qora bo'lurdi jahon**,** - deb hitob qiladi u «Iskandar xirodnomasi» asarida.

Alisher Navoiy o'qituvchiga eng yuksak talablar qo'ygan. O'g'il-qizni tarbiyalash va unga ilm berish, qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda bilimdon va usta tarbiyachi bo'lishi kerakligi va bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchilar yoshlarga ilm, odob o'rgatish mahoratiga ega bo'lishi, o'qitish yo'llarini yaxshi bilishi zarurligini uqtiradi.

4. Pedagogik madaniyat turlari bilan tanishing va ulrga tavsif bering:



5. O‘qituvchi yuksak pedagog mahorat egasi bo‘lishi uchun:

A) ixtisoslik bo‘yicha o‘quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning kesishadigan o‘quv fanlari bilan bog‘liqligini ta’minlash malakasiga ega bo‘lishi;

B) o‘quv - tarbiya jarayonini aniq tashkil qilish uchun asoslik pedagogik-psixologik, metodik ma’lumotga ega bo‘lishi;

V) o‘quvchini, jamoani “ko‘ra bilish”, bolalar qiziqishi, intilishlari, ularda uchraydigan qiyinchiliklarni tushuntirish va o‘z vaqtida anglay olishi, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter, xususiyati, qobiliyati, irodasini tushina bilish hamda ularga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatishning shakl, metod, vositalaridan xabardor bo‘lish;

G) o‘z shaxsiy sifatlari (tovushi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va x.k.)ni takomillashtirish **malakasiga ega bo‘lishi lozim**.

6. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qiling:

1-Vaziyat.

Adabiyot darsida bolalar adabiy portretning yaratilishi ustida ishlashardi. O`qituvchi o`quvchilarning har biriga ularning o`zlariga yaqindan tanish bo`lgan kishining tashqi qiyofasini tasvirlashni tavsiya qildi. Barcha bolalar o`z daftarlari ustiga egildilar...

Shu payt bir o`jar bola o`z yozganlarini ovoz chiqarib, butun sinfga o`qib bera boshladi, o`qituvchi esa sekingina oh deb yubordi: portretda, o`quvchi tasvirida uning ko`rimsiz tashqi qiyofasidagi alomatlar shunchalik mohirlik bilan qamrab olingan ediki, u gap kim to`g`risida ketayotganlinini darhol payqadi. Ha, u o`zini tanidi! Baqirib yuborgisi, bu yaramas bolani jim bo`lishga majbur qilgisi, sinfdan qochib chiqib ketgisi keldi...

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1.Yuzaga kelgan vaziyatdan o`qituvchi o`zini qanday tutsa pedagogik maqsadga muvofiq bo`ladi?

2.O`qituvchining xulq atvorini, uning tutayotgan pozitsiyasini baholang. Bu vaziyatni yuzaga keltirish bilan u qanday muammoni hal etayapti

3.Bunga o`xshash vaziyatlar qaysi jihatlari bilan o`ziga xoslikni tashkil qiladi. Bunday vaziyatlar har vaqt ham sodir bo`lib turadimi. Ularning sodir bo`lishiga nima sabab bo`lishi mumkin?

2- Vaziyat.

O’quvchi o’zining sevimli o’qituvchisi haqida shunday eslaydi: «U darsni shunday tashkil qilardiki, o’zini juda bilag’on kishi sifatida ajratib ko’rsatmasdi. Hech kim unga o’z fikrini aytishdan qo’rqmasdi. Biz darsdan doimo ko’nglimiz to’lib, hatto o’zimizga ishonchimiz ortib chiqar edik. U darsda har bir o’quvchining imkoniyatidan to’liq foydalanishga harakat qilardi. Bizga ba`zan u darsda ishtirok etayaptiyu, lekin biz uni olib borayotgandek tuyulardi. U hech qachon «Bunday emas!» deb fikrni kesib qo’ymasdi. Agar biz nohaq bo’lsak u yo’naltirardi, ishontirardi, asoslardi. U o’qituvchilik rolini o’ynamasdi, balki biz bilan yashardi».

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1.O’quvchining o’qituvchi faoliyatiga bergan bahosini tahlil qiling. Ta`lim jarayonini tashkil etishda o’qituvchi qanday psixologik qonuniyatlardan foydalangan?

2.O’qituvchi muvoffaqiyatining siri nimada?

3- Vaziyat.

Bo’lajak o’qituvchilar o’rtasida «Qanday qilib mohir o’qituvchi bo’lib etishish mumkin» degan mavzuda bahs ketmoqda.

- Buning uchun pedagog bo’lib tug’ilish kerak, - dedi bir talaba.

Ba`zilar uning fikriga qo’shilishmadi. Birinchi talaba o’z fikrini shunday asoslashga harakat qildi:

- Pedagogik qalb va mahorat, bolalarga muhabbat bilan tug’ilmagan kishini 5 yil emas, 20 yil institutda o’qitsa ham, undan haqiqiy o’qituvchi yetishib chiqmaydi.

- Mening fikrimcha,- dedi boshqa bir talaba,- pedagog bo’lib tug’ilishgina emas, balki pedagog bo’lib tarbiyalanish ham kerak. Chunki o’qituvchilikka qiziqmay, tasodifiy institutga kirib qolgan ba`zi talabalar ham o’qish davrida bu kasbga mehr qo’yib, mohir o’qituvchi bo’lib yetishishlari mumkin.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

Bu bahsni siz davom ettiring. Mohir o'qituvchi bo'lib etishishning yo'llari nimada?

NAZORAT SAVOLLARI (260 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo'yicha konspekt tuzing:

1. "Pedagogik mahorat" tushunchasining mohiyatini yoriting.
2. Pedagogik faoliyat xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati. Pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari haqida yozing.
3. O'qituvchi mahoratni shakllantirishga doir psixologik, pedagogik nazariyalar mazmuni va ahamiyatini ochib bering.
4. Madaniyat va pedagogik madaniyat haqida yozing.
5. G'arb olimlarining o'qituvchi-murabbiy haqidagi fikrlarini keltiring.
6. Eng qadimgi davrlardan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davrlarda bolalar ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni to'g'risida yozing.
7. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari
8. "Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim" va "Ilmiy xabarnoma" jurnallaridagi yoki istalgan matbuotda chop ettirilgan mavzu bo'yicha materiallarni o'rganing va ularni qiyosiy tahlil qiling hamda quyidagi savollarga javob yozing:

- Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash masalasi va ularning pedagogik mahoratga ega bo'lishlariga qo'yiladigan talablar bo'yicha qanday ma'lumotlar keltirilgan?
- O'qituvchi mahoratini shakllantirishga doir psixologik, pedagogik nazariyalarga oid qanday yondashuvlar mavjud?

Izoh* Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI:

"Esse","Klaster","6x6x6","To'rtinchisi ortiqcha" ,"Keystadi", "Nima uchun", "Charxpalak", "Bumerang" ,"Galereya".

ADABIYOTLAR: *A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.*

7-Mavzu: O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyat

Pedagogik odob va pedagogik nazokat.

(2soat).

REJA:

1. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari.
2. Muloqot orqali ta'sir etish. Muloqotga kirishish. Aloqa o'rnatish (kommunikatsiya) tushunchasi, uning mohiyati, pedagogik ta'sir etish usullari.
3. O'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi va qobiliyati. Nutq vositasi hamda so'zsiz holatda inson ruhiyatini tushuna olish.

4. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchi bilan muloqotda bo‘lish jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari: ishontirish va ma’qullash.

5. Sharq mutafakkirlari muloqot haqida.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Pedagogik qobiliyat tarixi to’g’risida berilgan ma’lumotlarni o’rganing va sharhlang:

Pedagogik qobiliyat adabayotda birinchi bo'lib XIX asr o'rtalarida paydo bo'ldi. Pedagogika nazariyasida o'qituvchilar tayyorlash va perqeptiv qobiliyatga A. Disterverg diqqat e'tibor berdi.

Shunday qilib, Disterverg pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat'iy erkinlikka ahamiyat berdi. So'ngra XIX asrning ikkinchi yarmida P. G. Redkin «axloqiy qobiliyat» tushunchasini ilgari surdi.

Disterverg, Redkin fikrlarini K.D.Ushinskiy davom ettirdi. L. N. Tolstoy, L. S. Makarenkolar ham bu haqda o’z munosabatlarini bildirdilar:

№	Qobiliyat to’grisidagi qarashlar	
1.	K.D.Ushinskiy	Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo'li ishontirishdir, odamning e'tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta'sir qilish mumkin
2.	L. N. Tolstoy	Tarbiyalash muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tarbiyalovchi kishilar sira to'xtamay o'zlarini tarbiyalay bilishlari kerak.
3.	L. S. Makarenko	Agar har bir kishi qunt bilan mehnat qilsa, u o'ziga nisbatan talabchan bo'lsa, u yaxshi pedagog bo'lishi mumkin.

Rus olimasi N.V.Kuzmina o‘z tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni:

1. Gnostik (bilishga oid)
2. Proektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan)
3. Konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik tasnif bildiradi. U pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatorida kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o‘qituchining bu hislari o‘quvchining ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

1. Didaktik qobiliyatlar.
2. Akademik qobiliyatlar.
3. Perseptiv qobiliyatlar.
4. Nutq qobiliyatlari.
5. Tashkimlotchilik qobiliyati.
6. Avtoritar qobiliyatlar.
7. Kommunikativ qobiliyatlar.
8. Pedagogik xayolot.
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to‘g‘risida mukamml ma’lumotlar beradi. Ta’lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

Yirik o‘zbek olimi S.R.Rajabov va uning yuzlab shogirdlarining ishlari ham o‘qituvchining pedagogik va psixologik xususiyatiga qaratilgandir.

2. Pedagogik qobiliyatlar klassifikatsiyasiga ta’rif bering:

Qobiliyat-shaxsning muayyan faoliyat yuzasidai layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub'ektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir.

Falsafa tarixida qobiliyat uzoq davrgacha o'zgarmas irsiyat, nasldan-naslga o'tuvchi alohida kuch sifatida talqin etilgan. Bunday qarashlar dastlab ingliz filosofi J. Lokk va franquz materialistlari tomonidan tanqid qilingan. Qobiliyatni rivojlantirishi mumkin bo'lgan anatomik fiziologik xususiyatlar tug’ma bo'ladi.

№	Pedagogik qobiliyatlar klassifikatsiyasi
1.	Didaktik qobiliyat.
2.	Akademik qobiliyat.
3.	Pertseptiv qobiliyat.
4.	Nutqiy qobiliyat.
5.	Tashkilotchilik qobiliyati.
6.	Obro‘ga ega bo‘lishlik qobiliyati.
7.	Kommunikativ qobiliyat.
8.	Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati.
9.	Diqqatni taqsimlash qobiliyati.

3. Pedagogik muloqotga bo‘lgan qobiliyatning asosiy turlarinini izohlang:

Empatiya - boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyatidir (bigalikda dardlashmoq).

Pertseptiv qobiliyat - idrok jarayonining asosiy tuzilishi birinchi bo'lib, bu idrok ob'ektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iboratdir. Bu qobiliyat o’qituvchining o’quvchilar ko’z qarashlari va yuz ifodalariga qarab ularning ichki dunyosini ko’ra olishida namoyon bo’ladi.

Didaktik qobiliyat - o’quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim qonuniyatini hamda metodlarini o'rgangan holda, ta'lim bars olish va ibratli dars berish qobiliyatidir.

Konstruktiv qobiliyat - o'qituvchining o'z ishini rejalashtira olishidir.

Kommunikativ qobiliyat - boshqa odamlar bi:lan bo'ladigan muloqotni yaxishlaydigan va birgalikdagi faoliyatni psixologik ta'minlaydigan qobiliyatdir. O’quvchi bilai o'zaro muloqotda bo'lish.

Konstruktiv qobiliyat-o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o‘quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o‘quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o‘quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

Gnostik qobiliyat- tadqiqotga layoqatlilik bo‘lib, o‘z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o‘rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Bilish qobiliyati - bilimni egallash va uni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

4. «Shaxsning kommunikativ imkoniyatlarini aniqlash testi»ni o’tkazib, o’zingizni sinab ko’ring.

Tavsiya etilayotgan 16 ta savolning hammasiga ochiq ko’ngillik bilan javob bering va ochkolar yig’indisini toping. «Ha» ga - 2 ball, «bilmadim», «hayronman» ga - 1 ball, «yo’q» ga- 0 ball.

Savollar:

1. Ma`sul ishga duchor bo’lganingizda hayajonlanasizmi?
2. Ahvolingiz yomon bo’lguncha ham shifokor chaqirmaysizmi?
3. Kutilmaganda dars o’tasiz (ma`ruza qilasiz) desa norozilik bildirasizmi?
4. Mehmonxona tayin bo’lmasa ham begona shaharga safarga borishdan bosh tortasizmi?
5. Begona kishiga kechinmalaringizni so’zlaysizmi?
6. Begona odam sizdan yo’lni yoki vaqtni so’rasa g’ashingiz keladimi?
7. Har xil avlod o’rtasida hayot masalasida kelishmovchilik bo’ladi deb hisoblaysizmi?
8. Bir necha oy ilgari tanishingizga bergan 200 so’mingizni so’rashga xijolat tortasizmi?
9. Oshxonada sifatsiz taom keltirishsa indamay qo’yaverasizmi?
10. Vagonda bir necha soat begona yo’lovchi bilan ketsangiz gapni birinchi bo’lib boshlaysizmi?
11. Navbatda turish maqsadingizga erishishingiz uchun zarurat bo’lsa ham uzundan-uzoq navbat kutishdan voz kechasizmi?
12. Xodimlar o’rtasida bo’lgan mojaroni hal qilishdan o’zingizni olib qochasizmi?

13. Biror adabiyot yoki san`at haqida gap ketsa o’z fikr, nuqtai-nazaringizni himoya qilasizmi?
14. Sizga yaxshi tanish, ma`lum bo’lgan masala bo’yicha noto’g’ri fikr eshitsangiz ham jim tura olasizmi?
15. Sizdan ish yoki o’qish yuzasidan yordam so’ralsa norozi bo’lasizmi?
16. O’z fikringizni og’zaki bayon etishga imkoniyat bo’lsa ham yozma ravishda bayon etishni afzal ko’rasizmi?

Natijalar izohi:

30-32 ball yig’sa, u muloqatga tez kirishuvchan emas, muloqotga ehtiyoji kam. U bilan muomala qilish murakkab. Odamlar bilan ko’prok muloqotda bo’lishga intilish, o’rganish lozim.

25-29 ball yig’gan kishi indamas, kamgap, yolg’izlikni yoqtiradi. Yangi ish, yangi muloqatga qiynaladi. Uning bu xususiyati o’ziga ham yoqmaydi.

19-24 ball yiqqan kishi boshqalar bilan osoyishta muloqatda bo’ladi. Yangi masala, muammolardan cho’chimaydi. Odamlar bilan kelisha oladi. Tortishuvlarda qatnashishni uncha yoqtirmaydi.

14-18 ball egasi qiziquvchan, tinglashni biladi. O’z qarashini jahlsiz himoya qila oladi. Shovqinli davralarda bo’lishni uncha yoqtirmaydi.

9-13 ball. Atrofdagilar bilan tez muloqotga kirishadi, qiziquvchan, sergap. Garchi bajarish qo’lidan kelmasada hech kimning iltimosini rad qilmaydi. Unga murakkab ishlarda sabr-toqat, qat`iylik yetishmaydi.

4-8 ball. Doimo muloqotga intiladi, hamma gapdan xabardor. Har qanday masala bo’yicha gapiraveradi. Ishlarni ishonch bilan boshlaydi, lekin ohiriga yetkazmaydi.

3 ball egasida muloqatga intilish kasallikka aylangan. Bunday kishi ezma, jahldor, tez xafa bo’luvchidir. Ko’pincha qat`iy va odil bo’la olmaydi.

Shu kabi testlar asosida talabalarning muloqatga kirishishi aniqlanib, tahlil etiladi.

Xulosa.

Talabaning muomalaga kirisha olish darajasini aniqlashga oid qator testlar yechib ko’riladi, topshiriq sifatida uyda shunga o’xshash testlarni topib, bajarib ko’rish topshiriladi. Pedagogik masalalar yechiladi. Talabalar ishtirokiga qarab tegishli ballar qo’yiladi. Muomalaga kirishishi qiyin bo’lgan talabalar bilan alohida qo’shimcha mashg’ulotlar olib borilib, trening mashg’ulotlari o’tkaziladi.

5. Pedagogik ta'sir ko’rsatishniig asosiy usullarini o’rganing va ularning har biriga sharh bering:

Talab – tajribada juda keng tarqalgan usul bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo'lish yo'li bilan yoki bu xatti-harakatlarning rag'batlantirilishi yoki to'xtatilishini ta'minlaydi. U **pedagogik ta'sir ko'rsatish**ning boshlang'ich usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarda o'ziga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Istiqbol - ta'sir ko'rsatishniig juda ta'sirchan usuli bo'lib, u bolalarning xatti-harakatlarini, ular oldiga qo'yilgan maqsadlar, ularning shaxsiy intilishlari, qiziqishlariga aytiladi.

Rag'batlantirish va jazolash o'quvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning noma'qul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi.

Jamoatchilik fikri - tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borshini ta'minlaydi.

O'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish vositalari: ishontirish, ta'sir qilish, o'zaro fikr almashish bilan ta'sir ko'rsatish.

Ishontirish pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda o'quv axboroti, ijodiy suhbatlar, munozaralar, siyosiy axborotlar shaklida qo'llaniladi.

Biz pedagog o'quvchilar bilan muloqot qilishda psixolog bo'lishi, ya'ni har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishi zarur, deb aytamiz. Shu ma'noda, o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat pedagogik ta'sir ko'rsatishi, balki psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

Психологик таъсир - бу турли воситалар ёрдамида инсонларнинг фикрлари, ҳиссиётлари ва ҳатти-ҳаракатларига таъсир кўрсата олишдир.

Verbal ta'sir - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so'zlardir.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar: tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.

Noverbal ta'sir - Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa va signallar kiradi.

6.Pedagogik odob va pedagogik nazokatga oid fikrlarga izoh bering:

Pedagogik nazokat – o'qituvchi axloqiy-ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi me'yor tuyg'usi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. Pedagogik nazokat o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy hislatlarining yig'indisidir.

O'qituvchi pedagogik nazokatga ta'lim va tarbiya jarayonidagi har bir vaziyatga adolatli baho berishi bilan, o'quvchilarning hatti-harakatini to'g'ri idrok etishi, sabot, o'zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlik, vijdon, oriyat kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan erishadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi, pedagogik faoliyatda o'z kasbini sidqidildan sevishi,

halolligi, rostgo‘yligi, axloqiy pokligi, odamiyligi, kamtarligi pedagogik nazokatning zarur talabidir.

Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lmish dilkashlik shaxsning atrofdagi odamlar bilan barqaror, yaqin munosabatda bo‘lishga intilishi deb ta’riflanadi.

Pedagogik nazokat:

1. Emotsional his-tuyg’ular, kechinmalar stress va affektiv holatlar xossalari, chegaralariga batamom rioya qilishda;
2. Xulq atvor malakalarini amaliyotda oqilona qo’llashda;
3. Bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar qilishdan o’zini tiyishda;
4. Nutq madaniyatidan tashqari chiqmaslikda, shaxsiyatiga tegadigan iboralar ishlatmaslikda, qo’pol va dag’al so’zlar qo’llamaslikda;
5. Hissiy, aqliy bilish jarayonida muayyan me`yorlarga asoslanishda, manmanlikni namoyish etmaslikda;
6. O’quvchilar va o’qituvchilar jamoalari bilan, ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatga kirishishda rasmiy, qat`iy ishbilarmonlik uslublariga asoslanishda va hakozolarda **namoyon bo’ladi.**

7. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik nazokatning qanday ahamiyat kasb etishiga munosabat bildiring.

O‘quvchilar bilan munosabatlarda pedagogik nazokatni qo‘llash natijasida:

- o‘qituvchi o‘quvchilarning xarakterini, ichki dunyosini yaxshi bilib oladi, shundagina o‘quvchilar bilan munosabatda xushmuomalali bo‘lish imkoniyatlari paydo bo‘ladi;
- o‘qituvchi o‘quvchilar bilan chin ko‘ngildan bir-biriga yaqin bo‘ladi, ba’zi daqiqalarda eshitmasligi kerak bo‘lgan ularning gaplarini eshitmasdan o‘tib ketishi mumkin, negaki o‘zgalar gapini tinglash odobsizlikdir;
- o‘qituvchi ba’zan o‘quvchilar jamoasining kundalik ishlariga aralashmasligi, jamoada ro‘y beradigan ba’zi ko‘ngilsiz hodisalarni ijobiy hal etishni ular zimmasiga havola etishi mumkin.

Bularning hammasi o‘qituvchining o‘quvchilar bilan bo‘ladigan kichik ixtiloflariga, kelishmovchiliklarga barham beradi.

8. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qiling:

1-Vaziyat.

Matematika darsida bolalarga mustaqil ish topshirilgan edi. U o’qituvchininh quyidagi luqmalari bilan davom etyapti:

— Kimda-kim 5 minut ichida hamma misolni to’g’ri yechsa, “5” baho oladi.

— Jasur oxirgi misolni yana diqqat bilan tekshirib chiqishi kerak.

— Alisher hamma misollarni birinchi bo’lib ham to’g’ri, ham tartib bilan ishladi.Men unga “5” baho qo’yaman.

— Mavludaga bugun qoyil qolsak bo’ladi, u juda yaxshi va tez ishlayapti. Mana hozir ishning eng qiyin qismini bajarib bo’ldi.

— Ilhom, sen hammasini yechib bo’lding-mi? O’z ishingni Nodirga bergin; bo’lmasa sen doim ishni chala qilib yurasan, gapim to’g’ri-mi?

— Akmal bugun uyga berilgan masalani ham yechib kelibdi, hozir misolni ham to’g’ri yechyapti, balli!

— Bolalar, ish uchun ajratilgan vaqt tugadi, tezroq tamomlanglar. Hozir javoblarni tekshiramiz. Nargiza, birinchi javobni o’qi.

— Kimda shunday javob chiqqan? To’g’ri.Kim adashibdi? Xato ishlangan misollarni belgilab chiqinglar, ularni qaytadan hisoblab chiqish kerak bo’ladi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. O’qituvchining har qaysi mulohazasiga bahon bering. Boshqaruvchi, rag’batlantiruvchi, baholovchi fikrlarini toping.
2. O’qituvchining **huddi shu mulohazalaridan VIII sinfda foydalanish mumkin-mi?**

2- Vaziyat.

Birinchi sinf o'quvchilarining barchasi dastlab maktabga katta ishtiyoq bilan borishlarini hamma aniq biladi. Ularda atrofdagilari o'rtasida yangi vaziyatni egallash-maktab o'quvchisining vaziyati va bu yangi vaziyatbilan bog'liq aniq bir faoliyatni bajarishga bo'lgan talab va ishtiyoq mavjud. Birinchi sinf o'quvchisiga maktabda hamma narsa qiziqarli tuyuladi, u odatda o'qishga sidqidildan mas'uliyatni sezib, ijobiy munosabatda bo'ladi. Biroq, II sinfning oxiri, III sinfning boshlariga kelib ayrim bolalarda bu ishtiyoq, ya'ni o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat asta-sekin so'na boshlaydi.Ba'zi bir o'qituvchilar u yoki bu o'quvchidagi bunday ahvolni beparvolik qilish, ko'chirmachilik qilish bilan shug'ullanish, yolg'onchilik va dars qoldirish hamda boshqa turli sabablarga yo'yub, barchaga ma'lum bo'lgan: kundalikka yozish, ota-onalarni maktabga chaqirish, darsdan so'ng olib qolish va hokazo tartibga chaqirish metodini qo'llay boshlaydilar.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. Qiziqishning so'nishini tabiiy, muqarrar deb hisoblasa bo'ladi-mi?

2. Hozirgi hodisada intizomga chaqirish metodini qo'llagan o'qituvchining tutgan yo'lini siz to'g'ri, deb hisoblaysiz-mi? Ular ta'lim motivlarini o'zgartira oladi-mi?

3. Pedagogik ta'sir ko'rsatish chorasini qo'llashdan avval o'qituvchi qanday savollarga javob topishi kerak?

3- Vaziyat.

«IX sinfda bizga yangi o'qituvchi keldi. Birinchi darsidanoq bizga qattiq va qo'pol muomala qila boshladi. U bizni o'zidan uzoqlashtira boshladi, biz ham shunga mos javob qaytardik. Balki biz o'qituvchiga nisbatan noto'g'ri yo'l tutgandirmiz, lekin har bir darsda «Axmoqlar, aqli pastlar» kabi so'zlarni eshitaverganimizdan so'ng boshqa choramiz qolmadi.

Bir kuni o'quvchilardan biri o'zini tuta olmay o'qituvchiga «Asablaringizni davolating» deb yuborganligi uchun uni maktabdan haydashdi. O'qituvchi haq, o'quvchi esa aybdor bo'lib qolaverdi. Agar o'qituvchi bizga «yovvoyi hayvonlarga» emas, balki insonga qilgandek muomala qilganda edi bu hodisa yuz bermas edi. Biz ham uni hurmat qilgan bo'lardik».

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. IX sinf o'quvchilarining tahririyatga ushbu mazmunda xat yozishiga nima sabab bo'lgan?
2. O'qituvchi darsda qanday yo'l tutishi kerak edi?
3. Darsda ishchan muhitni yaratishning asosida nima yotadi deb o'ylaysiz?

NAZORAT SAVOLLARI (260 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo'yicha konspekt tuzing:

1. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifini keltiring.
2. Muloqot orqali ta'sir etish, muloqotga kirishish haqida yozing.
3. Aloqa o'rnatish (kommunikatsiya) tushunchasi, uning mohiyati, pedagogik ta'sir etish usullarini yoriting.
4. O'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi va qobiliyati. Nutq vositasi hamda so'zsiz holatda inson ruxiyatini tushuna olish qanday holatlarda namoyon bo'ladi? Shular hususida yozing.
5. O'qituvchi tomonidan o'quvchi bilan muloqotda bo'lish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari: ishontirish va ma'qullash haqida yozing.
6. Muloqot orqali ta'sir etish. Muloqotga kirishish. Aloqa o'rnatish (kommunikatsiya) tushunchasi, uning mohiyati, pedagogik ta'sir etish usullarini ko'rsating.
7. **O'qituvchining kommunikativ ko'nikmasi va qobiliyati bilan tanishish.**

"Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim" va "Ilmiy xabarnoma" jurnallaridagi yoki istalgan matbuotda chop ettirilgan ushbu mavzu bo'yicha materiallarni o'rganing va ularni qiyosiy tahlil qiling hamda quyidagi savollarga javob yozing:

- Muloqot jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari hadida qanday ma’lumotga ega bo’ldingiz?
- Siz to’plagan materiallarda nutq vositasi hamda so‘zsiz holatda inson ruxiyatini tushuna olish to’g’risida qanday dalillar keltirilgan? Misollar bilan tushuntiring.

Izoh* Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: “Esse”,“Klaster”, “6x6x6”, “To’rtinchisi ortiqcha” , “Keystadi”. “Nima uchun”, “Charxpalak”, “Bumerang” ,“Galereya”.

ADABIYOTLAR: *A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.*

8- Mavzu: Muloqot madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik muloqot.
Pedagogik muloqot va uni to’g’ri tashkil etish
(2 soat).

REJA:

1. “Muloqot” atamasining falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyati. Pedagogik muloqotni tashkil etish madaniyati. Pedagogik muloqot modelini ishlab chiqish.
2. Tabaqalashgan (ishi, mansabi hamda jinsi kabilar) muloqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari va mohiyati. Muloqot jarayonidagi xushmuomalalik.
3. Muloqotga kirishishda milliy urf-odatlar, rasm-rusum va udumlar haqidagi rivoyat, afsona hamda hikmatlardan foydalanish, pedagogik faoliyatga tadbiq etish usullari.
4. Sharqona muloqotga kirishishda mimika va pantomimikalarning ahamiyati hamda o‘ziga xosligi. O‘qituvchi faoliyatida sharqona muloqotning tutgan o‘rni.
5. Dars hamda darsdan tashqari jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot, unga qo‘yiladigan talablar.
6. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda berilgan muloqot turlari (do‘stona muloqot, qo‘rquv asosiga qurilgan muloqot, hazil-mutoyibaga asoslangan muloqot va boshqalar) haqida.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Pedagogik muloqot, uning o‘ziga xos xususiyatlarini o’rganing va sharhlang:

Muloqot - yunoncha so'z, so'zlashuv, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv, og’zaki nutq shakli, ikki yoki undan ortiq shaxslarning so'zlatuvidir.

O’qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot bo'lishi uchun o'qituvchi etarli darajada qobiliyatga ega bo'lishi kerak, hamda o'z-o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak:

Nimaga o'rgatish? Kimni o'rgatish? Qanday o'rgatish?

Nimaga o'rgatish:

a) lm-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish;

b)malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish;

v)o'quv predmetlari o'rtasidagi bog’liqlikni amalga oshirish;

g)o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida ko’rish.

Kimni o'rgatish:

a)o'quvchilarning ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutq, fikrlash) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash;

b)o'quvchilarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldindan aniqlash; v) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalariiig dalillari, fikrlarini hisobga olish; g)o'quvchilardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib o'z pedagogik mehnatini tashkil etish; d)iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish:

a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hksobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashniing turli usullari majmuini ishlatish.

Muloqot jarayonidagi taktikani to'g'ri tanlay olish rolli vazyaitlarni qo'llay bilishga bog'liqdir. Rolli vaziyatlarning 4 turi mavjud:

1. «Yuqoridan yondashish» vaziyatida o'qituvchi o'zining mustaqilligini, mas'uliyatni his eta olishni ko'rsatadi.
2. «Quyidan yondashish» vaziyatida o'ziga, o'z kuchiga ishonmagan o'qituvchi shaxsi namoyon bo'ladi.
3. «Yondan yondashish» vaziyatida esa xushmuomala, o'zini tuta oladigan, vaziyatni tushuna oladigan, atrofdagilarning qiziqishini tushuna oladigan va javobgarlikni o'quvchilar bilan birgalikda teng his qiladigan o'qituvchi shaxsi namoyon bo'ladi.

Muloyimlik – sabrli, muloyim, ochiq yuz, shirin so'zli, yaxshi ishlarga boshlaydigan fazilat.

Kamtarlik – har qanaqa martabaga erishganda ham manmanlikka berilmaslik, o'zini sodda tutmoq hamma bilan bir xil muomala qilish fazilatidir.



Dastlabki bosqich –odamning o`z-o`zi bilan muloqotidir. T. Shibutani «Ijtimoiy psixologiya» kitobida «Agar odam ozgina bo`lsa ham o`zini anglasa, demak, o`z-o`ziga ko`rsatmalar bera oladi»,-deb yozgan edi.

Ikkinchi bosqichi boshqalar bilan muloqot- muloqotnidir. Odamning o`z-o`zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o`z-o`zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o`zini chetga tortib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda jiddiy qiyinchilikni boshidan kechiradi deyish mumkin.

Uchinchi bosqich avlodlar o`rtasidagi muloqot. Bu muloqot tufayli har bir jamiyatning o`z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo`ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilgor vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim-tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Har qanday muloqot rasmiy yoki norasmiy bo`ladi.

Rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvoridan kelib chiqadi. Masalan, rahbarning o`z xodimlari bilan, professorning talaba bilan muloqoti. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, direktik hujjatlariga asoslanadi

Norasmiy muloqot odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o`sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqsadlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Pedagogik etikaning o`onuniyatlariga asoslanadi va ixtiyoriy ravishda bajariladi.

2. Muloqot haqida o'tmish mutafakkirlarining fikrlarini sharhlang:

«O'zga odamning dahlsizligi, nozikligi, hamiyatini ehtiyot qil, odamlarga yomonlik qilma, ranjitma, dilini og'ritma, tashvish va notinchlikka yo'l qo'yma»,-degan edi V. A. Suxomlinskiy.

«Kimki insoniylikni o'zida sinab ko'rmagan ekan, u hech qachon odamlarni chuqur bilmaydi». N. G. Chernishevskiy.

«Birovni yerga ursang, u bilan o'zing ham yerga urilasan». B.Vashington.

«Sening har bir xulq-atvoring boshqa kishilarga ta'sir etadi, yoningda inson borligini unutma». B. A. Suxomlinskny.

«Kishini erkalash hech qachon ziyon keltirmaydi».

«O'zgalar aybiga tetik nazar sol,

«O'z aybing ko'rgandek, undan ibrat ol». Nizomiy Ganjaviy.

«Yaxshi kishi ko'rmagay yomoshlik hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir». Bobur.

3. Quyidagi o'qituvchining pedagogik faoliyatini to'g'ri yo'lga qoyishdagi muhim jihatlarni eslab qoling:

Pedagogik muloqotda uchraydigan kamchiliklar:



O'qituvchi ziddiyatli vaziyatlardan chiqishi uchun quyidagi qoidalarni hisobga olishi kerak:

1. Avvalombor o'qituvchi ziddiyatni bartaraf etishi kerak;
2. Hatti-harakati bilan sherigi(o'quvchiga, hamkasbiga)ga ta'sir qila olishi kerak;
3. Suhbatdoshining hatti-harakati, yuz bergan vaziyatni tushunmasdan turib, xulosa chiqarishiga shoshilmasligi kerak;
4. O'quvchi bilan ko'ngilsizlikni iloji boricha avvalroq anglab olishi muhimdir;
5. Xulosa to'gri chiqarilganligiga hammani ishontira olishi.

Suhbatdoshingizni o'zingizga moyil qilish uchun quyidagilarni hisobga oling:

1. Ochiq ko'ngilliligingizni namoyon qiling, bunda «doimo yuzingizda tabassum bo'lsin»;
2. Suhbatdoshingizni tez-tez nomini tilga olgan holda gapiring;
3. Suhbatdoshingizga nisbatan doimo hurmat va e`tiborda bo'ling;

4. Suhbatdoshingizni diqqat bilan eshitishni o'rganing;
5. Suhbatdoshingizni qiziqtirgan narsalarni hisobga olgan holda suhbatni olib borishga harakat qiling;
6. Doimo suhbatdoshingiz o'zining ahamiyatga molik inson ekanligini his qilishiga yordam bering;
7. Suhbatdoshingizga komplement qilib turishni unutmang;
8. Suhbat davomida qat`iy qarshi poziciyaga o'tib olmang;
9. Kishilar bilan munosabatda iloji boricha hamkorlik pozitsiyasida turishga harakat qiling.

Qanday qilib suhbatdoshni o'z fikringizga qo'shilishiga majbur qilish mumkin:

1. Bahslashib qolgan paytda bir tomonning g'olib chiqishi qiyin, shuning uchun bahsda g'olib chiqishning asosiy yo'li uni chetlab o'tishdir;
2. Suhbatdoshingizning aytgan fikrini doimo hurmat qiling, hech qachon uni yuziga «nohaqsan» deya ko'rmang;
3. Agar biror kishining siz haqingizda salbiy fikr bildirmoqchi bo'layotganini sezsangiz, undan oldinroq harakat qiling, ya`ni o'z xatolaringizni qat`iy tarzda tan oling;
4. Suhbatni doimo do'stona ohangda boshlashga harakat qiling, ya`ni «shirin so'z jon ozig'i, yomon so'z jon qozig'i »degan maqolni unutmang;
5. Suhbat boshidanoq suhbatdoshingizning o'z fikringizga qo'shilganini tasdiqlovchi «ha» degan javobni olishga harakat qiling;
6. Suhbat davomida, iloji boricha, suhbatdoshingizga gapirish imkonini bergan holda, o'zingiz uni tinglashga harakat qiling;
7. Suhbatdoshingiz fikriga qat`iy qarshi bo'lsangiz ham hech qachon uning gapini bo'lmang, balki uni tushunishga harakat qiling;
8. Vujudga kelgan muammoni suhbatdoshingiz nuqtai-nazaridan ko'rishga harakat qiling;
9. Agar qat`iy irodali insonni o'z pozitsiyangizga o'tkazmoqchi bo'lsangiz, ko'pchilik o'rtasida uni qo'lidan ko'p narsa kelishini tan oling.

4. Tabaqalashgan (ishi, mansabi hamda jinsi kabilar) muloqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va mohiyatini yoritib bering.

5. O'qituvchi faoliyatida sharqona muloqotning tutgan o'rnini aniqlang.

6. «Siz bilan muomalada bo'lish yoqimlimi?» testini o'tkazib o'zingizni sinab ko'ring.

Bunda tekshiriluvchilarga 10 ta savolga javob berish taklif qilinadi. Tekshiriluvchi savolga «ha», yoki «yo'k» deb javob berishi lozim.

Test savollari:

1. Siz gapirishga qaraganda eshitishni yaxshi ko'rasizmi?
2. Siz hatto o'zingiz tanimagan notanish kishi bilan ham suhbatlashish uchun mavzu topa olasizmi?
3. Siz doimo suhbatdoshingizni e`tibor bilan tinglaysizmi?
4. Siz maslahatlar berishni yoqtirasizmi?
5. Agar suhbat mavzusi Siz uchun qiziqarsiz bo'lsa, buni suhbatdoshingizga bildirasizmi?
6. Agar Sizni tinglashmayotgan bo'lsa, jahlingiz chiqadimi?
7. Sizda har qanday masala bo'yicha o'z fikringiz bormi?
8. Agar suhbat mavzusi siz uchun notanish bo'lsa, unda suhbatni davom ettirar edingizmi?
9. Siz hammaning nigohida bo'lishni yoqtirasizmi?
10. Siz yetarli bilimga ega bo'lgan hech bo'lmasa uchta predmetni egallaganmisiz?

Testning kaliti:

«Ha»: 1, 2, 3, 6, 7, 8, 9, 10.

«Yo'q» 4, 5.

Kalitdagi mos tushgan javoblarning hammasi qo'shib hisoblab chiqiladi. Har bir mos tushgan javob 1 ballga tengdir.

1-3 ball: Siz bilan muomala qilish har doim ham yoqimli emas, hatto ba`zida bir oz og'ir ham.

4-8 ball: Siz har doim yoqimli va diqqat e`tiborli suhbatdoshsiz, ammo kayfiyatingiz yomon bo'lsa suhbatdoshingizga e`tibor bermay qo'yasiz.

9-10 ball: Siz muomala jarayonida juda yoqimli suhbatdoshsiz, faqat juda oshirib yubormang.

Talabalardagi tinglay olish qobiliyatini aniqlash uchun «Siz suhbatdoshingizni tinglay olasizmi?» degan testdan foydalanish mumkin.

Bunda tekshiriluvchilardan 10 ta savolga javob berish talab qilinib, u quyidagi ko'rsatilgan javob variantlaridan birini tanlashi lozim bo'ladi:

a) har doim;

b) ko'p hollarda;

v) ba`zan

g) juda kam;

d) hech qachon.

Test savollari:

1. Agar suhbat mavzusi yoki suhbatdoshingiz qiziqarsiz bo'lsa, unda suhbatni tezroq tugatishga harakat qilasizmi?
2. Suhbatdoshingizning suhbat davomidagi hatti-harakatlari sizning jahlingizni chiqaradimi?
3. Suhbat davomida suhbatdoshingiz tomonidan aytilgan noo'rin so'z yoki hatti-harakat sizni qo'pollikka undashi mumkinmi?
4. Notanish kishi Siz bilan suhbatlashishga intilayotgan bo'lsada, lekin siz bunday suhbatdan qochishga harakat qilasizmi?
5. Sizda suhbatdoshingizning gapini birdan bo'lib qo'yish odati bormi?
6. Sizda umuman boshqa narsani o'ylab turgan holda, o'zingizni diqqat bilan suhbatdoshingizni tinglayotgandek ko'rsatish hollari bo'lib turadimi?
7. Sizning suhbatdoshingiz kim ekanligiga bog'liq ravishda so'zlash ohangingiz, tovushingiz, yuz qiyofangiz o'zgarib turadimi?
8. Agar suhbatdoshingiz Siz uchun gapirish noqulay bo'lgan mavzudan gap ochsa, unda suhbat mavzusini o'zgartirarmidingiz?
9. Agar suhbat davomida suhbatdoshingiz so'zlarini noto'g'ri talaffuz qilsa, nom va terminlarni noto'g'ri aytsa, uni darrov to'g'rilashga harakat qilarmidingiz?
10. Siz suhbat davomida talaffuz ohanglariga va kinoyalarga befarq bo'la olasizmi?

Test kaliti:

a) har doim- 2 ball;

b) ko'p hollarda- 4 ball;

v) ba`zan- 6 ball;

g) juda kam- 8 ball;

d) hech qachon- 10 ball.

Olingan javoblar test kalitiga solinganidan keyin umumiy ball hisoblab topiladi.

Suhbatdoshni tinglay olish qobiliyati olingan ballar asosida belgilanadi.

55 ball- o'rtacha daraja.

62 ball- tinglay olish qobiliyati o'rtachadan yuqoriroq.

Suhbatdosh to'plagan ball yig'indisi qanchalik ko'p bo'lsa, uning tinglay olish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi.

E.G’oziev va R.Toshimovlarning «Muomala treningi» kitobidagi «Muloqatga o’rgatishga oid o’yin mashqlarining sistemalaridan» foydalanish ham mumkin.

O’yinga oid trening - bu muloqatga o’rgatish uchun bajariladigan o’yin mashqlarining sistemasidir. Treningning asosiy maqsadi- shaxsni ruhiy ozod qilish, unda tabiiy erkinlikni his etishni, o’z guruhida va undan tashqarida o’zaro munosabat va aloqa o’rnata olishni shakllantirishdan iboratdir. Bunda o’yinni tashkil etish, olib borish yo’llari ko’rsatilgan.

O’qituvchi - o’quvchi muloqatiga doir masalalar, pedagogik vaziyatlar ham berilib, muhokama etiladi.

Xulosa

Barcha masalalar bo’yicha talabalar javoblari tinglanib, yechilmagan masalalar yoritib beriladi. Muloqatni aniqlashga oid test javoblari, talabalarning mashg’ulotda ishtiroki, savollarga bergan javoblari tahlil etilib, har bir talabalaga tegishli maslahatlar beriladi. Talabalarning ishtirokiga mos ballar qo’yiladi.

7. Pedagogik vaziyatni tahlil qiling:

1-Vaziyat.

Olti yoshlilar shug’ullanishayotgan sinfdagi darsning bir qismi bilan tanishing.

Uchmi hosil qilsh uchun qanday sonda ettini ayirishimiz kerak?- deb so’radi o’qituvchi.Bir boladan boshqa hamma qo’lini ko’tardi. O’qituvchi uni joyidan turgizdi. U o’rnidan turdi, lekin gapirmasdan jim turaverdi. Shunda o’qituvchi nima qiladi?

-Uning bu hatti-harakati menga yoqadi,- deydi o’qituvchi. U hato qilishdan ko’ra jimturishni afzal ko’radi.

O’qituvchi boshqa savol beradi. Yana bir boladan boshqa hamma qo’lini ko’tardi.

-Bolalar, Ikromga bir qarangizlar-a,- deydi o’qituvchi. U qo’lini ko’tarmayapti. U o’ylayapti. Savolning mazmunini bilib olsa, albatta qo’lini ko’taradi. Hammalaringizning undan o’rnak olishlaringizni so’rayman.

Darsning oxirida Ikrom qo’lini ko’tardi. O’qituvchi undan so’radi va javobni eshitgach, sinfni bir aylanib chiqib, bolaning oldiga kelib to’xtadi va uning qo’lini qisib: “Raxmat”,- dedi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. Vaziyatni Ikrom holati, sinf holativa o’qituvchi holati bo’yicha baholang.
2. O’qituvchi bunday odatdan tashqari usulni qo’llab, o’quvchining o’z xohishi bilan javob berishiga erishish uchun qat’iy urinib, qanday masalani yechdi?
3. Ana shunga o’xshash vaziyat V-VI sinflarda sodir bo’lsa, shu sinflarning bolalari uchun aynan shu usulni qo’llash mumkin-mi? Nega?

NAZORAT SAVOLLARI (262 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. “Muloqot” atamasining falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyatini yoritib bering.
2. Pedagogik muloqotni tashkil etish madaniyati haqida yozing.
3. Sharqona muloqotga kirishishda mimika va pantomimikalarning ahamiyati hamda o‘ziga xosligini yoritib bering.
4. Tabaqalashgan (ishi, mansabi hamda jinsi kabilar) muloqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari va mohiyati. Muloqotga kirishayotgan shaxsni to‘laqonli bilishga qiziqish. Muloqot jarayonidagi xushmuomalalik.

5. Muloqotga kirishishda milliy urf-odatlar, rasm-rusum va udumlar haqidagi rivoyat, afsona hamda hikmatlardan foydalanish, pedagogik faoliyatga tadbiq etish usullari haqida fikr bildiring hamda ulardan namunalar keltiring.
6. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda berilgan muloqot turlari (do‘stona muloqot, qo‘rquv asosiga qurilgan muloqot, hazil-mutoyibaga asoslangan muloqot va boshqalar) haqida yozing.

7. Pedagogik muloqot va uni to’g’ri tashkil etish. Muloqotga kirishishda milliy urf-odatlar, rasm-rusum va udumlar haqidagi rivoyat, afsona hamda hikmatlardan foydalanish, pedagogik faoliyatga tadbiq etish usullari.

“Xalq ta’limi”, “Uzluksiz ta’lim” va “Ilmiy xabarnoma” jurnallaridagi yoki istalgan matbuotda chop ettirilgan ushbu mavzu bo’yicha materiallarni o’rganing va ularni qiyosiy tahlil qiling hamda quyidagi savollarga javob yozing:

- Pedagogik muloqot va uni to’g’ri tashkil etishda nimalarni e’tiborga olish zarur bo’ladi?
- Muloqotga kirishishda milliy urf-odatlar, rasm-rusum va udumlar haqidagi rivoyat, afsona hamda hikmatlardan foydalanish ta’lim-tarbiya jarayonida qanday ahamiyat kasb etadi? Ularni qay yo’sinda pedagogik faoliyatga tadbiq etish mumkin? Misollar bilan o’z fikringizni izohlang.

7.O‘zingiz uchun “Kommunikativ jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalashning individual-tipologik dasturi”ni tuzing.

8. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot ustuda kuzatish olib borish.

Maktabdagi dars mashg’ulotlaridan birini kuzating. Kuzatish vaqtida asosan quyidagi holatlarga e’ tibor bering:

1) Mashg’ulot qanday sharoitda o’tkazilyapti? U qanday jihozlangan?
2) O’qituvchi mashg’ulotni qanday uyushtirgan?
3) O’quvchilar mashg’ulotga qanday munosabatda bo’lishdi? Mashg’ulotning turli bosqichlarida ularning hatti-harakati qanday o’zgarib turdi? Bu holatlarni siz o’zingizcha qanday tushuntirasiz?
4) O’qituvchi o’quvchilarga qanday munosabat bilan qaraydi? Bu munosabat haqida qanday ko’rsatkichlarga qarab fikr yuritish mumkin? Gapirish ohangi, yuz ifodasi, imo-ishorasi, mimikasi, o’quvchilar murojaat usuliga qarabmi?
5) O’qituvchi muloqot jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullaridan to’gri foydalana oldimi? Siz bu borada qanday takliflar kirita olasiz? Kuzatilgan mashg’ulotdan misollar keltiring.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: “Esse”, “Klaster”, “6x6x6”, “To’rtinchisi ortiqcha”, “Keystadi”. “Nima uchun”, “Charxpalak”, “Bumerang” ,“Galereya”.

ADABIYOTLAR: *A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.*

9- Mavzu: Pedagogik texnika (4 soat).

I. Pedagogik texnika (2 soat).

REJA:

1. “Pedagogik texnika” tushunchasining mohiyati. Pedagogik texnika vositalari.Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari.
2. O‘qituvchining alohida shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmasi. Pedagogik munosabat jarayonini va jamoa ijodiy ishini tashkil etish qobiliyati.
3. O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi mahorati. “Ijodiy holat”, “ijodkorlik” va “ijodiy yondashuv” tushunchalarining mohiyati. O‘qituvchining dars jarayonidagi va darsdan keyingi ijodiy holatini tashkil etish.
4. Pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish. Pedagogik tashkilotchilik faoliyatining mohiyati.
5. Tarbiyachilik mahoratining mohiyati. O‘qituvchining tarbiyaviy jarayonlarni tashxislash mahorati. O‘quvchilar shaxsini o‘rganish diagnostikasi. Yosh o‘qituvchi faoliyatida namoyon bo‘ladigan tipik xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.
6. Jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etish. O‘quvchilar jamoasida sog‘lom psixologik muhitni hosil qilish usullari.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Quyidagi munosabatlarni boshqarish uslublari bilan tanishing va siz qaysi birini yoqlaysiz? Javobingizni sharhlang.



1.Avtoritar uslub:

- o’zi yakka holda guruh faoliyatini yo'nalishini belgilaydi;
- o’zi ko'rsatma-buyruq beradi;
- javobgarlikni o'z bo'yniga oladi;
- so'zsiz bo'ysuninshni da'vo etadi;
- qattiq intizomni talab etadi;
- aytilgan narsani to'liq bajarilishini talab etadi;
- gap qaytarganni, gap o'rgatganni yoqtirmaydi. Aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi. So'zlari qattiq va qo'pol. Biron bir masalani tushuntirmaydi, lekin talab etadi;

- **muloqotga kirishishning asosiy shakllari**: buyruq, ko'rsatma berish, qo'llanma bilan ishlash, xayfsan e'lon qilish;
- muomalada qo'pol, dag'al, do'q-po'pisali majbur etish, qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi;
- avtoritar uslubning ijobiy tomoni favqulodda vaziyatlar ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinda). Munosabatning bu uslubda boshqarilishi atrofdagilar uchun qiyin yoki og'ir ahvol.

2. Demokratik uslub:

- jamoa fikriga tayanib ish olib boradi;
- jamoa fikrini, tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi;
- boshqalar fikrini o'ziniki qilib oladi;
- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos maslahat berish, samimiy muomala.

3.Liberal uslub:

- tashabbussiz, jamoa ishiga aralashmaydi, hamma masalalarni yuzaki qarab chiqadi. O'zining fikri yo'q, javobgarlikdan o'zini chetlatadi. Ish natijasi bilan qiziqmaydi;
- bolalarga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;
- o'z ishiga sovuqqon.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda quyidagi munosabat turlari ko'rsatilgan:

- hamkorlikdagi munosabat;
- bavosita munosabat;
- do'stona munosabat; \
- nosamimiy munosabat;
- oraliqdagi munosabat;
- bekorchi munosabat;
- qo'rquv orqali munosabat;
- dialog va monolog.

2. O'quvchilar shaxsini o'rganish diagnostikasiga oid fikrlarni davom ettiring:

O'quvchilar shaxsini o'rganish ko'p vaqt va kuch talab etadi, natijalari bilan esa barcha o'qituvchilarni tanishtirib borish zarur.O'quvchilarni o'rganishga boshqa o'quvchilar, yetakchilar va ota(onalar jalb etiladi. Shu bilan birga ularning har qaysi o'quvchi to'g'risida bilganlarini ham hisobga olish lozim. Bular o'quvchilarga tarbiya berish jarayonida ularga bir xilda talablar qo'yish va ularga bir xil muomala qilishga erishishga yordam beradi. O'quvchilarni o'rganish ularga individual endashishni zarur shartidir. Sinf rahbari o'z o'quvchilarini bilmasa, u o'quvchilarga endashishda, pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini tanlashda katta xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

3. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qiling:

1- Vaziyat.

Muqaddas Abdullayevna bilan u bilan tanishuvimdan bir oz oldinroq eshitdim. Maktab direktori ham, muovini ham uning to'g'risida juda iliq so'zlarni aytishdi. Mana men VI sinfda uning darsidaman.

Bolalarning tirishqoqligi, fikr-hayollarini bir joyga to'plab ola bilishliklari, nihoyatda faolliklari kishini hayratga soladi. O'qituvchining ko'pgina savollariga hammalari javob qaytarishga tayyor. Na ortiqcha harakat, na bir-biriga mo'ralab qarashlar va na qo'shnisi bilan shivirlashib gaplashishlar eshitiladi.Hamma butun fikr-e'tiborini bir yerga jamlab, bir yo'nalishga qaratgan.

Darsdan so'ng bolalardan ular Muqaddas Abdullayevnani va uning fanini sevishadi-mi-yo'q-mi, shuni so'radim.

- Muqaddas Abdullayevnani bizlar sevamiz-mi? Siz nima deyapsiz?
- Bizlar undan qo'rqamiz!- deyishdi oltinchi sinf bolalari bir ovozdan.

Men darhol bu gapga tushunmadim:

-Buni qanday tushunsa bo'ladi, - qo'rqamiz?

-Nimasi tushunarsiz ekan, - deyishdi bolalar, - biron ish sal boshqacharoq bo'ldi-mi, bas- darhol baqirishga tushibketadi, jerkib beradi yoki urishib tashlaydi!

- Ota-onalaringizga ham shikoyat qiladi-mi?

- Mana shuning uchun ham uning fanini o'lib-tirilib o'qib yotibmiz-da,- dedi bir o'g'il bola o'z noroziligini yashirmagan holda.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1.Oqituvchi mehnatining natijasini **siz qanday baholaysiz?**

2. Maktab rahbarlari o'qituvchi mahnatini baholashning qanay turidan foydalanishadi?

3. Bunday o'qituvchilarning ish metodini quvvatlash bilan maktab pedagoglar jamoasi o'quvchilar tarbiyasida qanday xatoga yo'l qo'yishad?

2- **Vaziyat.**

Quyidagi o'quvchilarning o'qituvchilarga nisbatan turlicha bildirishgan munosabatlarini tahlil qiling:

1. O'qituvchimizning zo'rlamasdan va baqirmasdan talab qila olishdek ajoyib xislati bor.
2. Biz uni qattiqqo'l va talabchan bo'lganligi uchun juda yaxshi ko'ramiz, u hamisha osoyishtalik va muloyimlik bilan talab qiladi, biroq, shunday ta'sir etadiki, unga quloq solmay ilojing yo'q.
3. Ximiya o'qituvchimiz hamisha xotirjam o'zini tutgan odam va shu xislati bilan butun sinfga qattiq ta'sir ko'rsatadi.
4. Biologiya o'qituvchisining obro'yini saqlamay ko'r-chi. Har qanday sharoitda ham u o'z obro'sining saqlanishiga erishadi.
5.O'zi yaxshi odam-u, lekin juda yumshoq-da, uni aldash xech gap emas.
6.Uning qanday odam ekanligini tushunib bo'lmaydi: bir qarasang qattiqqo'l, bir qarasang hech narsa talab qilmaydi.
7.Juda bo'shang: uni ko'rsang uyqung keladi.
8.Biz P.I ning ketganidan juda xursandmiz. U bizni baqirib-chaqirib, buyruq berishlar bilan qo'lga olmoqchi edi, ammo unga majburan chidayotganimizni bilmasdi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

Vaziyatlarni tahlil qilng.

1. O'qituvchilarning qay birining tutgan yo'lini ma'qullaysiz? Ayrimlarining bunday holatga tushib qolishiga nima sabab deb o'ylaysiz?

2. Sizningcha ideal o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Siz o'zingizni bo'lajak o'qituvchi sifatida qanday tasavvur qilasiz?

3-**Vaziyat.**

Darsda bir o'quvchi javob berayotgan edi. O'qituvchi yaxshi o'qiydigan bir o'quvchini partadoshi bilan gapirishib o'tirganini ko'rib qoldi va undan mavzuni kelgan joyidan davom ettirishni so'radi. O'quvchi to'liq javob berdi. Lekin o'qituvchi unga darsda gaplashib o'tirgani uchun «uch» baho qo'ydi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. O'qituvchi to'g'ri ish qildimi?
2. Siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

Yosh o'qituvchini IX V sinfga sinf rahbari etib tayinladilar. Bu ancha murakkab bo'lgan va yaqinda tashkil topgan sinf edi. Sinf jamoa bo'lib uyushmagan, o'quvchilar tarqoq edi. Sinf rahbari ularni sinf va maktab ishlarini bajarishga chorlash bilan uyushtirishga harakt qildi. Bunga kuzgi ekskursiya ham yordam berdi. Bu o'qituvchiga har bir bolaning qiziqishi va imkoniyatini bilishga sharoit yaratdi. Sinfda tashkil etilgan xar bir tadbir o'zaro sog'lom munosabatlarni o'rnatishga, yuqori sinf o'quvchilarining jamoadan talablarini qondirishga qaratilgan edi. Sinf o'quvchilaridan biri o'z inshosida shunday yozadi: «Men sinfga faqat o'qish uchun bormayman. Bu yerda mening doimo yordamga tayyor bo'lgan do'stlarim bor. Ilgari mening faqat ko'chada do'stlarim bor edi. Ular bilan juda ma`nisiz xayot kechirgan ekanman. Meni unday hayotdan sinfim olib chiqdi. Men go'zallikni qadrlashga, odamlarni sevishga, ularning mehriga ishonishga, o'z hatti-harakatim uchun javob berishga o'rgandim. Men sinfimga biror -bir ziyon etkazishdan xavotirlanaman».

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

2. Yosh o’qituvchi faoliyatini tahlil qiling. Ancha tarbiyasi murakkab bo’lgan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb uylaysiz?

NAZORAT SAVOLLARI (263 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. “Pedagogik texnika” tushunchasining mohiyatini ochib bering.
2. Pedagogik munosabat jarayonini va jamoa ijodiy ishini tashkil etish qobiliyati qanday namoyon bo’ladi?
3. Pedagogik tashkilotchilik faoliyatining mohiyatini ochib bering.
4. O‘quvchilar jamoasida sog‘lom psixologik muhitni hosil qilishga qanday erishish mumkin? Shular xususida qisqacha yozing
5. Yosh o‘qituvchi faoliyatida namoyon bo‘ladigan tipik xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.
6. **O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi o’quychi faoliyatini va tarbiyaviy jarayonlarni tashxislash mahorati bilan tanishish.**

“Xalq ta’limi”, “Uzluksiz ta’lim” va “Ilmiy xabarnoma” jurnallaridagi yoki istalgan matbuotda chop ettirilgan ushbu mavzu bo’yicha materiallarni o’rganing va ularni qiyosiy tahlil qiling hamda quyidagi savollarga javob yozing:

- O‘qituvchining pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvi qanday darajada namoyon bo’lgan?
- Siz to’plagan materiallarda yosh o‘qituvchi faoliyatida namoyon bo‘ladigan qanday tipik xatolar ko’rsatilgan va ularni bartaraf etishning qanday yo‘llari taysiya qilingan? Siz bunga yana qanday takliflar kirita olasiz?
- O‘quvchilar jamoasida sog‘lom psixologik muhitni hosil qilishning qanday usullari keltirilgan?

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: *“Esse”,“Klaster”,“6x6x6”, “To’rtinchisi ortiqcha” ,“Keystadi” “Nima uchun”, “Charxpalak”, “Bumerang” ,“Galereya”.*

ADABIYOTLAR:A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.

10- Mavzu: Pedagogik texnika.

II. Nutq tehnikasi

(2 soat).

REJA:

1. Nutqning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o’rni.
2. Nutq madaniyati haqida tushuncha.
3. Sharq mutafakkirlarining «Nutq madaniyati» haqidagi fikrlari.
4. Nutq texnikasi: o’qituvchi nutqining mantiqiyligi, grammatik jihatdan to’griligi.
5. Pedagogning nutqiga qo’yilgan talablar.Ovoz gigienasi.
6. O’qituvchining nutqiy mahoratini takomillashtirish yo’llari.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so'ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg'ulot davomida esa mavzu bo'yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Til- inson aqliy faoliyatining eng oliy vositasi sifatida.Ushbu ma'lumotlarga qo'shimcha kiriting.

Til inson aqliy faoliyatining eng oliy va asosiy vositalaridir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan til hisoblanadi. Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari tafakkur mevalari til va nutq orqali ro'yobga chiqadi. Til tafakkur mahsulilarining hayotga tadbiq etilishga vosita bo'luvchi qudratli quroldir.

Til millatning noyob xazinasi bo'lib, doimo og'zaki va yozma holda namoyon bo'lgan. Boy, yorqin, maroqli nutq, u kim bo'lishidan qat'iy nazar inson nuri hisoblangan

Mahoratli pedagog mavzusini o'qituvchilarga gapirib berishi bilan cheklanmay, uni jonlantirishi, badiiy yetuk shaklda uni talqin etishi lozim. Jonsiz quruq tekstni jonlantirib O'quvchilarga badiiy shaklda yetkazib berishda nutq a'zolari nafas va ovozning xizmatlari kattadir.

2. Sharq mutafakkirlarining «Nutq madaniyati» haqidagi fikrlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganing va sharhlang:

Buyuk allomalar A.R.Beruniy, A.N.Forobiy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, M.Qashg'ariy, Zamaxshariy, Sakkokiy tilga, lug'atga, grammatika va mantiqiyshunoslikka bag'ishlangan asarlar yozdilar.

Qadimgi sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri «Qobusnoma» da ham til va nutqqa alo?ida e'tibor berilganki ular hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ko'ramiz. Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari – notiqlikni a'lo, deb biladi. Bilginki, hamma hunardan so'z hunari yaxshi.

Asar muallifining farzandiga qilgan nasihatlari sifatida yozilgandir. U farzandi yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: « . . Yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z agar u yaxshi so'z bo'lsa, ham yomon ko'rinadi. «Kishi suhandon va notiq bo'lishi lozim».

Har bir notiq so'z nutqi ustida ko'p mashq qilishi, xalq oldida nutq so'zlaganda yoqimli va ba'mani gapirishi, xalqni e'tiborini qozonishi zarur. «Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so'z bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar, ... har kishining avvoli o'z so'zi ostida yashiringan bo'ladi».

Kaykovus notiq so'zning ma'nolarini har tomonlama o'rgangan bo'lishi kerak deb hisoblaydi. «Ey farzand so'zning yuz va orqa tomonini bilish, ularga rioya qilish, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanini bilmasang, qushga o'xshaysan, bunday qushni to'ti deydilar. Notiq xalq tilini, xalqning fikrnini, ruhiyatini bilishi kerak».

Shuning uchun ham kishi suhandon va notiq bo'lishini ta'kidlaydi. Muallif notiqlikni egallashning yo'lini tinimsiz mehnat va o'rganish deb uqtiradi.

A.Navoiy so'zga shunday baho bergan:

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

A.Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq nomaqbul bo'lib chiqsa, tilning "ofatidir".

Demak, til har qancha qudratli zo'r bo'lmasin, u nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til ўq bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham bog'liq.

Al-Xorazmiy«Mafotin – ul - umum» (Ilmlar kalitlari) asarida o'sha davr nutq madaniyatining ba'zi bir masalalari – devonxona ishqog'ozlari, ularning shakllari, ishlatiladigan istilohlar (terminlar) shuningdek adabiyotshunoslik fani terminlari, ularning ta'rifi haqida ma'lumot beradi.

Beruniy «Geodeziya» asarida fanlarning paydo bo'lishi va tarmoqlanib ko'payishi haqida soz yuritib, har bir fanning isnson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Inson nutqi o'z tuzilishi materialiga ko'ra rostni ham, yolg'onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko'plab munozaralarga sabab bo'ladi. Inson bu munozaralar jarayonida rostni yolg'ondan ajratadigan «mezon»ni yaratadi, bu mantiq fani edi.

3. Pedagogning nutqiga qo'yilgan talablar bilan tanishing:

O'qituvchining nutqi va kommunikativ (aloqa yo'li) xulqi.

O'qituvchining nutqi o'quvchilarning ta'lim-tarbiya talablarini bajarishi kerak.

O'qituvchi o'z nutqini mazmuniga va ta'sir etishiga javob berishi kerak.

Pedagogik nutq quyidagilarni ta'minlab berishi mumkin:

a) pedagog va o'quvchildar orasida o'zaro ta'sir etish va muloqotning natijaviyligi.

b) faoliyat mativlarini, tushunchalarini to'g'rilash va shakllantirish maqsadida o'qituvchi bolalarning tafakkuriga, his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir etish kerak.

v) ta'lim berish jarayonida bilimlarni to'liq tushunish va mustahkamlash, o'zlashtirib olish.

g) o'quvchilarning amliy va o'quv faoliyatini samarali tashkil etish.

4. Jadvaldagi ta'riflarni o'rganing va sharhlang:

№	O'qituvchi nutqi ta'sirchanligini oshirish yo'llari	
1.	*Anafora*	Har bir jumladan so'ng ayrim so'z yoki jumlalarni qayta-qayta ishlatish.
2.	*Gradasiya*	Gapdagi so'z yoki jumlalarning sifat o'zgarishiga ko'ra ketma-ket joylashtirishdir.
3.	*Inversiya*	Gap mazmuniga urg'u berish maqsadida so'zlarning odatiy joylashish tartibini o'zgartirish.
4.	*Intonatsiya*	Nutq ohangini mazmuniga ko'ra o'zgartirish.

5. Jadvaldagi ta'riflarni o'rganing va sharhlang:

№	O'qituvchi nutqining kommunikativ sifatlari	
1.	Nutqning to'g'riligi	Nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me'yorlariga to'la mosligi.
2.	Nutqning aniqligi	So'zlovchi yetkazmoqchi bo'lgan muayyan fikr tinglovchi tomonidan to'lasicha va aynan anglanishi.
3.	Nutqning antiqiyligi.	Nutqning tinglovchi tomonidan to'g'ri va to'liq anglanilishi uchun zaruriy bo'lgan sifatlar.
4.	Nutqning sofligi.	Nutqning asligi, boshqa keraksiz unsurlardan xoliligi, o'z mohiyatiga muvofiq toza tarkibga egaligi kabi me'yorlar.
5.	Nutqning boyligi.	Tilning bir-biridan faq qiladigan unsurlaridan qay darajada foydalanilganlik darajasi.
6.	Nutqning ifodaliligi.	Nutqning ta'sirchanligi.

6. **Jadvaldagi ta'riflarni o'rganing va sharhlang**:

№	Nutq samaradorligiga salbiy ta'sir etadigan holatlar
	O'qituvchi hikoyasi davomida bir xil so'zlardan tez-tez

1.	Sinonimlardan o'rinli foydalana bilmaslik.	foydalanishi nutqning noto'g'ri tuzilganligidan darak beradi. Bunday holat ko'pincha dialoglarni bayon etishda uchraydi. Masalan, «dedi», «aytdi» kabi kesimlardan tez-tez foydalanish holatlari uchraydi. Bu so'zlar o'rniga «fikr bildirdi», «ma'lum qildi», «aytdi», «so'radi», «javob berdi» kabi tarzdagi sinonimlardan foydalanish nutqni boyitadi va ta'sirchanligini oshiradi.
2.	Shevaga xos bo'lgan so'zlardan foydalanish.	Bu holat ham o'qituvchi faoliyatida uchraydigan asosiy kamchiliklardan biri bo'lib, bu o'quvchilarning nutqini oshirishga salbiy ta'sir etadi. O'qituvchi shevaga xos bo'lgan so'zlardan umuman foydalanmasligi lozim.
3.	Noo'rin so'zlarni tez-tez takrorlash.	Masalan, «xo'sh», «misol uchun», «aytaylik» kabi qator so'zlar o'qituvchilar nutqida ko'p uchraydi. Bu holat ham nutq samaradorligini kamaytirish bilan birga o'quvchilarni chalg'itadi. Ya'ni o'quvchilar beixtiyor o'qituvchi nutqidagi noo'rin so'zlarni hisoblash bilan mashg'ul bo'la boshlaydilar. Bu esa o'z-o'zidan ularni nutqning asosiy mazmunidan chalg'itadi.
4.	Tavtologiya – bir o'rinda bir xil ma'noli so'zlardan foydalanish	Masalan, «Bir xil ma'noli sinonim so'zlar». Bu o'rindagi sinonimlar – bir xil ma'noli so'zlarni ifodalaydi. Yoki «esdalik suvenirlar». «Suvenir» - so'zi esdalik sovg'a ma'nosini anglatadi. Bunday so'zlar o'quvchilarni so'zlarning asl ma'nosidan chalg'itishi mumkin.

Adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlarning asosiysi sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1) shevaga xos so'z, ibora, grammatik shakllar, urg'u va talaffuz;
2) o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari (varvarizmlar);
3) jargon va argolar;
4) dag'al, haqorat so'z va iboralar (vulgarizmlar);
5) «ishlamaydigan» yoki parazit so'zlar;
6) idoraviy so'z va iboralar (kanselyarizmlar) va sh .k.

7.Nutqning asosiy xususiyatlariga ta'rif bering:

Nutqning asosiy xususiyatlari

Nutqning to'g'riligi va ravonligi

Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi

Nutqning mantiqiyligi

Nutqning tozaligi va ifodaliligi

8. Ovoz gigienasi va bu boradagi ayrim maslahatlarni eslab qoling:

Doimo nutq bilan bog'liq bo'lgan kasb egalari orasida tovush organlarini kasallanishi juda ko'pdir. O'qituvchilar orasida bunda kasallaganlar 40,2% ni tashkil etadi.

Ovoz buzilishining sabablari xilma-xildir.

Asosan to’rttasi juda ko’p uchraydi:

- Har kuni ovozga beriladigan ortiqcha harakat (nagruzka);
- Ovozdan to’g’ri foydalanmaslik;
- Ovoz gigienasiga amal qilmaslik;
- Ovoz organilari kuchining tug’ma pastligi.
- Professional kasallikni oldin tovush gigienasi bilan shug’ullanish va shu joyida maktabda ba'zi sharoitlarga rioya qilish kerak. O’qituvchi har kungi ishdan so’ng 2-3 soatga uzoq gapirishdan o’zini tiyishi kerak. Shuning uchun bir qatorda o’qituvchilar nafas olish yo’li, nerv sistemasi, ovqatlanish tartibiga ham e'tibor berishi kerak. Juda ham sovuq yoki issiq, achchiq, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish: chekish og’iz bo’shligi va tovush organlariga salbiy ta'sir etadi.
- Og’iz bo’shlig’i va tovush organlarini ko’rib, salbiy ta'sirlanishning oldini olish uchun osh sodasi va yodni aralashtirib, hosil bo’lgan suyuqlik bilan og’izni vaqti-vaqti bilan chayib turish kerak.

Shu borada yana bir necha maslahat:

- bir ohangdagi nutq ovoz berish apparatlarini tez charchatadi, chunki bu vaqtda tovush organlaridan faqat bir guruh muskullar ishlaydi. Nutq qancha ifodali bo’lsa, ovoz shuncha sog’lom bo’ladi;
- bo’rning har kuni changini yutish zarali, shuning uchun doska artadigan mato bo’lishi kerak;
- darsdan so’ng o’qituvchi sovuq havoda tez yurib bo’lmaydi, chunki sovuq havo nafas olish va tovush organlariga salbiy ta'sir ko’rsatadi.

5. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qiling:

1-Vaziyat.

O’qituvchilar xonasida tarbiyasi qiyin bolaning ota-onasi bilan suhbat olib borilmoqda.Bola ko’p hollarda maktabga darslarni tayyorlamasdan keladi, qo’pollik qiladi va maktab intizomini mensimasdanbuzadi. Masalan dars paytida joyidan turib, indamasdan, hech kimdan so’ramasdan darsdan chiqib ketaverishi mumkin. Uning otasi fan doktori, padagogning gaplariga quyidagicha javob berdi:

-Tushunsangiz-chi, mening ishim juda ham mas’uliyatli ish. O’g’lim bilan shug’ullanishga mening hech ham vaqtim. Men uni maktabga yuboryapman-mi, binobarin uni sizlar tarbiyalangizlar! Bu sizlarning vazifalaringiz-ku axir!

Pedagog tarbiyani oila bilan maktab hamkorligida ish iolib borsagina va bunga otaning ishtiroki bo’lsagina muvaffaqiyatga erishish mumkinligini uqtirganda, u yana e’tiroz bildirdi:

-Nima ish qilish kerak bo’lsa, ya’ni menga bo’gliq bo’lgan ishlarning hammasini qilyapman. O’g’limning juda katta kutubxonasi bor. Uni bir necha marta Toshkentga olib bordim, muzeylarga kirdik…

Ota tarbiyadagi o’z ishtirokiga oid elementlarni uzoq sanadi. Bularni eng asosiysi. deb hisobladi, ammo o’g’lining hulqi haqidagi maktab pedagoglar jamoasi tomonidan bildirilayotgan tashvishli havotirlariga masxaraomuz qaradi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1.Vaziyatni tahlil qiling. Sinf rahbarining va otaning tutgan yo’lini baholang, ularning xulqidagi motivlarni aniqlang.

2.Bu sihbat paytida siz qanday yo’l tutar edingiz? Oz nuqtai nazaringizni ko’zlab qanday asos keltirishingiz mumkin?

2- Vaziyat.

Bir gazeta redaktsiyasiga VII sinf o’quvcnisining onasidan xat keldi:

“Hurmatli redaktsiya! Mening o’g’lim to’g’ri yo’l tutgan-tutmaganligini tushunib olishimda menga yordam bersangizlar. U VII sinfda o’qiydi. Yaqinda u maktabdan kelib geografiya darsida sodir bo’lgan bir hodisa haqida gapirib berdi. O ’qituvchi bir qizchani doskaga chiqaribdi va Yevropa daryolarining nomini doskaga yozishni undan so’rabdi. Qizcha alang-jalang qilib har tomonga va nomlarni kartadan ko’chirib yozibdi. O’qituvchi buni sezmabdi va :

-Juda yaxshi! Senga besh qo’yaman!- debdi.

Shunda mening o’g’lim qo’lini ko’tarib joyidan turibdi va qizcha nomlarning hammasini kartadan ko’chirib yozganligini aytibdi.

O’qituvchi qizchadan:

-Shu to’g’rimi?- deb so’rabdi.

U hech narsa demasdan boshini ham qilganicha jim turaveribdi. O’qituvchui uni aldashganlarini tushunibdi va beshning o’rniga ikki qo’yibdi.

O’g’limning bu gaplarini tinglab turdim, lekin uning bu ishda haq yoki nohaq ekanligi haqida nimagadir hech narsa demadim. Lekin har vaqt o’ylayman: u boshqacha yo’l tita olarmidi va boshqacha yo’l tutishi kerakmidi? Buni anglab olishda menga yordam bersangizlar”.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

4. Ana shu xatga asosli javob yozish sizga topshirilsa, nima deb javob bergan bo’lar edingiz?
5. O’qituvchinig o’rnida siz qanday ish tutgan bo’lar edingiz?
6. Shunga o’xshash voqeadan xabardor bo’lgan sinf rahbari o’rnida-chi? Javoblarning xarakteri o’quvchi yoshiga bo’g’liq-mi? Masalan, onaning savoliga (III sinf va VII sinf) o’quvchisi ko’rsatadigan reaktsiya bir hil bo’lishi mumkin-mi?

3-Vaziyat.

Dars boshlanishidan oldin o’qituvchi polda g’ijimlangan qog’oz parchasi yotganini ko’rib, bir o’quvchiga «qog’ozni ol», deb murojaat qildi. O’sha o’quvchi sekin partadan turib «men tashlamaganman, nega olarkanman» deb, yana joyiga o’tirdi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. O’qituvchi nima qilishi kerak?
2. Sinfning ta`sirlanishi qanday bo’ladi va bu nimaga bog’liq?

NAZORAT SAVOLLARI (265 bet).

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo’yicha konspekt tuzing:

1. Nutq inson hayoti va jamiyat taraqqiyotida tutgan o’rnini yorining.
2. Pedagogning nutqiga qo’yilgan talablar to’g’risida yozing.
3. SHarq mutafakkirlarining “Nutq madaniyati” haqidagi fikrlarini haqida qisqacha yozing.
4. O’qituvchi nutqining mantiqiyligi, grammatik jihatdan to’gri bo’lishining ahamiyati to’g’risida yozing.

5. O’qituvchining nutqiy mahoratini takomillashtirishning yo’llari.

“Xalq ta’limi”, “Uzluksiz ta’lim” va “Ilmiy xabarnoma” jurnallaridagi yoki istalgan matbuotda chop ettirilgan ushbu mavzu bo’yicha materiallarni o’rganing va ularni qiyosiy tahlil qiling hamda quyidagi savollarga javob yozing:

- O’qituvchi nutqining mantiqiyligi, grammatik jihatdan to’griligi dars jarayonida qanday ahamiyat kasb etadi?
- Siz to’plagan materiallarda o’qituvchining nutqiy mahoratini takomillashtirishning qaysi yo’llari ko’rsatilgan? Nutq mahoratini qanday qilib oshirish mumkin? Misollar bilan tushuntiring.

***Izoh** Mavzu bo’yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o’tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

TALABALARNI MASHG’ULOT BO’YICHA BAHOLASH MEZONLARI.

(Dars yakunida har bir talabaning mashg’ulot davomida to’plagan balli e’lon qilinadi).

QO’LLANILADIGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARI:“Esse”,“Klaster”,“6x6x6”, “To’rtinchisi ortiqcha” ,“Keystadi”. “Nima uchun”, “Charxpalak”, “Bumerang” ,“Galereya”.

ADABIYOTLAR: *A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.*

11- Mavzu: O‘qituvchi mahoratini takomillashrirish yo‘li va shart –sharoitlari.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashish va pedagogik tajriba to’plash.
(2 soat).

REJA:

1. Pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish. Pedagogik mehnatni tashkil etishda turli usullarni qo‘llashning ahamiyati.

2. Pedagogik faoliyatni rejalashtirishning asosiy qonuniyatlari. Vaqtdan unumli foydalanish, ish kunini to‘g‘ri tashkil qilish.

3. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlashning psixologik-pedagogik asoslariO‘z-o‘zini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

4. O‘z-o‘zini rivojlantirishning metod va vositalari. O‘z-o‘zini rivojlantirishda o‘z-o‘zini ishontirish metodidan foydalanish va bu jarayonda uchraydigan psixologik to‘siqlarni yengib o‘tish yo‘llari.

5. Pedagogik mahoratni takomillashtirish jarayonida pedagogik ijodkorlik va shaxsiy ilmiy-pedagogik izlanishni tashkil etish. Pedagogik ma’lumotlarni to‘g‘ri tanlay bilish mezonlari.

6. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va ularni umumlashtirish usullari. Ilmiy-pedagogik ma’lumotlarni to‘plashda hisoblash texnikasi va kompyuter xizmatidan foydalanish.

MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR:

(Dastlab, o’qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil tayyorlanish uchun berilgan topshiriq (uyga vazifa)lari, konspekt daftarlarining yuritilish holati tekshiriladi; so’ngra mavzu reja asosida muhokama qilinadi.Mashg’ulot davomida esa mavzu bo’yicha ularning nazariy bilimlari tekshirib boriladi.)

1. Quyidavi ta’riflarni o’rganing va sharhlang:

O'qituvchi o'z ustida ishlash, o'z-o'zini tarbiyalashda quyidagi uslublardan foydalanadi:

1. O'z-o'zini bilish:

a) o'zini kuzatish;
b) o'z harakatlarini taxlil etish;
v) o'z-o'zini sinash;
g) o'rtoqlarining fikrini tushuna olish.

2. O'ziga baho berish:

a) o'z-o'zini tanqid qilish;
b) o'ziga xarakteristika berish;
v) o'z-o'zini taqdirlash.

2. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish bo’yicha ma’lumotlarni to’ldiring.

I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” asarida ў?ituvchi me?natini yuksak ba?olab shunday deydi: “Ota-onalarimiz ?atori biz uchun eng ya?in bўlgan yana bir buyuk zod – ў?ituvchi va murabbiylarning olijanob me?natini ?urmat bilan tilga olamiz. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur so?iblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu masha??atli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga ўrnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati na?adar be?iyos ekanini yaxshi tasavvur ?ilamiz”.



3. Maktab o'qituvchilarining ilg'or tajribalarini o'rganishning taxminiy tarkibini o'rganing va sharhlang:

Pedagogik tajriba	**O'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilimi va ko'nikmalari yig'indisi.**
Ilg'or pedagogik tajriba	**o'qituvchining o'z pedagoglik vazifasiga ijodiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni.**
Pedagogik tajriba to'plash tizimi	**1. Maqsadni belgilash (nimani o'rganaman).** **2. Tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish.** **3. Yutuqlarni ariqlash.** **4. Ma'lumot to'plash.**
Nutq texnikasi va madaniyati	**a) dars davomida o'quvchilar bilan aloqaga kirishishda o'qituvchi nutqining ishlatilishini baholash;** **b) nutq texnikasini egallaganlik darajasi;** **v) o'qituvchi nutqining ifodaliligi va his-tuyg'uga boyligi.**
Professional pedagogik muloqot	**a) turli holatlarda turli va kutilmagan vaziyatlarda ham muloqotga kirisha olishi, muomala qila olishi;** **b) dars jarayonida o'z kuchi va tayyorligini hisobga ola bilish, o'zining ish uslubini va unga qo'yilgan talablarni bajara olishi;** **v) pedagogik nazokat va uni qo'llashni bila olish.**
Profeseional pedagogik ta'sir etish	**a) shaxsga ta'sir etishda tezlik bilan kerak bo'lgan uslublarni tanlay olishni va o'z vaqtida ishlata bilishi;** **b) o'rganish bo'lib qolgan ish tartibidan kechishni bilish;** **v) pedagogik ta'sir ko'rsatishda vaziyatlarni echishda kerakli bo'lgan mimika, pantomima va harakatlarni tanlay olish va o'z vaqtida ishlata olish.**
Konstruktiv qobiliyat	**a) o'quvchilar qobiliyati, qiziqishi, bilim darajasini hisobga olish, didaktik materiallardan ustalik bilai foydalanish;** **b) o'quvchilarni va sinfni eng yuqori, mukammal darajaga erishishi uchun kerakli usul va vositalarni tanlay olish;** **v) o'quvchilarning va jamoaning bilimliligi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olish;** **g) o'quvchilarning tashqi qiyofasi orqali ularni darsga bo'lgan munosabatlarini anglay olishi va kerakli bo'lgan**

vositalarni tanlay olishda ishlatiladi.

4.Quyida o‘qituvchi pedagogik tajribasini o‘rganish sxemasi bilan tanishing va fikringizni bildiring:

I. Maqsadni o‘rganish vazifalarini shakllantirish: dolzarb mavzularini aniqlash.

II.Pedagogik fanlar va ta’lim amaliyoti bilan bog‘liq masalalarni hal etishda mohir o‘qituvchilar erishgan natijalarni aniqlash.

III.Ilg‘or pedagogik tajriba to‘g‘risida faktik materiallarni to‘plash:

1. Bevosita:

a) o‘quv - tarbiya jarayonini kuzatish asosida;

b) mohir o‘qituvchi va ta’lim muassasasi rahbari bilan suhbat asosida;

d) maktab hujjatlarini o‘rganish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

2. Bevosita:

a) pedagogik adabiyotlarni o‘rganish;

b) mohir o‘qituvchilar ish tajribalari to‘g‘risidagi qo‘lyozma (doklad, uslubiy hujjatlar) materiallarni o‘rganish orqali;

d) o‘qituvchiga sirtqi uslubiy topshiriqlar (anketa, xat bilan murojaatlar) berish va javoblarini o‘rganish asosida;

e) tahlil, umumlashtirish, xulosa; o‘rganilgan tajribaning o‘ziga xos tomonlari; uning pedagogik tavsifi asoslanishi zarur.

5. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qiling:

1-Vaziyat. Toshkentdagi maktablarning birida ko’p yillar davomida boshlang’ich sinflarning hamma o’quvchilari, shu jumladan birinchi sing bolalari ham, uy ishi va sinfda bajariladigan barcha ishlarni o’qituvchiga topshirishdan avval dastlab o’zlari baholashlari kerak edi. O’qituvchi tekshirib, baho qo’ygandan keyin esa o’qituvchining bahosi bilan o’quvchining o’zi qo’ygan baho o’rtasidagi farq taqqoslanardi., bolalar nimaga asoslanib o’zlariga o’zlari bunday qo’yganliklari va qaysi ko’rsatkichlarga muvofiq o’qituvchi ishni bagolaganligining mohiyati aniqlanardi.

Har bir sinfda anchagina foiz bolaning o’ziga o’zi qoygan bahosi o’qituvchining ishga qo’ygan bahosiga mos kelmasligi birdaniga aniqlanardi.Bunday bolalar I sinfda – 60%, II sinfda 34%, III sinfda 28% ga yaqin bo’lib chiqdi. Bu bolalarning o’ziga-o’zi qo’ygan bahosi o’qituvchi qo’ygan bahodan yuqori bo’ldi.

Biroq, bolalarni o’z faoliyatining natijasini baholash shunga olib keldi-ki, o’rtadagi farqning soni oydan-oyga kamayib bordi. O’quv yilining oxiriga kelib o’z ishini noto’g’ri baholovchilarning soni I sinfda 18 %, II sinfda 14 %, III sinfda 8 % bo’ldi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

O’qituvchining bahosi bilan o’quvcining o’ziga o’zi qo’ygan bahosi o’rtasidagi farq nima uchun I sinfda juda katta bo’lib qichyapti.

Qo’yilgan baho va o’ziga-o’zi qo’ygan bahoning bir-biriga muvofiq kelishiga qat’iy turib harakat qilishi kerak-mi? Balik, bu narsalarning o’z-o’zidan sodir bo’lishini kutish maqsadga muvofiqdir, nega deganda sinfdan-sinfga o’tgan sayin ular o’rtasidagi farq ham yo’qola boradi-ku?

Qo’yilgan baho bilan o’z-o’ziga baho qo’yish o’rtasidagi tafovut o’qituvchiga ko’proq qaysi sinfda tashfish keltiradi: I sinfda-mi, yoki III sinfda-mi? Nega?

2-Vaziyat.Darsning holatini tahlil qiling.

Faqat erkaklar bilan majlislar zalini ko’rish kishiga kishiga qandaydir g’alati tuyulardi.Maktabda otalar konferentsiyasi o’tkazilayotgan edi. Meditsina institutining professori, psixiatr vrachning alkogolizm va u keltirib chiqaradigan illztlar haqidagi dalillarga boy suhbatini tinglab turib ba’zi kishilar o’ylab qoldilar.

Mana, o’qituvchi minbarga ko’tarildi. U hayajonlanganidan qizarib, I-IV sinf o’quvchilari “otalar haqida”gi inshoni qanday yozishganliklari to’g’risida gapirdi. O’qituvchi o’quvchilarning bolalarga xos soddadillik bilan yozganlarini birma-bir aytib bera boshladi hamda ularning hammasi ichkilikbozlik va oilani tashlab ketishlarini qattiq qoralashliklarini gapirdi. Katta zal jim-jit, unda

yolg'iz o'quvchiningina hayajonli ovozi jaranglab eshitilardi. Qo'qqisdan, o'rtadagi qatordan bir kishi o'rnidan turdi va:

-Kechirasiz, bolalarga insho uchun bunday mavzuni yozdirish va buning ustiga ularni ko'pchilikka o'qib berishamni odobsizlik deb hisoblamaysiz-mi?-dedi.

O'qituvchi dovdirab qoldi, ammo konferentsiyani olib borayotgan kishi ota-onalar komitetining raisi vaziyatni darhol tushunib, o'qituvchiga yordamga oshiqdi va gapga aralashdi:

-Bu yerda hech qanday odobsizlik bo'layotgani yo'q,-dedi u, -tushunsangiz-chi, biz sizlar uchun harakat qilyapmiz-ku, axir!

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. Vaziyatni tahlil qiling. Maktab pedagoglar jamoasi qanday vazifalarni ko'zlab otalar konferentsiyasini uyushtirgan edi?
2. O'qituvchi bu masalani yechishda bolalarning inshosiga qanday ahamiyat bergandi?
3. Siz o'qituvchining tutgan yo'lini qanday baholaysiz? Ota-onalar komitetini-chi?
4. Maktab rahbarlari bilan otalar o'rtasidagi ziddiyatning mohiati nimada?
5. Xushmuomalali va farosatli o'qituvchi agar bexosdan maktabda ana shunday hodisaning guvohi bo'lib qolgan taqdirda u qanday ish tutishi kerak?

3-Vaziyat.

2- sinfda har xil buyumlar: qalam ruchka, rezinka va boshqalar yuqola boshladi. Bir kuni bir qizchaning kattaroq banti yo'qoldi. O'qituvchi topilmalar byurosining faoliyati haqida gapirib berdi. Bolalar topib olingan narsalar qaytarib berilishi to'g'risidagi kattalardan eshitgan misollarni aytishdi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. O'qituvchi qanday tarbiya metodini qo'llagan?
2. Bu metodning samaradorligi nimalarga bog'liq?

3-Vaziyat.

Sinfda qator yillar davomida saylangan kat`iy «faollar» boshqarib, «passiv»lar unga bo'ysinib keldi. Lekin keyin ular bu holatga qarshi chiqa boshlashdi. Yangi sinf rahbari oldingi o'qituvchining xatosini to'g'rilash maqsadida kat`iy chora ko'rdi. Sinfda qayta saylov o'tkazilib, «faollar» o'rnini «passivlar» egalladi. Lekin bir-ikki haftadan so'ng saylov o'zini oqlamaganligi aniq bo'ldi. Yangi faollarning bir qismi o'z majburiyatini bajarishdan bosh tortsa, ikkinchi qismi kuch bilan tartib o'rnatishga harakat qilishdi. Sinfda yangi guruhlar tashkil topib, «passivlar» ikki barobar ortdi.

Pedagogik vaziyat yuzasidan savollar:

1. O'qituvchi qanday xatoga yo'l qo'ydi?
2. Bu vaziyatda qanday yo'l tutish kerak edi?
3. Qanday holda aktiv jamaoni jipslashtirishga yordam berardi?
4. Maktabda o'z-o'zini boshqarishning qanday xususiyatlari bor?

NAZORAT SAVOLLARI (265 bet).

TALABALARNI MASHG'ULOT BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI (275 bet).

(Dars yakunida har bir talabaning mashg'ulot davomida to'plagan balli e'lon qilinadi).

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN BERILGAN TOPSHIRIQLAR (UYGA VAZIFA):

Quyidagi masalalar bo'yicha konspekt tuzing:

1. Pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish to'g'risida yozing.
2. Pedagogik faoliyatni rejalashtirishning asosiy qonuniyatlarini yoriting.
3. Pedagogik ma'lumotlarni to'g'ri tanlay bilish mezonlariga ta'rif bering.
4. Ilmiy-pedagogik izlanishlar samarasini baholash mezonlari haqida yozing.
5. **Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirishning ayrim yo'lnalish va metodlari bilan tanishish.**

"Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim" va "Ilmiy xabarnoma" jurnallaridagi yoki istalgan matbuotda chop ettirilgan ushbu mavzu bo'yicha materiallarni o'rganing va ularni qiyosiy tahlil qiling

hamda quyidagi savollarga javob yozing:

- Ilg'or pedagogik tajribani qanday xususiyatlar belgilaydi?
- Maktabni kelajakda yanada takomillashtirishda ilg'or pedagogik tajriba qanday ahamiyat kasb etadi? Misollar bilan tushuntiring.

***Izoh** Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan topshiriqlar (uyga vazifa) ushbu mavzu o'tilmasidan oldin beriladi va talaba uni kelgusi darsga bajarib keladi.

***Qo'simcha izoh sifatida:** Mashg'ulotning yakunida talabalarga butun semestr davomida to'plagan ballari e'lon qilinadi. Ushbu mashg'ulot shu semestr uchun yakuniy mashg'ulot bo'lganligi sababli, asosan, joriy nazorat uchun yetarli ball to'play olmagan yoki to'plagan ballarini ko'tarmoqchi bo'lgan talabalarga ko'proq vaqt ajratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O'qituvchi bir mashg'ulotning o'zida guruhdagi barcha talabalarni baholashga imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Bunday holatda JN o'tkazilganda talaba dars mashg'ulotlari davomida kamida 3-4 marta baholangan bo'lishi kerak. Shunda, talabaning JN (og'zaki yoki yozma) topshiriqlarini bajarish holatiga qarab umumiy baho chiqariladi.

Semestr yakunida o'qituvchi talabalarni quyidagi mezon asosida baholaydi:

A'lo- 4,3-5ball. Qoniqarli-2,8-3,5ball

Yaxshi-3,6-4,2ball. Qoniqarsiz-0-2,7ball

QO'LLANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: "Esse","Klaster","6x6x6", "To'rtinchisi ortiqcha", "Keystadi", "Nima uchun", "Charxpalak", "Bumerang" ,"Galereya".

ADABIYOTLAR:A1, A2, A3, A42,Q1, Q4, Q5, Q6, Q7.

TAYANCH IBORALAR VA ULARNING LUG'AVIY MA'NOSI (GLOSSARIY):

Akademik litsey - o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Amaliy ishlar metodi – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish- korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Axloq (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-Harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong – shaxga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Baynalminallik («inter» – orasida, o'rtasida, aro, «natio» – xalq)– o'zga millat va elatlarning haq-Huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Baho – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Bilim olish – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish - ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.

Boshlang'ich ta'lim - o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Davlat ramzlari - muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat ta'lim standarti – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Dars - bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik – muayyan fan bo‘yicha ta’lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta’lim nazariyasi) – (yunoncha «didaktikos» “o‘rgatuvchi”, «didasko» – “o‘rganuvchi”) - ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolari)ni o‘rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang‘ich, dastlabki holati) –ta’limni tashkil etishga qo‘yilgan me’yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko‘rsatish.

Didaktik o‘yin – o‘rganilayotgan ob’ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimi.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma’nolarni anglatadi) - bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an’analari – jamoa a’zolari tomonidan birdek qo‘llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi - jamoa a’zolari o‘rtasidagi shaxslararo ma’naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashqil qiluvchi ayrim shaxslar o‘rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

Jamoaning rasmiy tuzilishi - turli ko‘rinishdagi jamoa faoliyatini yo‘lga qo‘yishning tashkiliy jihatlari.

Jinsiy tarbiya - o‘zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o‘rgatish, o‘z sog‘ligi uchun g‘amxo‘rlik qilish va mas’uliyatli bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya - o‘quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Joriy nazorat – ta’lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan o‘quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o‘zlashtirilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Idrok – aniq maqsadga yo‘naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha adapto - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o’quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlar, e’tiqod Hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘usi va irodasiga ta’sir ko’rsatish usullari.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli.

Ilmiy dunyoqarash - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea» - g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya.
Individ (lotincha “individium” bo‘linmas, yagona, alohida degan ma’nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.
Individuallik - shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari.
Institut - bilimlarning bitta soHasi doirasida aniq yo’nalishlar bo’yicha oliy va qoidaga ko’ra oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.
Iqtisodiy tarbiya - o’quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo’jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko’paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to’g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.
Iqtisodiy ta’lim - o’quvchilarga xo’jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo’jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko’paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to’g‘ri tashkil etish va hokazolar) to’g‘risidagi nazariy bilimlarni berishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.
Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik_xususiyatlar.
«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» - «Ta’lim to’g‘risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo’lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.
Kadrlar tayyorlash milliy modeli - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o’zaro hamkorligi, ular o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat;
Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;
Davlat Va Jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;
Uzluksiz Ta’lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo’lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko’rsatish muhitini o’z ichiga oladi;
Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;
Ishlab Chiqarish – kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta’minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Korreksiya (yunoncha «correctiio» - tuzatish) - pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to‘liq tuzatish.
Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha «defectus» – nuqson, kamchilik, «logos» – fan, ta’limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan.
Korreksion-pedagogik faoliyat - yaxlit ta’lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar - shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko‘ra umumiy pedagogik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari tizimi.
Ko‘nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi.
Ko‘rgazmali metodlar - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko‘rsatishda qo‘llaniluvchi usullar.
Litsey (kollejda) ma’ruza – o‘quv materialini o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og‘zaki bayon etish (80-90 minut), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (asosiy fikrni tezis yoki loyiha ko‘rinishida yozib olish) va boshqalar.
Loyihalashtirish (rejalashtirish) - o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.
Logopediya (yunoncha «logos» – so‘z, nazariya, ta’limot, «paideia» -tarbiyalash) - nutqiy nuqsonlarni o‘rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to‘liq tuzatish masalalarini o‘rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.
Magistratura - aniq mutaxassislik bo’yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta’lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’lim.
Madaniyat («cultura» so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimi.
Mazmun (ta’lim (bilim olish) mazmuni) – ta’lim jarayonida shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.
Maktabgacha ta’lim - bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlovchi, unda o’qishga intilish hissini uyg‘otuvchi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta’lim bosqichi.
Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.
Materialni og‘zaki bayon qilish metodlari – o‘quv materiali mohiyatini ozg‘aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma’ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo‘llaniluvchi usullar.
Mafkura (arabcha «mafkura» - naqtai nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksaklish, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar tizimi.
Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari-_muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.
Ma’lumot – ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.
Ma’naviyat (arabcha «ma’naviyat» - ma’nolar majmui) – mohiyatiga ko’ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o’tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui.
Ma’rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi Huquqiy me’yorlarni singdirish, ta’lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o’rganish, ularni targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.
Ma’ruza – yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish shakli.
Menejment – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta’sir o‘tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.
Metod - yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo‘li» kabi ma’nolarni anglatadi.
Metodika (fan sifatida)– xususiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.
Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli.
Nazorat (ta’lim jarayonida)– ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayoni.
Nafosat didi - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob’ektiv nafosat o‘lchovi.
Nafosat madaniyati - go‘zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go‘zalliklarni asrash va boyitish yo‘lida o‘zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichi.
Nafosat ongi - go’zallik, go’zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg‘usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.
Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya- lotincha «estezio» go’zallikni His qilaman) - o’quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go’zalliklarini anglash, idrok etish va to’g‘ri tushunishga o’rgatish, ularning badiiy didini o’stirish, ularda go’zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go’zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas’uliyat hamda o’zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.
Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo’lgan shaxslar) Hamda farzandlar o’rtasida turli yo’nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.
Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas’ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom etib tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.
Oligofreniya (yunoncha «olygos» – kam, «phren» - aql) - bu natal (tug‘ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.
Oliy ta’lim - o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat Hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo’nalishlari bo’yicha xalq xo’jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta’lim bosqichi.
Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim - jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta’lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o’quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad’yunktura va doktoranturada ta’lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta’lim bosqichi.
Oraliq nazorat – o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining muayyan bob yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.
Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo‘lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.
Pedagogika tarixi – ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.
Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob’ektiv va sub’ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.
Pedagogik mahorat – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.
Pedagogik paradigma (yunoncha «paradeigma» - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma’lum bosqichida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti)

sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami; ta'limning konseptual modeli.

Pedagogik talab - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik texnologiya_– ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Pedagog kadrlar tarkibi – o'qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatuvchi to'garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik mahorat – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muHim usuli.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan, ma'lum o'quvchilar guruhi.

Surdopedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar moHiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).

Tashhis –didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.
Ta’lim menejeri – ta’lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.
Ta’lim metodlari – ta’lim jarayonidaqo‘llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui.
Ta’lim muassasi Ustavi – ta’lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.
Ta’lim konsepsiyalari (lotin tilidan «conceptio» –tizim) – ta’lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim muassasalari faoliyati yo‘nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.
Ta’lim mazmuni – davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo’yicha o’zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.
Ta’lim maqsadi (o‘qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning aniq yo‘nalishini belgilab beruvchi yetakchi g‘oya.
Ta’lim natijasi (ta’lim mahsuli) – ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o‘quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.
Ta’limning sinf-dars tizimi - dars shaklida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan o‘quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo‘yicha olib boriladigan ta’lim jarayoni.
Ta’lim tizimi – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo‘lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta’lim muassasalari majmui.
Ta’lim shakli – ta’lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.
Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) - o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar (tarkibiy qismlar) o‘rtasidagi mustahkam birlik va o‘zaro yaxlitlik.
Tiflopedagogika - (yunoncha typhlos – ko‘r) – ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o‘rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.
Test - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.
Topshiriq - o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul.
Tushuntirish - o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.
To’garak - o’quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo’shimcha ta’lim shakli.
Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalarini o’rganadi.
Umumiy o’rta ta’lim - o’quvchilarning fan asoslari bo’yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o’zlashtirish eHtiyojini, asosiy o’quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, meHnat ko’nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muHitga ongli munosabatda bo’lishni va kasb tanlash ko’nikmalarini shakllantirish bosqichi.
Universitet - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo’yicha oliy va oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.
Usul - muayyan o‘quv materialini o‘zlashtirishda qo‘llanilayotgan asosiy ta’lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta’lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.
Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi.
Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan Hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo’lgan shaxs.
Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muHit muHofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muHit muHofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik tarbiya - o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik ta'lim - o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon.

Ekologik faoliyat - ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muHit muHofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

E'tiqod - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, Huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, Hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

Yakuniy nazorat – ta'lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o'quv materiallari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

O'z-o'zini baholash - mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari - o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullar.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish - o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash – shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

O'zlashtirish –ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O'rgatish - tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O'qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

O'qish – ma'lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o'rganish jarayoni; o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyati usullarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyat.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O‘quv rejasi – ta’lim muassasida o‘qitiladigan o‘quv fanlarining tartibi, ularning o‘quv yili bo‘yicha taqsimlanishi, har bir o‘quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o‘quv soatlari, shuningdek, o‘quv yili tuzilishini belgilovchi me’yoriy hujjat.
O‘quv fani – ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi manba.
O’quvchilar jamoasi – ijtimoiy-foydali aHamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o’quvchilar birlashmasi, guruhi.
O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishi - o‘quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.
O‘quv qo‘llanmasi – 1) ma’lum o‘quv fanlari bo‘yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o‘qituvchi yoki o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan manba;
2) muayyan fan bo‘yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo‘shimcha o‘quv materiallari.
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.
Hikoya – o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.
Hisobga olish – ta’limning muayyan davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.
Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o’zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko’rsatkichi.
Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e’tiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.
Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o’zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko’nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.
Huquqiy ta’lim - o’quvchilarga huquqiy me’yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to’g‘risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo’lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

“Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanidan joriy (og’zaki) nazorat savollari:

III Semestr uchun

O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim tizimi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli.

O’zbekistonda shakklangan ta’ lim tizimini isloh etish modeli.

1. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati mazmuni nimalarda o’z aksini topgan?
2. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati mazmunini aks ettiruvchi hujjatlari nimalardan iborat?
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qahon qabul qilingan?
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuning qahon qabul qilinishidan maqsad nima?
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qahon qabul qilingan?
6. Kadrlar tayyorlash milliy modeli nima?
7. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
8. Shaxsga- Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi sfatida ta’rif bering.
9. Davlat va jamiyatni- Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi sfatida ta’riflang.
10. Uzluksiz ta’limga- Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi sfatida ta’rif bering.
11. Fanni- Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi sfatida ta’riflang.
12. Ishlab chiqarishga- Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi sfatida ta’rif bering.
13. Respublika uzluksiz ta’lim tizimi nimalardan tashkil topgan?
14. Uzluksiz ta’lim turlari nimalardan iborat?
15. Maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
16. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
17. Kasb-hunar ta’limining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
18. Oliy ta’limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
19. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
20. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
21. Maktabdan tashqari ta’limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
22. Ta’lim muassasalarining qanday turlari bor va qanday faoliyat yuritadi?
23. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini aytib bering.
24. Zamonaviy sharoitda jahon ta’limida qanday muammolar uchraydi va uning yechimlari nimalardan iborat?

Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.
Pedagoglik kasbi va uning vazifalari.

1. Pedagoglik kasbining mohiyatini yoritib bering.
2. Pedagoglik kasbining paydo bo‘lishi va ravnaq topishi qanday tarzda kechgan?
3. Sharq mutafakkirlari pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyatini qanday baholaganlar?
4. G‘arb pedagoglari tomonidan pedagoglik kasbi ijtimoiy ahamiyatining baholanishi qanday namoyon bo’ladi?
5. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov o‘qituvchining ijtimoiy jamiyatdagi o‘rni haqida qanday fikrlar bildirgan?
6. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalari xodimlarining ijtimoiy himoyalanishi borasida qanday islohotlar olib borilmoqda?
7. O‘qituvchining burch va majburiyatlari nimalardan iborat?
8. O‘qituvchining kasbiy sifatlari nimalardan iborat?

9. O‘qituvchining pedagog odobi deganda nimani tushunasiz?
10. O‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi, bilan muloqoti.
11. O‘qituvchining ota-onalar bilan muloqoti qanday tarzda bo’ladi?
12. O‘qituvchining hamkasblari bilan muloqoti qanday ko’rinishda bo’ladi?
13. Pedagogik qobiliyat deganda nomani tushunasiz?
14. Pedagogik mahoratni egallashning qanday yo‘llari mavjud?
15. O‘qituvchining professiogrammasi deganda nimani tushunasiz?

Pedagogika fan sifatida. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari.
Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

1. “Pedagogika” so’zining ma’nosi nima?
2. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida jamiyat taraqqiyotida qanday o‘rin egallaydi?
3. Pedagogika fanining rivojlanish bosqichlarini aytib bering.
4. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari nimalardan iborat?
5. Tarbiya nima? Ta’rifini keltiring.
6. Ta’lim nima? Ta’rifini keltiring.
7. Ma’lumot nima? Ta’rifini keltiring.
8. Bilim nima? Ta’rifini keltiring.
9. Ko‘nikma nima? Ta’rifini keltiring.
10. Malaka nima? Ta’rifini keltiring.
11. Rivojlanish nima? Ta’rifini keltiring.
12. Fanning tarkibiy tuzilmasi nimalardan iborat?
13. Fanning tarmoqlari nimalardan iborat?
14. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi.
15. Pedagogik fanlar tizimi nimalardan iborat?
16. Pedagogik jarayonlarni tadqiq qilishning qanday ustuvor jihatlari bor?
17. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini sanab bering va ularning turkumlarini aytib bering.
18. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning mohiyatini ochib bering va ularning amaliy qiymatini aytib bering.
19. Nazariy tadqiqot metodlarining tavsifini aytib bering.
20. Adabiyotlar bilan ishlash metodini tushuntiring.
21. Ta’lim muassasasi hujjatlarini o‘rganish metodini tushuntiring.
22. Nazariy va qiyosiy tahlil metodini tushuntiring.
23. Qiyosiy-tarixiy tahlil metodini tushuntiring.
24. Ilg‘or tajribalarni o‘rganish metodini tavsiflang.
25. Tashxis nima? Ta’rifini keltiring.
26. Umumlashtirish nima? Ta’rifini keltiring.
27. Modellashtirish nima? Ta’rifini keltiring.
28. Amaliy tadqiqot metodlari tavsiflang.
29. Pedagogik kuzatish nima? Ta’rifini keltiring.
30. Pedagogik tajriba nima? Ta’rifini keltiring.
31. Anketa nima?
32. Ijtimoiy so‘rov nima?
33. Suhbat nima?
34. Intervyu nima?
35. Test so‘rovi nima?

36. Reyting nima?
37. Matematik-statistik tahlil nima?
38. Pedagogik tajribani tashkil etish shartlari nimalardan iborat?
39. Tadqiqot metodikasi deganda nimani tushunasiz?

Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.
O'quvchi shaxsi tarbiyaning ob'yekti va sub'yekti sifatida.

1. Pedagogik antropologiya nima?
1. 2."Individ" tushunchasiining mohiyatini ochib bering.
2. Individ va shaxsning o'ziga xos qanday jihatlari bor?
3. "Shaxs" tushunchalarining mohiyatini yoritib bering.
4. Shaxsning biologik va ijtimoiy rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?
5. Shaxs biologik va ijtimoiy rivojlanishining o'zaro uyg'unligi nimalarda aks etadi?
6. Bola shaxsiga – tarbiya ob'ekti va sub'ekti sifatida ta'rif bering.
7. Shaxs faoliyati deganda nimani tushunasiz?
8. Shaxs faoliyatining qanday turlari mavjud?
9. O'yin faoliyati shaxs kamolotida qanday rol o'unaydi?
10. O'qish faoliyati shaxs kamolotidagi roli.
11. Mehnat faoliyati shaxs kamolotida qanday rol o'unaydi?
12. Shaxsning yosh xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
13. Shaxsning psixologik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
14. Shaxsning shaxsiy xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
15. Yosh davrlari qanday davrlarni o'z ichiga oladi?
16. Yosh davrlariga xos fiziologik xususiyatlarni aytib bering.
17. Yosh davrlariga xos ijtimoiy xususiyatlarni aytib bering.
18. Shaxsning ijtimoiylashuvi deganda nimani tushunasiz?
19. Shaxsning ijtimoiylashuvida jamoa qanday o'rin tutadi?
20. Shaxsning ijtimoiylashuvida muhit qanday o'rin tutadi?
21. Shaxsning ijtimoiylashuvida ijtimoiy munosabatlarning o'rni qanday ahamiyat kasb etadi?

Yaxlit pedagogik jarayon.
Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.

1. Pedagogik jarayon tizim sifatida qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Yaxlit pedagogik jarayon haqida tushuncha bering.
3. Pedagogik jarayon qonuniyatlarini aytib bering.
4. Pedagogik jarayon bosqichlarini aytib bering.
5. Ta'lim va tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti nima?
6. Pedagogik jarayonni jadallashtirish deb nimaga aytiladi?
7. Yaxlit pedagogik jarayonni o'timallashtirish nima va uning asosiy shartlari nimalardan iborat?
8. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar nima?
9. « Pedago'gik tizim» tushunchasiga ta`rif bering.
10. Pedago'gik jarayonining alohida asosiy elimentlari nima?
11. Yaxlit pedagogik jarayonning ichki qonuniyatlari nima?

Didaktika - ta'lim nazariyasi sifatida. Ta'lim mazmuni.

Talim jarayonining umumiy mohiyati. II. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyati bilan tanishish asosida o’rta-maxsus,kasb-hunar ta’limi mazmunini ifodalash

1. Ta’lim nazariyasi (didaktika)ga – pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi sifatida ta’rif bering.
2. “Didaktika” tushunchasining mohiyatini yoritib bering.
3. Ta’lim nazariyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Asosiy didaktik tushunchalarni ayting.
5. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslarini ayting.
6. Ta’lim paradigma (model)lari deganda nimani tushunasiz?
7. Ta’lim jarayoni deganda nimani tushunasiz?
8. Ta’lim jarayonining metodologik asosi deganda nimani tushunasiz?
9. Ta’lim jarayonining tarkibiy tuzilmasi nimalardan iborat?
10. Ta’lim turlari nimalardan iborat?
11. An’anaviy ta’lim va uning muhim jihatlarini yoritib bering.
12. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deganda nimani tushunasiz?
13. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari nimalardan iborat?
14. Dasturiy ta’lim deganda nimani tushunasiz?
15. Modul ta’limi deganda nimani tushunasiz?
16. Innovatsion ta’lim deganda nimani tushunasiz?
17. Interfaol ta’lim deganda nimani tushunasiz?
18. Muammoli ta’lim deganda nimani tushunasiz?
19. Tabaqalashtirilgan ta’lim deganda nimani tushunasiz?
20. Rivojlantiruvchi ta’lim deganda nimani tushunasiz?
21. Masofaviy ta’lim. deganda nimani tushunasiz?
22. Individual ta’lim deganda nimani tushunasiz?
23. Mustaqil ta’lim deganda nimani tushunasiz?
24. O‘yin texnologiyalari nimalardan iborat?
25. Ta’limga – borliqni anglashning o‘ziga xos shakli sifatida bering.
26. O‘qitish nima? Ta’rifini keltiring.
27. O‘qish. nima? Ta’rifini keltiring.
28. O‘qitish va o‘qishning qanday o‘zaro aloqadorligi bor?
29. Sharq va G‘arb allomalarining gnoseologik (bilishga oid) qarashlarini ayting.
30. Abu Rayhon Beruniyning gnoseologik (bilishga oid) qarashlari ayting..
31. Abu Nasr Forobiyning gnoseologik (bilishga oid) qarashlarini ayting.
32. Abu Ali ibn Sinoninggnoseologik (bilishga oid) qarashlarini ayting.
33. Yusuf Xos Hojibning gnoseologik (bilishga oid) qarashlarini ayting.

34. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro aloqalari nimalarda aks etadi?

35. O‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, ular o‘rtasidagi birlikni tushuntiring.

36. O‘quvchilarning o‘quv faoliyati deganda nimani tushunasiz?

37. O‘quv faoliyatining tarkibiy tuzilishi nimalardan iborat?

38. O‘quvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyatlarini tushuntiring.

39. Bilimlarni o‘zlashtirish deganda nimani tushunasiz?

40. O‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarining hosil bo‘lish jarayonini tushuntiring.

41. Ta’lim qonuniyatlarini tushuntiring.

42. Ta’lim tamoyillarini tushuntiring.

43. Sharq mutafakkirlari ta’lim tamoyillari haqida qanday fikrlar bildirganlar?

Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyati bilan tanishish asosida o’rta-maxsus,kasb-hunar talimi mazmunini ifodalash.

1. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga – O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ta’rif bering.

2. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, ta’limining maqsadi nimalardan iborat?

3. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, ta’limining vazifalari nimalardan iborat?

4. Kasb-hunar ta’limining maqsadi nimalardan iborat?

5. Kasb-hunar ta’limining vazifalari. nimalardan iborat?

6. Kasb-hunar ta’limini tashkil etuvchi o‘quv muassasalar faoliyati nimalardan iborat?

7. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’limi faoliyati qanday tashkil etilgan?

8. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyati qanday tashkil etilgan?

9. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyatining qanday va umumiy hamda farqli jihatlari bor?

10. Umumiy o‘rta,o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni nimalardan iborat?

11. Umumiy o‘rta,o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv rejalari qanday tuzilgan?

12. Umumiy o‘rta,o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi umumiy va ixtisoslik fanlari bo‘yicha yaratilgan Davlat ta’lim standartlariga

13. Umumiy o‘rta,o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi umumiy va ixtisoslik fanlarining dasturlari.

14. Umumiy o‘rta,o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi darsliklari.

15. Umumiy o‘rta,o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv va metodik qo‘llanmalar

16. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining ustuvor tamoyillari.

17. Maktabda o‘qitiladigan o‘quv va ixtisoslik fanlari bo‘yicha Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish, hayotga tadbiq etish

18. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘qitiladigan o‘quv va ixtisoslik fanlari bo‘yicha Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish, hayotga tadbiq etish.

19. Maktab o‘quv rejasida ijtimoiy, gumanitar, matematika, tabiiy-ilmiy va maxsus fanlarning o‘zaro muvofiqligiga erishish

20. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o‘quv rejalarida ijtimoiy, gumanitar, matematika, tabiiy-ilmiy va maxsus fanlarning o‘zaro muvofiqligiga erishish.

21. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, ta’limi mazmunini yorituvchi darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratishga yangicha yondashuv.
22. Kasb-hunar ta’limi mazmunini yorituvchi darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratishga yangicha yondashuv.
23. Umumiy o‘rta, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilarida o‘quv dasturlaridan ijodiy foydalanish malakalarini hosil qilish.
24. Umumiy o‘rta, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilarida o‘quv darsliklaridan ijodiy foydalanish malakalarini hosil qilish.
25. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim maktablari o‘qituvchilarida o‘quv va metodik qo‘llanmalardan ijodiy foydalanish malakalarini hosil qilish.
26. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilarida o‘quv va metodik qo‘llanmalardan ijodiy foydalanish malakalarini hosil qilish. Ta’lim mazmuni deganda nima tushuniladi?
27. Ta’lim mazmunini belgilashda ekstensiv yondashuv deganda nimani tushunasiz?
28. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ta’lim mazmunini belgilashdagi imkoniyatlarini qanday baholaysiz?
29. O’qitish va ta’lim maqsadi nimadan iborat?
30. Umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmunini tanlab olish tamoyillarini ta’riflab bering.
31. Hozirgi bosqichda ta’lim mazmunini belgilash asosiy g`oyalarini (asoslarini) aytib bering.
32. O’quv rejalarining turlarini ayting, akademik litsey o’quv rejasini ta’riflab bering.
33. O’quv dasturlarining qanday turlari mavjud?

Ta’lim metodlari va vositalari.

Talim jarayonida zamonaviy metod va vositalardan foydalanish.

1. “Ta’lim metodlari” va “ta’lim usullari” tushunchalarining mohiyati.
2. Ta’lim metodlarining tasnifi.
3. Ta’lim metodlarini tasniflashga bo‘lgan turli yondashuvlar.
4. Ta’lim metodlarining asosiy turlari.
5. Og‘zaki metodlar.
6. Ko‘rgazmali metodlar.
7. Amaliy metodlar.
8. Shaxsni faollashtiruvchi metodlar va boshqalar.
9. Sharq mutafakkirlari ta’lim metodlari haqida.
10. Muhammad al-Xorazmiy, ta’lim metodlari haqida.
11. Abu Rayhon Beruniy, ta’lim metodlari haqida.
12. Abu Nasr Forobiy, ta’lim metodlari haqida.
13. Abu Ali ibn Sino ta’lim metodlari haqida.
14. Turli yoshdagi o‘quvchilar guruhlarida ta’lim metodlarini samarali qo‘llash shartlari.
15. Ta’limning zamonaviy vositalari.
16. Darsliklar.
17. Elektron darsliklar.
18. O‘quv qo‘llanmalar.
19. Metodik qo‘llanmalar.
20. Yordamchi manbalar.

21. Mashqlar to‘plamlari.
22. Atlaslar.
23. Ensiklopediyalar.
24. Lug‘atlar.
25. Xrestomatiyalar.
26. Ko‘rgazmali qurollar.
27. Texnik vositalar.
28. Laboratoriya jihozlari, asbob-uskunalar.
29. Ta’limning axborot vositalari.
30. Kompyuter.
31. Televizor.
32. Radio.
33. Magnitofon.
34. Llingofon.
35. Video qurilmalar .
36. Ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlari. «Ta’lim metodlari» va «ta’lim usullari» tushunchalari bir xil mazmunga egami?
37. Ta’lim usullari deganda nima tushuniladi?
38. Ta’lim metodlarini qo‘llashda qandaydir ko‘rsatmalarga rioya etish zarurmi?
39. Ta’lim metodlarini qo‘llashga doir ko‘rsatmalar nima deb ataladi?
40. Ta’lim metodi nima ?
41. Ta’lim vositalariga nimalar kiradi?
42. Ta’lim metodlarining tasnifi nima?
43. Ta’lim jarayonida, suhbat metodini qo’llashda nimalarga e’tibor qaratish zarur?
44. Og`zaki bayon metodlarining afzalliklari nimalarda ko’rinadi?
45. Ko’rgazmali metodlar turkumini nimalar tashkil etadi?
46. Amaliy metodlar mohiyati nimadan iborat?
47. Didaktik o’yinlar qanday maqsadda qo’llaniladi?

Ta’lim shakllari. Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli.

O’qituvchining darsga tayyorgarligi. Dars tahlili, uning turlari va vazifalari.

1. “Ta’limning tashkiliy shakllari” (“ta’lim shakllari”) tushunchasining mohiyati.
2. Ta’limning asosiy shakllari.
3. Ma’ruza- ta’limning asosiy shakli sifatida.
4. Seminar-- ta’limning asosiy shakli sifatida.
5. Amaliy mashg‘ulot, - ta’limning asosiy shakli sifatida.
6. Laboratoriya mashg‘uloti- ta’limning asosiy shakli sifatida.
7. Konsultatsiya (maslahat), ekskursiya - ta’limning asosiy shakli sifatida.
8. Praktikum. - ta’limning asosiy shakli sifatida.
9. O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga tayangan holda ta’lim shakllaridan foydalanish.
10. Ta’limni tashkil etishning an’anaviy shakli (sinf-dars tizimi).
11. Darsni tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talabalar.
12. Dars jarayonining tarkibiy tuzilmasi.
13. Dars turlari.
14. Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini ommaviy, guruhli va yakka tartibda tashkil etish.
15. Zamonaviy sharoitda darslarni takomillashtirish yo‘llari.

16. Ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakllari
17. O‘quv dialogi-ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
18. Uchrashuv -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
19. Konferensiya, davra suhbati -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
20. Matbuot konferensiyasi, bahs-munozara -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
21. Trening -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
22. Muzey darslari -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
23. Didaktik (ishbop va rolli) o‘yinlar -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
24. “O‘tkir zehnlilar klubi”, -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
25. Musobaqalar, auktsion, -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
26. “Mo‘’jizalar maydoni”, -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
27. “Tergovni bilimdonlar olib boradi”, -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
28. Kichik guruhlarda ishlash, -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
29. Juftlikda ishlash, -ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
30. Jamoa bo‘lib o‘quv topshiriqlarini bajarish-ta’limni tashkil etishning noa’anaviy shakli sifatida.
31. O‘quvchilarning uy vazifalari. Uy vazifalarining mazmuni.
32. O‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari.
33. Fan to‘garaklari-o‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakli sifatida.
34. Ilmiy jamiyatlar, -o‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakli sifatida.
35. Olimpiadalar, -o‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakli sifatida.
36. O‘quv kurslari, -o‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakli sifatida.
37. Fan haftaliklari, -o‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakli sifatida.
38. Bellashuvlar, -o‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakli sifatida.
39. Ko‘riklar, -o‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakli sifatida.
40. Viktorinalar, -o‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakli sifatida.
41. Ko‘rgazmalar. -o‘quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakli sifatida.
42. Turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlarining o‘zaro aloqadorligi. Zamonaviy ta’limning asosiy turlarini ta`riflab bering.
43. «Ta’limning tashkiliy tizimi» tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering.
44. Ta’limning individual shakli afzalliklari nimadan iborat?
45. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
46. Zamonaviy darsga qanday talablar qo’yiladi?
47. O’quvchilar bilish faoliyatining individual, guruhli, frontal shakllaridan foydalanib mutaxassislik fani bo’yicha dars rejasi va konspektini ishlab chiqing.
48. Har bir darsda o’quvchilar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish va baholash kerakmi? Agarda zarur deb hisoblasangiz mumkin bo’lgan metodik variantlarini ko’rsatib bering.

Ta’limni tashxis etish.

O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash jarayonini tashkil etish.

1. O‘quvchilar bilimini tashxis qilish didaktik tushuncha sifatida.
2. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilish.
3. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari.
4. O‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilishning an’anaviy (baho tizimi)) turlari.
5. O‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilishning zamonaviy (reyting nazorati) turlari.
6. Baho tizimi asosiy xususiyatlari.
7. Reyting nazoratining afzalliklari.
8. Reyting nazoratining tarkibiy tuzilmasi.
9. Oraliq nazorat.
10. Joriy nazorat.
11. Yakuniy nazorat.
12. O‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilish shakllari.
13. Imtihon-o‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilish shakli sifatida.
14. Sinov ishlari- o‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilish shakli sifatida.
15. Reyting nazorati- o‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilish shakli sifatida.
16. Test so‘rovi- o‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilish shakli sifatida.
17. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini hisobga olish.
18. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash.
19. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashga qo‘yiladigan talablar.
20. O‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari.
21. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash metodlari
22. Bilimlarni og‘zaki so‘rash metodlari.
23. Yozma ishlarni tekshirish metodlari.
24. Amaliy tajriba ishlarini tashkil etish metodlari
25. Bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy tekshirish metodlari.
26. Bilimlarni og‘zaki so‘rashning asosiy turlari.
27. Individual so‘rash.
28. Yoppasiga (frontal) so‘rash.
29. Kombinatsiyalashtirilgan (bir yo‘la bir necha o‘quvchidan) so‘rash.
30. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilish va baholashning amaliy ahamiyati.
31. Ta’lim olganlikni tashxis etish nima? Uning mohiyati haqida gapirib bering.
32. Ta’limni baholash yoki tekshirishdan tashxisning oprtasidagi farq nimalarda ko’rinadi?
33. Nazorat va tekshirish tushunchalarini izohlab bering.
34. Tekshirish tizimi qanday bo’g`inlardan tashkil topadi?
35. Nazorat tekshirishdan tashqari o’z ichiga qanday tushunchalarni oladi? Ular haqida ma’lumot bering.
36. O’quvchilarning o’zlashtirish natijalarini hisobga olishda nimalarga e’tibor berish lozim?
37. Ta’lim jarayonida nazorat qilish va hisobga olishning vazifalari nimalardan iborat?
38. Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillariga ta’rif bering?
39. O’quv faoliyati natijalarini nazorat qilishning qanday turlari mavjud.
40. Nazoratning shakllari haqida ayting
41. Opquvchilarfaoliyatini nazorat qilishning qanday metodlarini bilasiz? Ularning har biri haqida ma’lumot bering.
42. Reyting tizimi nima? U qanday afzalliklarga ega?

43. Qaysi sabablarga ko pra besh balli baholash mezoni o'zini oqlamadi?
44. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.

Pedagogika tarixi fan va o‘quv predmeti sifatida. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim -tarbiya va pedagogik fikrlar.

Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.

1. Eng qadimgi tarbiyaning kelib chiqishi.
2. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Qadimgi davlatlar: So‘g‘diyona, Baqtriya, Xorazm davlatlarida ta'lim-tarbiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
4. Xalq og‘zaki ijodida ta'lim-tarbiya mazmuni va usullarining ifodalanishi.
5. "Avesto"ning yaratilish tarixi, mundarijasi.
6. "Avesto"da ta'limiy-axloqiy masalalrning ifodalanishi.
7. O‘rxun-Enasoy obidalarining ta'limiy-tarbiyaviy mohiyati.
8. Mahmud Qoshg‘ariyning "Devoni lug‘atit turk" asarida ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar.

Hadis ilmining paydo bo‘lishi.

1. Hadis ilmining paydo bo‘lishi va mashhur muxaddislarning hadis ilmining yaratilishdagi xizmatlari.
2. Al-Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" va "As-sahih" asarlari hamda ularning mazmuni.
3. Hadislarning ta'lim-tarbiya uslublari. Imom at-Termiziyning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari.
4. Imom al-Buhoriy necha yosidan boshlab o'z asarlarini yozishni boshladi?
5. Hadislar qaysi xalifa farmoni bilan to'plandi?
6. Momin kishiga vafotidan keyin savobi tegib turadigan amali solihlar nechta? Ularni keltiring.
7. At-Termiziy asarlari nomini keltiring.
8. "Ilmning ofati unutishdir.Uni noahil kishilarga gapirish esa ilmni zoye qilishdir" hadisini sharhlab bering.
9. Hadis ilmining bugungi ta'lim-tarbiyadagi o'rnini ayting.
10. Hadislarga ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi axloqiy xislatlar ulug'lanadi.Qaysi shahvoniy odamlar va illatlar qoralanadi?

VII asrdan IX asrgacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiya to‘g‘risida.

1. Forobiyning ilmiy-falsafiy ta'limoti. Forobiy fanlar tasnifi haqida.
2. Forobiy aqliy tarbiya haqida.
3. Forobiy axloqiy, ijtimoiy, nafosat tarbiyasi haqida.
4. Forobiy ta'lim-tarbiya uslubi, shakl va usullari haqida.
5. Forobiyning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarini hozirgi davrdagi ahamiyati.
6. **Forobiyning ta'lim-tarbiyaga oid ta'limoti asosida qanday g‘oyalar yotadi?**
7. Forobiy ilmiy-pedagogik ta'limoti qanday ahamiyatga ega?
8. **Forobiy «Hikmat asoslari» (Fusus al-hakim) asarida insonni 5 sezgi a'zosi 5 turli vazifani bajarishi haqida yozadi. Ular qaysilar?**
9. **Farobiy yunon olimlaridan kimlarning asarlariga sharhlar yozgan?**
10. **Forobiyning pedagogik ta'limotlarini keltiring.**

Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida.

1. Ibn Sino asrlar qomusiy olimi.
2. Ibn Sino fanlar tasnifi to‘g‘risida.
3. Ibn Sino aqliy va jismoniy tarbiya haqida.
4. Abu Ali ibn Sino ta'limotida ta'lim va tarbiya usullari, shakl va metodlari.
5. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida.
6. Ibn Sino pedagogik qarashlarining hozirgi davrdagi ahamiyati.

7. Ibn Sino ta’lim- tarbiya haqida qanday fikrlar bildirgan?
8. Alloma qachon va qayerda tugilgan?
9. Uning fikricha oqituvchi qanday bolishi lozim?
10. Ibn Sinoning qaysi asarlarini bilasiz?
11. U fanlar tasnifi muammosini qay tarzda hal etgan?
12. Ibn Sinoning ahloqiy hislatlarga bergan tarifini keltiring.
13. Olimning ahloqqa bergan tarifini bilasizmi?
14. U dostlikni necha turga boladi, ular qaysilar?
15. Allomaning jismoniy tarbiya haqidagi fikrlari.
16. Ibn Sino aqliy va jismoniy tarbiya haqida o’zining qanday qimmatli fikrlarini bildirgan?

I X asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.

1. “Qutadg‘u bilig” asarining yaratilishi.
2. Asarning asosiy mazmuni.
3. Asarda ilgari surilgan aqliy, axloqiy, tarbiya masalalari.
4. “Qutadg‘u bilig” asarining ilmiy, ta’limiy-axloqiy ahamiyati.
5. Yusuf Xos Hojib yetuk inson tarbiyasi usullari haqida.
6. Axmad Yugnakiyning tarjimai holi.
7. “Hibbat ul-haqoyiq” asarining yaratilishi va tuzilishi.
8. “Hibbat ul-haqoyiq” asarida komil insonga xos axloqiy xislatlarning ifodalanishi.
9. Ahmad Yugnakiy va uning “Hibbat ul-haqoyiq” asarining pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o‘rni.
10. “Qutadg‘u bilig” qaysi asrda yaratilgan, unda qancha bayt va misralar bor?
11. “Qutadg‘u bilig”ning asosiy g’oyasi nima?
12. “Oquv qayda b’olsa, uluglik bolur, Bilim qayda bolsa, buyuklik bolur” baytini izohlang.
13. Shoir yurtni idora etuvchi va xalqni boshqaruvchilarni ikki toifaga bo’ladi, deb tushuntiradi.Bular kimlar?
14. Asarning tuzilishi va syujeti haqida tushuncha bering.
15. Tort qahramonning suhbatlari, munosabatlari asosida Yusuf Xos Hojib o’z maqsad va g’oyalarini bayon etadi. Bular kimlar?
16. Asarda yetuk insonni kamolga yetkazish masalalari qanday yoritilgan?
17. Olimning amaldorlar ahloqi haqidagi o’gitlarini keltiring?
18. Jismoniy kamoloy nima? Aqliy kamolot nima?
